



UDK: 41+413.13+4

Ziyodbek ABDULLAYEV,
Farg'ona davlat universiteti doktoranti PhD
E-mail: abdullaevziyod@gmail.com

ChDPI dotsenti, PhD Z.Sanaqulov taqrizi asosida

ANTHROPONYM WITH RELIGIOUS MOTIF IN UZBEK AND GERMAN LANGUAGES AND THEIR CONTRASTIVE STUDY

Annotation

This article is devoted to the contrastive analysis of anthroponyms with a religious motive in the Uzbek and German languages. It analyzes the personal names that served as a motive for religious views in both languages with the help of specific examples. Scientific analyses are carried out using comparative analysis of anthroponyms selected from onomastic scientific literature of the Uzbek and German languages, as well as from online etymological dictionaries of anthroponyms. The anthroponyms of the Uzbek language were formed under the influence of Islam, while the anthroponyms of the German language were enriched on the basis of names specific to the Christian religion and were formed under its influence. It was found that while the anthroponymic system of the Uzbek language is active in the name of a religious motive, the process of secularization is taking place in the German language in recent years.

Key words: Uzbek language, German language, Arabic language, motif, anthroponyms, religion, Islam, Christianity, name.

АНТРОПОНИМ С РЕЛИГИОЗНЫМ МОТИВОМ В УЗБЕКСКОМ И НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ И ИХ КОНТРАСТИВНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

Аннотация

Данная статья посвящена контрастивному анализу антропонимов с религиозным мотивом в узбекском и немецком языках. В ней анализируются личные имена, которые служили мотивом для религиозных взглядов в обоих языках на основе конкретных примеров. Научные анализы проводятся с помощью сопоставительного анализа антропонимов, выбранных из ономастической научной литературы узбекского и немецкого языков, а также из интернет-этимологических словарей антропонимов. Антропонимы узбекского языка сформированы под влиянием ислама, тогда как антропонимы немецкого языка обогащены именами, специфичными для христианской религии, и были сформированы под её влиянием. Установлено, что, в то время как антропонимическая система узбекского языка активно использует религиозные мотивы, в последние годы в немецком языке наблюдается процесс секуляризации.

Ключевые слова: Узбекский язык, немецкий язык, арабский язык, мотив, антропонимы, религия, ислам, христианство, имя.

O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA DINIY MOTIVLI ANTRAPONIMLAR VA ULARNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI

Annotatsiya

Mazkur maqola o'zbek va nemis tillarida diniy motivli antroponimlar chog'ishtirma tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda har ikki tildagi diniy qarashlar motiv sifatida xizmat qilgan shaxs nomlari aniq misollar yordamida tahlil etiladi. Ilmiy tahlillar o'zbek va nemis tillari onomastik ilmiy adabiyotlaridan, shuningdek onlayn antroponimlar etimologik lug'atlaridan tanlab olingan antroponimlarni chog'ishtirma qiyosiy tahlil etgan holda olib boriladi. O'zbek tili antroponimlari islom dini ta'siri ostida shakllangan bo'lsa, nemis tili antroponimlari xristian diniga xos nomlar asosida boyidi va uning ta'siri ostida shakllandi. Aniqlandiki, o'zbek tili antroponimik tizimida diniy motivli ismlar faollashgan bir paytda, nemis tilida so'nggi yillarda sekularizatsiya jarayoni kechmoqda.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, nemis tili, arab tili, motiv, antroponimlar, din, islom, xristian dini, ism.

Kirish. Din insoniyat jamiyati shakllanish bosqichlaridan boshlab uning hayotida, tarixiy rivojlanish bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etgan va diniy tasavvurlar unga ergashuvchi insonlar orasida kuchli ta'sir kuchiga ega. Shu sababli ham u ma'lum dinga ergashuvchi insonlarning hayot tarzi, mentaliteti, madaniyatida o'z aksini topadi. Shu asosida din va unga oid qarashlar o'sha dinga e'tiqod etuvchi xalqlar antroponimik tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Mazkur maqolada o'zbek va nemis antroponimik tizimi va bolaga nom berish an'analarga din va diniy tasavvurlar, aqidalarning qay tarzda ta'sir etishi va ularning nomlarda qay tarzda namoyon bo'lishi qiyosiy tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etiladi.

Diniy motivlar dunyo xalqlari antroponimik tizimlari shakllanish jarayonida muhim rol o'ynagan va bugungi kunda ham bolaga ism tanlashda diniy tasavvurlar din muhim hisoblangan xalqlarda ism tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda diniy qarashlar va ularning xalqlar antroponimik tizimiga ta'siri nemis limlari A.Bach, K.Kunze, D.Nübling kabilar tomonidan ilmiy o'rganilgan bo'lsa, o'zbek olimlaridan E.Begmatov, Z.Abdullaev, S.Kenjaeva kabilar tomonidan ilmiy o'rganilgan. Lekin o'zbek va nemis tillaridagi diniy motivli antroponimlar kontrastiv aspektida tahlilga tortilmagan. 1952-yil e'lon qilingan Deutsche Namenkunde nomli kitobida A.Bach nemis antroponimlari kelib chiqishi va shu bilan birga uning shakllanishida xristian dinining ta'siri, diniy ulomalar nomlari kirib kelishi bo'yicha ilmiy tahlil olib boradi [1]. K.Kunze esa qadimgi german antroponimlari va ularda diniy motivli nomlar ham mavjud bo'lganligini ta'kidlaydi [3]. Nübling v.b.lar esa Namen nomli risolalarida nemis tili antroponimik tizimiga xristian

dini ta'sirida asl nemis tiliga xos nomlar siqib chiqarilgani, muqaddas nomlar ism sifatida bolalarga berilganini qayt etadilar [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada o'zbek va nemis tillaridagi diniy motivli antroponimlar qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy tilshunoslik va tarixiy-lingvistik tahlil usullari tanlandi. Ushbu metodlar orqali ikki til antroponimik tizimida diniy motivli nomlarning shakllanishi va o'zgarishlari tadqiq etiladi.

Tahlil va natijalar. Mazkur maqola doirasida tahlilga tortilayotgan o'zbek va nemis antroponimik tizimlari shakllanishi davomida din va diniy tasavvurlar ta'siri katta bo'lgan. Nemis tilida mavjud antroponimlarning katta qismi qadimgi yahudiy va nasroniylik dini asosida shakllangan bo'lsa, o'zbek tili antroponimik tizimida esa islom va islomiy shaxs nomlari ustunlik qiladi. Milodiy sakkizinchi asrdan boshlab hozirgi Markaziy Osiyo hududida yashovchi xalqlar arablar bosqiniga uchrab, islom dini tarqala boshlagan davrdan boshlab avvaldan qo'llanilib kelgan turkiy antroponimlar qabul qilingan yangi dinning jamiyatda ommalashuvi ortidan siqib chiqarila boshlaydi. Aynan shu davrda Nikonov ta'kidlaganidek, arabcha shaxs nomlari bilan birga qadimgi yahudiy va grek tiliga oid antroponimlar kirib keladi [5]. Chet tildan kirib kelgan nomlar dastavval biror (diniy) unvon, boshqaruv faoliyati bilan shug'ullanuvchi mansabni ifodalovchi so'z sifatida qo'llanilib, vaqlar o'tishi bilan shaxs nomi sifatida vazifa bajara boshlaydi. Shuningdek, shaxs nomlari yuqoridan pastga tartibi asosida dastavval boshqaruv organlari yuqori qatlam-hukmdorlar, amaldorlar tomonidan ism sifatida tanlanadi va asta-sekin oddiy xalq orasida ham ommalasha boradi. Diniy motivli shaxs nomlari ommalashuvi jarayoni nemis tilida so'zlashuvchi xalqlar yashovchi xududlarda ham kuzatiladi. Aynan milodiy XII asrdan

german qabilalari orasida xristian dinining tarqalishi mazkur dinga oid ismlar ommalashuviga zamin yaratadi. Dastavval xuddi turkiy xalqlarni arablar bosib olishi va avval islomiy ismlarning aholining yuqori qatlamida o'zlashishi aynan nemis qabilalarida ham diniy ulomalar ismlari keng tarzda ism sifatida bolalarga berilishi kabi amalga oshadi. Nasroniy din ulomalari nomlarini farzandlariga berar ekan, ota-onalar farzandlari mazkur din peshvolari himoyasida bo'lishiga ishonishgan. Shuningdek, din peshvolari ular uchun namunali shaxs sifatida namoyon bo'lgan va ular ota-onalar uchun xudo bilan muloqotda vositachi sifatida qaralgan [4]. Muqaddas ism olgan bola va ushbu ism egasi bo'lgan xristian dini peshvosi

	Turkiy til shaxs nomlarining islomlashuvi	German/nemis tili shaxs nomlari
1	13.asrdan islomiy nomlar sonining oshishi	Xristianlikka oid diniy ismlarning 12.asrdan ommalashuvi
2	Din ulomalarining e'zozlanishi va ularning ismlarining farzandlarga berilishi	Din ulomalarining e'zozlanishi va ularning ismlarining farzandlarga berilishi
3	Dastavval shaharlarda amaldorlar yuqori qatlamli erkaklari orasida islom diniga oid ismlarning ommalashuvi	Dastavval shaharlarda amaldorlar yuqori qatlamida ayollar orasida xristianlikka oid ismlar tarqalishishi
4	O'z turkiy qatlam shaxs nomlarining qo'llanilish chastotasi pasayishi	German/nemis tili qatlam shaxs nomlarining qo'llanilish chastotasi pasayishi
5	Qabul qilingan o'zga til (arab va u orqali kirib kelgan boshqa til) dagi diniy motivli ismlarning oddiy aholi qatlamiga tushunarsizligi	Qabul qilingan o'zga til (lotincha/yahudiy-aramiycha) diniy motivli ismlarning oddiy aholi qatlamiga tushunarsizligi
6	Arabcha/Islomiy ismlarning o'zbek tiliga moslashuvi (qisqarish, tovush o'zgarishi orqali): Muhammad-Mamad/Mamat, Allohberdi, Obloberdi, Tangriberdi, Muhammadsharif - Mamasharif	Bibliyadan olingan ismlarning nemis tiliga moslashuvi: Johannes-Johann, John, Hans, Henne,; Margareta -Grete, Grieth, Rita; Katharina - Trine, Rina, Käte

Jadval 1: Diniy antroponimlarning turkiy (o'zbek) va german (nemis) tillari antroponimik tizimiga kirib kelishi va rivojlanish bosqichlari

Har ikki qiyoslanayotgan tillardagi diniy motivli antroponimlar semantikasi solishtirilganda ba'zi o'xshashliklar ko'zga tashlanadi. Islom dinida bolaga ism tanlanayotganda uning ismidagi yaratguvchi Allohga boy'sinish, qullik kabi attributlar inobatga olinishi tavsiya etiladi: Abdurahmat - mehr-shavqatli va muruvvatning quli, Abdumo'min - omonlik va najot beruvchining, ya'ni Allohning quli kabi. Aynan shu semantik ma'noli shaxs nomlari nemis tili antroponimik tizimida ham uchraydi: Gotteskalk - Knecht

Gottes 'xudoning xizmatkori/quli', Gotesthui - Magd Gottes 'xudoning xizmatkor joriyasi' kabi.

So'nggi o'n yilliklar va aynan sobiq sovet ittifoqi parchalangandan keyin uning tarkibida bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlarida islomiy ismlar yana ota-onalarning sevimli ismlari sifatida ommalasha bordi. Asia plus media guruhi tomonidan Markaziy Osiyo davlatlari Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston ma'sul idoralari bergan ma'lumotlar asosida 2023-yilda eng ko'p qo'yilgan ismlar e'lon qilindi [7]. Har to'rtala o'zaro qo'shni bo'lgan davlatlarda eng ko'p qo'yilgan erkak va ayol ismlari orasida islom dini va u bilan bog'liq holda arab tilidan o'zlashgan ismlar yetakchilik qiladi.

Davlat	O'g'il bolalar ismi	Qiz bolalar ismi
Tojikiston	Muxammad (ar.), Abduraxmon (ar.), Yusuf (qad.yah.), Umar (ar.), Ibroxim (qad.yah.), Abdullox (ar.), Somon (f.t.), Imron (ar.), Abubakr (ar.), Axmad (ar.)	Fotima (ar.), Sumaya (ar.), O'isha (ar.), Maryam (qad.yah.), Zaynab (ar.), Osiya (f.t.), Xadicha (ar.), Kibriyo (ar.), Amina (ar.), Safiya (ar.)
Qozog'iston	Alixan (ar.), Omar (ar.), Amir (ar.), Aldiyar (turkiy), Aysultan (qoz.), Alan (qoz.), Ali (ar.), Nurislam (ar.), Muxammad (ar.), Xanzha (ar.)	Medina (ar.), Aysha (ar.), Aylin (turk.), Asilim (ar.qoz.), Safiya (ar.), Tomiris (f.t.), Rayana (ar.), Amina (ar.), Ayala (qad.yah.), Ayim (qoz.)
Qirg'iziston	Muxammad (ar.), Umar (ar.), Ali (ar.), Amir (ar.), Alihan (ar.), Bilal (ar.), Alinur (ar.), Usman (ar.), Nurislam (ar.), Emir (ar.)	Salixa (ar.), Amina (ar.), Fatima (ar.), Aliya (ar.), Rayana (ar.), Safiya (ar.), Alfiya (ar.), Aylin (turk.), Aisha (ar.), Aruzat (ar.)
O'zbekiston	Muhammadali (ar.), Mustafu (ar.), Abdulloh (ar.), Muhammad (ar.), Muhammad Yusuf (ar. yah.), Muhammadamin (ar.), Nurmuhammad (ar.), Muhammadjon (ar.), Imronbek (ar.), Muhammadziyo (ar.)	Soliha (ar.), Yasmina (ar.), Muslima (ar.), Xadicha (ar.), Imona (ar.), Shukrona (ar.), Samaya (ar.), Ifora - (o'zb.), Sa'diya (ar.), Mubina (ar.)

Jadval 2: Markaziy Osiyo davlatlarida 2023-yilda eng ko'p qo'yilgan 10 ta erkak va ayol ismlari (Asia Plus media guruhi sayti ma'lumotlari asosida)

Adliya vazirligi tomonidan e'lon qilingan 2023-yilda O'zbekistonda eng ko'p qo'yilgan 10 ta o'g'il bolalar ismlarining barchasi arabcha va diniy motiv asosida tanlangan. 2023-yilda eng ko'p qo'yilgan qizlar ismlari ham asosan arab tilidan olingan va ayollar ismiga qo'shib, jins ifodalovchi -a/-ya bilan tugallanuvchi nomlar hisoblanadi. E'tibor qaratish kerak bo'lgan jihati shundaki, erkaklar ismi to'liq har o'nta ism arab tili asosida shakllangan bo'lsa, ayollar ismining o'ntadan to'qqiztasi arabcha diniy motivli ismlar bo'lib, faqat bittasigina (Ifora) o'zbek tiliga xos ism hisoblanadi. Aynan shu ism zamonaviy yangi berilayotgan ismlardan hisoblanib, E.Begmatovning "O'zbek ismlari ma'nosi" nomli ismlar kitobida keltirilmagan. Lekin Adliya vazirligi tomonidan taqdim etilayotgan elektron onlayn lug'atda esa keltirilgan [6]. Shuningdek, mazkur ism www.ismlar.com saytida ham o'zbek tiliga xos ism sifatida keltiriladi.

Yurgen Gerhards nemis ism berish tizimiga dinning ta'sirini tadqiq etgan va so'nggi yuz yillikda diniy ismlar salmog'i nemis tili

umumiy antroponimlari ichida kamayishini aniqlagan. Olimning aniqlashicha, 1894-yildan 1994-yil gacha bo'lgan davr oralig'ida diniy motivli ismlar 50 foizdan 32 foizgacha kamaygan. Bu holatni davlat boshqaruv tizimida, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida, insonlar shaxsiy hayotida dindan uzoqlashish - sekularizatsiya jarayoni amalga oshishi bilan izohlash mumkin.

Xulosa va takliflar. O'zbek va nemis diniy motivli antroponimlarining qiyosiy tahlili asosida xulosa qilish mumkin, so'nggi yilliklarda o'zbek antroponimik tizimida diniy ismlar qayta ommalashuvi va yangi islomiy ismlar kirib kelishi xos bo'lgani holda, ilk o'rta asrlardan xristian dini ta'siri ostida shakllangan nemis antroponimik tizimi hozirda sekularizatsiya - dindan uzoqlashish - jarayoni ostida rivojlanayotgani aniqlandi. Mazkur ilmiy maqolada erishilgan natijalar kelgusida antroponimlarni kontrastiv o'rganish va shuningdek, O'zbekistonda diniy motivli ismlarni statistik hamda empirik tadqiq etish va aynan qanday yangi ismlar kirib kelganini aniqlash bo'yicha olib boriladigan ishlarga asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

- Bach A. Deutsche Namenkunde: Die deutschen Personennamen. 2. - C. Winter, 1952. - T. 1. - №. 1.
- Gerhards J. Die Moderne und ihre Vornamen. - VS Verlag für Sozialwissenschaften, 2010., S.51.
- Kunze K. dtv-Atlas Namenkunde: Vor- und Familiennamen im deutschen Sprachgebiet. - München: Deutscher Taschenbuch Verlag, 2007
- Nübling D., Fahlbusch F., Heuser R. Namen: eine Einführung in die Onomastik. - Narr Francke Attempto Verlag, 2015., S.118.
- Никонов В. А. Узбеки // Системы личных имен у народов мира. —М.: Наука, 1989. — С. 312.

6. <https://adliya.uz/inner-page/ozbek-ismlarining-izohli-imlo-lug%CA%BBati>
7. <https://asiaplustj.info/ru/news/tajikistan/society/20240211/blagochestivaya-i-sluga-boga-kakie-imena-chatshe-vsego-dayut-detyam-v-tsentralnoi-azii>
8. <https://adliya.uz/inner-page/ozbek-ismlarining-izohli-imlo-lug%CA%BBati>
9. www.ismlar.com
10. <https://www.namenforschung.net/dfd/woerterbuch/liste/>



Dilfuzaxon ABDULLAYEVA,
Turon xalqaro universiteti o'qituvchisi

E-mail: shohbegim@list.ru

ADCHTI dotsenti, PhD Qozoqboyeva D.I. taqrizi ostida

HISTORICAL DEVELOPMENT OF ENGLISH LITERATURE

Annotation

This article is about the historical development of English literature. It is a rich and complex journey that spans over a thousand years, tracing the cultural, social, and linguistic evolution of England. From its early roots in the oral traditions of the Anglo-Saxons to the diversity of voices in the modern era, English literature has evolved alongside historical events, reflecting the changing values, beliefs, and identities of the people who shaped it.

Key words: English literature, Anglo-Saxon literature, Renaissance literature, Romanticism, Victorian literature, Modernism, Contemporary English literature, Literary history, Literary movements.

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация

Данная статья посвящена историческому развитию английской литературы. Это богатое и сложное путешествие, охватывающее более тысячи лет, прослеживающее культурную, социальную и языковую эволюцию Англии. Английская литература, от ее ранних корней в устных традициях англосаксов до разнообразия голосов в современную эпоху, развивалась вместе с историческими событиями, отражая меняющиеся ценности, убеждения и идентичности людей, которые ее формировали.

Ключевые слова: Английская литература, англосаксонская литература, литература эпохи Возрождения, романтизм, викторианская литература, модернизм, современная английская литература, история литературы, литературные направления.

INGLIZ ADABIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISHI

Аннотация

Ushbu maqola ingliz adabiyotining tarixiy rivojlanishi haqida. Bu Angliyaning madaniy, ijtimoiy va lingvistik evolyutsiyasini kuzatib boradigan ming yildan ortiq davom etadigan boy va murakkab sayohatdir. Ingliz adabiyoti anglo-sakslarning og'zaki ijodidagi dastlabki ildizlaridan tortib, zamonaviy davrdagi ovozlarning xilma-xilligigacha, tarixiy voqealar bilan bir qatorda rivojlanib, uni shakllantirgan xalqlarning o'zgaruvchan qadriyatlarini, e'tiqodlarini va o'ziga xosligini aks ettiradi.

Kalit so'zlar: Ingliz adabiyoti, anglo-sakson adabiyoti, Uyg'onish davri adabiyoti, romantizm, Viktoriya adabiyoti, modernizm, zamonaviy ingliz adabiyoti, adabiyot tarixi, adabiy harakatlar.

Introduction. The historical development of English literature traces the evolution of English language and literary styles from Old English origins to modern times. English literature is a rich and expansive body of work that reflects the evolving history, society, and values of English-speaking cultures. Spanning centuries, it has undergone significant transformations, each literary period introducing unique styles, themes, and influential works. From the epic tales of the Anglo-Saxon era to the fragmented narratives of Postmodernism, the evolution of English literature demonstrates how literary forms adapt to changing cultural and historical contexts.

Literature review. Michael Alexander's work "A History of English Literature" provides a readable and accessible overview of English literary history, emphasizing the cultural and historical contexts of each period, along with an exploration of major writers and works.

"The Oxford English Literary History" (13-volume series) edited by various scholars presents a detailed account of each literary period with separate volumes for the medieval, Renaissance, Victorian, and modern periods. Each volume includes historical background and analyses of the literary developments within that era.

"The Norton Anthology of English Literature" by M.H. Abrams and Stephen Greenblatt is a go-to source for English literary history. It contains introductory essays on each literary period, detailed biographical notes, and selections from influential texts across the ages, covering everything from the Anglo-Saxon period to modern literature.

The Cambridge History of English Literature" edited by various scholars includes essays on individual authors, movements, and genres across periods, providing a comprehensive literary and historical context. Terry Eagleton's work "Literary Theory: An Introduction" offers perspectives on critical theory and can help frame literary analysis across different historical periods, linking theory with the evolution of literature. Journal of English and Germanic Philology (JEGP) journal includes articles on medieval and Renaissance English

literature and literary history, offering insights into Old and Middle English literary traditions. ELH (English Literary History) is a respected journal publishing articles on English literary periods, critical theory, and textual analysis. Articles here will provide in-depth discussions and analyses of various periods, from Old English to Postmodernism. Modern Language Review and Studies in English Literature (SEL). Both journals publish extensive reviews and critical analyses of English literature across historical periods. Articles in SEL are organized by period and genre, making it easier to locate research specific to each era of English literature.

Research methodology. Each period reflects the cultural, social, and historical changes of its era, with influential works and authors shaping the English literary tradition. Major Periods in English Literary History

1. Old English (Anglo-Saxon) Period (450-1066), spanning approximately from 450 to 1066, was foundational for the English language and its literary tradition. This era includes works that are rich in themes of heroism, faith, and the struggle for survival, reflecting the culture and values of the Anglo-Saxons. Key texts from this period include Beowulf, an epic poem telling the story of a heroic warrior who battles monsters, and The Dream of the Rood, a devotional poem presenting the crucifixion of Christ from the perspective of the cross. These works use unique poetic techniques like alliteration, kenning (compound metaphors), and varied rhythms, giving Old English poetry a distinct sound and feel.

During this time, Old English itself was a complex language, with different dialects, cases, and verb forms compared to modern English. The language's structure allowed flexibility in word order, as inflections often indicated grammatical relationships. Although much of Old English vocabulary has since evolved or fallen out of use, several essential words—like "water," "earth," and "food"—still exist in English today, showing the language's deep roots in the Anglo-Saxon period.

2. Middle English Period (1066-1500) marks a transformative era in English literature, characterized by major linguistic, cultural, and literary shifts following the Norman Conquest of England. This period witnessed the blending of Anglo-Saxon traditions with Norman-French influences, creating a rich, evolving language and literature landscape that set the stage for future English literary developments.

During this time, feudalism and chivalric ideals shaped much of society and literature. Chivalric romance emerged as a popular genre, especially through the legends of King Arthur and the Knights of the Round Table. This genre, rooted in ideals of knighthood, honor, and courtly love, became a defining feature of Middle English literature and often included supernatural elements and heroic quests. Notable works include "Sir Gawain and the Green Knight", which highlights these themes in poetic form.

The Middle English Period thus laid crucial foundations for English literature, blending oral traditions, religious themes, and chivalric ideals into a unique literary legacy.

3. The Renaissance (1500-1660). In literature, the sonnet became popular, with poets like Shakespeare and Spenser innovating within the form. Drama also flourished, moving away from religious morality plays to more secular topics that examined human psychology, ambition, and morality, as seen in Shakespeare's tragedies and comedies. The English language itself evolved during this time, as writers expanded vocabulary and experimented with style and structure.

This period ultimately laid the groundwork for modern English literature by embracing classical influences, exploring new literary forms, and fostering a spirit of inquiry and expression that continues to inspire.

4. The Neoclassical Period (1660-1785) in English literature was marked by a return to the ideals of ancient Greece and Rome, focusing on reason, order, and clarity. Following the chaotic period of the English Civil War and the Puritan Commonwealth, the restoration of the monarchy under Charles II in 1660 ushered in a time of stability and cultural flourishing. The Neoclassical movement emphasized classical virtues such as harmony, restraint, and decorum, which were seen as necessary for both art and society. Writers of this period sought to emulate classical forms and ideas, applying reasoned analysis to human experience, and promoting moral lessons.

Key figures include poets like Alexander Pope and John Dryden, as well as playwrights such as William Congreve and Richard Sheridan. Pope's *The Rape of the Lock* and his *Essay on Criticism* epitomize the period's style, combining wit, satire, and a refined, formal language. Dryden's work, including *Absalom and Achitophel*, showed mastery in political and satirical writing, mirroring the period's focus on social commentary.

Prose also flourished, especially with writers like Jonathan Swift, whose *Gulliver's Travels* and *A Modest Proposal* offered sharp satirical commentary on politics, human nature, and societal norms. This period also saw the rise of the novel, with writers such as Daniel Defoe (*Robinson Crusoe*) and Samuel Richardson (*Pamela*) helping to define the modern form.

5. The Romantic Period (1785-1832) in English literature marked a significant shift away from the rationality and formality of the preceding Neoclassical era, embracing emotion, imagination, nature, and individualism. It was a reaction against the constraints of classical ideals, as well as the political and social changes brought about by the French Revolution, industrialization, and the expansion of democratic ideals.

The Romantic Period had a lasting influence on literature, art, and culture. It emphasized the emotional and imaginative potential of human beings, opening the door for later literary movements such as Symbolism and Modernism. The exploration of personal identity, nature, and the supernatural continued to resonate in the works of later writers, including the Victorians and the 20th century.

6. The Victorian Period (1837-1901) in English literature corresponds with the reign of Queen Victoria and is marked by significant social, political, and cultural changes. It is a time of industrialization, the expansion of the British Empire, and rapid technological progress, all of which had profound effects on literature.

The Victorian era's literary output was vast, and it deeply influenced future literary movements, including Modernism. The period's concern with social reform, its use of literary realism, and its deep exploration of human nature set the stage for much of the 20th century's literary advancements. The Victorian period's exploration of themes like progress, morality, industrialization, and human emotion made it one of the most dynamic and enduring in English literature.

7. The Modernist Period (1914-1945) in English literature was marked by radical experimentation and a break from traditional forms, prompted by the cultural shifts following World War I and the rapid changes of the early 20th century. Modernism represented a profound shift in literary expression, challenging readers with fragmented structures, stream-of-consciousness techniques, and themes of alienation, disillusionment, and the complexities of the subconscious.

Modernist writers broke away from linear storytelling and traditional narrative structures, often employing stream-of-consciousness (as seen in Virginia Woolf's *To the Lighthouse*) and fragmented narratives to reflect the fragmented nature of modern experience. Modernist literature often reflects characters' struggle to find purpose in a world perceived as chaotic and meaningless. Authors like F. Scott Fitzgerald in *The Great Gatsby* and Ernest Hemingway in *The Sun Also Rises* illustrate the "lost generation's" search for meaning and identity in a rapidly changing world.

8. The Postmodern Period (1945-present) has had a significant impact on literature, pushing boundaries and allowing for more experimental, playful, and fragmented forms. It challenges readers to engage critically with the text and question the very nature of narrative and truth. The movement has also influenced other media, including film, art, and philosophy, leaving a lasting legacy in its call to question established norms and embrace multiplicity and ambiguity.

Analysis and results. The evolution of English literature illustrates how artistic expression both adapts to and influences cultural shifts. From communal epic tales to complex personal narratives, literature has become a mirror to society, reflecting collective values and challenges while evolving in form and theme to capture the multifaceted nature of the human experience.

Shifts in literary form: each period introduced significant formal innovations. For instance, Chaucer's use of vernacular English, the Shakespearean sonnet, and Modernist stream-of-consciousness narration each marked milestones in literary form.

Social and Cultural Reflection: literature consistently mirrors its social and historical context. Victorian novels address the consequences of industrialization, while Postmodern works critique media saturation. This connection reveals how literature both shapes and responds to cultural changes.

Increasing Focus on the Individual: early literature often presented collective, heroic, or moral narratives, but from the Romantic period onward, there's an increased emphasis on individual experience and psychological depth. This evolution illustrates the progression of self-awareness and introspection in literature.

In the earliest periods, literature primarily served communal and religious functions. Works like *Beowulf* emphasized heroism and fate, while later texts like Geoffrey Chaucer's *The Canterbury Tales* shifted toward secular themes and humor. The Middle English period marks the beginning of a transition from an oral tradition to a written culture, with an increasing focus on individual stories within the social tapestry. The Renaissance introduced the humanistic and introspective dimensions of literature, as seen in Shakespeare's plays and sonnets, which brought nuanced psychological character studies. The Neoclassical period, on the other hand, emphasized rationality and decorum. Writers like Alexander Pope and Jonathan Swift used satire to critique society, reflecting Enlightenment values that championed reason and intellectual rigor. Romanticism shifted to prioritize emotion, nature, and individualism as reactions against Enlightenment ideals. This period, embodied by poets like Wordsworth and Byron, allowed literature to become a form of personal and emotional exploration. The Victorian period then re-centered literature on society and moral issues. Novels like Dickens' *Great Expectations* and Charlotte Brontë's *Jane Eyre* depicted the lives of the lower and middle classes, criticizing industrialization's harsh realities and exploring personal resilience and morality.

Conclusion. This overview is just the starting point, and each period offers further depth and complexity for those who wish to explore English literature's remarkable evolution. The journey of English literature reflects the shifting values, conflicts, and aspirations of society. From the oral traditions of the Anglo-Saxons to the experimental forms of Postmodernism, each period contributes to a complex, multifaceted literary heritage. Understanding these developments not only offers insight into past cultures but also highlights literature's enduring role in expressing the human experience across time.

LITERATURES

1. Hutcheon, Linda. *The Politics of Postmodernism*. Routledge, 1989. – Explores how postmodern works challenge traditional narratives and the concept of objective truth.
2. Jameson, Fredric. *Postmodernism, or, The Cultural Logic of Late Capitalism*. Duke University Press, 1991. – Discusses postmodernism's relationship to consumerism, technology, and culture.
3. McHale, Brian. *Postmodernist Fiction*. Routledge, 1987. – Analyzes the defining features and themes of postmodern fiction, including metafiction and intertextuality.
4. Barth, John. *Lost in the Funhouse*. Doubleday, 1968. – A collection of metafictional short stories exploring the nature of narrative itself.
5. Baudrillard, Jean. *Simulacra and Simulation*. University of Michigan Press, 1994. – Examines themes of hyperreality, a core concept in postmodern thought.



UDK:8'1751'8111'81'44

Shoxida ABDULLAYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, PhD
E-mail: shohi66@mail.ru

ChDPU dotsenti D.Otajanova taqrizi asosida

TARJIMA FAOLIYATINING LINGVISTIK NAZARIYALAR ASOSIDA SHAKLLANISH ZARURATI

Аннотация

Ushbu maqola tarjima faoliyatining shakllanishi va til nazariyasida tutgan o'rnini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda tarjimaning lingvistik nazariyasi asosida o'z metodologiyasini yaratgani va bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Tarjima faoliyati, lingvistik nazariya, asliyat matni, tarjima matni.

THE NECESSITY OF THE FORMATION OF TRANSLATION ACTIVITY BASED ON LINGUISTIC THEORIES

Annotation

This article is dedicated to the study of the development of translation activities and their role in language theory. It highlights how a methodology was created based on the linguistic theory of translation and emphasizes the significance of the research conducted in this field.

Key words: Translation activity, linguistic theory, original text, translated text.

НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕРЕВОДЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ

Аннотация

Данная статья посвящена изучению формирования переводческой деятельности и ее роли в теории языка. В статье раскрывается, как на основе лингвистической теории перевода была разработана собственная методология, а также подчеркивается значение проведенных исследований в этой области.

Ключевые слова: Переводческая деятельность, лингвистическая теория, оригинальный текст, переводной текст.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik o'rganadigan bir qator masalalar ichida tarjima yoki u bilan bog'liq jarayon tillararo nutqiy faoliyatning lingvistik jihatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Insoniyat tarixidan ma'lumki, qadimda yashagan odamlar tillari bir-biridan farq qilgan bo'lib, ushbu qabilalar o'rtasidagi muloqotni o'rnatishda ikki tilni o'zlashtirgan bilingvistlar yordam berishgani shundan dalolat beradiki, tarjima, shak-shubhasiz, inson faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, o'tmishdoyoq shakllangan. Keyinchalik, yozuvning paydo bo'lishi bilan og'zaki nutqni bir tildan ikkinchi tilga o'giruvchi tarjimon – tilmochlarning safiga turli tematikali, shuningdek, rasmiy, diniy, ish yuritishga oid yozma matnlarni o'giruvchi tarjimonlar ham qo'shildi. Demak, anglash mumkinki, tarjimaviy faoliyat jamiyatda eng muhim ijtimoiy vazifani bajaribgina qolmay, undagi tillararo muloqotni amalda joriy etdi. Ta'kidlash joizki, yozma tarjimaning taraqqiy etishi tarjima tili foydalanuvchilariga adabiyot va madaniyatning o'zaro ta'siri va bir-birini to'ldirib borishiga yordam bergan o'zga millat madaniy yutuqlarini o'z xalqiga tadbiiq etishga ko'mak berdi. Xorijiy tillarni bilish asliyat tilidagi asarlar bilan tanishish imkonini yaratadi, biroq, har bir odamda hech bo'lmaganda, bitta chet tilini mukammal o'zlashtirib, o'sha tilda kitoblar mutoala qilish qobiliyati bo'lmasligi mumkin. Tarjima amaliyoti vositasida Gomer, SHekspir, Dante va Gyote kabi yozuvchilarning shox asarlari tarjimalari bilan butun insoniyat tanishdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, tarjimon asliyat tili foydalanuvchilari xususidagi madaniy, tarixiy va til haqidagi bilimlarni mukammal egallasagina, tarjima matni ijtimoiy funksiyasini to'laqonli ifodalashi mumkin bo'ladi. Bunga T.Karleylning "O'tmish va bugun" asarini ingliz tilidan nemis tiliga o'giran tarjimonning quyidagi fikri dalil bo'la oladi, "agar tarjimon ingliz tilining o'ziga xosligi va u xususida chuqur bilimga ega bo'lmasa, inglizlar hayot tarziga urg'u beruvchi mubolag'ali ifodalarni anglolmay, anchagina xatolarga yo'l qo'yg'an bo'lar edi". Bundan anglashiladiki, asliyat tili xususidagi chuqur bilimga ega bo'lish bilan bir qatorda, tarjima tili va uslubiga yuqori talab qo'yiladi. Ushbu masalaga yangillik yaratish maqsadida ayrim tarjimonlik maktablarining terminlar, frazeologik birliklar, aforizmlar, ekspressif epitetlar va shu kabi tarjimasi qiyin bo'lgan asliyat tili unsurlarini o'girish borasidagi ko'pgina qiziqarli tavsiiya va takliflarni amaliyotga tadbiiq etilganligini kuzatish mumkin.

1950-yillarda shakllangan lingvistik tarjima nazariyasi o'z rivojlanish bosqichlarida har bir davrga mos bo'lgan lingvistik yo'nalishlar va nazariy konsepsiyalarni faol qo'llab kelgan. Tadqiqotchilar ishlarida qiyosiy va tipologik lingvistika,

N.Xomskiyning transformatsion grammatikasi, J.Firt va M.A. Xollideyning funksional nazariyasi, shuningdek, lingvistik pragmatika va kommunikatsiya nazariyasining tamoyillari aks etgan. So'nggi yillarda esa tarjima faoliyatining kognitiv va psixolingvistik jihatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

Taniqli olimlar A.A. Leontev, I.A. Zimnyaya, Z.D. Lvovskaya, Y.A. Sorokin, T.A. Kazakova, E.S. Petrova, V.I. Xayrullin, M.Y. Tsbilling, R. Bell, U. Eko, J. Dansett, J. Delil, D. Kirali va A. Noybert) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tarjima jarayoni avvalo evristik nutq va tafakkur faoliyati sifatida ko'rib chiqiladi. Bunda tarjimon til va mazmun transformatsiyasini ma'lum ijtimoiy-madaniy kontekstda amalga oshiradi. Bugungi kunda tarjima jarayonini chuqur o'rganish uchun eksperimental tadqiqot usullari, ayniqsa, psixolingvistik metodikalardan keng foydalanilmoqda. Ushbu yondashuvlar tarjima nazariyasida yangi istiqbollar ochib, tarjimaning nafaqat tilshunoslik, balki tafakkur jarayonlarining ham ajralmas qismi sifatida o'rganilishini ta'minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. An'anaviy nazariyalar doirasida tarjima jarayoni bosqichma-bosqich transformatsiya sifatida talqini, ya'ni bitta til matni boshqa tilga ko'chirilganida, ushbu jarayon mazmuniy yoki funksional ekvivalentlikka asoslanadi. Bunday yondashuvda ikki til birliklari o'rtasidagi ekvivalent munosabatlar til tizimining obyektiv jihatlariga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu yondashuv tarjima nazariyasining metodologik asoslarini chuqur qayta ko'rib chiqishga undab, uni yanada kengroq va ko'p qirrali jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Tarjima nazariyasining metodologik asoslarini qayta ko'rib chiqish zarurati, shuningdek, amaliy ehtiyojlar bilan ham bog'liq. Xususan, tarjima o'rgatishda ekvivalentlik, matnlarning bir xillik yoki o'xshashlik kabi an'anaviy tushunchalar asosida ish olib borish ko'pincha noto'g'ri tasavvurlarni shakllantiradi va xatolarga olib keladi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, tarjima qilinayotgan matnning tabiiylikdan uzoqligi yoki sun'iyliigi ana shunday noto'g'ri tushunchalarning oqibatidir.

Matnlarni o'girishdagi asosiy jihatiga kelsak, ular qurilishining tartibsizligi va madaniy ma'lumotlarning ko'pligi sabab, tarjimaning lingvistik nazariyasi ushbu birliklar tarjimaviy amaliyot uchun birmuncha qiyinchiliklar tug'dirsa-da, o'zining tarkibiy qismiga o'zlashtira olmaydi. Tarjima sohasining vazifalarini V.N.Komissarov tadqiqotlarida quyidagicha belgilagan:

1) tarjimaning umumiy lingvistik asoslarini izhlash va tavsiflash, ya'ni, til tizimining o'ziga xosligi va til voqelanish

qonuniyatları o'g'irish jarayonining asosini tashkil etib, uni amalga oshirilishi va chegaralarini aniqlab beradi;

2) tarjimani lingvistik tadqiqotlar obyekti sifatida aniqlash, uning til vositasida qurilgan boshqa tillararo aloqalardan farqini ko'rsatish;

3) tarjima faoliyati turlarini klassifikatsiyalovchi qonuniyatlarini ishlab chiqish;

4) ekvivalentlik mohiyatini asliyat va tarjima matnlarining kommunikativ tengligini ta'minlovchi asos sifatida ochib berish;

5) tillarga oid turli kombinatsiyalar tarjimasini uchun xususiy nazariyalarni yaratishga xizmat qiladigan tamoyillar ishlab chiqish;

6) asliyat matnidani tarjima matnini yaratish jarayonidagi faoliyatning umumiy ilmiy qonuniyatlarini dalillash;

7) pragmatik va sotsiolingvistik omillarni tarjima jarayoniga ta'sirini aniqlash;

8) tarjima meyor tushunchasiga aniqlik kiritish va tarjima sifatini baholovchi tamoyillarni yaratish [4].

Tarjima lingvistik nazariyasini rivojlantirishga bo'lgan harakat va urinishlar avtomatlashtirilgan tarjimani paydo bo'lishiga turki bo'ldi. Tarjimaning tilshunoslikka asoslangan ta'limotini ishlab chiqishga, uni mukammallashtirishga bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlar olib borildi [1].

Lingvistik kontekst til birliklarini amalda joriy etilishining referensial vazifasi hisoblanib, faqat nutqiy faoliyatdagina so'zlar tashqi olamdagi muayyan narsa va hodisalarni belgilash hamda anglatish xususiyatiga ega bo'ladi.

Muloqot lingvistik kontekstida polisemantik leksemalar ma'nolari farqlanib, ular ma'lum ma'noda cheklanadi. Fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida quyidagi leksik birliklar va ularning tarjimalariga murojaat etamiz:

cost – ingliz tilidagi so'zning bir necha ma'nolari mavjud bo'lib, ular: “baho, narx”, “harajatlar”, “necha pulga baholanganligi”, “narxini kelishmoq”, “narxini aniqlamoq”, “hisoblamoq”.

Ushbu so'zning berilgan barcha ma'nolarining turli kontekstlarda voqelanishi kuzatishimiz mumkin:

prime cost – asosiy harajat: Due to the relatively low prime cost, construction of walls of these blocks is too much cheaper than that of brick and even gas concrete blocks.

cost of war – urushning qadri: It's here, in the streets, squares and schools that he discovers the true cost of war.

count the cost – harajatlarni hisoblash: Now they are able to count the cost of credits and profitableness of bank deposits.

financial worries cost her many sleepless nights – Iqtisodiy tashvishlar uyqusiz tunlarga sabab bo'ldi;

that one mistake almost cost him his life – Bitta xato uning hayotiga zomin bo'ldi;

we'll get the plan costed before presenting it to the board – Biz rejani kengashga taqdim etishdan oldin yaxshilab shakllantiramiz.

Yuqorida keltirilgan so'z birikmalaridagi singari lingvistik kontekst – tarjimadagi leksemalarning tilga xos bo'lgan ma'nolari hamda o'zaro munosabatlarga asoslangan semantik ma'no ko'chishlarining voqelanishidir. Demak, tarjima matnini yaratishda lingvistik kontekstni hisobga olish o'rinli bo'lib, ko'p hollarda muqobil so'zning tanlanishini lingvistik qoidalar belgilaydi, masalan: ingliz tilidagi absorption so'zi account bilan birga qo'llanganda taqsimlovchi hisobraqam, of market birliklari bilan esa bozor hajmi ma'nolarini ifodalaydi. Sifat so'z turkimiga oid so'zlar bilan ot qo'llangandagi holatni kuztamiz: angry sifati look fe'li bilan

qo'llanilganda jahli chiqqan ko'rinmoq, “The town has a European look” gapidagi kabi European leksemasi bilan birgalikda ko'rinish ma'nolariga ega bo'lib, keyingi misollarga murojaat etamiz:

accomodate leksik birligi with loan birikmasi bilan ifodalanganda qarzga pul bermoq, masalan: I needed money, and they accommodated me with a loan.

new concepts so'zlari bilan o'z ichiga olmoq ma'nolarini anglatib, quyidagi gapda qo'llanishini ko'rishimiz mumkin: Any language must accommodate new concepts [8].

application for job – jumlasini ishga joylashish uchun hujjat topshirmoq ma'nosini aks ettiradi: Don't you send your application for a job to the manager of a company without ever having seen him? [9]

application of funds so'z birikmasi mablag'larni o'zlashtirish degan ma'noga ega bo'lib, gapda quyidagicha ifodalanadi: Budget expenditures have been reduced, the application of funds for National Projects falls behind the schedule.

Lingvistik kontekst yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uni ikkita asosiy turga, jumladan, leksik va sintaktik kontekstga ajratish mumkin. Ularning ushbu turlarga bo'linishi o'rinlidir, chunki so'zning gap qurilishidagi sintaktik jihati uning grammatik ma'nosi bilan belgilanadi.

Tarjima nazariyasining lingvistik yo'nalishi tarjimaviy faoliyat tabiatining o'zgaruvchanligi bilan bog'liq bo'lib, XX asrga kelib, axborot, iqtisodiyot, huquq, texnika va boshqa maxsus sohaga oid matnlar badiiy asar tarjimasidan farqli o'laroq hajmi va ijtimoiy ahamiyati jihatidan muhim o'rin egallay boshladi. Ta'kidlash joizki tarjimon uchun muallifning til unsurlaridan foydalanish usuli, ayniqsa uning o'ziga xosligi natijasida yaratilgan asliyat matnining badiiy va estetik xususiyatlarini tarjimada ochib berish anchayin mushkul vazifa edi. Bunday tarjimalarda til muammolari birinchi o'rinda turgan.

Xulosa va takliflar. Ta'kidlash joizki, tarjimaga lingvistik yondashgan holda barcha turdagi matnlarni qamrab olgan umumiy nazariyasi shakllandi. Unda tilshunoslikka oid to'plangan bilimlarni o'zlashtirish bilan birga ularga asoslangan holda tadqiqot obyekti hamda predmeti doimiy ravishda kengaytirib, yangi kontsepsiyalar yaratildi. Shu o'rinda V.N.Komissarovning quyidagi fikrini keltirib o'tish kerak: “tarjimada til muhim ahamiyat kasb etib, zamonaviy tarjimashunoslikda tarjimaning lingvistik nazariyasi yetakchi o'rinni egallaydi” [4]. Uning fikrini qo'llab quvvatlagan holda L.S.Barxudarov “tarjimaning lingvistik nazariyasi predmeti tarjima jarayonidagi tillararo transformatsiya, ya'ni, bir tildagi matnning muqobilini boshqa bir tilda qayta yaratish” [2], deya izohlaydi. Tarjimani lingvistik nazariyasining yaratilishi birinchi navbatda adabiy tarjimaning paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qildi. XX asrga kelib, maxsus tarjima o'rganila boshlangan bo'lib, zamonaviy tadqiqotlar asosida tarjima nazariyasining lingvistik yo'nalishi, bir so'z bilan aytganda tarjimaning lingvistik nazariyasi vujudga keldi.

Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar vazifasi tarjima jarayonini murakkablashtiruvchi ikkala tildagi bir-biriga o'xshash jihatlarini aniqlashdan iborat bo'ldi. Bu borada L.S.Barxudarovning fikr ko'ra “tarjima nazariyasi avvalo, asliyat va tarjima tillarida bir xil ma'no ifodalashda o'xshash hamda farqli jihatlarini dalillash, shu asnoda ushbu aloqalarni bartaraf etishning eng namunaviy usullarini aniqlash” zarurati mavjud. O'sha davr tarjimashunosligiga bildirilgan bunday munosabat mashina tarjimasini imkoniyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish va strukturaviy tilshunoslikning rivojlanishidagi muvaffaqiyatlar bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR

1. Алексеева И.С. Введение в переводоведение. – СПб., 2004.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. – М., 2008.
3. Виноградов В.С. Перевод: Общие и лексические вопросы. – М., 2004.
4. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Альянс, 2013. – 253 с.
5. Нелюбин Л.Л., Хухунин Г.Т. Наука о переводе: (История и теория с древнейших времен до наших дней). – М., 2006.
6. Нестерова Н.М. Текст и перевод в зеркале современных философских парадигм. – Пермь, 2005;
7. Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы): Для институтов и факультетов иностр. языков. Учебное пособие. – 5-е изд. – М.: ООО «Издательский дом «Филология Три», 2002. – 416 с.
8. <https://context.reverso.net/accomodate>
9. <https://context.reverso.net/application+for+a+job>



UDK:81'42:82-9:821.161.1

Диана АБДУРАМАНОВА,
PhD, Заведующая кафедрой теории и практики английского языка Чирчикского государственного педагогического университета
E-mail: diana1207saliyeva@gmail.com

Под редакцией PhD, профессора З. Курбановой

LINGUISTIC CATEGORIES OF INTERTEXTUALITY IN THE STYLISTICS OF D. EMETS' WORKS

Annotation

The article examines the linguistic aspects of D. Emets' literary style in the novel "Tanya Grotter" and their correlation with J.K. Rowling's Potteriana. The analysis is based on identifying the characteristic features of intertextuality and precedent phenomena in artistic texts, as well as their commonalities in the works of both authors.

Key words: Intertextuality, precedent phenomena, linguistics, category, intertext, idiolect.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ КАТЕГОРИИ ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ В СТИЛИСТИКЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ Д. ЕМЕЦА

Аннотация

В статье рассматриваются особенности лингвистических аспектов литературного стиля Емеца в романе «Таня Гроттер» и их соотносённость с поттерианой Дж.Роулинг. Анализ основан на принципе выделения характерных признаков интертекстуальности и прецедентности художественного текста, а также их общности в творчестве обоих писателей.

Ключевые слова: Интертекстуальность, прецедентность, лингвистика, категория, интертекст, идиостиль.

LINGVISTIK INTERMATNLIKARNING KATEGORIYALARI D. EMETS ASARLARI USLUBIYATIDA

Annotatsiya

Maqolada D. Emetsning "Tanya Grotter" romani uslubidagi lingvistik jihatlar o'ziga xos xususiyatlari va ularning J.K. Rowlingning potterianasiga aloqadorligi ko'rib chiqiladi. Tahlil badiiy matning intermatnlilik va precedentlik xususiyatlarini ajratish prinsipiga, shuningdek, ikkala yozuvchining ijodidagi umumiyliklarga asoslangan.

Kalit so'zlar: Intermatnlilik, precedentlik, lingvistika, kategoriya, intermatn, idiosstil.

В литературе, где размышляют о природе интертекстуальности, уже давно принято упоминать мысль Ю. Кристевой, которая особо выделила следующее: «Любой текст строится как мозаика цитаций, любой текст есть продукт впитывания и трансформации какого-либо другого текста»[1]. Тем не менее, трудность данного исследования, на сегодняшний день, заключается в том, что в понимании роли интертекста в формировании текста только набирает обороты «лингвистическая теория интертекстуальности», которая согласно заявлениям Н. С. Аксёновой, «не предложена исследователями»[2].

Dunyoni mifopoetik idrok etishga urinish davom etib kelayotgan har jihatdan sivilizatsiyalashgan bugungi asrda san'at va adabiyot sohasida olib borilayotgan bu boradagi yangicha izlanishlar ham zamon va insoniyatning intellektual salohiyatiga moslashmoqda. Adabiyot, jumladan, boshqa sohalarning ham bosh obyekt bo'lgan insonning aqli yuksak darajada takomillashgan bo'lishiga qaramasdan, mifologik tafakkurga intilish, ergashish ularning ongidagi borliqni anglashga urinish jarayonida paydo bo'layotgan ma'naviy bo'shliqni to'ldirishga urinish natijasi mahsulidir. Miflar yaratilishi insoniyatning borliq orqali o'z-o'zini anglashga qo'ygan ilk qadami edi. Tadriijiy sur'atda Yunonistonning turfa hududlarida vujudga kelgan mif-asotirlardan ilohlar, qahramonlarning taqdiri haqida turkumlar tashkil topgan. Yurma-yurt kezib qo'shiq kuylab yurgan ayedlar tomonidan ijro etilgan barcha qo'shiq va afsonalar keyinchalik zamonlar o'tishi bilan yozma adabiyot holiga kelgan. Milliy adabiy jarayonda o'z o'rni, ijodiy uslubiga ega Xurshid Do'stmuhammadning milliylikdan uzoqlashmagan holda yaratilgan asarlari badiiy-falsafiy nuqtai nazardan mag'zi pishiq asarlar sirasidandir. Hatto bugungi rivojlangan dunyoda sodir bo'layotgan voqelik va hodisotlar tub mohiyatining ildizlarini, sabab va oqibatlarini, o'rni kelganda, yechimni ham

mifologik olamdan izlash odamzod ongini tark etgani yo'q, aksincha, yangicha shakllarda tus olib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Istiqloq yillarida ijod qilayotgan zamonaviy adabiy jarayon vakillari orasida ham goh G'arb mifologiyasi, goh Sharq mifologiyasiga ergashib asarlar yaratayotgan yozuvchilarning mifopoetik tafakkur borasida olib borayotgan izlanishlari e'tiborga loyiqdir. Xususan, Omon Muxtor, A.Dilmurod, N.Eshonqul, I.Sultonlar bilan bir zamonda qalam tebratib, eski (arxaik) mifologik modellar asosida yangi mif-asarlar yaratayotgan adib Xurshid Do'stmuhammadning mashhur "Donishmand Sizif" neomifologik romanidan tashqari, "Bozor" romani hamda "Jajman" hikoyasi o'zbek milliy adabiyotida Sharq an'analari va mifologiyasiga ergashib yaratilgan nodir asarlar sirasidandir. Bu ijodkor yaratgan asarlarda o'tgan asrda taqiiqlangan, ilohiy talqinlar, mifologik syujet hamda folklor namunalarning real voqelik bilan parallel tasvirlanishi kabi yo'nalishlar ko'zga tashlana boshladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada mifologik obrazlarning genezisi, badiiyat masalasini tadqiq qilishda qiyosiy tarixiy, qiyosiy-tipologik, analitik tahlil usullaridan foydalanildi.

Adib ijodida salmog'i jihatdan qissaga tatiydigan "Jajman" hikoyasi ham munosib o'rin egallaydi, xususan, adabiyotshunos G.Sattrova hikoyadagi yozuvchining voqeiylikni badiiy aks ettirishdagi obrazlar talqini uslub haqida to'xtalar ekan, undagi badiiy obrazlar qanday holatda tasvir etilmasin, ularda milliy karakter yetakchilik qilishini o'rinli ta'kidlaydi.

Adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonovning bu davr haqida bildirgan quyidagi fikrlari aynan "Bozor" romanining tub mohiyatini anglashga turk bo'ladi.

"Yangi asr boshida jamiyatdagi fan va texnika sohasida ro'y berayotgan kashfiyotlar, o'zgarishlar inson tafakkuri taraqqiyotiga, uning tez o'sishi va yangilanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Turmush tarzining bozor munosabatlariga o'tishi odamlarning iqtisodiy tafakkurini butunlay o'zgartirib yubordi. U bu talato'p hayotda ilojini qilib yashab qolish, turmush farovonligini oshirish maqsadida hech ikkilanmay o'zini o'tga, cho'qqa ura boshladi. Dastlab bu urinishlarning oqibatini o'ylab ham o'tirmadi, bugun topsam yesam bo'ldi deb o'yladi. Keyinroq esa bugungi topganiga qanoat qilmay, yana-da xavfliroq, yana-da murakkabroq, yanada mashaqqatliroq o'pqnolarga o'zini otdi".

2000-yilda nashr etilgan "Bozor" romani haqida, birinchilardan bo'lib, jiddiy fikr bildirgan adabiyotshunos olim Umarali Normatov asarga "O'tgan kunlar" bilan boshlangan XX as romanchiligining munosib yakuni deya baho beradi. Romanning

paydo bo'lishi va qo'yilgan muammo butun dunyoda, jumladan, O'zbekistonda ham sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Muallif butun jamiyat tasvirini qamrab olish uchun epik turning keng imkoniyatiga ega bo'lgan janrini tanlaydi. "Istiqloq davriga kelib, roman janri o'zining tarixiy tajribalariga tayanib, buyuk Sharq adabiyotining badiiy va falsafiy an'alarini ijodiy davom etirdi, bayon va tasvirlash usullarida jiddiy ijodiy tajribalarni amalga oshirdi. Natijada, so'nggi yillar romanlari voqealar tizimining kutilmagan tasodiflarga boyligi, miqlar, afsona va rivoyatlardan unumli hamda o'rinni foydalana bilishi, ma'daniy-ma'rifiy, diniy-ma'naviy qadriyatlarimizning barhayotligini isbotlovchi tasavvufiy qarashlarni singdirishga urinishim bilan e'tiborni tortmoqda", deya yozadi Y.Solijonov.

Tahlil va natijalar. X.Do'stmuhammadning "Bozor" romanda bir qancha mifologik modellarga duch kelish mumkin. Xususan, Odam Ato va Momo Havvo hamda ular haqidagi mif-asotirlar, ishoralar shuningdek Qadriyaning tilidan aytilgan "Qo'sh baytal va yetti bo'ri yulduzlari" haqidagi samoviy mif ham keltiriladi. Dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, aslida, odamzotning hirsllari, nafsi oqibatida ekanligini mif orqali anglatishga urinadi. Romanda yana ko'chib yuruvchi mifologik motiv obrazlar ham mavjud bo'lib, bular Zarbobo, Von-Suu hamda notanish odam (Azroil) obrazlaridir.

Bundan tashqari, hayot modelini badiiy talqin qilish uchun majoziy-falsafiy tasvir tamoyillariga, xususan, Sharq mifologik obrazlariga tayanagan X.Do'stmuhammad bozor orqali hayotning ramziy shaklini tasvirladi, deyishimiz mumkin. Bozor – barchamizga tanish bo'lgan savdogar va xaridorlar, makr, xiyla, aldov bilan to'lib toshgan, odamlarni ming tusga, ming ko'ya soladigan izdihom tasvirini o'z ichiga oladi. Romanda bir qancha mifologik modellarga duch kelish mumkin. Bular orasida eng ko'p uchraydigan Sharq adabiy-badiiy an'alariga xos bo'lgan diniy mifologiyalar va obrazlaridir.

Shuningdek, romanda Odam Ato muhabbati, mehr va shafqati timsolida Fozilbek va Qadriyaning sof va samimiy munosabatlari, ruhiy evrilishlari, harakat-intilishlari izohlanadi. Mazkur talqinda dunyoni muhabbat va go'zallik asrashi mumkinligi, inson o'z fe'lidagi yovuzliklarni bartaraf qilib, haqiqiy tuyg'ular bilan yashamog'i kerak, degan g'oya ifodalangan. Ilohiy va eng sof insoniy tuyg'ular – yovuzlik kushandasi bo'lishi mumkinligi mifologiya va ilohiy motiv asosida asoslangan.

Roman davomida bir necha o'rinda Odam Ato va Momo havvo ilohiy mif obrazlariga Fozilbek va Qadriyaxonlarning taqdiriga parallel holda murojaat qilinadi. "Fozilbek bir ko'ngli shartta ortiga o'girilib, qiz tomon yugurib borgisi, odamlardan uyalmay-netmay uni bag'riga bosib erkalagisi keldi. Keldi-yu... Havvo aytdi: "Mani tilar ersang, sen kelgil" dedi. Odam Ato yurib Havvoga keldi. Magar Odam bir dam sabr qilsa erdi, Havvoning o'zi kelur erdi." Odam bir dam sabr qilsa edi. andak sabr qilganida. Odamlardagi sabrsizlik, betoqatlik o'shandan boshlangan. Hamonki hazrati Odam Ato shunday ekanlar, demak. biz osiy bandalarda ne gunoh? "Fozilbek xayolidan o'tgan ushbu o'ylarda Odam Ato va Momo Havvoning yer yuzidagi uch yuz yillik ayriqliqdan so'ng, hozirda Arofat deya nomlangan tog'dagi ilk uchrashganlari haqidagi rivoyatga ishora qilinadi. Mazkur rivoyatlarning ba'zi variantlarida Ular Arofat tog'ida bir-birlarini ko'rishganida Odam Ato Momo Havvoni o'zlari tomonga imlaganlarida, Havvo momomiz ham Odam Atodan kam bo'lmagan darajada sog'inch azobida o'rtanayotgan bo'lsalar-da noz-karashma bilan, to'xtagan joylaridan jilmaydilar, so'nggi hijron daqiqalariga sabr qila olmagani Odam (a.s.) shu zahoti o'zlari Havvoning visoliga oshiqadilar. Ayol tomonga doimo erkak kishining intilishi Odam Atodan qolgan deya naql qilinadi mif-rivoyatlarda. Mifologik rivoyat, ayni o'rinda, Odam Ato va Fozilbek obrazlarini yonma-yon qo'yib, tasvirlanayotgan voqelikning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan, shuningdek, Fozilbekning ruhiy holati, barchaga birdek tushunarli bo'lishini ta'minlagan. Mazkur rivoyatga ishora qilish orqali, yozuvchi Fozilbekdagi sog'inch hissining haddan ortgani va bu sababdan Qadriya tomon talpinib, uni quchoq'iga olishga intilayotganidagi shoshqaloq istaklarning oqibatini Odam (a.s.) bilan bog'lab, Qahramonning ichki kechinmalarini xolislik bilan baholashga urinadi.

Romanda, shuningdek, Qadriyaning tilidan aytilgan "qo'sh baytal va yetti bo'ri yulduzlari" haqidagi astmomik mif-asotir ham keltiriladi.

Romanda yana ko'chib yuruvchi mifologik motiv obrazlar ham mavjud bo'lib, bular Zarbobo, Von-Suu hamda notanish odam (Azroil) obrazlaridir. Roamndagi noreal voqeliklar, asosan, shu obrazlar bilan bog'liq holda sodir bo'ladi. Zarbobo obrazi, dastavval,

Avestoda uchragan zardushtiylik dinining yakka xudosi Zardusht mif-obrazini eslatadi.

"Bobo esa... Endi u bir nuqtaga turgan ko'yi gir-gir aylana boshladi, tinmasdan nimalardir dedi, lekin aytganlarini ilg'ab bo'lmadi, tobora tezroq aylanaverdi, aylanish tezlashgani sayin boboning ko'ksiga tushadigan oppoq, qalin soqoli bamisoli zilol suv girdobiga o'xshab ketdi. Bobo aylanishdan to'xtamadi, aksincha, shiddatni yanayam oshirdi, suv girdobidan nur tarala boshladi. Fozilbekning nazarida bobo hozir yerga yuztuban yiqiladigan edi, ikki xatlab borib, uni mahkam quchoqlab olishdan o'zga chora qolmadi, biroq... charx urib aylanayotgan nur girdobidan taralayotgan shu'la quyuqlashib, tevarak atrofini yanayam yorishtirib yubordi".

Mazkur obrazning tabiati, harakatlari, zikr tushishi, tasavvuf ahlining, rumiyona – samoviy raqsini eslatadi. Zar bobo obrazining purma'no gap-so'zlaridan kelib chiqib, aynan mifologik Zardusht obrazidan ilhomlanib yaratilgan deyishimiz mumkin. Shuningdek, mif va asotirlarda doimiy uchrovchi motiv obraz – donishmand chol sifatida talqin qilinganida ham mifologik obraz sifatida bo'y ko'rsataveradi. Romanda Zar bobo obrazi qalb ko'zi ochiq, dunyoga maftun bo'lmagan, dunyo moliga ko'ngil qo'ymagan, tiriklikning mohiyatini anglab yetgan, sodir bo'layotgan ko'ngilsizliklarning sababini ham, allaqachon, bilib bo'lgan obraz sifatida namoyon bo'lgan. Yozuvchi, bu mif-obraz orqali o'z idealidagi insonni yaratadi.

"Bozor" romanining syujetiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, diniy-mifologik rivoyatlarda ko'chib yuruvchi motiv syujetni ilg'ashimiz ham mumkin.

Shuningdek, X.Do'stmuhammadning "Bozor" romani yaratilishida xamirturush vazifasini o'tagan "Jajman" hikoyasida ham ayni syujet va obrazlarni ko'rishimiz mumkin. Xususan, bu hikoya voqealari ham majoziy-falsafiy ma'nodagi "bozor"da sodir bo'lib, romandagi kabi timda jajman deya atalmish kattaligi qarich ham kelmaydigan bir nojins maxluqning paydo bo'lgani va timdagi odamlarning xonavayron qilayotgani haqida hikoya qilinadi. Hikoya haqida Adabiyotshunos va shoir Xurshid Davron quyidagicha fikr bildiradi.

"Mening nazrimda,"Jajman" jannatdan quvilgan Odam Ato qavmining tarixi haqidagi hikoyadir. Bozordagi har gal yo'q etilganday, ammo yana paydo bo'ladigan yeb to'yimas maxluh bilan kurash boshlagan odamlar bilmaydilarki, bu maxluq bekinadigan, yana chiqib keladigan teshik bozor chetidagi devordagi tuynuk emas, balki ularning qalbidadir".

"Bozor" romanida duch kelganimiz mifologik obraz timsolida namoyon bo'lgan Zar bobo obrazini – hikoyada, aynan, Avesto va Sharq mifologiyasidagi kabi Zardusht bobo nomi bilan uchratamiz. Mazkur obraz hikoyaning bir necha o'rinda qadimgi mif va asotirlardagi hamda "Avesto" kitobida yozilganidek bevosita Axuramazdani tilga olib, unga ibodat qilib, najot so'raydi. Shu sababdan, aniq ishonch bilan aaytish mumkinki, yozuvchi Zardusht bobo timsolida qadimgi sharq mifologiyasida keng tarqalgan Zardushtiylik dinining asoschisi – Zardushtni gavdalantiradi. Hikoyada Zapdusht bobo va tim ahllari tomonidan tilga olingan Axuramazda (Hurmuzd) – juda qadim zamonlarda tasavvur etilgan, mifologik tafakkur mevasi bo'lgan ezgulik xudosi. Axura Mazda yorug'lik, obodonlik, salomatlik, tinchlik, farovonlik kabi barcha ezguliklarni yaratuvchi va boshqaruvchi iloh sanalgan. Unga qarshi zulmat, ochlik, o'lim, ayoz, urush zaharli va yirtqich jonivorlar kabi barcha yovuzliklarni yaratuvchi hamda boshqaruvchi An-xramaynu, keyinchalik Ahriman, deya atalgan xudo bo'lib, doimo Axura Mazda bilan kurashadi. Miflarga ko'ra bu kurash Axura Mazdaning g'alabasi bilan tugaydi.

Keyingi davrlarda Axura Mazda yakka xudo darajasiga ko'tarilib, tavhid ta'limotining asosini tashkil etgan. Turon va Yeron xalqlarining qadimgi epik asarlarida Hurmuzd – ezgulik uchun kurashuvchi, Ahriman – yovuz timsol tarzida tasvirlanadi. Zardushtning vafotidan so'ng bir necha asrlar o'tgach, barcha diniy marosimlar, madhiyalar va duolar zardushtiyalar uchun muqaddas bo'lgan "Avesto"ga jamlanadi. Shu ma'noda, Ahuramazda olov va nurga e'tiqod qiluvchi zardushtiyalarning ulug' va donishmand oliy xudosi hisoblangan.

Aytishlaricha, qiyomatga yaqin qolgan yillarda, yer yuzida, zulm, qabxat, nafs, faxsh kabi illatlar haddan oshib ketgan kelajak bir zamonda Otash momo devlar deya atagani yajuj-majujlar paydo bo'larmish. Ular yer yuzidagi, oldidan chiqqan barcha narsani, hatto daryo-yu dengizlarni bir simirishda yeb-ichib tugatisharmish. Natijada odamlar orasida ochlik va qurg'oqchilik avj olib ochildan o'la boshlasharmish. "Bozor" romani va "Jajman" hikoyasida ham aynan

mana shu mifologik motiv syujet asos qilib olingan, desak ham xato bo'lmaydi.

Xulosa va takliflar. Demak, har ikkala asar yaratilishida miflardan, xalq og'zaki ijodiga keyinchalik yozma adabiyotga ko'chib

o'tgan motiv syujet va mif-obrazlar yetakchiligini ko'rishimiz mumkinligi bugungi kunda yaratilayotgan asarlarning nafaqat, G'arb, balki, qadimgi Sharq hamda islom madaniyati an'alaridan – mif va asotirlaridan keng foydalanayotganini asoslaydi.

ADABIYOTLAR

1. Boltaboyev H. Adabiyot ensiklopediyasi. 1-jild. (Atamalar, istilohlar, siymolar, asarlar va nashrlar). - Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2015. 664-6.
2. Do'stmuhammad X. Nazarning umidbaxsh kemalari // Ijod - ko'ngil munavvarligi. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2011. 108-110-6.
3. Do'stmuhammad X. Donishmand Sizif. - Toshkent: O'zb. NMIU, 2016.
4. Do'stmuhammad X. Qissalar.–T: Sharq NMAK Bosh tahririyati, 2011.
5. “Тафаккур” журнали, 2019 йил, 3-сон. 55-61-бетлар.
6. Shukurova Sabohat Odilovna. Davr va shaxsiyat o'rtasidagi munosabatlar talqini (Jon Steynbeknining “Javohir” qissasi misolida) // QarDU xabarlari.



UDK:81'373.72

Shohsanam ALIMJANOVA,
2nd course PhD student at the National University
E-mail: alimjanovash97@mail.ru

Mavjuda BOLIBEKOVA,
Associate professor, PhD, Head of Practical English and literature department, Faculty of Foreign Philology, National University of Uzbekistan
E-mail: mavjudamardievna@gmail.com

On the review DSc, professor S.Zokirova

THEORETICAL BASIS OF ANALYZING COGNITIVE FEATURES OF POLYSEMANTIC PHRASEOLOGICAL UNITS

Annotation

This paper discusses the cognitive features of polysemantic phraseological units, their reflection and formation of human thinking, cultural values, and social experience. The given research is based on international and Uzbek linguists' works, integrating their views on the interaction between language, cognition, and culture. Among the most important cognitive features to be analyzed, the following ones should be pointed out: metaphorical thinking, contextual variation, cultural significance, and semantic networks. The article voices the idea that understanding of these features is relevant within the framework of language teaching, translation, and cross-cultural communication. After all, the study underlines the very dynamic character of language, interwoven in complex relations between cognitive processes and linguistic expression.

Key words: Polysemantic phraseological units, cognitive linguistics, metaphorical understanding, cultural context, semantic networks.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АНАЛИЗА КОГНИТИВНЫХ ПРИЗНАКОВ МНОГОЗНАЧНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация

В данной статье рассматриваются когнитивные особенности полисемантических фразеологических единиц, отражение и формирование ими человеческого мышления, культурных ценностей и социального опыта. Данное исследование основано на трудах зарубежных и узбекских лингвистов, интегрирующих их взгляды на взаимодействие языка, познания и культуры. Среди наиболее важных когнитивных особенностей, которые необходимо проанализировать, следует выделить следующие: метафорическое мышление, контекстуальное варьирование, культурную значимость и семантические сети. В статье высказывается мысль о том, что понимание этих особенностей актуально в рамках преподавания языка, перевода и межкультурной коммуникации. Ведь исследование подчеркивает очень динамичный характер языка, переплетенного в сложных отношениях между когнитивными процессами и языковым выражением.

Ключевые слова: Полисемантические фразеологические единицы, когнитивная лингвистика, метафорическое понимание, культурный контекст, семантические сети.

POLISEMANTIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARINI TAHLIL QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada polisemantik frazeologik birliklarning kognitiv xususiyatlari, ularning inson tafakkuri, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy tajribasida aks etishi va shakllanishi muhokama qilinadi. Ushbu tadqiqot xalqaro va o'zbek tilshunos olimlarining til, bilish va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir haqidagi qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan asarlari asosida tuzilgan. Tahlil qilinadigan eng muhim kognitiv xususiyatlar orasida quyidagilarni ta'kidlash kerak: metaforik fikrlash, kontekstual o'zgaruvchanlik, madaniy ahamiyat va semantik tarmoqlar. Maqolada ushbu xususiyatlarni tushunish tilni o'rgatish, tarjima qilish va madaniyatlararo muloqot doirasida dolzarb ekanligi haqida fikr bildirilgan. Qolaversa, tadqiqot kognitiv jarayonlar va lingvistik ifoda o'rtasidagi murakkab munosabatlarda o'zaro bog'langan tilning juda dinamik xarakterini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Polisemantik frazeologik birliklar, kognitiv lingvistik, metaforik tushunish, madaniy kontekst, semantik tarmoqlar.

Introduction. Language is not just a means of communication; it is a reflection of thought processes, cultural and cognitive features rooted in human experience. Phraseological units (PUs), particularly polysemantic ones, serve as a vivid example of this complexity. A polysemantic phraseological unit (PPU) can be defined as a stable expression whose meaning may vary depending on context, culture, or cognitive perspective. This article aims to explore the theoretical study of cognitive features of polysemantic phraseological units. By integrating point of views and theories of world and Uzbek linguists, this investigation seeks to illustrate how cognitive linguistics facilitates our understanding of these linguistic phenomena.

Cognitive linguistics is an approach that emphasizes the interrelationship between language and thought, positing that linguistic structures are shaped by human cognition and social experience. Linguist George Lakoff argues that our understanding of the world is rooted in our bodily experiences and the metaphors we use to articulate them [1]. This perspective is important for analyzing PPU, as their meanings often derive from metaphorical thinking and contextual usage. Uzbek linguist A.Abdurakhmanov emphasizes the importance of semantics in understanding phraseological units, asserting that their meanings are not fixed but rather evolve with social and cultural changes [2]. This notion coincides with cognitive

linguistics, suggesting that the cognitive processes underpinning language use directly impact the interpretation of polysemantic expressions.

Polysemy refers to the capacity of a word or phrase to bear multiple meanings. In the field of phraseology, polysemy can be particularly rich and complex. As Russian linguist A.Krysin noted, PUs embody cultural knowledge and shared experiences, making them ideal candidates for the exploration of polysemy [3]. This richness can also be observed in Uzbek language, where polysemantic expressions contribute to the artistry of poetry and proverbs, reflecting cultural values and social realities. For example, the Uzbek phraseological unit "adi-badi aytishmoq" is translated as "have a chat" or "have war of words" and these polysemantic meanings are depending on context, it can connote have a casual conversation and engaging an intense verbal conflict. These meanings of the PU show the cognitive processes taking place as speakers navigate various meanings based on situational context.

The cognitive features of polysemantic phraseological units can be analyzed through several aspects of characteristics:

1. Metaphorical understanding: Many PPU are built upon metaphorical foundations, allowing speakers to convey abstract ideas through concrete experiences. Lakoff and Johnson (1980) explained that

metaphors shape our understanding of the world [4]. For instance, the English phrase “grasp an idea” utilizes a physical action to express an abstract cognitive process, showing how our understanding of mental activities is frequently grounded in physical experiences. 2. Contextual Variation: As Abdurakhmanov (2021) points out, the meaning of polysemantic units can shift dramatically based on context. This contextual variation requires speakers to employ cognitive flexibility to interpret meanings appropriately [2]. For example, the phrase “abjag'i chiqmoq” in Uzbek can imply either being injured or gradually getting worse of the quality something, according to the contextual usage.

3. Cultural Significance: Cognitive features are also shaped by cultural contexts, influencing how polysemantic units are interpreted and applied in everyday communication. According to Uzbek linguist S.Qodirov, the richness of phraseological expressions in Uzbek culture emphasize the relationship between language and social identity [5].

4. Semantic Networks: Cognitive linguistics suggests that meanings are not isolated; instead, they are part of vast semantic networks. Each PPU increases various associative meanings, forming a network of related concepts. As cognitive linguist G.Fauconnier (1997) notes that our cognitive processes operate within these networks, influencing how we formulate and interpret meanings [6]. If we discuss the interaction between language and cognition in polysemy, it should be pointed out that cognitive linguistics posits that language is an extension of human cognition. Our brains organize and process information in a way that is influenced by our sensory experiences. When we encounter polysemantic phraseological units, our cognitive framework allows us to tap into different meanings based on our understanding of context and cultural factors. This interactive process emphasizes the importance of shared knowledge in understanding such expressions. Linguist M.Murodov highlights that studying PPU's requires not just linguistic competence but also cultural awareness [7]. For example, recognizing the meanings in the expression “ko'ngil bog'lamoq” demands an understanding of the cultural significance of “ko'ngil” in Uzbek literature and folklore. The cognitive features of PPU's present challenges and opportunities in both language teaching and translation. In this case, the teachers should provide detailed information for the students concerning these units so that they will be able to learn the layered meanings of the latter-which is more than the simple acquisition of some vocabulary items. According to linguist M.Halliday, context-based learning operates on the principle that linguistic interpretation is only possible with reference to situation [8]. In translation, understanding polysemy is vital for conveying the intended meaning across languages. As noted by famous translator Lawrence Venuti, capturing the cultural essence of phraseological units is as important as rendering their literal meanings [9]. Translators must remain attuned to both cognitive features and cultural contexts to create effective translations. Scholars such as A. Mamatov and J. Lakoff have emphasized the inseparable relationship between language and thought, often reflecting on how linguistic structures can shape our conceptual frameworks. Mamatov (2020) argues that language serves not only as a means of communication but also as a fundamental tool for organizing human experience, suggesting that the semantics of a language directly influences its speakers' worldview. [10]. Similarly, Lakoff and Johnson (1980) state that our abstract perception comes a great extent from metaphorical expressions. According to them, a metaphor is not only a way of speaking but is an ontological device allowing humans to conceptualize real and complicated phenomena. This agreed with the theory of cognitive linguistics R. Langacker 1987, for example, whose work places greater emphasis on cognition processes in the formation of grammatical structures, and who further emphasizes mental representations as a way through which one can come to understand how language is used [11]. Sh. Safarov (2019) expands on this idea by exploring how cultural contexts can frame linguistic expressions, asserting that language itself acts as a carrier of cultural knowledge. This perspective is crucial when examining cross-linguistic variations, as it illustrates that different cultures may conceptualize similar experiences through distinct linguistic lenses [12]. V.N. Telia (1996) states that by discussing the connection between language and culture, suggesting that linguistic diversity reflects deeper cultural experiences and other characteristics [13].

Meanwhile, researchers like E. Kubryakova (1998) and B. Yuldoshev (2021) delve into the implications of cognitive processes

on language acquisition. Kubryakova's work highlights the significance of cognitive strategies in learning language, suggesting that understanding cognitive mechanisms can enhance pedagogical methodologies [14]. Yuldoshev further builds on this by examining how various cognitive and communicative strategies impact the proficiency and fluency of second-language learners [15]. V.Evans and V. Vorobyov (2012) bring attention to the role of figurative language in communication, emphasizing that metaphors and other figures of speech are essential for effective dialogue. Their findings suggest that figurative language not only enriches communication but also fosters deeper comprehension and engagement among speakers [16]. In the realm of psycholinguistics, A. P. Babushkin (2021) explores how social interactions influence language development and cognition. Babushkin's research indicates that the social context plays a critical role in shaping linguistic competence, linking sociolinguistic factors closely with cognitive growth. Overall, the integration of these diverse perspectives underscores the rich interplay between language, cognition, and culture. These theoretical frameworks continue to influence modern research, offering a compelling view of how language functions as both a communicative tool and a cognitive instrument [17].

Conclusion. The cognitive features of the polysemantic phraseological units provide insight into learning to analyze in detail information about the relationship between language and thought and culture. Such analysis develops the following major results:

1. Relationship between language and cognition: The research denotes how the language is not only a way of communicating but rather mapping through cognitive processes which our perception of reality is reached. Works by scholars like Lakoff and Abdurakhmanov brought to the fore the metaphorical premises of human language and the impact those metaphors exert on our conceptual frameworks.

2. Cultural context and polysemy: In understanding polysemantic units, cultural context plays a very important role. As has been shown with examples both from Uzbek and English, being informed about the subtleties of the cultural context in which a phraseological expression is placed enables one to realize its multiple meanings. This is a cultural feature that adds to our understanding of language as a carrier of social identity and shared experience.

3. Cognitive flexibility and contextual variation: the discussion at hand brings into focus that when polysemantic expressions are dealt with, cognitive flexibility should be applied with regard to meaning variation. This ability to interpret these units according to diverse contexts reflects the dynamic interaction of language and cognition and reinforces the view that meaning is dynamic, not static, but depends on context.

4. Implications for teaching languages and translation: The findings suggest practical applications in language education and translation. Context-based teaching can be utilized by instructors to foster deeper understanding of polysemantic units by students. Translators must also be sensitive to the cognitive and cultural features of language if meaning is to be appropriately communicated. The given research thus contributes to cognitive linguistics, combining the opinions of both international and Uzbek linguists, enriching the dialogue about polysemy and phraseology. Emphasis on the cultural context and cognitive flexibility presents the approach to the analysis of phraseological units which give a full framework that bridges linguistic theory and practical application. The cognitive features of polysemantic phraseological units contribute to a deeper understanding of language as an example of both a cognitive and cultural phenomenon. A benefit of this approach to the researcher, educator, and translator alike would be:

- Increased sensitivity to the relationship between language and thought;
- Greater cultural sensitivity and awareness in the proper use of language;
- Pedagogical gains where cognitive and contextual variables have been better accounted for in language learning;
- Translators will in turn be guided through the complexities of meaning across languages.

In other words, the analysis of theoretical basics of cognitive features in polysemantic phraseological units extends the knowledge not only about language and cognition per se but also places special emphasis on cultural context in linguistic interpretation. This approach opens further perspectives for research into the cognitive and cultural dimensions and complexities of language and cognition.

REFERENCES

1. Lakoff, G. *Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind.* – University of Chicago Press, 1987. – p.5.

2. Abdurakhmanov, A. Semantic variability in phraseological units: A cognitive perspective. – Tashkent: University Press, 2021.
3. Krysin, A. Phraseology in modern linguistics: Russian and International Perspectives. – Moscow: Linguistic Publications, 2008.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors we live by. – University of Chicago Press, 1980. – p.8.
5. Qodirov, S. The role of phraseological units in Uzbek language and culture. – Tashkent: Language Institute, 2020.
6. Fauconnier, G. Mappings in thought and language: Culture, conceptualization, and methodology. – Cambridge University Press 1997.
7. Halliday, M.A. An Introduction to Functional Grammar. – Edward Arnold, 1985.
8. Murodov, M. Cultural Dimensions in Uzbek Phraseology. – Samarkand: Academic Solutions, 2019.
9. Venuti, L. The translator's invisibility: A history of translation. – Routledge, 1995.
10. Mamatov, A. Language as a tool of thought structuring // Journal of linguistics and language teaching. – 2020, 39(2), 112-125.
11. Langacker, R. Foundations of cognitive grammar: I. Theoretical prerequisites. – Stanford University Press, 1987.
12. Safarov, Sh. Linguistic diversity and cultural contexts in language use // International journal of linguistics. – 2019. – 11(4), 102-115.
13. Teliia, V.N. Language and culture: Functional perspectives // Russian Linguistics. – 1996. – 20(3), 251-263.
14. Kubryakova, E. The cognitive nature of language and its acquaintance with reality // Language and Cognition. – 1998. – 5(1), 6-25.
15. Yuldoshev, B. Cognitive strategies in second language acquisition // New Horizons in Language Studies. – 2021. – 10(2), 77-90.
16. Evans, V., & Vorobyov, V. Language and communication: A cognitive perspective // Cognitive linguistics. – 2012. – 23(4), 453-478.
17. Babushkin, A.P. Social interaction and language development // Journal of Language and Social Psychology. – 2021. – 40(1), 35-50.



UDK:81'37:81'373.612

Maftuna ALIMOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi
E-mail: alimovamaftuna@mail.ru

DSc, professor B.Qurbonova taqrizi asosida

BASIC CONCEPTS OF THE THEORY OF LACUNAS

Annotation

The article examines the core concepts of lacuna theory, emphasizing its linguistic and cultural dimensions. Lacunae represent gaps in one language or culture where a concept, word, or grammatical structure exists in another, creating challenges in translation and intercultural communication. The study categorizes lacunae into linguistic, cultural, and pragmatic types, analyzing their significance in cross-linguistic studies and their practical implications in language learning, translation, and fostering cultural understanding. This research highlights lacunae as critical tools for exploring and bridging linguistic and cultural differences, ultimately promoting effective communication.

Key words: Lacuna theory, linguistic gaps, cultural differences, intercultural communication, translation challenges, semantic lacunae, pragmatic lacunae, cross-cultural studies, linguistic diversity, language learning.

LAKUNALAR NAZARIYASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI

Annotatsiya

Ushbu maqola lakunalar nazariyasining asosiy tushunchalarini o'rganadi va uning lingvistik hamda madaniy o'lchovlariga urg'u beradi. Lakunalar bir tilda yoki madaniyatda mavjud bo'lgan, biroq boshqa til yoki madaniyatda ekvivalenti yo'q tushuncha, so'z yoki grammatik strukturani anglatadi. Bu tarjima va madaniyatlararo muloqotda qiyinchiliklar tug'diradi. Tadqiqot lakunalarni lingvistik, madaniy va pragmatik turlarga bo'lib tahlil qiladi, ularning tillararo tadqiqotlar va amaliy sohalarida, masalan, til o'rganish va tarjimada ahamiyatini ochib beradi. Lakunalar lingvistik va madaniy farqlarni o'rganish vositasi sifatida ko'rib chiqilib, samarali muloqotni ta'minlashga ko'maklashadi.

Kalit so'zlar: Lakunalar nazariyasi, lingvistik bo'shliqlar, madaniy farqlar, madaniyatlararo muloqot, tarjima qiyinchiliklari, semantik lakunalar, pragmatik lakunalar, madaniyatlararo tadqiqotlar, lingvistik xilma-xillik, til o'rganish.

ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ ТЕОРИИ ЛАКУН

Аннотация

В статье рассматриваются основные концепции теории лакун с акцентом на их лингвистические и культурные аспекты. Лакуна представляет собой пробел в одном языке или культуре, где понятие, слово или грамматическая структура присутствуют в другом, что создает трудности в переводе и межкультурной коммуникации. Исследование классифицирует лакуны на лингвистические, культурные и прагматические типы, анализируя их значимость в межъязыковых исследованиях и их практическое применение в таких областях, как изучение языков и перевод. Лакуна рассматривается как инструмент для изучения и преодоления языковых и культурных различий, способствующий эффективной коммуникации.

Ключевые слова: Теория лакун, лингвистические пробелы, культурные различия, межкультурная коммуникация, трудности перевода, семантические лакуны, прагматические лакуны, межкультурные исследования, языковое разнообразие, изучение языков.

Kirish. Hozirgi zamon lingvistikasida lakunalar nazariyasi til va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rganishda alohida o'rin tutadi. Har bir til o'ziga xos lug'at boyligi va grammatik tizimiga ega bo'lib, ular orqali dunyoni tasvirlaydi va ifodalaydi. Ammo turli tillar va madaniyatlar o'rtasida ba'zan o'xshashlikdan ko'ra ko'proq farqlar uchraydi, bu esa lingvistik va madaniy "bo'shliqlar" yoki "lakunalar" shaklida namoyon bo'ladi. Lakunalar, o'z mohiyatiga ko'ra, bir til yoki madaniyatda mavjud bo'lgan tushunchaning boshqa til yoki madaniyatda bevosita ekvivalentga ega emasligini anglatadi.

Lakunalar nazariyasi nafaqat lingvistik, balki tarjima amaliyoti, madaniyatshunoslik, semiotika va psixolingvistik kabi ko'plab ilmiy yo'nalishlarda tadqiq qilinadi. Masalan, tarjima jarayonida lakunalar o'ziga xos qiyinchiliklar tug'diradi, chunki har bir madaniyat o'zining noyob semantik maydoniga ega. Shu sababli, lakunalar nazariyasini o'rganish nafaqat lingvistik farqlarni tahlil qilish, balki tillararo va madaniyatlararo muloqotni kuchaytirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada lakunalar tushunchasi va ularning tasnifi, lingvistik va madaniy jihatlari, shuningdek, tarjima va madaniyatlararo muloqotda tutgan o'rni tahlil qilinadi. Lakunalar nazariyasining asosiy tamoyillarini tushunish orqali turli tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni chuqurroq anglash mumkin bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, muloqot samaradorligini oshirish va madaniy yaqinlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

"Lakuna" tushunchasi lingvistik va madaniyatshunoslikda ma'lum bir til yoki madaniyat tizimida mavjud bo'lgan, lekin boshqa bir til yoki madaniyatda to'liq ekvivalentga ega bo'lmagan birliklar yoki tushunchalarni anglatadi. Bu tushuncha lingvistik, semiotika va tarjima nazariyasi kabi ko'plab fanlarda qo'llaniladi. Lakunalar bir til va madaniyat tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, boshqa til yoki madaniyat vakillari uchun tushunarsiz yoki bevosita tarjima qilinishi qiyin bo'lishi mumkin.

Lakunalar o'z mohiyatiga ko'ra, lingvistik va madaniy tizimlar o'rtasidagi bo'shliq yoki uzilish sifatida namoyon bo'ladi. Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

Lingvistik lakunalar:

Bir tilning lug'atida boshqa til uchun ekvivalent bo'lmagan so'zlar, iboralar yoki grammatik birliklar.

Masalan, o'zbek tilidagi "mehmondo'stlik" so'zi ingliz tilida "hospitality" so'zi bilan tarjima qilinadi, lekin bu ikki tushuncha bir xil emosional va madaniy yuki bermaydi.

Madaniy lakunalar:

Bir madaniyatga xos bo'lgan va boshqa madaniyatlarda bevosita analogi yo'q bo'lgan hodisalar yoki urf-odatlar.

Masalan, o'zbek tilidagi "navro'z" tushunchasi boshqa madaniyatlarda turli xil tushuniladi yoki umuman mavjud emas.

Semiotik lakunalar:

Belgilar tizimida mavjud bo'lgan tushunchalar yoki hodisalar, lekin boshqa madaniyat yoki til belgilar tizimida bu belgilar ma'nosi yo'q.

Masalan, ayrim madaniyatlarda "tabassum" ijobiy ma'no anglatasa, boshqalarida bu noqulaylik yoki muammoga ishora qilishi mumkin.

Lakunalar ko'pincha quyidagi jihatlari bo'yicha tasniflanadi:

Leksik lakunalar: Bir tilda so'z yoki ibora mavjud bo'lgan holatlarda boshqa til uchun mos keluvchi ekvivalent so'z yoki ibora yo'qligi. Masalan, o'zbek tilida "qo'shni qishloq" tushunchasi oddiy tasvir bo'lsa, boshqa tillarda bu birlik bo'lib, yaqinlik va ijtimoiy aloqalarni ham ifodalaydi.

Semantik lakunalar: Bir til tizimida mavjud bo'lgan, lekin boshqa tilning semantik maydonida bo'lmagan ma'nolar yoki tushunchalar. Masalan, o'zbek tilidagi "choy ichish" odati ma'lum bir ijtimoiy vaziyatni ham anglatadi.

Pragmatik lakunalar: Nutq jarayonida madaniy kontekst farqlari sababli yuzaga kelgan tushunmovchiliklar. Masalan, turli madaniyatlarda iltimos qilish, rad etish yoki minnatdorlik bildirishning o'ziga xos usullari.

Lakunalar nazariyasini o'rganish lingvistik va madaniyatshunoslik tadqiqotlarida muhim ahamiyatga ega. Ular til va madaniyat o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni o'rganish imkonini beradi. Lakunalarni tushunish va ularni to'g'ri tahlil qilish:

Madaniyatlararo muloqotni yaxshilaydi;

Tarjima jarayonida qiyinchiliklarni yengillashtiradi;

Chet tillarni o'rgatishda yangi yondashuvlarni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, lakunalar bir madaniyatdan boshqasiga tushunchalarni o'tkazishda o'ziga xos til va madaniyat bo'shlig'ini ifodalaydi. Bu bo'shliqni to'ldirish esa ilmiy va amaliy izlanishlarni talab qiladi.

Lakunalar tasnifi

Lakunalar bir necha omillar asosida tasniflanadi:

Leksik lakunalar: So'zlarning boshqa tillarda mos ekvivalenti mavjud emasligi. Masalan, o'zbek tilidagi "non" so'zining konnotatsiyasi ingliz tilida faqat "bread" so'zi bilan ifodalanadi, biroq bu to'liq sinonim emas.

Semantik lakunalar: Bir til tizimida mavjud bo'lgan, ammo boshqa til tizimida bo'lmagan ma'no farqlari.

Pragmatik lakunalar: Nutq jarayonidagi madaniy kontekst farqlari tufayli yuzaga keladigan tushunmovchiliklar.

Lakunalar nazariyasining amaliy ahamiyati

Lakunalar nazariyasi tarjima nazariyasi va madaniyatlararo muloqot uchun muhim vositadir. Quyidagi sohalarda uning ahamiyati yuqori:

Tarjima jarayonida: Lakunalarning mavjudligi tarjimon uchun yangi strategiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Masalan, tarjimaga ekvivalent topish uchun deskriptiv usuldan foydalanish.

Til o'rganishda: Chet tillarni o'rganishda lakunalarni o'rganish talabalarga til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Madaniyatlararo tadqiqotlarda: Lakunalar orqali madaniyatlararo o'ziga xos jihatlarni ochib berish mumkin.

Xulosa. Lakunalar nazariyasi lingvistika, madaniyatshunoslik, tarjima va boshqa fanlar uchun muhim o'rganish sohasi hisoblanadi. Lakunalar til va madaniyat o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni ko'rsatib beradi va ular orqali har bir til va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Mazkur tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki:

1. Lakunalar lingvistik va madaniy xilma-xillikni anglashga yordam beradi. Ular tillararo farqlarni aniqlash va tushunishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

2. Tarjima va madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyatga ega. Lakunalarni to'g'ri aniqlash va to'ldirish madaniy yaqinlikni mustahkamlashga, muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Til o'rganish va o'rgatishda foydali vositadir. Lakunalarni o'rganish talabalarga til va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni yaxshiroq anglashga yordam beradi va bu til o'rgatishda innovatsion yondashuvlar uchun imkon yaratadi.

Lakunalarni o'rganish, tushunish va amaliyotga tatbiq qilish muloqot jarayonlarini sifat jihatidan yaxshilash imkonini beradi. Kelgusida lakunalar nazariyasi bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar lingvistika va madaniyatshunoslik sohalarda yangi bilim va yondashuvlarni ochib berishi mumkin. Bu esa nafaqat ilmiy, balki amaliy sohalarda ham katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1958). *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*.
2. Gaprindashvili, Sh. (1997). *Intercultural Communication and Linguistic Barriers*.
3. Baker, M. (1992). In *Other Words: A Coursebook on Translation*.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2006).



UDK:808.03.(045)

Dilfuza ATAMURODOVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dilfuza_atamurodova@mail.ru

PhD N.Suyarova taqrizi asosida

NEMIS LINGVOMADANIYATIDA "DO'ST" VA "DO'STLIK" KONSEPTLARINING IFODALANISH USULLARI VA XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada nemis lingvomadaniyatida do'st konseptining ifodalanish usullari va xususiyatlari tahlil qilinadi. Do'stlik tushunchasi nemis tilida so'zlashuvchi xalqlar madaniyatida o'zaro tushunish, mehr, qo'llab-quvvatlash, ishonch va hurmat kabi qadriyatlariga asoslangani ta'kidlanadi. Maqolada do'stlikning sabr va samimiyatga asoslanganligi hamda do'stlarning oila a'zolari kabi qadrlanishi ko'rsatiladi. Shuningdek, do'stlik va manfaatlilik o'rtasidagi munosabatlar ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Do'stlik, ishonch, hurmat, qo'llab-quvvatlash, sabr, nemis madaniyati, do'st.

СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ И ОСОБЕННОСТИ КОНЦЕПТОВ "ДРУГ" И "ДРУЖБА" В НЕМЕЦКОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРЕ

Аннотация

В статье рассматриваются способы выражения и особенности концепта «друг» в немецкой лингвокультуре. Отмечается, что понятие дружбы в немецкоязычной культуре основано на таких ценностях, как взаимопонимание, поддержка, доверие и уважение. В статье подчеркивается важность терпения и искренности в дружбе, а также роль друзей, сравнимую с членами семьи. Кроме того, анализируются отношения между дружбой и расчётом.

Ключевые слова: Дружба, доверие, уважение, поддержка, терпение, немецкая культура, друг.

METHODS OF EXPRESSION AND CHARACTERISTICS OF THE CONCEPTS OF "FRIEND" AND "FRIENDSHIP" IN GERMAN LINGUOCULTURE

Annotation

The article analyzes the ways of expressing and the characteristics of the concept of "friend" in German linguistic culture. It emphasizes that the concept of friendship in German-speaking cultures is based on values such as mutual understanding, support, trust, and respect. The article highlights the importance of patience and sincerity in friendships, as well as the role of friends, who are often valued like family members. Additionally, the relationship between friendship and calculation is examined.

Key words: Friendship, trust, respect, support, patience, German culture, friend.

Kirish. Nemiszabon xalqlar madaniyatida do'stlik murakkab va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, o'zaro tushunish, mehr va qo'llab-quvvatlash kabi qadriyatlariga asoslangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nemis tilida so'zlashuvchi millat vakillarining aksariyati do'stlikni hayotlarining ajralmas qismi sifatida qabul qiladi, xamda bu xalqlar uchun do'stlar oila a'zolari bilan teng ahamiyatga ega muhim rol o'ynaydi. Asosiy urg'u o'zaro yordam, sabr va samimiyatga qaratilgan bo'lib, bu mashhur nemis faylasuflari va yozuvchilarining iqtiboslari bilan tasdiqlanadi.

Do'stlik tushunchasining o'ziga xos jihatlari bir necha muhim obrazlarda namoyon bo'ladi:

1. Hayotiy qism – do'stlik hayotning zaruriy qismi sifatida ko'riladi.
2. O'zaro qo'llab-quvvatlash – do'stlar har qanday vaziyatda bir-biriga yordam beradilar.
3. Dushmanlik – ba'zilar uchun do'stlik barqaror yoki haqqoniy bo'lmagan narsa sifatida qabul qilinadi.
4. O'xshashlik – do'stlik o'xshash qiziqishlar va maqsadlarga asoslanadi.
5. Hisob-kitob – do'stlik amaliy bo'lishi mumkin, ayniqsa, ishbilarmon munosabatlarda.
6. Sevgi – ikki inson o'rtasidagi yaqin ishqiy munosabatlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nemis mualliflari ko'pincha do'stlik sabr va o'zaro munosabatlarni rivojlantirishni talab qilishini ta'kidlaydilar.

Nemis tilida so'zlashuvchi aholining bir qismi (siyosat va madaniyat arboblari, faylasuflar, yozuvchilar va h.k.) o'rtasida o'tkazilgan o'rganishlar orqali «do'st» va «do'stlik» konsepti nemis til manzarasida qanday namoyon bo'lishini aniqlashga harakat qilindi. Natijada, «Freund» («do'st») va «Freundschaft» («do'stlik») tushunchalarini til egalari ongida uyg'otadigan 9 ta yorqin va aniq tasvirlar aniqlandi.

Nemis tilida so'zlashuvchi millatlar uchun «do'st» yoki «do'stlik» tushunchalariga taalluqli eng muhim tasvir – bu hayotning ajralmas qismi sifatida ko'rilishidir.

“Für die Freundschaft von zweien ist die Geduld von einem nötig” (Friedrich von Logau). «O'zaro sabr – do'stlikning asosiy qismlaridan biri» (Fridrix fon Logau).

“Wer nicht die Welt in seinen Freunden sieht, Verdient nicht, dass die Welt von ihm erfahre.“ (Goethe. Quelle: Goethe, Torquato Tasso, 1807. 1. Akt, 3. Szene, Tasso zu Leonore)

«Kim do'stlarida butun dunyoni ko'rmasa, uning haqida dunyo bilmasligiga loyiqdir» (Gyote).

“Mein Freund, ich brauche dich wie eine Höhe in der man anders atmet” (Goethe). «Mening do'stim, sen menga havodek zarursan» (Gyote).

Bu tasvir do'stlikni hayotning zaruriy qismi sifatida tushunishga e'tibor qaratadi. Nemiszabon xalqlar o'rtasida do'stlik juda jiddiy qabul qilinadi: do'stlar o'rtasidagi bog'lanishlar o'zaro bog'lanishlardan ham kuchliroq bo'lishi mumkin. Shuning uchun nemis tilida so'zlashuvchilar orasida do'stlik abadiy deb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Keyingi eng keng tarqalgan fikr shuki, do'stlik – bu o'zaro qo'llab-quvvatlash va har qanday holatda bir-biriga yordam berishdir. Bu shundan dalolat beradiki, nemislarlarda do'stning yordami va qo'llab-quvvatlashi do'stlikning ajralmas xususiyati sifatida ko'riladi. Ko'pchilik nemislar uchun do'stlikning kuchi - ikki do'stning o'zaro qo'llab-quvvatlash fazilati bilan o'lanadi, chunki haqiqiy do'st – bu barcha vaziyatlarda yordam beradigan do'stdir. Bunga quyidagi misollar dalil bo'la oladi:

“Achtung nur ist der Freundschaft unfehlbares Band.” (Quelle: Schiller, F., Briefe. An Wilhelm von Wolzogen, 25. Mai 1783)

«Faqat e'tibor-do'stlikning uzilmas bog'ichidir» (Shiller)

“Mitfreude, nicht Mitleiden, macht den Freund,» (Quelle: Nietzsche, Menschliches, Allzumenschliches: Ein Buch für freie Geister Taschenbuch – 13. Februar 2018)

«Qayg'uni emas, quvonchni xam baham ko'rish-do'stlikni birlashtiradi.» (Fridrix Nitsche)

Der Mensch mit sich allein „Die besten Freunde sind nicht die, die du jeden Tag siehst, sondern die, die immer für dich da sind, egal wie weit sie entfernt sind.“ (Goethe)

«Eng yaxshi do'stlar – bu har kuni ko'radiganing emas, balki masofa qancha uzoq bo'lsa ham, har doim sening yoningda bo'ladiganlardir.» (Gyote).

Keyingi qarash, do'stlik – bu dushmanlik. Nemis tilida so'zlashuvchi mamlakatlar aholisining bir qismi haqiqiy do'stlik mavjud emas, agar mavjud bo'lsa ham, unda do'st faqat o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlaydi, deb hisoblaydi.

„Man muss die Freundschaft wie die Feindschaft lernen.“ (Friedrich Nietzsche) «Do'stlikni do'shmanlik kabi o'rganish kerak.» (Friedrich Nietzsche)

„Die Freundschaft ist ein Zwiegespräch, das oft wie ein Streit klingt.“ (Goethe)

«Do'stlik – bu ko'pincha janjal kabi yangraydigan so'zlashuv.» (Gyote).

„Die Freundschaft ist oft die beste Waffe der Feindschaft.“ (Lessing) «Do'stlik ko'pincha do'shmanlikning eng yaxshi qurolidir.» (Lessing)

„Echte Freundschaft erkennt man an der Fähigkeit, in der Feindschaft zu bestehen.“ (Leopold von Sacher-Masoch)

«Haqiqiy do'stlik do'shmanlikka qarshi turish qobiliyatida namoyon bo'ladi.»

(Leopold von Sacher-Masoch)

Mualliflar ehtimol, muvaffaqiyatsiz munosabatlarga duch kelishgan bo'lib, ularda do'stlar shaxsiy manfaatlarini ko'zlagan bo'lishi mumkin. Do'stlik juda nozik munosabatdir. Buzilgan do'stlikni tiklash muhabbatni tiklashdan qiyinroqdir, chunki muhabbatda qalbni birlashtiruvchi xohish mavjud, uzaro ishonchni esa qayta tiklash juda qiyin.

„Laute Freunde sind oft leise Feinde“ (Caroline Link). «Shovqinli do'stlar ko'pincha jim yurgan dushmanlar bo'ladi» (Karolina Link).

Tahlil va natijalar. Keyingi fikr shundan iboratki, do'stlik – bu o'xshashlik. Nemis tilida bu holatni tasvirlaydigan bir so'z bor – Ähnlichkeit. Nemislarining bir qismi o'z do'stini hamfikir, yaqin odam deb biladi, ularning qiziqishlari va hayotiy maqsadlari o'xshash bo'ladi.

„Ähnlichkeit der Gemüter ist die Fessel der Freundschaft.“ (Goethe) «Qalblarning o'xshashligi do'stlik rishtalarining kalitidir.» (Gyote)

„Freundschaft ist die Verbindung von gleichgesinnten Seelen.“ (Schiller) «Do'stlik – bu bir xil fikrlaydigan qalblarning birlashuvi.» (Schiller)

„Wahre Freundschaft besteht in der Ähnlichkeit der Gesinnungen.“ (M. Wieland)

«Haqiqiy do'stlik tafakkurning o'xshashligida mujassam bo'ladi.» (Viland)

„Gleichheit ist die Seyele der Freundschaft“ (Aristotel). «Qiziqishlarning o'xshashligi do'stlikning asosidir» (Aristotel).

Yana bir muhim obraz, bu hisob-kitobli do'stlik obrazidir. Bu quyidagi misollarda o'z aksini topadi:

Großzügigkeit ist das Wesen der Freundschaft “(Oskar Wilde)

«Saxiylik - do'stlikning mohiyati» (Oskar Wilde)

„Im Grunde ist jeder Mensch ein Egoist, und es wäre sinnlos, das zu leugnen. Freundschaft ist oft nur eine verkappte Form des Eigennutzes.“ (Arthur Schopenhauer) «Aslida har bir odam egoist, buni inkor qilish mantiqsizdir. Do'stlik ko'pincha shaxsiy foydaning yashirin shaklidir.»

(Shopengauer)

Shopengauer inson tabiatiga nisbatan pessimistik qarash tarafdori bo'lib, do'stlik, boshqa munosabatlar kabi, ko'pincha o'zaro manfaatlar asosida bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

„Freundschaft, wenn sie auf Zweck und Interesse beruht, ist keine wahre Freundschaft.“ (E.Kant) «Maqsad va manfaatga asoslangan do'stlik haqiqiy dustlik emas.» (Immanuel Kant)

Kant bu yerda haqiqiy do'stlik o'zaro manfaatlariga asoslanmasligi kerakligi haqida gapiradi. Ammo u shuni tan oladiki, ko'p xolatlarda do'stlik o'zaro ikki yoqlama foyda xususiyatga ega bo'lishi mumkin.

Aslida, do'stlar o'rtasidagi hisob-kitob har doim ham yomon fazilat tarzida talqin etilmaydi, chunki bunday munosabatlar ko'pincha ishbilarmon sherik-do'stlar o'rtasida paydo bo'ladi. Agar bu holatda har ikki tomon o'zaro manfaatga ega bo'lsa, bu mustahkam sheriklik do'stlikni keltirib chiqaradi.

Do'stlikning nemisizabon xalqlari o'rtasidagi o'ziga xos va muhim konseptlaridan biri bu- muhabbat, muloqot va yaqin munosabatlardir.

„Freundschaft, das ist eine Seyele in zwei Körpern.“ (H.Heine) «Do'stlik bu ikki tanadagi bir ruh» (G.Geyne)

Geyne do'stlikni sevgiga o'xshagan chuqur yaqinlik sifatida tasvirlaydi, bunda ikki inson ma'naviy jihatdan yagona butunlikka aylanadi.

„Die Ehe ist eine polizeilich anerkannte Freundschaft“ (Peter Seyeger). «Nikoh – bu ikki inson o'rtasidagi do'stlikdir» (Peter Zeger).

Xulosa va takliflar. Nemis tilidagi lingvomadaniy makonda mavjud bo'lgan do'stlik tushunchasi insonlar o'rtasidagi uzoq muddatli munosabatlar, o'zaro muhabbat, hurmat va ishonch, o'zaro tushunish, samimiyat, o'zaro yordam, hamdardlik, ochiqlik, haqqoniylik va beg'arazlik sifatida talqin etiladi, shuningdek u ko'pgina boshqa xalqlar lingvomadaniy makonida uchramaydigan obraz-sevgi obrazi bilan bog'liqdir. Nemislar do'stlik munosabatlarini yuqori baholaydilar va ularda manfaatlilik elementlari bo'lishi mumkinligini tan oladilar, ammo ko'pchilik uchun do'stlik – hayotning ajralmas qismi, do'st esa oila a'zosi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Гёте, И. В. "Торквато Тассо." 1807. – Немис адабиётида дўстлик ва инсон муносабатлари ҳақида.
2. Артур Шопенгауэр. Афоризмы житейской мудрости
3. Кант, И. "Критика практического разума." 2021. Москва. Юрайт
4. Лессинг, Г. Э. "Дўстлик ва муҳаббат ҳақидаги асарлар." 1779. –
5. Schiller Werke und Briefe in zwölf Bänden: Band 12: Briefe II 1795-1805 Gebundene Ausgabe – 25. November 2002. von Norbert Oellers (Herausgeber), Friedrich Schiller (Autor).
6. Шиллер, Ф. "Иқтибослар ва шеърлар тўплами." 1795. – Дўстлик, ишонч ва биродарлик мавзусида.
7. Абдухамид Парда. ТАНЛАНГАН АСАРЛАР -Ницше, Ф. "Зардушт нидоси." 2021 «OYDIN» нашриёти Тошкент .
8. Гёте Й.В. Западно-восточный диван. – Москва. Наука.1988.
9. Гёте Й.В. Ғарбу Шарқ девони. Олмон тилидан Садриддин Салим Бухорий таржимаси. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010.
10. Захер-Мазох, Л. "Табиат ва дўстлик ҳақидаги эсселар." 1870. –
11. <https://www.apophorismen.de/thema/Freundschaft>



UDK:811.82:41

Dildora AXMEDOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: dildora_juraxonovna24@mail.ru

Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti N. Madalov taqrizi asosida

OAV MATNLARI – MEDIALINGVISTIKANING OBYEKTI SIFATIDA

Аннотация

Maqolada jamiyatning axborotlashuvi natijasida ommaviy axborot vositalari olamida hamda unga bog'liq ravishda tilshunosligimizda keng o'rganilishni taqazo etayotgan yangi tadqiqotlarning vujudga kelayotgani, xususan, matnga nisbatan chegarani kengroq oluvchi ommaviy axborot vositalari matnlari haqida ma'lum ilmiy qarashlar yoritiladi. Lisoniy va vizual komponentlarning o'zaro aloqaga kirishishi natijasida paydo bo'luvchi mediamatnlarning dunyo tilshunosligida o'rganilishi, turlari, o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, matbuot, radio, televideniye va Internet tarmoqlarida qo'llaniluvchi mediamatnlarning bir-biridan farqli jihatlariga ham to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Ommaviy axborot matnlari, mediavoqelik, mediamahsulot, mediaviylik, ommaviylik, mass-media.

ТЕКСТЫ СМИ КАК ОБЪЕКТ МЕДИАЛИНГВИСТИКИ.

Аннотация

В результате информатизации общества в мире средств массовой информации и связанных с ним, в нашей лингвистике, создаются новые исследования, в частности, определенные научные взгляды на тексты средств массовой информации, имеющие более широкий предел по сравнению с к тексту, появляются. Речь пойдет об исследованиях медиатекстов, возникающих в результате взаимодействия лингвистического и визуального компонентов в мировой лингвистике, их видов, характеристик, а также различных аспектов медиатекстов, используемых в прессе, на радио, телевидении и в сетях Интернет.

Ключевые слова: Массовые информационные тексты, медиареальность, медиaproдукт, медианость, публичность, средства массовой информации.

PUBLIC INFORMATION TEXTS AS AN OBJECT OF MEDIALINGUISTICS

Annotation

As a result of the informatization of the society, new researches are being created in the world of mass media and related to it, in our linguistics, and in particular, certain scientific views about mass media texts, which have a wider limit compared to the text, are emerging. The study of media texts resulting from the interaction of linguistic and visual components in world linguistics, their types, characteristics, as well as the different aspects of media texts used in press, radio, television and Internet networks. will be discussed.

Key words: Mass information texts, media reality, media product, medianess, publicness, mass media.

Kirish. OAV, virtual olamda media tushunchasi va unga bog'liq hodisalarni ifodalovchi mediamatnlr tobora faollashib bormoqda. Mediamatn mediavoqelik natijasi hisoblanib, medianing turli ko'rinishlari, ya'ni gazeta va jumallardagi maqola, tezislar, televideniye orqali uzatilayotgan ko'rsatuv va dasturlar, klip, film, kino, Internet tarmoqlaridagi videoroliklar, gif, animatsiya, ijtimoiy tarmoqlarning barcha turida ma'lumot tashilayotgan rasmlari va grafik belgilar orqali bayon etilgan axborotdir. Bugungi kunda mediamatn deganda media ishlab chiqarishning aniq natijasi, mediamahsulot nazarda tutiladi, bu axborotdan iborat va medianing istalgan turi va janrida (gazetadagi maqola, teleko'rsatuv, videoklip, reklama xabari, film va boshq.) bayon etilgan xabar bo'lib, ommaviy auditoriyaga yo'naltiriladi. Mediamatn lison va mediashaklning o'zaro birligidan hosil bo'ladi [2]. U lisoniy va mediabelgilarning dialektik birligidan iborat bo'lib, medianutqning uch darajasi: so'zlardan iborat matn, videoqator va grafik tasvir darajasi, ovoz jo'rliq darajasi bilan taqdim etiladi. Yigirmanchi asrning 90-yillarida ingliz tilidagi ilmiy adabiyotlarda paydo bo'lgan "media matn" atamasi xalqaro akademik doiralarda ham, milliy ommaviy axborot vositalarida ham tez tarqaldi. Mediamatn tushunchasining ilmiy ongda jadal mustahkamlanishi tadqiqotchilarning ommaviy axborot vositalari nutqidagi muammolari, tilning ommaviy aloqa sohasidagi faoliyatining xususiyatlarini o'rganishga qiziqishning ortishi bilan bog'liq edi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bu masalaga Teun Van Deyk, Martin Montgomeri, Alan Bell, Norman Feyerklaf, Robert Fauler kabi mashhur olimlar katta e'tibor qaratdilar, ular ommaviy axborot vositalari matnlari turli maktablar va yo'nalishlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqdilar: sotsiolingvistika, funktsional stilistika, nutq nazariyasi, mazmun-tahlil, kognitiv lingvistika, ritorik tanqid. Olimlarning e'tiborini keng ko'lamli masalalar jalb qildi: bu ommaviy axborot vositalari tilining funktsional va stilistik maqomini aniqlash, turli xil media matnlari tavsiflash usullari, ijtimoiy-madaniy omillarning ommaviy axborot vositalariga ta'siri, nutq va ta'sir qilishning lingvo-media texnologiyalari kabilardir. Rossiyada mediamatn nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga, shuningdek, uni o'rganish usullariga S.I.Bernshteyn, D.N.Shmelyov,

V.G.Kostomarov, Yu.V.Rojdestvenskiy, G.Y.Solganik S.I.Treskova, I.P.Lisakova, B.V.Krivenko, A.N.Vasileva kabi olimlar katta hissa qo'shgan [4]. Mediamatn atamasi ilk bor T.G.Dobrosklonskayaning "Вопросы изучения медиатекстов" asarida qo'llanilgan. Mediamatnning janrga xos tavsiflaridan biri mediamatn markazida voqea emas, balki mediavoqea turadi, ya'ni muallif ongida aks etib bo'lgan voqelik turadi. "Mediavoqea – bu jurnalist ijodiy faoliyati jarayonida olingan voqelik modeli. Mediamatnda tilning murakkab tabiati (ijod materiali), ijodning shaxsiy lisoniy didi va moyilliklari, bosma nashr, televizion kanal, radiostansiyaning manfaat va imkoniyatlari hamda boshqa omillarning o'rni juda muhimdir. Shuningdek, unda gazeta, radio, kino, televideniye, audio, video va boshqa mass-media tillarida mazmuni bo'yicha bir xilda beqaror auditoriyaga qaratilgan, u bilan muloqot texnika vositasida amalga oshirilgan umumiylik kuzatiladi". Mediamatnning asosiy kategoriyalari – mediaviylik (matnning u yoki bu mediavositalar yordamida mujassamlashuvi, kanalning format va texnik imkoniyatlari bilan determinatsiyalanishi), ommaviylik (ham mediamahsulotlarning ishlab chiqarilishi, ham iste'mol qilish sohasida), integrativlik yoki matnning ko'p kodliligi (turli semiotik kodlarning yagona kommunikativ yaxlitlikka birlashuvi), matnning ma'no-mazmun, kompozitsion tuzilish va belgili darajadagi ochiqligi hisoblanadi [6]. An'anaviy ravishda ommaviy kommunikatsiya matnlarning barcha tarkibiy unsurlari va darajalari lisoniy va ekstralingvistik omillar bilan birga tahlil qilinadi: mediamatnlarni tuzish va tarqatish usullarining ularning lingvo-format xususiyatlariga ta'siri, funktsional janr tasnifi masalalari, fonologik, sintagmatik va stilistik tavsiflar, interpretatsion xususiyatlar, madaniy-sputifik belgilar, mafkuraviy modallik, pragmalingvistik bahosi va boshqalar shular jumlasidan [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Ommaviy axborot vositalarini medialingvistikaning obyekt sifatida o'rganadigan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analogik tahlil, analiz va sintez kabi metod va usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mediamatni ommaviy kommunikatsiya vositasi sifatida qarab, quyidagilarga to'xtalamiz: OAV matni –

jurnalning ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyati mahsuli bo'lib, matn uning auditoriya bilan o'zaro aloqasi – kommunikatsiyasi hisoblanadi va til sistemasi amalga oshirilishida jurnalistikani muayyan ijtimoiy-madaniy ko'rinishi hisoblanadi. OAV matni olam modelini aks ettiradi, matnlar jamligi esa muayyan davr madaniyatini namoyish etadi. Jurnalistik matn diskurs bo'lib, matn tushunishda zarur bo'ladigan matndan tashqari ekstralingvistik omillardan (dunyo to'g'risidagi bilim, fikr, adresat maqsadi) ham tashkil topgan murakkab kommunikativ tushunchadir. Jurnalistik matn bir necha tarkibiy qismlar, shu qatorda jurnalist, chop etuvchi va o'quvchi, auditoriya o'zaro faoliyat yurituvchi harakatdagi sistemaning muhim elementi sifatida o'ziga xos tushunchadir [8]. OAV matnining yaratilishi adabiy til qonunlari, tilning milliylik xususiyatlari bilan ham bog'liq. OAV zamonaviy hayotimizning barcha tarmoqlariga kirib borgan. Shu bois mediamatnlar mavzusi ham chegaralanmagan, hamma soha va yo'nalishlarga doir masalalarni qamrab oladi. Jamiyatning axborotlashuv jarayoni kuchayib borgan sayin media oqimining harakati ham jadal ravishda tezlashmoqda. Bu oqimning markaziy birligi mediamatn hisoblanadi. Shubhasiz, mediamatn radioeshittirish, matbuotdagi maqola va yangiliklar, televideniye, Internet tarmoqlari va shu kabi boshqa ommaviy axborot vositalarini o'z qamrovi doirasiga kiritmoqda. Mediamatn – bu “yangi kommunikatsion mahsulot” sanaladi. U verbal, visual, ovozi, multimediyaga ko'rinishidagi turli mediaviy vositalar hisoblangan gazetalarda, jurnallarda, radio, televideniye va boshqalar tarkibiga kiritilishi mumkin [5]. Radioda og'zaki matn audio vositalar – ovoz sifati va musiqiy hamrohlik bilan qo'shimcha emotsionallikni oladi. Matbuotda esa uzatilayotgan mediamatnning rang va shakl jihatdan mukammal ko'rinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Matnning turli tasvirlar bilan boyitish, sahifalar sifati, ma'lumotlarning o'rinni ketma-ketligi va axborotga nisbatan nomning munosib tanlanishi, sarlavhaning tashqi ko'rinishi ham media qiziquvchilarini o'ziga jalb etadi. Televideniye materiallari boshqa ommaviy axborot vositalariga nisbatan chegara diapozonining kengligi bilan ajralib turadi. Video va audio ko'rinishidagi mediamatnlar tasvirlarning tiniq va aniqligi, ranglardagi uyg'unlik va keng auditoriyaga mo'ljallanganlik xususiyati bilan farq qiladi. Matbuot insonga matn orqali (mantiqiy) ta'sir qilsa, radio ham matn, ham ovoz bilan, televideniye esa matn, ovoz bilan birga tasvir ham qo'shilgan holda ta'sir qiladi. Shuning uchun televideniye auditoriyaga ta'sir etish borasida qisqa vaqt, 20-30 yil ichida boshqa vositalardan o'zib ketdi va yetakchi vosita bo'lib qoldi. Internet tarmoqlari esa axborot yetkazishning chegara bilmas turi hisoblanadi [1].

Telegram, Telegramning Vidogram, Mobogram, Aka, Plus, BlackGram, BestGram, TeleVPN sinari ko'rinishlari, shuningdek, Instagram, Facebook, WhatsApp, IMO, Skape, Viber, Line, WeChat, KakaoTalk, Zalo, BBM, ChatOn kabi Internet messenjerlari o'zining texnik imkoniyati kengligi, axborot uzatib berish tezligi, media vositalardan foydalanish qamrovining kengligi, ma'lumot almashinuv davrida video, audio, tasvir, grafik va shakliy belgilarning takrorlanmas xillarining qo'llanilishi bilan ahamiyatlidir. Bu kabi Internet messenjerlaridan jahonning turli davlatlarida turlicha foydalaniladi. Internet messenjerlaridan dunyo mamlakatlarida ishlatilish o'rni bo'yicha bir necha bor statistik tadqiqotlar olib borilgan. “Mobinfo.uz” saytining ma'lumoti bo'yicha WhatsApp va Facebook messenjerlari dunyoning 109 mamlakatida Android bazasidagi eng ommabop mobil dasturlarga aylandi. Undan keyingi o'rinni Telegram egalladi. Bunday ma'lumotlar dunyoning 187 mamlakatini qamrab olgan Similarweb tahlil kompaniyasi hisobotida keltiriladi. Unga ko'ra, WhatsApp 109 ta davlatda, jumladan, Braziliya, Meksika, Hindiston, Rossiya hamda Shimoliy Amerika, Yevropa, Osiyo va Okeaniyaning ko'plab mamlakatlarida yetakchilik qilmoqda. O'z navbatida, Facebook Messenger 49 ta mamlakatda yetakchilik qildi. Ular orasida Avstraliya, Kanada va AQSh bor. Bepul Viber messenjeri Belarus, Moldova, Ukraina, Iroq, Liviya, Shri-Lanka kabi o'nta mamlakatda eng ommabop bo'lib chiqdi. Line, WeChat va Telegram messenjerlar tegishli ravishda Yaponiya, Xitoy va Eronda eng ommabop hisoblanadi [3]. Janubiy Koreyada KakaoTalk

messenjeri, Kubada Imo, Vyetnamda Zalo, Indoneziyada BBM messenjerlari yetakchilik qildi. Hisobotga ko'ra, Telegram dasturi O'zbekistonda eng ommabop mobil messenjer hisoblanadi. Dastur yana 14 ta mamlakatda ham yetakchidir.

Taniqli media tili tadqiqotchisi Alan Bell o'zining “Ommaviy axborot vositalari nutqiga yondashuvlar” kitobida shunday yozadi: “Ommaviy axborot vositalari matnining ta'rifi matnga bosilgan yoki qog'ozda yozilgan so'zlar ketma-ketligi sifatidagi an'anaviy qarashdan tashqariga chiqadi. Media matn tushunchasi ancha kengroq; u ovoz sifati, musiqa va ovoz effektlari, vizual tasvirlarni o'z ichiga oladi – boshqacha qilib aytganda, media matnlar aslida ularni ishlab chiqarish va tarqatishda qo'llaniladigan texnologiyalarni aks ettiradi. Mediamatn ta'limoti ko'lamli va ko'p miqyosli hodisa sifatida shunday muayyan mediamatnning yaratilishi, tarqatilishi va lingvofomatlarini jihatidan, iloji boricha aniqroq tavsiflash imkonini beradigan barqaror xususiyatlar sistemasi bilan ham boyitiladi. Mazkur sistema: - matnning yaratilish usuli (muallif yoki jamoa tomonidan); - yaratilish shakli (og'zaki va yozma); - qayta ishlab chiqarish shakli (og'zaki va yozma); - tarqatish kanali (OAV – matbuot, radio, televideniye, Internet); - matnning janri turi (yangiliklar, sharh, publitsistika, reklama) kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Matn yaratilish usuliga ko'ra mualliflik yoki kollegial (jamoaviy) bo'lishi mumkin. Uni yaratishda bir yoki undan ortiq haxslarning ishtirok etgani, axborot matnini namoyish etishda mualliflik ko'rsatilganligi yoki ko'rsatilmaganliginijuda muhim. Ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan muayyan mualliflik axborotlari, xususan, jurnalist, sharhlovchining maqolasi, muxbirning hisoboti kabilar mualliflik matni hisoblanadi [6].

Mediamatnning yaratilish shakli va qayta ishlab chiqarish shakliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ikkida ham bir xil “og'zaki-yozma” tipologik mezoni ishtirok etmoqda. Hammamizga ma'lum, og'zaki nutq va yozma nutq tilimizdagi asosiy nutqiy bo'linish sanaladi. Nutqning yozma yoki og'zaki tarzda qo'llanilishi ommaviy muloqot jarayonida bir qator o'ziga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Mediamatnlar audio, video variantda og'zaki, matnga qo'shimcha ravishda turli tasvirlar, shakliy belgilardan foydalanilgan holda yozma ravishda yaratilishi mumkin. Aloqa almashuvchilar o'rtasida dastlab og'zaki yaratilgan matnlar yozma shaklda yoki yozma matnlar esa bir necha vaqtlardan so'ng og'zaki tarzda qo'llanilishi mumkin. Ahamiyat bersak, xabar va yangiliklar sharhlovchilari uchun o'qib eshittirilishi lozim bo'lgan ma'lum axborotning yozma ko'rinishi kamera ortidagi monitorida aks etadi. Dastlab yozma shaklda yaratilgan ushbu nutq sharhlovchining og'zaki nutqi bilan o'qib eshittiriladi. Muayyan axborot, yangilik va shu kabilarning keng ommaga yetib borishi uchun ularni tarqatayotgan ommaviy axborot vositalarining o'rni juda ham muhim. Matbuot, radio, televideniye, Internet singari OAV mediamatnlarning lingvistik xususiyatlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Axborot tarqatayotganda imkon qadar auditoriyasini faol foydalanuvchilar bilan to'ldirgan ommaviy axborot vositalari turidan foydalanish yaxshi samara beradi [2].

Xulosa va takliflar. OAV muntazam takrorlanadigan yoki mavzu jihatdan barqaror bo'lgan mediamatnlar yordamida dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlar to'g'risidagi axborotlarni tartibga soladi. Mediamatn mavzulari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, sport, madaniyat, fan-ta'lim yo'nalishlaridan biriga qaratiladi. Shu bilan birga OAV matnlarida lingvomadaniy omillarning ham ta'siri katta, chunki har bir mamlakatning OAV da mavzu jihatdan barqarorlashgan axborot matnlarini bo'ladi. Korruptsiya, siyosiy va harbiy kurashlar, jinoyit to'qnashuvlar, turli talafotlar tafsilotlari deyarli barcha davlat ommaviy axborot vositalari uchun takrorlanadigan mavzular sanaladi. Ko'plab davlat muxbirlarini jalb qiladigan bu kabi qiziqarli va dolzarb mavzular OAV da tez-tez shov-shuv ko'tarib turadi. Mediamatn matnga nisbatan yangi tushuncha va yaqin yillar ichida qamrov doirasini kengaytirib yubordi. Unda faqat og'zaki va yozma axborot emas, balki ularga qo'shimcha tarzda qo'llaniluvchi, mazmun ortida yashiringan ma'noni ochib berishga ko'maklashuvchi turli nolisoiy vositalar ishtirok etmoqda. Bu esa tilshunosligimizda mediamatnning o'ziga xos o'rni mavjudligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR

1. Bell A. Approaches to Media Discourse. – London: Blackwell, 1996. – 129 p.
2. Mo'minov F. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. – Toshkent. 1998. – 192 b.
3. Teshaboyeva D.M va boshq. Jurnalistika: Medialingvistika va tahrir. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 372 b.
4. Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиа текстов. Опыт исследования современной английской медиаречи. – Москва: МАКС Пресс, 2000. – 212 с.
5. Добросклонская Т.Г. Медиалингвистика: системный подход к изучению языка СМИ. – Москва. 2008. – 102 с.
6. Казак М.Ю. Медиа-текст: сущностные и типологические свойства //Global Media Journal. Глобальный медиажурнал. Российское издание. 2011. – 306 с.

7. Кожанова В.Ю. Проблема рецепции медиатекста как фактор взаимодействия автора и читателя // Гуманитарные исследования: Материалы Междунар. интернет-конф. "Актуальные проблемы журналистиковедения, литературоведения, книговедения смежных областей знания" – Краснодар: КСЭИ Парабеллум, 2010. – 76 с.
8. Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: 1990. – 458 с.



UDK: 82.091:82-131

Dildora BAHRIDDINOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: dildora6581042@gmail.com

O'zRFA doktoranti, PhD A.Eshniyozova taqrizi asosida

UMARALI NORMATOV AND HIS CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF THE UNIVERSITY SCHOOL OF LITERARY CRITICISM IN UZBEKISTAN

Annotation

The article is devoted to the study of the scientific heritage of Umarali Normatov, an outstanding Uzbek literary scholar and critic. The work analyzes the key factors that determined the formation of his scientific school in the university environment, and also examines the main achievements of the scientist in the field of literary criticism for more than sixty years of creative activity.

Key words: Literary criticism, literary criticism, critic, National University of Uzbekistan, scientific environment, literary-critical thinking, recognition of teachers, activities of the scientist.

УМАРАЛИ НОРМАТОВ И ЕГО ВКЛАД В РАЗВИТИЕ УНИВЕРСИТЕТСКОЙ ШКОЛЫ ЛИТЕРАТУРНОЙ КРИТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Статья посвящена исследованию научного наследия Умарали Норматова – выдающегося узбекского литературоведа и критика. В работе анализируются ключевые факторы, определившие формирование его научной школы в университетской среде, а также рассматриваются основные достижения ученого в области литературной критики за более чем шестьдесят лет творческой деятельности.

Ключевые слова: Литературоведение, литературоведение, критик, Национальный университет Узбекистана, научная среда, литературно-критическое мышление, признание преподавателей, деятельность ученого.

UNIVERSITET TANQIDCHILIK MAKTABINING SHAKLLANISHIDA UMARALI NORMATOVNING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotshunosligining yirik vakili, tanqidchi Umarali Normatovning ilmiy faoliyati, universitet ilmiy-adabiy muhitida tutgan o'rni o'rganilgan. U.Normatovning adabiyotshunos sifatida shakllanishida muhim o'rin tutgan omillar, olimning bu dargohda oltin yildan ziyod vaqt moboynda erishgan yutuqlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Adabiyotshunoslik, adabiy tanqid, munaqqid, O'zbekiston Milliy universiteti, ilmiy muhit, adabiy-tanqidiy tafakkur, ustozlar e'tirofi, olimning faoliyati.

Kirish. XX asrning 50-60-yillari Milliy universitet Respublika adabiy-tanqidiy tafakkurining yetakchi markazlaridan biriga aylangan edi. G'ulom Karimov, Subutoy Dolimov, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Umarali Normatov, Sanjar Sodiqov, Norboy Xudoyberganov, Abdug'afur Rasulov, Begali Qosimov kabi adabiyotshunos olimlar sa'y-harakati tufayli bu maskanda kuchli ilmiy maktab shakllandi. Ular orasida adabiyotshunos, munaqqid, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori, O'zbekiston Respublikasi Xalq maorifi a'lochisi, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Umarali Normatovning alohida o'rni bor. Umarali Normatovsiz XX asr o'zbek adabiyotshunosligi, tanqidchiligini tasavvur etib bo'lmaydi. Ozod Sharafiddinov domla aytganlaridek, "Umarali Normatov haqida gapirish ma'lum ma'noda bugungi o'zbek tanqidchiligi haqida gapirmoq demakdir"[1]. Boisi Umarali Normatovning olim, munaqqid sifatida adabiy jarayonga ta'siri, kitobxon didini shakllantirishdagi xizmatlari nihoyatda katta. Zamonaviy tanqidchilik erishgan yutuqlarda I.Sulton, H.Yoqubov, M.Qo'shjonov, N.Xudoyberganov kabi munaqqidlar qatorida U.Normatovning alohida o'rni bor.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Domlaning butun umrlik mehnat faoliyati O'zbekiston Milliy universitetida kechdi. Taniqli adabiyotshunos O.Sharafiddinovga shogird tushdi, uning rahbarligida o'zbek hikoyachiligining badiiy taraqqiyoti muammolarini o'rgandi. O'zbek hikoyachiligining taraqqiyot tamoyillari haqida nomzodlik dissertatsiyasini, keyinroq doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. "Mening universitetda topgan eng katta boyligim, baxtim shuki, men Ozod Sharafiddinovning birinchi aspirant shogirdi bo'lish sharafiga muyassar bo'lganman. Yarim asr u bilan birga ishlash, hamkoru hamnafas bo'lish men uchun Allohning inoyati deb bilaman. Milsiz iste'dod sohibi, shaxsi butun bu siymoning ijodiy jasorati tufayli Milliy universitetimiz mamlakatimizda zamonaviy ilmiy-adabiy jamoatchilik tan olgan adabiy-tanqidiy tafakkur markazlaridan biriga aylandi"[2].

U.Normatovning O.Sharafiddinovga shogird bo'lishi voqeasi 1959-yilga to'g'ri keladi. Olim belgilangan uch yil davomida "Hozirgi o'zbek hikoyachiligi rivojining asosiy tendensiyalari" degan mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi. Hozirgi Milliy universitetda o'qituvchilikdan professorlikka bo'lgan ilmiy-pedagogik yo'lni bosib o'tdi. Bu haqda ustoz O.Sharafiddinov shunday deydi: "Avval u o'qituvchi bo'ldi, keyin dotsent bo'lib ishladi. Bundan bir necha yil muqaddam o'zbek sovet adabiyoti kafedrasini tashkil qilinganida hammamiz yakdillik bilan Umaralini kafedra mudiri qilib sayladik. Bu orada u doktorlik dissertatsiyasini yoqlab, professor bo'ldi" [3]. U. Normatov uzoq yillar kafedrani boshqardi, o'zi ham ustozlik darajasiga ko'tarilib, o'nlab fan nomzodlari va doktorlariga rahbarlik qildi. Umarali Normatov Ozod Sharafiddinov ilmiy maktabining munosib davomchisi sifatida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirdi. Domla ustozlik qilgan D.Quronov, H.Boltaboyev, B.Karimov, U.Hamdamov singari shogirdlarining o'zi bugun ustoz maqomiga yetdi. Umarali Normatov 1957-yildan to umrining so'ngigacha adabiy-tanqidiy va ilmiy maqolalari bilan adabiy jarayonda ishtirok etdi. Munaqqidning "Janr imkoniyatlari", "Mahorat sirlari" (M.Qo'shjonov bilan hamkorlikda), "Nasrimiz ufoqlari", "Go'zallik bilan uchrashuv", "Nasrimiz an'analari", "Said Ahmad", "Shuhrat", "Talent tarbiyasi", "Yetuklik", "Aql va qalb chirog'i", "Davriy tuyg'usi", "Ijodkorning daxlsiz dunyosi", "Ijodkorning haroratli so'zi" singari monografiya va adabiy portretlari o'zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida muhim iz qoldirdi. "Qalb inqilobi", "Qodiriy bog'i", "O'tkan kunlar hayrati" singari tadqiqotlari zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining jiddiy yutuqlaridan sanaladi. Munaqqid olim adabiyotda pay do bo'lgan yangi adabiy-estetik tamoyillarni aniqlash, hozirgi adabiy jaryonning nazariy muammolarini tadqiq etishga ham e'tibor qaratdi. "Umidbaxsh tamoyillar", "Tafakkur yog'dusi", "Ijod sehiri", "Qodiriyning so'nggi iltijosi", "Ijodkorning haroratli so'zi", "Yarim asr porlagan mayoq" kabi kitoblari, e'lon qilingan yuzlab adabiy-tanqidiy maqolalarida ayni shu muam molarni tadqiq etdi. U.Normatovning Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor ijodlari haqidagi

tadqiqotlari, maqolalari adabiy jarayonda o'ziga xos o'rin tutadi. Umarali Normatov o'zbek tanqidchiligining janr rang-ba rangligini boyitish yo'lida muttasil izlanishlar olib boruvchi peshqadam ijodkoridir. U taqriz, adabiy-tanqidiy maqola, adabiy subhatlari adabiyotshunosligimizda kata o'rin tutadi. XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek tanqidchiligida adabiy subhat janrning shakllanishi va rivoji, yetakchi janr lardan biriga aylanishida U.Normatovning hissasi katta. Umarali Normatov adabiy jarayonga faol ta'sir ko'rsatgan, muntazam ravishda kuzatgan munaqqiddir.

Natijalar. Umarali Normatov o'zbek tanqidchiligining turfa janrlarida izlanishlar olib borgan munaqqiddir. Olimning qator taqriz, adabiy-tanqidiy maqola, adabiy portret, adabiy subhat kabi adabiy tanqid janrlarida yaratgan ijod namunalari, monografik planda olib borgan izchil tadqiqotlari adabiyotshunosligimiz xazinasini boyitgani shubhasiz. Munaqqidning izlanuvchanligi adabiyotning yangi-yangi muammolarini dadil ko'tarib chiqishida va bu ularni qiziqarli tahlil qilish yo'llari, usullarini aniqlashga intilishini ko'rsatadi. Munaqqid Matyoqub Qo'shjonov ham U.Normatovga nisbatan ijobiy ta'riflar bergan: "Umarali Normatov hozir javob munaqqid. Biror adabiy faktni nazaridan tushirib qoldirmaslikka harakat qiladi. U mehnatkash, fikrlari baquvvat, aksariyat paytlarda asosli. Ifodada esa fikrlari jonli" [3]. U.Normatov zamonaviy o'zbek adabiyotini o'rganganda unga jahon adabiyotining taraqqiyot tamoyillari mezon bilan yondashishga harakat qildi. Ular hamisha badiiy adabiyot va adabiy tanqidchilikning yuksak saviyasi uchun kurash olib bordi. Nasr, she'riyat va dramaturgiyadagi eng muhim tamoyillarni o'z vaqtida anglab, sayoz asarlarni aniqlab, o'z fikrlari bilan tanqid qildi. Bunga "Go'zallik bilan uchrashuv" (1976) asari yorqin misol bo'la oladi. XX asrning 80-yillarida metod va hozirgi adabiy jarayon muammolarini ilmiy va ko'lamli tarzda tadqiq etishga intilish kuchaydi. U.Normatovning "Yetuklik" va "Qalb inqilobi" kitoblari ana shu talablar asosida dunyoga keldi. Bu har ikkala kitob ham o'zbek tanqidida yangilikka, umumlashmalar yaratishga intilish kuchayotgani, janrlar doirasi kengayotgani, uslublar rang-baranglashayotgani hamda munaqqidlarning ixtisoslik saviyasi, mahorati yuksalib borayotgani haqida tasavvur beradi. Umarali Normatov 1991-yil mart oyidagi Vazirlar Mahkamasi qaroriga asoslanib umum ta'lim maktablari uchun tubdan yangilangan adabiy tafakkur asosida darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish bo'yicha mualliflar guruhiga rahbarlik qilgan. Mohir pedagog rahbarligida adabiyot o'qitishning yangicha konsepsiyasi ishlab chiqildi, hamda unga muvofiq dasturi va darsliklari yaratish bo'yicha mualliflar guruhiga rahbarlik qilib 5,9,11-sinflar uchun darslik, qo'llanmalar muallifi sifatida qatnashdi. Istiqol mutaxassislar oldiga barcha fanlar, xususan, ijtimoiy gumanitar yo'nalishlar bo'yicha yangi tuzum talablariga javob bera oladigan darslik, qo'llanmalar yaratishdek muhim sohada ham munaqqid o'z faolligini ko'rsatdi. Munaqqid N. Karimov, B.Nazarovlar bilan hammualliflikda 11-sinflar uchun "XX asr o'zbek adabiyoti" darsligini yaratdi. Darslikda milliy uyg'onish davrining buyuk namoyandalari ijodi mustaqillik g'oyalari ruhida talqin etildi. Xuddi shuningdek, 9-sinflar uchun yaratilgan darslik mualliflaridan biri ham U. Normatovdir. Universitetlar va pedagogika institutlari talabalari uchun yozilgan "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi" darsligi ham O.Sharafiddinov, N.Karimov, S.Mamajonov, B. Nazarov va U. Normatov hamkorligida yaratildi. "Yangi o'zbek adabiyoti" darslik-qo'llanma kitobi nashr etildi. U.Normatovning yangi ruhdagi adabiyot va uning rivoji, modernizm haqidagi maqolalari yosh tanqidchilarga kerakli manba bo'ldi.

Muhokama. "Anketalardagi "Qayerda o'qigansiz va qayerda ishlagansiz?" degan savollarga mening javobim bitta- hozirda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti deb yuritilayotgan qutlug' dargohda oliy va aspirantura ta'limini olganman, salkam oltmish yillik umrim shu dargohda o'tdi, nomzodlik, doktorlik ilmiy darajalari, professorlik ilmiy unvoni, kafedra mudirligi lavozimi, O'zbekiston Respublikasi Fan arbobi, Davlat mukofoti laureati unvonlariga shu dargohdagi xizmatlarim evaziga erishganman" [4], deydi. U.Normatov universitet talabasi bo'lgan chog'ilaridayoq ustozlari e'tirofiga sazovor bo'lgan edi. Olim zamonaviy o'zbek adabiyoti, xususan, o'zbek romanchiligi masalalari bo'yicha ham yetuk mutaxassis sifatida tanilgan edi. Filologiya fanlari

doktori, professor Umarali Normatovni nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyo davlatlari filologik yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari ham jonkuyar murabbiy, taniqli adabiyotshunos olim sifatida e'tirof etar edi. Adabiyotshunos olimning adabiy-tanqidiy ishlari yaxlit holda zamonaviy adabiy jarayon hamda yangi o'zbek adabiyoti tarixi, taraqqiyoti masalalariga bag'ishlangan bo'lib, uning qalamiga mansub milliy adabiyotimizning nodir asarlari tahlili, yangi o'zbek adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot tamoyillariga oid ilmiy-nazariy ishlar adabiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan. Adabiy-tanqidiy maqolalari uchun "Sharq yulduzi", "Tafakkur", "Guliston" jurnallari mukofotlarini olgan. "Qodiriy mo'jizasi" kitobi orqali o'quvchi olimning qalb haroratini his etadi, zavq-shavqqa to'la hayajonli adabiy-ilmiy tahlillarga guvoh bo'ladi. Albatta, olim bu kitobni bir-ikki yil ichida yoki bir o'tirishda yozgan emas. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodining barcha qirralarini, adibga munosabat bildirgan ilmiy asarlarni o'rganish, tadqiq etish – uzoq davom etgan mashaqqatli ish. Umarali Normatov bu ish bilan umri davomida mashg'ul bo'ldi. O'rmi kelganda izlanishlarini, kuzatishlarini qog'ozga tushirdi. U.Normatovning vaqti matbuotda bosilgan maqolalarining soni besh yuzdan ko'p, alohida nashr qilingan kitoblari soni yigirmadan ortiq. O'tgan 2010-yilning o'zida Umarali Normatovning bir-biridan sifatli ikkita kitobi bosilib chiqdi. Biri olti bo'limdan iborat adabiy-tanqidiy maqolalar, esselar, xotiralar, qayd va subhatlarni o'z ichiga olgan "Nafosat gurunglari" deb atalgan bo'lib, undagi juda ko'p maqolalar o'quvchilar hukmiga ilk bora havola etilmoqda. Shunisi hayratlanarliki, ustozning ijod sandig'ida hali e'lon qilinmagan ishlar ham ko'p ekan. Kitobning "Ustozlar ibрати" va "Safdoslar davrasida" deb atalgan dastlabki bo'limlaridagi maqolalarni o'qib, Umarali Normatovning qiyofasiga xos yana bir belgini sezish mumkin. Bu ustozning yuksak ma'naviyatli, qat'iy iymon-e'tiqodga ega bo'lgan shogirdlik va do'stlik tuyg'usidir. O'zining tan olishicha, universitetda o'qib, ishlab topgan eng katta boyligi, baxti Ozod Sharafiddinovdek buyuk ustozga shogird bo'lganligidir. Ozod Sharafiddinov tufayli Abdulla Qahhor bilan hamsuhbat bo'lish baxtiga erishdi. Ayni chog'da, domla shogird sifatida "Ustozi avval", G'ulom Karimov, "Odamoxun siymo", "Subutoy Dolimov", "Sharq-G'arb tadqiqotchisi" Fozila Sulaymonova, "Olim, tarjimon, murabbiy" Shoislam Shomuhamedov kabi ustozlari, hamkasb do'stlari Nuriddin Shukurov, Begali Qosimov, Norboy Xudoyberganov, Abdug'afur Rasulovlar to'g'risida ham samimiyat va mehr bilan hikoya qiladilar. Shu boisdan ham qanday martabaga, obro'-e'tiborga erishgan bo'lsa, buning uchun Umarali Normatov eng avval, ana shu ustozlariga ta'zim qiladi. Ehtimol, shuning uchundir Umarali Normatovning "o'zi ham shogirdlarining yuksak mehr-muhabbatiga sazovor bo'lib kelgan.

Xulosa. Umarali Normatov – izlanuvchan tanqidchi edi. "Tanqidchi – alohida iqtidor sohibi. Tanqidchi – ijodkor. Yozuvchi hayot orqali kitobga boradi. Tanqidchi kitob orqali hayotga kiradi. U kitoblarni ochadi. Doim shu ma'noda kashfiyotga moyil. Muallimga eruditsiya suv va havodek zarur. Lekin tanqidchini eruditsiyasiz mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Eruditsiya yetilgandagina tanqidchi yetiladi" [5] – degan edi O'zbekiston san'at arbobi, adabiyotshunos Ibrohim G'ofurov.

"Sharq yulduzi" jurnali, 2014-yil, 2-sonida tilshunos alloma Ayyub G'ulomov haqida domla Umarali Normatovning "Til ilmining shoiri" nomli maqolasi bor. Shu maqolada domla A.G'ulomovni xotirlab shunday deydi: "Nihoyatda ko'rkam, adlqomat, ozoda, saranjom-sarishta, chehrasidan nur yog'ilib turadigan bardam-sog'lom bo'z zot yuz yil yashasa kerak, deb yurardim. Unday bo'lmadi. Butun umri, ilmiy-pedagogik faoliyati mustabid tuzum bosimi, talotumlari, mafkuraviy-siyosiy tazyiqi ostida kechgan bu benazir olim asl maslagi, orzu-intilishlari, dardu alamlari, hasratlarini ichiga yutib-yutib, hatto eng yaqinlariga ham ularni oshkor etmay, etolmay 70 yoshga yetmay birdan bo'kib qoldi, og'ir yurak xastaligiga uchradi, 72 yoshida olamdan o'tdi. Domlamiz oramizdan ketishi bilanoq, universitet, mahalla, til ilmi, qolaversa, mening hayotimda tiklab-tuzatib bo'lmaz bir kentiklik, o'pirilish yuz berdi". Taassuf bilan aytish lozimki, adabiyotshunosligimiz darg'asi Umarali Normatovning o'limidan keyin universiteti, adabiyot va biz shogirdlar hayotida ham ulkan kentiklik, o'pirilish bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Sharafiddinov O. Umarali Normatov haqid bilganlarimdan bir shingil/Domlalar. –Toshkent
2. Normatov U. Шафаф ва бурч // Нафосат гурунглари. –Тoшкент, Мухаррир, 2010. – Б.5.
3. Qo'shjonov M. Qalb va qiyofa. – T.: 1978. –B.63.
4. Normatov U. Шафаф ва бурч // Нафосат гурунглари. –Тoшкент, Мухаррир, 2010. – Б.5.
5. G'afurov I. U.Normatov Biobibliografiya. –T.: Mumtoz so'z, 2021. –B.44.



UDK:821.221.31.0

Shaxnoza BEGIMKULOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: cool.begimkulova@inbox.ru
Feruza MAMASHUKUROVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti

Guliston davlat pedagogika institute dotsenti X.Mamatova taqrizi asosida

AFG'ON-AMERIKA ADABIYOTI ADIBALARI IJODIDA AYOL SADOQATI

Аннотация

Mazkur ishda Afg'on-amerika adabiyotining yirik namoyondalaridan Faruqa Gavhariy "Serarching for Saleem: An Afghan Woman's Odyssey" (Salimni izlab: Afg'on ayoli Odisseyasi) va Nilufar Paziraning "A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan" ("Qizil gullar oshyoni: Afg'onistonimni izlab") mashhur asarlarining badiiy reallik asoslari asosida ayol sadoqati turli rakursda ochib berilgan. Undagi real hayotiy voqealar yozuvchilarning mahorati bilan boyitilganiga guvoh bo'lamiz.

Kalit so'zlar: Multikulturalizm, Afg'oniston, badiiy haqiqat, diaspora, kuptarkiblilik, multi-irq, multi-diniy.

ЛОЯЛЬНОСТЬ ЖЕНШЕН В ТВОРЧЕСТВЕ ПИСАТЕЛЕЙ АФГАНО-АМЕРИКАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация

В данной работе раскрываются основные художественные реальности знаменитых произведений "Serarching for Saleem: An Afghan Woman's Odyssey" («Поиски Салима: Одиссея афганской женщины») Фаруки Гавхари и Нилюфар Пазира и её "A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan" (Клумба красных цветов: в поисках моего Афганистана) одних из великих писательниц афгано-американской литературы. В нем мы становимся свидетелями о лояльности женщин на фоне реальных событий, обогащенных писательским мастерством.

Ключевые слова: Мультикультурализм, Афганистан, художественная реальность, diaspora, мультиэтничность, мульти-расовая принадлежность, мультирелигиозность.

FEMALE LOYALTY IN THE WORK OF AUTHORS OF AFGHAN-AMERICAN LITERATURE

Аннотация

This work reveals the basic artistic reality of the famous work "The Searching for Saleem: Afghan Woman's Odyssey" by Farooka Gauhari and Nelofer Pazira's "A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan" great writers of Afghan-American literature. In these works, we become witnesses of real events, enriched with writing skills.

Key words: Multiculturalism, Afghanistan, artistic reality, diaspora, multiethnicity, multiraciality, multireligiousness.

Kirish. O'tgan asrning so'nggi o'n yilliklari tabiiy ravishda, global tarzda qayta ko'rib chiqish, xulosa qilish, ko'p qirrali, qarama-qarshi haqiqatni va undagi shaxsni aniqlashga qaratilgan ko'plab urinishlar, intensiv madaniy o'z-o'zini aks ettirishi, hamon yangi ma'noga ega bo'lmagan va o'z obro'sini yuqotgan dunyoga reaksiyasi sifatida namoyon bo'ldi. AQShning madaniy migratsiya tufayli burilish davri, o'tish davri, turli madaniyatlar nazariyasi va amaliyotning jadal rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, asosan o'zaro mutanosib va nomutanosibliklar, ko'p tarkibli madaniyat va adabiyot bilan bog'liq boshqa muammolarni qayta ko'rib chiqish davri boshlandi. AQShda yana bir "madaniy urushlar" avj oldi, ularning markazida milliy "kanon" va urf-odatlar Amerika madaniyatidagi birdamlik, rang-baranglik, tafovut muammosi, "o'ziga xos inqilob", nihoyat, multikulturalizm yoki madaniy xilma-xillik kabi tushunchalar yotibdi: ijtimoiy-madaniy majmua. Amerika so'nggi yillarda o'zini namoyon qilmoqda yan'i milliy madaniyat rivojidadagi markazdan qochish va turli xil tendensiyalarni yana bir bor qiladigan model.

Siyosiy vaziyat va ommaviy ko'chish shuni taqozo qilgan sari ya'ni global darajada "ko'ptarkiblilik" "multikulturalizm", "multikulturjamiyat", "multikulturali" kabi bir qator tushunchalar paydo bo'ldi. Bugungi multikulturali jamiyat, ilgari "multi-millat", "multi-etnik", "multi-diniy", "multi-irk" deb atalib kelingan. "Multikulturalizm" termini XX asrning 60 yillarida Kanadada ilk bor muomalaga kiritilgan bo'lsada, tushuncha mohiyatini amaliyotda keng qo'llovchi AQShda o'tgan asrning 70 yillaridan boshlab keng jamoatchilik tomonidan qo'llanila boshlandi.

Adabiyotlar tahlili. Badiiy adabiyotda ayol sadoqati keng va chuqur mavzulardan biri bo'lib, u asarlar orqali turli shakllarda ifoda etilgan. Ayol sadoqati ko'pincha oila, sevgi, vatanparvarlik, va umuman, hayotdagi turli sinovlar orqali yoritiladi. Quyida ba'zi mashhur asarlar va undagi ayol sadoqatining yoritilishi o'quvchiga ma'lumdir bulardan: Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida Shirin obrazi ayol sadoqatining yorqin timsolidir. Shirin Farhodni chin dildan sevadi va unga nisbatan o'zining sadoqatini,

fidoyiligini ko'rsatadi. Sevgi yo'lida u ko'p mashaqqatlarni yengadi, qiyinchiliklarga bardosh beradi va Farhodga bo'lgan sadoqati oxirigacha saqlanadi. Shekspirning mashhur "Otello" dramasiida Desdemona Otelloga bo'lgan sadoqati va haloligi bilan ajralib turadi. U turmush o'rtog'ini chin qalbdan sevadi va unga qaramay, tuhmat va shubha ortidan uning fojeali o'limi bilan yakunlanadi. Desdemonaning sadoqati va aybsizligi uning fojiali hayotida markaziy o'rin tutadi. "O'tgan kunlar"da Kumushning obrazi ham sadoqatli ayol sifatida ko'rsatiladi. Kumush Otabelni sevadi va unga chin dildan sadoqatli bo'lib qoladi. U turmush urtog'ining turli sinovlari va mashaqqatlariga qaramasdan, o'z sevgisiga va oilasiga bo'lgan sadoqatini saqlaydi. Tolstoyning "Anna Karenina" asarida esa sadoqat va sevgi murakkab tarzda tasvirlangan. Anna o'ziga va sevgi idealiga sadoqat ko'rsatishga urinadi, lekin bu uning oilasi va ijtimoiy hayoti uchun muammolar tug'diradi. Asar ayolning sadoqati va ijtimoiy odatlar o'rtasidagi ziddiyatni ko'rsatadi. Ayol sadoqati badiiy adabiyotda ko'pincha mashaqqat va sinovlar orqali namoyon qilinadi. Bu sadoqat sevgiga, oilaga yoki insoniy qadriyatlar va e'tiqodlarga nisbatan bo'lishi mumkin. Asarlarda ayol qahramonlar fidoyiligi va matonati bilan jamiyat va insoniylikni yanada chuqurroq o'rganishga imkon beradi. Ayol sadoqati mavzusini biz multikulturalizm adabiyotida ham uchratishimiz mumkin. AQSH adabiyotida "multikulturalizm" tushunchasi ko'p bahs va munozaralarga adabiy tanqidchilar tomonidan duch kelib, adabiyotshunos olimlar doim uning qanday ko'rinishga hamda mezonlarini aniqlab olishga harakat qilib kelishmoqda va ekanligini yozuvchining asari orqali tahlil qilib kelishmoqda. Misol uchun I.V.Kozlik "Мультикультурализм и методологические проблемы литературоведения" ilmiy risolasida

- 1) insoniyatning zamonaviy rivojlanish iyerarxiyasida multikulturalizm muammolarining dolzarbligi;
- 2) multikulturalizm –adabiyotshunoslik tushunchasi emas;
- 3) multikulturalizm kompleks muammo va u yagona bir fan tizimiga taaluqli deb hisoblash noo'rin.[1]

I.V.Kozlikning fikricha, bu oqim yozuvchilari xalqaro postkolonial adabiyotni ko'rsatishi sabab ularning ijodini biror bir aniq milliy adabiyotga yunalitirib bo'lmaydi.

O.B. Karasik "К вопросу о мультикультурализме в современной литературе США" [2] nomli ilmiy izlanishida adabiyotda multikulturalizm tushunchasining qirralarini to'laqonli ochib berishda asoschilaridan biri M.V. Tolstanovanning multikulturalizmga bergan izohiga ijobiy yondoshadi: "u aksincha fanlararo hodisa, mafkurani, falsafani, badiiy aspektlarni o'z ichiga oladigan va antropologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisodiyot, pedagogika va nihoyat adabiyotshunoslik sohalarida faoliyat ko'rsatadi". Multikulturalizm bugungi kunda faqatgina AQSHga tegishli tushuncha emas. U hamma rivojlangan mamlakatlarda jadal bilan o'sib bormoqda va hattoki bir-biriga qarama-qarshi madaniyat bo'lsa xam. Ammo tarixan bu tushunchaning AQSHda salmoqli rivojlanganlini tan olish kerak.

XX asrning boshlarida yagona Amerika millati paydo bo'lib, unga "erituvchi qozon" ("melting pot") deb metaforik nom berildi. Uning ma'nosi turli xil irq vakillarini bir qozonda erib yagona amerika madaniyatini barpo qilish demakdir. Ammo XX asr 50-60 yillarida ko'proq Amerika madaniyatiga to'g'ri keladigan-multikulturalizm konsepsiyasi paydo bo'ladi. Uning asosiy vazifasi yagona milliy Amerika madaniyati ostida mazkur tendensiya vakillari tegishli madaniyat va unga xos xususiyatlarni saqlab qolish edi. Multikulturalizm yozuvchilari o'z ijod namunalari bilan umumiy AQSH adabiyoti rivojiga hissa qo'shdilar va birvaqtning o'zida badiiy adabiyot namunalari o'z etnik koloritini qo'shimcha qilishdi. AQSH multikultura adabiyotining muhim unsurlari bu etnik va irqiy munosabatlardir.

Tahlillar va natijalar. S.P.Tolkachev Angliya adabiyotida "kross-madaniyat"ning muhojir yozuvchilar ijodida namoyon bo'layotganini o'zining "Мультикультурализм в постколониальном пространстве и кросс-культурная английская литература"[3] asarida yoritib bergan. Adabiyotshunos olimning ta'kidlashicha: "muhojir yozuvchilarhar ikki madaniyatga tegishli ekanliklarini anglatotgan bir vaqtning o'zida har ikkalasiga ham tegishli bo'la olmasliklarni his qiladilar. Bunda muhojir yozuvchilar oldidagi asosiy vazifa ularni o'rab olgan ijtimoiy muhitni qabul qilish va inkor etishdan iboratdir. Amerika adabiyotida afg'on-amerika diasporasining vakillariga tegishli ziyoli yozuvchilarning ham o'zni beqiyosdir. Ular orasida ayol yozuvchilarning muvafaqqiyatlari esa adabiyot naqadar chegara bilmay, millat bilmay mo'jiza ekanligini yana bir bor ta'kidlash joizdir. Afg'on ayol yozuvchilaridan Faruka Gavhariy va uning "Searching for Saleem: An Afghan Woman's Odyssey" [4] ("Salimni izlab: Afg'on ayoli Odiseyasi") 1996 yilda yozilgan. Afg'onistonda ayol qismati nechog'li og'ir va yukli bo'lishini asarda reallik asosida ko'rsatilgan. Asar orqali Faruka Gavhariy. Asarda yozuvchi Afg'onistondagi 1978 qonli inqilobdan avvalgi davrdagi oilasining tinch-totuv damlarini esga olib, ichki urushdan oldingi farovon onlarini esga oladi va real voqealar bilan asarida gavalantiradi. Asarning bosh qahramonlaridan Salim, uning turmush urtog'i, siyosiy inqilobdan so'ng bir kechada g'oyib bo'ladi. Kitobning aksar qismi ayolning g'oyib bo'lgan turmush o'rtogini qidirishga big'ishlangan.

Yozuvchi hayot haqiqatiga o'xshash narsa (badiy haqiqat)ni yaratish uchun, hayotiy fakt va hodisalarni o'zining ruhiy laboratoriyasida "qaynatishi", ishlashi, sentizlashtirishi, ya'ni tasavvuri, hayoli, tajribasi, qalbi, dungyoqarashi, tabiati bilan boyitgan va muayyan mavzuga, g'oyaga xizmat qiluvchi eng zarur detallarni, xarakterli va kerakli fakt va hodisalarni tanlagan holda tugallik kasb etgan hayotni yaratishi lozim. Ana shu jumlamizga Faruka Gavhariyning kitobini misol qila olamiz.

Abdulla Qahhor aytganidek, badiiy haqiqat "hayot haqiqatini ko'ngil prizmasidan o'tkazish, uni his qilish, unga o'ylab yurgan gaplarini singdirish, tilak va ideallarini qo'shib ifodalash bilan yuzaga keladi. Badiiy haqiqatni tug'diradigan, mahalla komissiyasining "bunga ishoninlar" degan mazmundagi spravkasiga hojat qolmaydigan fakt va uydirma me'yorini topishning mushkulligiga ham xuddi ana shundaydir" [5]. Faruka Gavhariy o'zining asari haqida oddiygina tilda oddiy isonlar qalbiga yetib boradigan tasvirda yozadi. "My life story is not a heroic one. It is

merely one of the many similar stories that happen every day around us in this hard world. Given the same circumstances and situations, most people would have acted similarly to me, making me far from unique" [4]. Ko'rinadiki, badiiy haqiqatning hayotiy tajriba, real faktlar, real kechinmalar yotadi. Yozuvchining vazifasi hayotning aynan nuxsasini berish emas, balki bo'lishi mumkin bo'lgan hayotni tasvirlash ekan, yozuvchi o'z boshidan kechirgan va ko'rgan, eshitgan voqealarni ong va qalb prizmasidan o'tkazadi. O'sha davrda yolg'iz ayol bo'lib qolishi va boshiga tushgan sinovlar uni nechog'li sinashi o'quvchiga mohirona yoritib beriladi. "My story is that of Saleem, the man I married. He came into my life on a spring day and was taken away from me on another spring day. I used to love springtime for giving new life to the world. Now spring makes me melancholy, because it has taken life to the world." [4]. Afg'on-amerika adabiyotiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan yana bir ayol yozuvchilaridan Nilufar Pazira va uning "A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan" ("Qizil gullar oshyoni: Afg'onistonimni izlab") [5]. Asar yosh qizaloq Nilufar va oilasining taqdirida sodir bo'lgan real voqealar asosida yozilgan. Uning yoshlikdagi dugonasi Dayana hamda uning ayanchli taqdiri parallel ravishda kuzatiladi. Dugonalarning munosabati Nilufarning oilasi Afg'onistonni tark etishi bilan aloqalari uziladi. Mamlakatdagi ayanchli muhit ayollarning taqdirida uchmas iz qoldirishi, Dayana hayotiga ham fojiali ta'sir qoldirdi ya'ni o'lim bilan yakun topadi. Yozuvchi voqealarni shaxsiy prizmadan utqazib o'quvchi e'tiboriga havola etadi, xulasini esa o'quvchiga qoldiradi. Pokistonda yashagan muddat davomida Nilufar va u kabi qiz ayollar hali hamon tolibonlar rejimidan aziyat chekadi, ya'ni ayollarni ishlashiga ruxsat yuq, ostona xatlab ko'chaga chiqilmaydi va maktabga o'g'ir baliq qatori ilm olish huquqidan mahrum edilar. Bunday vaziyatdan charchagan Nilufarning otasi Xabibullo oilasining kelajagi hamda bolalarining ta'limi uchun qiyin bo'lsada vatanini tark etib Kanadaga butunlay ko'chib ketishga majbur bo'ladi.

Xulosa. Ayol sadoqati badiiy adabiyotda insoniylik, sevgiga va hayotning eng qiyin sinovlariga qarshi turishning ramzi sifatida ko'rsatiladi. Bu sadoqatning o'ziga xos jihati. Sevgi va fidoyilik: Ayol sadoqati ko'pincha sevgiga asoslanadi. Bunda ayol sevgan insoniga yoki o'z oilasiga cheksiz fidoyilik va bag'rikenglik bilan xizmat qiladi. Faruka Gavhariy va Nilufar Pazira asarlarida ayollar sevgisi sabr, jasorat va vafo bilan tasvirlanadi.

Sinov va mashaqqatlar: Ayol sadoqati odatda og'ir sinovlardan o'tadi. Ayol qahramonlar turli to'siqlarga qaramasdan, sevgi yoki e'tiqodlariga sodiq qoladi.

Fojeaviy va murakkab kechinmalar: Ayrim asarlarda ayol sadoqati murakkab kechinmalar va fojea orqali namoyon bo'ladi.

Vafodorlik va e'tiqod: Ayol sadoqati madaniy naqarat sevgiga, balki e'tiqod va ma'naviy qadriyatlariga ham sodiqlikni anglatadi. Ayollar o'z ideallari va qadr-qimmatlariga vafodor bo'lib, ularga zarar yetkazmaslikka harakat qiladi.

Umuman olganda, badiiy adabiyotda ayol sadoqati inson ruhiyatining mustahkamligi, matonati va qadr-qimmati timsoli bo'lib, sevgi, e'tiqod va fidoyilik bilan bog'liq. Bu sadoqat ayol qahramonlarning kuchli karakterini ochib beradi va hayotdagi eng murakkab vaziyatlarda ham sadoqatning ahamiyatini yoritadi. Multikulturalizm adabiyotiga tegishli nazariyalardan ma'lum bo'ldiki, Amerika adabiyoti yaxlit multikulturalizm adabiyoti an'analari bilan uyg'unashib ketgan. Shunday qilib, haqiqiy "san'at asarlari" ni yaratadigan yozuvchilar uchun multikulturalizm yuqori chegara sifatida qabul qilinmoqda. Uning maqsadi- madaniy xilma-xillik, etnik tenglik va huquqlarni qaysidir ma'noda adabiy asarlar orqali himoya qilishni keng jamoatchilikka targ'ib qilishdir. Migrant yozuvchilar asalarida aynan o'z mamlakatining ob'yektiv ko'rinishi aks ettirilib, o'sha mamlakatning ijtimoiy va siyosiy muammolari badiiy chizgilar yordamida tasvirlanadiki, mualliflarning har bir romani barkamol badiiy asar sifatida davrning o'ziga xos ko'zgusi vazifasini bajaradi. Avval aytib o'tganimizdek osiyo-amerika multikulturalizmi AQSH adabiyotida hamda kitobxonlar nazarida mashhur asarlar bilan salmoqli joy egallab kelmoqda. Bu oqimda ijod qiluvchi adiblar asosan o'zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlar va milliylik tushunchalarini o'z asarlarida saqlab qolishni maqsad qilishgan va qaysidir ma'noda buning uddasidan chiqmoqdalar.

ADABIYOTLAR

1. И.В.Козлик. Мультикультурализм и методологические проблемы литературоведения //Вестник Томского Государственного Университета.2009. №2.
2. Карасик О.Б.. К вопросу о мультикультурализме в современной литературе США. Казань. с2
3. Толкачев С.П.. Мультикультурализм в постколониальном пространстве и кросс-культурная английская литература. УДК 821.111
4. Farooka Gavhari. Searching Saleem: An Afghan Womans Odyssey. University of Nebraska Press, Lincoln and London, 1996.-267p
5. Nelofer Pazira. A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan. – New York: Free Press, 2005. – p. 323



UDK: 820.112.2.0+85.17

Oybek DADAJONOV,
FarDU katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: oybek.dadajonov.89@inbox.ru

Qarshi innovation ta'lim universiteti dotsenti, f.f.n K.Marqaeв taqrizi asosida

THE IDEATIC-AESTHETIC ROLE OF THE CHOICE OF THE HERO IN THE DRAMA

Annotation

In this article, data about the importance of drama and theater art in human aesthetics, the development of aesthetics is presented based on evidence. The methods of illuminating the aesthetics of the hero and the audience in the drama are researched.

Key words: Drama, aesthetics, theater, audience, period, character, human, society, art, action, attitude, speech.

ИДЕАТИКО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ РОЛЬ ВЫБОРА ГЕРОЯ В ДРАМЕ

Аннотация

В данной статье на основе фактических данных представлены сведения о значении драмы и театрального искусства в эстетике человека, развитии эстетики. В драме исследуются способы освещения эстетики героя и зрителя.

Ключевые слова: Драма, эстетика, театр, зритель, период, герой, человек, общество, искусство, действие, отношение, речь.

DRAMADA QAHRAMON TANLOVINING G'OYAVIY-ESTETIK ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada insoniyat estetikasida drama va teatr san'atining ahamiyati, estetikaning taraqqiyoti haqidagi ma'lumotlar dalillar asosida keltirilgan. Dramada qahramon va tomoshabin estetikasini yorituvchi usullar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Drama, estetika, teatr, tomoshabin, davr, qahramon, inson, jamiyat, san'at, harakat, munosabat, nutq.

Kirish. Insonning estetik dunyoqarashini shakllanishida teatr va dramaning o'zining muhim ahamiyat kasb etadi. Asrlar davomida drama estetik tafakkurning ulkan yutug'i bo'lib kelgan. Estetikaning dramadagi mavqei uni taraqqiy etishida bir qancha olimlarning hissasi beqiyos. Xususan Hegel (Georg Wilhelm Friedrich Hegel 1770–1831)ning dramadagi estetik tizimi, san'at haqidagi mulohazalari juda katta darajada teatr estetikasi hisoblanadi. U barcha estetik muammolar ustida to'xtalib, ularni san'at asarlari asosida mushohada qiladi. Yozuvchi drama estetikasi haqida fikr bildirib, “harakat drama estetikasining asosiy tushunchasi ekanligini, badiiy g'oyalik yoki ideal g'oyada esa tizimli munosabatda bo'lish kerakligini” [1] aytib o'tadi. Teatr san'atida harakat hissiyotlami qo'zg'atishga xizmat qilmasa, bundan naf yo'qdir. Harakat hamisha tomoshaviy bo'lib, biron-bir shaklda makon va vaqt birligida kechadi.

Dramaturg o'z qahramonlarini ma'lum bir vaziyat va tizimga solar ekan, tomoshabinning estetik qarashlari boshlanadi. Badiiy adabiyot san'atining barcha turlariga, jumladan dramaga ham ta'sir o'tkazib kelgan. Dramatik asarlarda hayot uyg'unligi to'la ko'rsatilar ekan, dramatik harakat mumkin qadar faollikka, bir maqsadga yo'nalganlikka, tomoshabiniga bevosita ta'sir o'tkazishga intiladi. Bu esa o'z navbatida tomoshabin va kitobxonada o'ziga xos estetika uyg'otadi. Hayotiy hodisalar tanlovi g'oyaviy-estetik baholanganligi bilan izohlanadi. Shunday pesalar borki, ularni rohat bilan o'qiyisan, sahnada esa bevosita o'sha davrga tushib qahramon bilan birga yashaysan. Bunday pesalardan esa zo'r estetik zavq olasan, undan qattiq hayajonlanasan. “Shekspirning “Hamlet”, “Otello”lari, Cho'lponning “Yorqinoy”, Uyg'un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy”, M.Shayxzodaning “Mirzo Ulug'bek”, Hamid Olimjonning “Muqanna”, Komil Yashinning “Nurxon”, “Ravshan va Zulhumor” kabi dramalar shunday asarlar sirasiga kiradi.” [2]

Rus adabiyoti va jurnalistikasi tarixini o'rgangan adabiyotshunos E.G. Babayev (Эдуард Григорьевич Бабаев 1927–1995) Tolstoyning estetika borasidagi fikriga munosabat bildirar ekan, “Tolstoyning estetikasi xuddi uning hayoti va ijodi kabi qarama-qarshiliklarga boy ekanligini, ammo bu shunchaki qarama-qarshiliklar emasligi, balki tarixiy va ijtimoiy inqilob bilan bog'liqligini, yozuvchining estetik tajribasi esa nafaqat biografik, balki tarixiy ma'no kasb etishini” [3] ta'kidlab o'tadi. Chindan ham Tolstoy hayotining o'zi dramatik epizod edi. Uning san'atga bo'lgan qarashlari estetik ideali bilan bog'langan. Yozuvchi hayot lavhalari va maishiy turmush tafsillarini tarixiy voqealarning keng manzarasi, hayotning axloqiy-falsafiy asoslari tasviri bilan uyg'unlashtirishga

harakat qilgan edi. Shu o'rinda Tolstoy buyuk dramaturglar Pushkin, Hegel, Didro, Gyote, Shekspirning estetik qarashlariga baho berar ekan, shunday deydi: “Shekspirni o'qing, u hech qachon o'z qahramoni bilan murosas qilishdan qo'rqmaydi, u qahramoni xarakteriga qarab hayotdagidek bemalol gapiradi, u bilan muloqot qilish uchun to'g'ri va aniq sharoit topa oladi. Shekspir insoniyatning ahloqiy o'qituvchisidir.” [4]

Darhaqiqat dramada o'z oldiga aniq maqsad va vazifalar qo'yan irodali qahramonlar to'qnashadilar. To'qnashuv qudrati esa ko'p jihatdan iroda namoyon bo'lishi va uning ifoda kuchiga bog'liq bo'ladi. Dramatik to'qnashuv xususiyati o'z navbatida dramatik harakat xususiyatini belgilab beradi. Dramatik harakatda esa inson ruhiy tahlili, uning fikr va tuyg'usi, insoniy sifatleri aks etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIX asr oxiri XX asrning boshlari estetika tarixida murakkab va xilma-xil qarashlarga boy davr bo'ldi. Insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy hayotida misli ko'rinmagan voqealar yuz berdi. Bular insonlarning jamiyatga estetik munosabatini o'zgartirib, dunyoni yangicha o'rganish va talqin qilish zaruriyatini taqozo etdi. Insonlar dunyoni o'zgacha kashf etishida dramaning roli muhim ahamiyat kasb etdi. Nafaqat dramaturgiyada, balki epik asarlar va pantomimada (qahramonlar tasviri va ularning g'oyaviy-estetik qarashlari, konflikt, syujet, vaqt kompozitsiyasi)ga xos xususiyatlar birinchi o'ringa chiqq boshladi. Rus yozuvchisi D.S.Lixachev (Дмитрий Сергеевич Лихачёв 1906–1999) dramaning taraqqiy etishi haqida so'z yuritir ekan, “dramaning shakllanishi yetuklikdan dalolat berishini” aytib o'tadi. [4]

Tadqiqot metodologiyasi. Darhaqiqat drama barqaror dramatik shakllardan biri bo'lib qolmay, aniq belgilangan g'oyaviy-estetik tamoyillar, dramatik elementlar, muvofiqlashtirish bilan kompozitsion voqea hodisalar uyg'unligida rivojlanib bordi. Drama turli munosabatlar tizimidagi komponentlar, o'zining maxsus qonunlari bilan yaxlit badiiy olamni ochib beradi. Qahramonlar o'rtasidagi so'z, harakat va estetik munosabatlarning qanday namoyon bo'lishi esa ijodkor zimmasiga tushadi. Dramada qahramon asarning badiiy ifodasidir, u o'z ichida qism va butunning ma'lum mazmunini olib yuradi.

Yevropacha shakldagi yangi o'zbek teatrlarida estetik qarashlar dastlab Turkiston o'lkasida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida paydo bo'ldi. Bu davr oralig'ida “ijod qilgan ma'rifalparvarlar Behbudiy, Shohidiy, Qudratilla, Mu'in, Badriy, Qodiriy, Avloniy, Zafariy, Cho'lpon, Fitrat, Xurshid va boshqalarning

g'oyaviy, falsafiy, estetik qarashlari" [6] o'zbek teatr estetikasiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Bu davrda ma'rifatchi-jadid mutafakkirlar yangicha estetik g'oyalarni o'rta taga tashladilar, badiiy adabiyotda, dramaturgiya janriga va zamonaviy teatr san'atiga asos soldilar. Ushbu ma'rifalparvar olimlar teatr san'atining badiiy tamoyillarini ishlab chiqib, madaniyatimizni yana bir tur bilan boyitdilar. Har birlari izlanish yo'lidan, novatorlik yo'lidan bordilar. Ijodiy niyatlariga yetib, badiiy-estetika sohasida katta hizmatlar qilishdi. XX asr boshlarida hozirgi O'zbekiston hududida vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlarning mazmuni, maqsadi va mohiyati o'zbek xalqi estetik ongida aks eta boshladi. Bu yo'l avval o'zbek ma'rifalparvarlari, so'ng jadid ziyolilarining xalqni bilimli, ma'rifatli qilish harakatida namoyon bo'ldi.

Jadid dramaturgiyasining muhim xususiyati – uning oila hayotini tasvirlash bilan izohlansa, inson qalbiga kirib borish, uni ma'rifiy tarbiyalash, milliy uyg'onish g'oyalari tarannum etishda estetikaning roli ham alohida o'ringa ega ekanligini ta'kidlab o'tiladi. Bu harakatni faollashtirishda dastlab qo'g'irchoq teatri, qiziqchilik, ashulachilar, laparchilar guruhlar, dorbozlarning ma'lum xizmatlarini aytib o'tish lozim. Yangi madaniy muhit, zamonaviy badiiy-estetik ehtiyoj kishilar hayotida yangi talablarni yuzaga keltira boshladi. Shu bois ozarboyjon va tatar teatr guruhlar, ularga ergashgan o'zbek milliy guruhlarining spektakllari xalq tomonidan chanqoqlik bilan kutib olingan va ommaning estetik dunyoqarashi, ongi shakllanishida muhim g'oyaviy manba bo'lib xizmat qilgan.

Cho'lpon (1897 –1938) teatr estetikasida aktyor mahorati masalasiga alohida to'xtalib, "Aktyorga ahamiyat berish, so'zga ahamiyat berish demakdir, chiroylik so'z chiroylik qilib gapirilsa, tomoshaning ta'siri bo'lmay iloji yo'q. Go'zal va ustalarcha o'ynag'on aktyor go'zal va ustalarcha gapirishni ham bilsin"[7] deya fikr bildiradi. Yozuvchi ushbu fikri bilan teatrdagi qahramon roli ustida ishlashini umumlashtirib, bu estetik talab ekanini, ya'ni, san'at uchun xususiy emas, balki umumiy hodisa ekanini juda chiroyli ifodalab o'tadi. Cho'lpon teatrga qiziqish oshganligining sababi dramaturgiyaning jiddiyligi, aktyor mahoratining tekis va yaxshiligi bilan birgalikda, uning nutqi ravon bo'lishligini aytib o'tadi. K.S. Stanislavskiy aktyorning sahnadagi nutqi to'g'risida fikr bildirar ekan, "Aktyor so'zning haykaltaroshi bo'lishi kerak"[8] ligini aytib o'tadi. Teatr san'atida sahnaviy xatti- harakatni tomoshabinga yetkazib, ifodalab beruvchi asosiy vosita - bu so'zdir. Inson ongiga ta'sir etuvchi eng kuchli vosita sifatida so'z deb qaralar ekan, obraz yaratish jarayonida mantiqiy xatti-harakatga asoslangan aktyor ijodida so'zning o'rni qanchalik muhim ekanligini tasavvur etish qiyin emas. Aktyor tomoshabinga so'z orqali ustalik bilan ta'sir etsa, tomoshabin ongida estetik dunyoqarash asta sekin uyg'ona boshlaydi.

Tahlil va natijalar. Teatr san'atlarining omuxtasasi bo'lmish dramani o'qish, idrok etish hamda sahnada tomosha qilish, uni tahlil qilish kishiga estetik zavq bag'ishlaydi. Dramada qahramonlarning

g'oyaviy-estetik roli, ularning tuyg'ulari, insoniy sifatleri, ruhiyati va shaxsiyati borasida fikr yuritish, muayyan xulosalar chiqarish tomoshabindan katta estetik mahorat talab etadi. Drama tahlilida asosiy e'tiborni qahramonning sa'jiyasini ochishga qaratish lozim. Negaki, har bir dramatik qahramon tabiati yuzasidan ularning o'z so'zlari, xatti-harakatlari orqaligina fikr yuritadi. Ana shu jihatlar tufayli drama boshqa adabiy turlardan farqlanib turadi.

Buyuk nemis mutafakkiri Gyote (Johann Wolfgang von Goethe 1749-1832) dramada qahramon boshqa adabiy tur qahramonlaridan farqi to'g'risida fikr bildirib, shunday deydi: "Im Roman sollen vorzüglich Gesinnungen und Begebenheiten vorgestellt werden, im Drama Charaktere und Taten." [9]

„Romanda munosabat va voqealar, dramada esa xarakter va harakatlar aks ettirilishi kerak.“ (Tarjima bizniki – O.D.)

Dramatik asarlar tahlilida kitobxon-tomoshabindan teatr san'ati qoidalardan xabardor bo'lish bilan birgalikda, muayyan nazariy tayyorgarlikni ham talab etadi. Sababi sahna asarini idrok etish, uning zamiridagi badiiy ma'noni topish oson kechmaydi. Dramatik asarlarda ro'y berayotgan voqea-hodisalarni ma'naviy jihatdan baholash hamda undan estetik xulosa chiqarish kitobxonning hayot tajribasiga, intellektual darajasiga bog'liq bo'lib qoladi. Shu o'rinda Valter Mushgning (Walter Muschg 1898–1965) drama to'g'risida mashhur fikrini yodga olish o'rinni deb bildik.

“Ein Dramatiker muss Seiten liefern, die Löcher haben wie ein Emmentaler Käse. Das Publikum denkt diese Löcher schon zu.“ [10]

“Dramaturg Emmental pishloqi kabi teshiklari bo'lgan sahifalarni yetkazib berishi kerak. Tomoshabinlar allaqachon bu teshiklar haqida o'ylashadi.” (Tarjima bizniki – O.D.)

Mulohazalar shundan dalolat beradi-ki, dramatik asarlarda voqea ham, tuyg'u ham yetakchi bo'lmaydi, balki xarakter asosiy planga ko'tariladi. Sababi dramatik asarlar har qanday holatda ham dramaturgga - ruhiy xavotir shiddatli tasvirga boy bo'ladi. Bunda qahramon uchun hayot-mamot ahamiyatiga ega bo'lgan qandaydir bir narsaning qo'ldan berilishi yoki amalga oshmay qolishi xavfi tasvirlangan bo'lishi kerak. Ana shundagina asarda dramaturg yuzaga chiqadi.

Xulosa va takliflar. Tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, dramatik turdagi asarlarning mag'zini chaqa olishda yuqorida aytib o'tganimizdek tomoshabin-kitobxondan katta estetik dunyoqarash talab qilinadi. Drama insonlarning sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etish kuchiga ega bo'lgan yagona adabiy turdir. Qahramonlar xarakteri voqelik tarzida, tomoshabinning ko'z oldida namoyon bo'lar ekan, sahnasida gavdalangan qahramonlar tomoshabinga estetik tuyg'uni singdira olgan taqdiridagina dramaturg o'z maqsadiga erisha oladi. Kuchli insoniy xarakterlar, hayotiy ziddiyatlarning asosini topish, pesa qahramonlari ruhiy holatlari bilan tanishtirish orqali kishida insoniy pozitsiya va ma'naviy qadriyatlar, estetik qarashlar tizimi shakllantiriladi.

ADABIYOTLAR

1. Marita Tatari. Kunstwerk als Handlung. – München. Verlag. Brill | Fink. 2017. – S. 82.
2. Абдусаматов Х. Драма назарияси. –Тошкент. Ғофур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат. 2000. – Б. 248
3. Бабаев Э. Г. Очерки эстетики и творчества. Л. Н. Толстого. Издательство Московского университета, 1981. – С. 99.
4. Бабаев Э. Г. Очерки эстетики и творчества. Л. Н. Толстого. Издательство Московского университета, 1981. – С. 82.
5. Валентин Евгеньевич Хализев. Драма как явление искусства. – Москва.: Искусство, 1978. С-8
6. Umarov M. Mannon Uyg'ur va milliy teatr estetikasi. O'zbekiston davlat konservatoriyasining "Musiqqa" nashriyoti. 2006. – B. 20.
7. Sher A., Husanov B.. ESTETIKA. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – B. 75.
8. Mahmudova H. Sahnaviy asarning xatti-harakat tahlili. Darslik. -Toshkent: «Fan va texnologiya», 2015. – B. 90.
9. https://www.gutzitiert.de/zitate_sprueche-drama.html
10. <https://spielstil.net/rezensionen/brettspiele/cubitos/>



UDK:82-34:398.2

Feruz JALOLOVA,
O'zMU Xorijiy til va adabiyot kafedrasida katta o'qituvchisi
E-mail: missjalolova@mail.ru

O'zDJTU dotsenti Yuldasheva N.E. taqrizi asosida

LINGUISTIC ANALYSIS OF THE CONCEPT OF "STEP-MOTHER" IN ENGLISH AND UZBEK FOLK-TALES

Annotation

The article evaluates the history and genetic analysis of the concepts of "stepmother" and "stepdaughter" in Western and Eastern literatures. These concepts predominantly manifest in the plots of folk tales and legends, influencing human environment, morality, and the creative impressions of writers. The article explores the similarities and differences in Western and Eastern literatures, including their social and cultural impact. It also examines the interrelations among various conceptual and creative approaches to the images of "stepmother" and "stepdaughter".

Key words: Western literature, Eastern literature, stepmother, stepdaughter, concept, historical-genetic analysis, folk tales, cultural relations, literary impressions.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «МАЧЕХА» В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗКАХ

Аннотация

В статье оцениваются история и генетический анализ концептов «мачеха» и «падчерица» в западной и восточной литературе. Эти концепты преимущественно проявляются в сюжетах народных сказок и легенд, оказывая влияние на человеческую среду, мораль и творческие впечатления писателей. В статье исследуются сходства и различия в западной и восточной литературе, включая их социальное и культурное воздействие. Также рассматриваются взаимосвязи между различными концептуальными и творческими подходами к образам «мачехи» и «падчерица».

Ключевые слова: Западная литература, восточная литература, мачеха, падчерица, концепт, историко-генетический анализ, народные сказки, культурные связи, литературные впечатления.

G'ARB VA SHARQ XALQLARI ADABIYOTIDA "O'GAY ONA" VA "O'GAY QIZ" KONSEPTLARINING TARIXIY-GENETIK TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada G'arb va Sharq xalqlari adabiyotidagi "o'gay ona" va "o'gay qiz" kontseptlarining tarixi va genetik tahliliga baho beriladi. Ushbu kontseptlar, asosan, xalq ertaklari va afsonalarining syujetlarida namoyon bo'lib, inson muhiti, axloq va adiblarning ijodiy taasurotlariga ta'sir ko'rsatadi. Maqola G'arb va Sharq adabiyotidagi o'xshashliklar va farqlarni, shu jumladan ularning ijtimoiy va madaniy ta'sirini tadqiq etadi. "O'gay ona" va "o'gay qiz" obrazlari bo'yicha turli kontseptual va ijodiy yondashuvlar orasidagi o'zaro aloqalarga to'xtalindi.

Kalit so'zlar: G'arb adabiyoti, Sharq adabiyoti, o'gay ona, o'gay qiz, kontsept, tarixiy-genetik tahlil, xalq ertaklari, madaniy aloqalar, adabiy taasuf.

Kirish. Ertaklarning barcha davr va barcha xalqlar madaniyati va dunyoqarashida muhim ahamiyatga egaligi juda ko'plab ilmiy izlanishlar mavzusiga aylangan. Uning eng dolzarb mavzulardan biri ekanligini folklorshunoslar, psixologlar, faylasuflar va albatta, filologlar ta'kidlaganlar. Y.N. Trubetskoyning fikriga ko'ra, "ertaklarda inson hayotining eng barhayot qadriyatlarini muhrlangan", hozirgi zamon tadqiqotchilari ertaklarning "milliy mentalitetning eng yorqin xususiyatlarini ifodalaydigan aksiologik ahamiyati" haqida gapirishni ma'qul ko'radilar. Ertaklarni o'rganishning eng muhim isbot talab qilmaydigan jihati, ya'ni aksiomasi, ertak (yoki afsona)ning ma'lum bir xalqning tili, boshidan kechirgan tarixiy hodisalar va madaniyati bilan aloqasidir. Qadimgi yunonlar ertak hamda afsonani bir so'z bilan ifoda etganlar, bu esa ushbu tushunchalarning o'zaro bog'liqligidan dalolat beradi. Folklorshunos olim J. Zayps shunday yozadi: "bilamizki, atrof muhitga moslashish uchun kerak bo'ladigan hayotiy muhim axborotni bir – birlariga yetkazish uchun odamlar gapirishni o'rgangan zahotiy o'rtaklar so'ylay boshlaganlar", shu tariqa odamlar ma'lum bilimlarni ijtimoiy-tarixiy kontekstda bir-birlari bilan almashganlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G'arbu Sharq adabiy – badiiy munosabatlari, jumladan, adabiy hamkorligi, adabiy ta'sir va aksta'sir, tarjimalar va ularning adabiy hamkorlikdagi roli masalalari ko'p vaqtlardan buyon olimu ijodkorlarni qiziqtirib kelmoqda. Ma'lumki, adabiyotshunoslik sohasidagi muhim vazifalardan biri G'arb va Sharq o'rtasidagi adabiy aloqalarni o'rganishga qaratilgan. G'arb va Sharq mamlakatlari madaniy munosabatlarining rivojlanishi bosqichida esa taqqoslash va xulosalash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. V.M.Jirmunskiy o'zining "Qiyosiy adabiyotshunoslik" nomli asarida shunday fikr keltirgan: "odatda, tadqiqotchilar

O'zbek folkloridan ayrim namunalarini dastlab yozib oluvchi va nashr etuvchilar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yashagan Yevropa sayyohlari, elchilari va olimlari bo'lganlar. N.Lyapunova, A.Vasilev, A.A.Kushakevich, A.N.Samoylovich kabi olimlarning kundaliklari va asarlarida o'zbek

xalqining maishiy turmushi, urf-odatlarini, og'zaki ijodi bo'yicha muhim qaydlar uchraydi. O'zbek xalq ertaklari, maqol va matallari hamda og'zaki ijod namunalarini to'plash va nashr etishda N.P.Ostroumovning faoliyati salmoqli. Venger olimi va sayyohi H.Vamberining o'zbek folklori namunalarini dunyo miqyosida ham tanila boshlanishida xizmati katta.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada chog'ishtirish, adabiy tahlil va tarixiy-genetik usullaridan qo'llanilgan. Asosiy manbaalar, masalan, "Sinderella" (G'arb) va "Xunuk qayna" (Sharq) kabi mashhur ertaklar, ularning mavzulari, qahramonlararo munosabatlar va psixologik elementlar tahlil qilinadi.

Tadqiqotda tarixiy-genetik metod qo'llanilgan bo'lib, ushbu metod madaniyatlar o'rtasidagi umumiy xususiyatlar va mintaqaviy farqliliklarni aniqlash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Ingliz va o'zbek xalq ertaklari tizimini o'rganishda, bu tizim, birinchidan, ulardagi g'oyaviy-badiiy tamoyillar umumiylikiga; ikkinchidan, ularning tarixan taraqqiy etgan o'zaro munosabatlariga; uchinchidan, ular tarixidagi umumiylikka bog'liq holda vujudga kelishini tahlil qilish muhim hisoblanadi:

1. Ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi g'oyaviy-badiiy tamoyillar umumiylik. Har ikkala xalq ertak matnlaridagi o'gay ona kontseptlarini bir-biridan farqlaydigan xususiyatlari bo'lishiga qaramay, mushtarak etuvchi jihatlari ham mavjudki, shu mushtaraklik ularni yagona tizimga buysundiradi: a) ingliz va o'zbek ertak matnlari g'oyaviy mohiyatiga ko'ra o'zaro mushtarak bo'lib, ularning hammasida ham xalq hayoti, ruhiyati, orzu-umidlari, shodlik va kulfatlarini ifodalangan, har ikki millat adabiy matnlarida "stepmother/o'gay ona" kontsepti xalqning ma'lum vakillari ruhiyatini tasvirlashga xizmat qiladi; b) ingliz va o'zbek ertaklari orasidagi o'zaro aloqa ularning voqeilikni aks ettirishdagi o'xshashligida ham ko'rinadi. Har bir janr o'z xususiyatidan kelib chiqib hayotning ma'lum bir jihatini ifodalaydi, har ikki millatning ertaklaridagi o'gay ona kontsepti ham ma'lum darajada xalq tarixini aks ettiradi; v) ingliz va o'zbek ertaklari g'oyaviy mushtarakligi, voqeilikni ifodalashi kabi

vazifalarining hamohangligi ularda mavzu, syujet va obrazlarning, jumladan, o'gay ona konseptining ham o'xshashligini, umumiyligini yuzaga keltiradi; g) ingliz va o'zbek ehtaklari uchun xalq estetik tamoyillari ham umumiy bo'lib, soddalik, qisqalik, ixchamlik, syujetlilik, tabiat tasviri, qahramonlar, ya'ni o'gay qiz konsepti orqali ijobiy va o'gay ona konsepti orqali salbiy qahramon axloqiy bahosining aniqligini ta'minlaydi.

2. Ingliz va o'zbek ehtak matnlarining o'zaro munosabatlariga oid mushtarakliklari. Konseptlarning o'zaro munosabatlari g'oyat murakkab jarayon bo'lib, u o'zaro ta'sir, bir-biriga muvofiqlashish va bir-birini boyitish tarzida kechadi: ehtaklardagi "stepmother/o'gay ona" konseptining yuzaga kelishida ikkinchi birining manbalik vazifasini o'tashi genetik aloqaning asosiy xususiyati hisoblanadi. Masalan, Sh.Perro ehtagi zamirida aka-uka Grimmlar, ularning ehtagiga taqlidan D.Bazile o'gay ona va o'gay qiz haqidagi ehtaklarni yaratganlar, keyinchalik rus xalq ehtagi "Zolushka" dunyoga kelgan. Demak, ayrim ehtak namunalarining yaratilishida boshqa xalq ehtaklari manba bo'lgan, o'z navbatida, bir konsept zamirida boshqasi yuzaga kelgan.

3. Ingliz va o'zbek xalq ehtaklarining tarixiy o'xshashlik tamoyili. O'zbek folklori janrlari birdaniga va bir vaqtda yuzaga kelmagan. Folklorning eng qadimiy janrlari – mif, afsona, rivoyat, so'z sehriga asoslangan qo'shiqlar, shuningdek, mavsumiy marosim qo'shiqlari, ulardan keyingi bosqichda esa, ehtak janri yuzaga kelgan. Tarixan shu taхlitda shakllangan o'zbek folklorining janrlar tizimi o'z taraqqiyoti davomida rivojlandi, takomillashdi va hatto so'nish jarayonlarini ham kechirdi. Ingliz xalq og'zaki ijodi janrlari ham, avvalo, miflardan dostonlarga, dostonlardan ehtaklarga, ehtak va dostonlardan tarixiy va romantik qo'shiqlargacha bo'lgan bosqichda rivojlandi.

O'gay ona tomonidan o'gay qizining xo'rlanishi syujeti ko'pgina xalqlarning folklori, jumladan, G'arb va Sharq xalqlarining ehtaklarida ham uchraydi. Bunga misol qilib koreys xalq ehtaklari "Kxonchxi va Pxatchxi", "Atirgul va Nilufar", vyetnam xalq ehtagi "Oltin boshmoqcha", ingliz xalq ehtaklari "Sinderella", "Qamish qalpoq", kreol xalq ehtagi "O'z otasini tuzdan ko'ra ko'proq yaxshi ko'rgani uchun malika qanday surgun qilindi", rus xalq ehtagi "Zolushka", fransuz xalq ehtagi "Sendrillon" va uning bir necha xil variantlari, italyan xalq ehtagi "Senerentola", nemis xalq ehtaklari "Ashenputtl", "Oqoyim va Guloyim", o'zbek xalq ehtaklari "Zumrad va Qimmat", "Yoriltosh" va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Bu syujetning doimiy barqarorligi ijtimoiy-tarixiy sabablar bilan izohlanadi: "juda katta patriarxal oila, ilk ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilish stadiyasida o'gay ona va o'gay qiz tushunchalari hayotga kirib kela boshladi. Doimiy qarama-qarshiliklar bu katta oilani ichdan yemirib borar edi, oila a'zolari o'rtasidagi kelishmovchiliklar, xotinlar va ularning bolalari o'rtasidagi muntazam meros talashish mojarolari, bunday sharoitda oilaning eng ko'p aziyat chekkan a'zolari – bu yetim bolalar, o'gay qiz yoxud o'gay o'g'illar".

Sinflarning hech qaysi bir tabaqalanishida bunday ijtimoiy kategoriya ilgari bo'lmagan, yetim bolalarning moddiy farovonligi asosan otalari uylangan yangi xotinining ularga bo'lgan munosabatiga bog'liq edi. Tabiiyki, oilaga yangi kelgan ayol o'z farzandlari uchun qayg'uradi, birinchi navbatda esa, erining mol-mulkiga boshqa da'vogarlar bo'lmagligi uchun kurashadi. O'gay ona o'gay bolalarga juda erta og'ir uy yumushlarini yuklaydi, ehtaklarda oiladagi zulm o'gay onaning o'gay farzandlari, ko'pincha o'gay qizi bilan to'qnashuvi mavzusining paydo bo'lishiga imkon berdi. Bu guruh ehtaklarining syujeti oddiy: uyda yangi qiyofa paydo bo'ladi – "adovat urug'ini ekuvchi" o'gay ona, sevilmagan o'gay qiz unga yoqish uchun behuda harakat qiladi. Qiz mehribonligi va sabr-toqati tufayli o'z baxtini topadi. Janjalli o'gay ona va o'gay qiz haqidagi ehtaklardan tashkil topgan alohida guruhga rus xalq ehtagi "Ayoq Bobo", aka-uka Grimmlarning "Zolushka", V.Odoevskiyning "Ayoq Ivanovich",

S.Marshakning "O'n ikki oy", o'zbek xalq ehtagi "Zumrad va Qimmat", hamda "Sinderella" ehtagining barcha variantlari kiradi. Bu ehtaklarning syujet motivini ikkita: bir-biriga qondosh bo'lmagan onabola va opa-singil o'rtasidagi sinovlar tashkil etadi.

Obrazlar tizimi ehtakda qurbon (o'gay qiz), zararkunanda (o'gay ona) va soxta qahramonlar (opa-singillar)ni o'z ichiga olgan "dastlabki vaziyat" orqali taqdim etiladi. Keyin oila a'zolaridan birining o'limi haqida xabar beriladi – qahramonning onasi vafot etadi (bu haqida faqat Vyetnam va o'zbek xalq ehtaklarida to'g'ridan-to'g'ri aytilmagan). Ehtak oxirida, qiz turli xil sinovlardan muvaffaqiyatli o'tadi (yog'och ketmonda toshli dalani yumshatadi, tubi bo'lmagan idishda suv tashiydi, tariq bilan bug'doyini saralaydi, baliq tutadi, otasiga bo'lgan muhabbatini aytadi, o'rmonga adashtirib ketiladi) va vaziyat o'gay qizning ijtimoiy holati o'zgarishi orqali hal qilinadi.

Bu turdagi ehtaklarda yuz beradigan mo'jizani chindan ham hayratli deb atash mumkin chunki, sehrlar yordamchilar har doim haqli ravishda olijanob qiz sifatida tan olingan o'gay qizga yordam berishadi. Shunday qilib, qahramonning ijtimoiy vaziyatini o'zgartirish "pastdan – tepaga" qarama-qarshi yo'nalishga muvofiq sodir bo'ladi: birinchi navbatda, uy ishlari, keyin balda malika roli va finalda – qirol saroyining bekasi.

Qahramon bir qator voqealarni boshdan kechiradi (rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish marosimi): eng boshida onasining vafotidan so'ng, keyin esa sinovlardan o'tib mukofot olgach, qiz tasodifan yoki opa-singillarining aybi bilan hamma narsasidan ayriladi (hatto kuyovdan ham) va natijada yana yangi qiyinchiliklarni boshidan kechirishi kerak.

G'arb xalqlari ehtaklarida ham, Sharq xalqlari ehtaklarida ham "ikki ayolning to'qnashuvida har xil xalokkor yordamchilar paydo bo'ladi." Qahramonlarga yordam har doim tug'ishgan onasi orqali keladi: qora sigir – vafot etgan onaning ruhi (Kxonchxi va Pxatchxi), haqiqiy ma'buda Bhagavani (Oltin boshmoqcha), farishta (Zolushka, aka-uka Grimmlar), sehrgar kampir (Zumrad va Qimmat). Bu "sinfiy tuzumning afsonaviy kuchlari xalq tomonidan umumiy sinfiy tenglik bekor qilingan paytda eng ko'p azob chekkanlarning himoyachilariga aylantirildi" degan xulosaga olib keladi. Onasining vafotidan so'ng qizga yordam berishi yana ko'pgina boshqa xalqlar ehtaklarida ham uchraydi. Rus xalq ehtagidagi go'zal Vasilisaga onasi o'limidan oldin berib ketgan qo'g'irchoq yordam bersa, Malayya xalq ehtagida vafot etgan onasi qizini himoya qilish uchun baliqqa aylanib qaytib keladi.

Xulosa. Maqolada G'arb va Sharq adabiyotidagi "o'gay ona" va "o'gay qiz" konseptlarining tarixi va genetik tahliliga to'xtalib o'tilgan. Turli xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar, ularning ijtimoiy va axloqiy qiymatlari ushbu konseptlarning shakllanishida muhim o'rin tutadi. G'arb va Sharqda «o'gay ona» va «o'gay qiz» obrazlari bir-biridan farq qilsa-da, ularning umumiy belgilarini, adabiy obrazlarni, axloqiy mezonlarni va ijtimoiy munosabatlarni birlashtirish mumkin. G'arbda, o'gay ona va o'gay qiz ko'pincha yomonlik va tajovuzning ramzi sifatida ko'rsatiladi, ularning roli ko'pincha dramatik va negativ munosabatlarga asoslangan. Bu obrazlar jamiyatning muammolari, o'zgarishlar va hayotiy qiyinchiliklar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Sharqda esa, bu obrazlar ko'proq axloqiy bahslar va ma'naviy saodatga qaratilgan, ular ko'pincha salbiy va ijobiy ta'riflarning aralashmasini aks ettiradi. Ushbu tadqiqot, G'arb va Sharq xalq adabiyotidagi o'xshashliklar va farqlarni o'rganish orqali, bizga adabiy va madaniy muloqotdagi muhim omillarni tushunishga yordam beradi. Ushbu konseptlar, shubhasiz, xalqning ijtimoiy va madaniy taraqqiyotidagi muhim o'rin tutadi va ularning tarixi adabiyot va ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shundan dalolat bermoqdaki, bu obrazlarning shakllanishi va rivojlanishi xalqning ijtimoiy, axloqiy va madaniy hayotiga bog'liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Афанасьев, А. Н. Мифология Древней Руси Текст. / А.Н. Афанасьев. – Москва: ЭКСМО, 2005. – С. 128.
2. Бережкова Д.В. Понятие «доброта» в концептуальном пространстве английской народной сказки: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: № 10.02.04. – Москва: МГУ, 2011. – С. 22.
3. Zipes J. The Irresistible Fairy Tale: The Cultural and Social History of a Genre P.: Princeton UP 2012. – P. 2.
4. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. – Москва: Наука, 1979. – С. 15.
5. Лавока Ф. Границы между фактом и вымыслом в свете трехуровневой компаративистики. Studia Litterarum, 2016. – Париж. 3-4. – С. 33.
6. Трубецкой Е.Н. «Иное царство» и его искатели в русской народной сказке. – Москва, 1990. № 2. С. 105.
7. Nettleton G. H. English drama of the Restoration and 18th century. – New York, 1923. – P. 77.
8. Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Ленинград, 1946. – С. 276.
9. English Fairy tales. Cinderella. <http://nota.triwe.net/>
10. Чехова М. Nomina propria в сюжетном типе сказок // Филология и литературоведение. – 2014. – № 11.



UDK:811.82:42

Nilufar JO'RAYEVA,

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E: mail: njoyayeva461@gmail.com

Termiz davlat pedagogika institutining kafedrasini mudiri, PhD N. Madalov taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SMILE/TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Аннотация

Til madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini ifoda etishning asosiy vositasidir. Ingliz tilidagi "smile" va o'zbek tilidagi "tabassum" kabi tushunchalar nafaqat hissiy holatlarni, balki madaniy me'yor va qadriyatlarini ham ifodalovchi kuchli lingvistik birliklar bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli ushbu tushunchalarni lingvokulturologik obyektiv orqali tushunish til va madaniyat konseptini shakllantirish uchun qanday o'zaro bog'liqligini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek jamiyatlarida ushbu tushunchalarning madaniy ahamiyatini hisobga olgan holda etimologik, komponentli, derivatsion tahlillarni qo'llab "smile/tabassum" tushunchalarini o'rganishdan iborat.

Kalit so'zlar: Smile, tabassum, lingvokulturologiya, etimologik tahlil, semantik tahlil, komponent tahlil.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «SMILE/TABASSUM» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Язык является основным средством выражения культурных и социальных ценностей. Такие понятия, как «smile» в английском языке и «табассум» в узбекском языке, служат мощными языковыми единицами, которые выражают не только эмоциональные состояния, но и культурные нормы и ценности. Понимание этих понятий через лингвокультурную цель включает анализ того, как язык и культура взаимодействуют, чтобы сформировать значение. Целью данной диссертации является исследование понятий «smile/табассум» путем применения этимологического, компонентного, деривационного анализов с учетом культурного значения этих фраз в английском и узбекском обществах.

Ключевые слова: Улыбка, табассум, лингвокультурология, этимологический анализ, семантический анализ, компонентный анализ.

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF "SMILE/TABASSUM" IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

Language is the main means of expressing cultural and social values. Concepts such as "smile" in English and "tabassum" in Uzbek serve as powerful linguistic units that express not only emotional states, but also cultural norms and values. Understanding these concepts through a linguocultural objective involves analyzing how language and culture interrelate to form meaning. The purpose of this thesis is to explore the concepts of "smile/tabassum" by applying etymological, component, derivational analyses taking into account the cultural significance of these phrases in English and Uzbek societies.

Key words: Smile, tabassum, linguoculturology, etymological analysis, semantic analysis, component analysis.

Kirish. Har bir madaniyatda til jamiyat qadriyatlarini, an'analarini va dunyoqarashining aksi bo'lib xizmat qiladi. Ingliz tilidagi "smile", o'zbek tilidagi "tabassum" kabi tushunchalar bir qarashda universal bo'lib tuyulishi mumkin bo'lgan hissiy ifodalar madaniy me'yorlar va lingvistik asoslardan chuqur ildiz otganiga yorqin misoldir. Ushbu tushunchalarni lingvokulturologik obyektiv orqali o'rganish nafaqat ushbu so'zlarning tilga xos tomonlarini, balki ular anglatadigan madaniy ma'nolarni va ijtimoiy rollarni ham o'rganishga imkon beradi. Umuman olganda, tabassum tushunchasi shunchaki yuz ifodalari bilan ustundir; u hissiy, psixologik va ijtimoiy xatti-harakatlarning murakkab to'plamini o'z ichiga oladi. Tabassum kontekst va madaniyatga qarab do'stlik, xushmuomalalik, hurmat va hattoki, kinoyani anglatishi mumkin. Ingliz tilida so'zlashuvchi jamiyat madaniyatida tabassum ko'pincha ochiqlik va iliqlik bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida so'zlashadiganida tabassum fors va arab madaniy an'alarining ta'sirini aks ettiruvchi hurmat, qadr-qimmat va rasmiyatchilik ohanglarini ham o'z ichiga oladi.

Tushunchalarni tilning ma'lum bir lingvistik jamoaning madaniy dunyoqarashi va qadriyatlarini qanday aks ettirishini tilshunoslikning lingvokulturologik yo'nalishida o'rganish mumkin. Ushbu yondashuv til va madaniyat o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ta'kidlab, tildagi tushunchalar uning so'zlashuvchilarining jamoaviy tajribasi, tarixi va dunyoqarashi bilan qanday shakllanishini ko'rsatadi. Lingvokulturologiya-til madaniyatni qanday aks ettirishi va shakllantirishini o'rganib, tilshunoslik va madaniyatshunoslikni birlashtiradigan fanlararo yondashuv. Lingvokulturologiyaning asosiy sharti shundaki, til ijtimoiy vosita sifatida madaniy qadriyatlarini, e'tiqodlarni va dunyoqarashini kodlaydi va uzatadi.

Lingvokulturologiyada konseptlar tilda kodlangan madaniy bilimlarning asosiy birliklari sifatida tushuniladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ta'kidlab, bir nechta olimlar tushunchalarni lingvokulturologik nuqtai nazardan o'rganishga katta

hissa qo'shdilar. Quyidagi taniqli shaxslar madaniy nuanslar turli tillarda tushunchalarni ifodalashni qanday shakllantirishini o'rganishgan. Xususan, Anna Vierjibiska umuminsoniy tushunchalarning tillar va madaniyatlarda turlicha ifodalanishini o'rganib, uning hissiyotlarga, shu jumladan baxt va xushmuomalalikka oid tadqiqotlari ushbu tushunchalarga kiritilgan madaniy nuanslarni ochib beradi [3].

V.Tixonov tomonidan madaniy tushunchalarning tildagi roliga urg'u beriladi, lingvistik iboralar so'zlashuvchilarning madaniy o'ziga xosligini qanday aks ettirishini o'rganiladi. Uning tadqiqotlari madaniy atamalarning semantikasi va ularning madaniy amaliyotni tushunishga ta'sirini o'rgangan bo'lsa, G.Zolotova tadqiqotlari madaniy tushunchalarning lingvistik belgilariga, xususan turli madaniyatlardagi an'anaviy qadriyatlar va me'yorlarga bag'ishlangan.

Jefri Leechning pragmatika va xushmuomalalik nazariyasi bo'yicha ishi madaniy me'yorlar kommunikativ xulq-atvorni qanday shakllantirishini o'rganib, tabassum kabi hissiyotlar va tushunchalarning ijtimoiy o'zaro ta'sirlarda ifodalanishiga ta'sir qiladi deb ta'kidlaydi [2].

Hallidining tizimli funktsional tilshunosligi til va uning ijtimoiy funktsiyalari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlaydi. Uning til madaniy kontekstni qanday aks ettirishi haqidagi nazariyalari tushunchalar lingvistik jihatdan qanday amalga oshirilishini tushunishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. "Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning" asarida til madaniy kontekst bilan chuqur bog'langan ma'no yaratish uchun manba ekanligi ta'kidlangan [1]. Hamda tushunchalarning lingvistik jihatdan qanday tuzilishi va tushunilishi haqida, tushunchalarni talqin qilishda madaniy ramkalarining rolini Langake ta'kidlab o'tgan.

O'zbek tilshunosligida ham konsept tadqiqi borasida ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Xususan, G.A. Abduraxmanova [4], F.I. Nurmanov [6] va H. Xasanovlarning [7] tadqiqot ishlari o'zbek va

O'rta Osiyo turkiy tillarining dunyo lingvistik manzarasidagi milliy madaniyat parchalarini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu olimlar tushunchalarni tushunishga birgalikda hissa qo'shib, lingvokulturologik tushunchalar shunchaki lingvistik konstruksiyalar emas, balki ularning ma'nolari va qo'llanilishini shakllantiradigan madaniy kontekstlarga chuqur singib ketganligini ko'rsatib o'tishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning tilshunoslik sohasida qo'llaniladigan qiyosiy tahlil, analogiya, analiz va sintez kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbek va ingliz tillaridagi "smile/tabassum" tushunchalari insonning asosiy hissiy ifodasi bo'lib, u turli his-tuyg'ular va ijtimoiy ma'nolarni ifodalaydi. Til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni lingvokulturologik obyektiv orqali o'rganish, "smile/tabassum"ning ingliz va o'zbek tillarida qanday ifodalinishi va tushunilishini etimologik, komponentli va derivatsion tahlillarni qo'llash orqali kontseptsiyaning madaniy ahamiyati, lingvistik ko'rinishini yoritish mumkin. Ingliz va o'zbek jamiyatlarida tabassum iboralarning madaniy ahamiyatini hisobga olgan holda etimologik, komponentli, derivatsion tahlillarni qo'llash orqali o'rganishdan iborat. "Smile" konseptini lingvokulturologik tahlilini o'tkazish uchun avvalambor ushbu konseptni ifodalovchi sinonimlar qatorini ko'rib chiqishimiz zarur. Sinonimik qator deganda semantik jihatdan bir biriga yaqin bo'lgan so'z birikmalari tushiniladi. Shu sababli ingliz tilidagi "smile" konseptiga semantik jihatdan mos keladigan sinonimlari: grin ,smirk ,mock va boshqalar.

O'zbek tilshunosligida "tabassum" tushunchasini ifodalovchi sinonim qatorlarni sanab o'tadigan bo'lsak, bular: kulmoq, tirjaymoq, jilmaymoq, ishshaymoq, kulimsiramoq, qahqaha otmq va hokazolar.

Etimologik tahlil. Etimologiya so'zlarining tarixiy rivojlanishi va ularning ma'nolari bilan shug'ullanadi. "Smile" va "tabassum" ning etimologik tahlili ushbu tushunchalarning tarixiy evolyutsiyasiga oydinlik kiritadi va ularning madaniy ildizlarini ochib beradi. "Smile" so'zi eski ingliz tilidagi "smilen" so'zidan olingan deb qaralib, ehtimol O'rta nemis tili davridagi "smilen" (o'rta yuqori nemis tilidagi "smielen" so'zlari bilan aloqador hisoblanadi [5]. Dastlab, u jimgina kulish yoki jilmayish ma'nolarini anglatib, bu tabassum tushunchasi tarixan ko'proq bo'ysundirilgan, kamroq ochiq kulgi shakllari bilan bog'liq deb qaraladi. Vaqt o'tishi bilan u yanada umumlashtirilgan, baxt, do'stlik va ba'zan rasmiyatchilikni anglatadi.

O'zbek tilida "tabassum" so'zi arabcha "تَبَسُّمٌ (tabassum)" ildizidan kelib chiqqan bo'lib, "tabassum" yoki "yengil tabassum" degan ma'noni anglatadi. Ushbu atamaning arab va fors tillaridan o'zbek tiliga o'zlashtirilishi ushbu tillarning Markaziy Osiyoda, xususan diniy va adabiy kontekstlarda tarixiy lingvistik va madaniy ta'sirini aks ettiradi. Tabassum ko'pincha rasmiy yoki she'riy tilda ishlatiladigan kamtarlik, iliqlik va hurmat tuyg'usiga ega. An'anaviy o'zbek madaniyatida "tabassum" ko'proq rasmiy bo'lib, ko'pincha xushmuomalalik va ijtimoiy totuvlikni anglatadi.

Komponentli tahlil. Komponentli tahlil so'zlarining asosiy ma'nolari va qo'shimcha ma'nolarini aniqlash uchun ularning semantik tarkibiy qismlarini (yoki xususiyatlarini) ajratish orqali o'rganadi. "Smile/tabassum" tushunchasini tahlil qilib, har bir til ta'kidlaydigan aniq semantik xususiyatlarni tushunishimiz mumkin.

Ingliz tilidagi "smile" ning tarkibiy xususiyatlari:

Yuz ifodasi: lablarning yuqoriga harakatini o'z ichiga oladi.

M: "She smiled at her friend when she walked into the room" – "U xonaga kirganida do'stiga jilmayib qo'yd".

Tuyg'u sifatida: baxt, zavq, xushmuomalalik yoki mamnunlikni anglatadi.

M: "He smiled broadly when he received the good news" – "U xushxabarni olganida keng jilmayib qo'yd".

ADABIYOTLAR

- Halliday, M. A. K. Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning. Edward Arnold, 1978. – 256 p.
- Leech, G. N. Principles of Pragmatics. Longman, 1983. – 250 p.
- Вержбицка, А. Семантика, культура и познание: Универсальные человеческие концепты в культурно-специфических конфигурациях. Oxford University Press, 1992. – 512 с.
- Абдурахманова А. К. Способы номинации лиц как отражение языковой картины мира в узбекском и русском языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. — Ташкент, 2007. – 24 с.
- Жураева, Н. (2024). ЯЗЫКОВОЕ ВЫРАЖЕНИЕ КОНЦЕПТОВ «УЛЫБКА» И «ТАБАССУМ» (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ). Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(12/2).
- Нурманов Ф. И. Миф – важный компонент языковой картины мира. // Журнал «Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук» 2015 № 5-1 – С.276-278.
- Хасанова Г.Х. Национальная культурная картина мира. // Журнал «Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук» 2015 № 5-1. – С.299-301.

Iroda sifatida: ixtiyoriy (haqiqiy tabassum) yoki beixtiyor (refleksiv tabassum) bo'lishi mumkin.

M: "The child smiled in his sleep" (involuntary), "She smiled to show her appreciation" (voluntary) – "Bola uyqusida jilmayib qo'yd" (beixtiyor) va "U o'z minnatdorчилиgini ko'rsatish uchun tabassum qildi" (ixtiyoriy).

Ijtimoiy funktsiya sifatida: ko'pincha ijtimoiy salomlashish, kechirim so'rash yoki keskinlikni kamaytirish uchun ishlatiladi.

M: "He smiled as he greeted the guests at the party" – "U ziyofatda mehmonlarni kutib olayotganda jilmayib qo'yd".

O'zbek tilidagi "tabassum" ning semantik xususiyatlari.

Yuz ifodasi: lablari yuqoriga harakatini o'z ichiga oladi.

M: "Uning tabassumi juda chiroyli".

Tuyg'u sifatida: Birinchi navbatda mehribonlik, hurmat va ijobiy ijtimoiy his-tuyg'ular bilan bog'liq.

M: "U yuzida tabassum bilan salomlashdi" – salomlashishning ijobiy hissiy kontekstini ko'rsatish.

Iroda sifatida: Odatda xushmuomalalikning ijtimoiy normalarini aks ettiruvchi ixtiyoriy harakat.

M: "U doimo tabassum bilan gaplashadi" – ijtimoiy munosabatlarda tabassum qilishning odatiy tabiatini ko'rsatadi.

Ijtimoiy funktsiya sifatida: Madaniy kontekstdagi funktsiyalar hurmat, xushmuomalalik va mehmondo'stlikni anglatadi.

M: "Tabassum bilan mehmonlarni kutib olmoq" – o'zbek mehmondo'stligida tabassum muhimligini ta'kidlash.

Derivatsion tahlil. Derivatsion tahlil tushunchani anglatuvchi so'zlarning shakllari turli ma'nolarni yoki grammatik funktsiyalarni qanday yetkazishini o'rganadi.

Ingliz tili va o'zbek tilidagi "smile/tabassum" so'zlarining derivatsion shakllari:

Asosiy Shakl: "Smile/tabassum"

Ot so'z turkumi sifatida: "smile/tabassum, kulgu"

Ingliz tilida. "Her smile brightened the room" – "Uning tabassumi xonani yoritdi".

O'zbek tilida. "Uning tabassumi hamma uchun quvonch keltirdi".

Sifat so'z turkumi sifatida: "smiling/kulgili"

Ingliz tilida. "The smiling child brought joy to everyone" – "Jilmaygan bola hammaga quvonch keltirdi".

O'zbek tilida. Go'yo zehni boyagidan ham o'tkirlashib, tili biyronlashib ketganday, sho'x, kulgili gaplar xayoliga o'zidan-o'zi quyilib kelardi.

Ravish so'z turkumi sifatida: "smilingly"

Ingliz tilida. "She greeted him smilingly, making him feel welcome" – "U xush kelganini bildirib tabassum bilan kutib oldi"

O'zbek tilida "tabassum" tushunchasini ifodalovchi ravish so'z turkumidagi so'z aniqlanmadi.

Yasama ot so'z turkumi sifatida: "smiley/qahqaha".

Ingliz tilida. "He used a smiley to express happiness in his text" – "U o'z matnida baxtni ifodalash uchun emojilardan foydalangan".

O'zbek tilida. "Sherbekning qahqahasi Suvonjonga tepasida boxosdan chaqmoq chaqqandek bo'lib tuyuldi".

social critique and character development, while Faulkner's stream-of-consciousness style delves into the complexities of consciousness and memory.

Faulkner's fragmented narratives challenge readers to engage with the text on a deeper level, reflecting the chaotic nature of modern existence. By presenting multiple perspectives, Faulkner invites readers to consider the subjective nature of experience and the complexities of identity. This narrative complexity aligns with the broader themes of the Lost Generation, as writers sought to capture the intricacies of human life in a rapidly changing world.

Symbolism plays a crucial role in the works of both Lewis and Faulkner, enriching their narratives and deepening their thematic resonance. Lewis frequently employs motifs such as the small town and the American Dream to critique societal norms and expectations. In *Main Street*, Gopher Prairie symbolizes the stifling conformity of American life, while in *Babbitt*, Zenith represents the hollowness of material success.

Faulkner's use of symbolism is equally profound, as he employs the Southern landscape and familial ties to explore themes of identity and alienation. The decaying Compson family estate in *The Sound and the Fury* serves as a metaphor for the decline of Southern society, while the Bundrens' journey in *As I Lay Dying* reflects the struggles of individuals seeking meaning in a fragmented world.

The settings of Lewis's and Faulkner's works are integral to their explorations of disillusionment and alienation. Lewis's focus on small-town America reflects the constraints of provincial life, while Faulkner's Southern landscape embodies the complexities of identity and memory.

Paris, although not the primary setting for either author, serves as a backdrop for the Lost Generation's expatriate experience. The allure of Paris as a site of artistic freedom contrasts with the disillusionment faced by many writers, highlighting the tensions between aspiration and reality. Both Lewis and Faulkner grapple with the implications of place on identity, revealing how the environments in which characters live shape their experiences and perceptions.

Sinclair Lewis's exploration of gender dynamics reflects the shifting roles of women in the early 20th century. In *Main Street*, Carol Kennicott embodies the struggle for female autonomy in a patriarchal society. Her aspirations to bring cultural vitality to Gopher Prairie are continually thwarted by the townspeople's adherence to conventional gender roles, illustrating the limitations imposed on women seeking independence.

Similarly, in *Babbitt*, Lewis critiques the societal expectations placed on women through the character of Babbitt's wife, Myra. Myra's role as a dutiful homemaker underscores the constraints faced by women in a conformist society, highlighting the broader cultural shifts occurring during the Lost Generation.

William Faulkner's exploration of class disparities is particularly pronounced in his depiction of the Southern aristocracy and the impoverished characters that inhabit his narratives. In *The Sound and the Fury*, the decline of the Compson family represents the disintegration of the Southern gentry, revealing the tensions between privilege and marginalization.

Faulkner's portrayal of characters from different social backgrounds, such as the Bundrens in *As I Lay Dying*, underscores the complexities of identity and alienation in a rapidly changing society. The Bundrens' struggles to navigate their socio-economic circumstances highlight the challenges faced by individuals seeking meaning and connection in a world marked by class divisions.

The literary contributions of Sinclair Lewis and William Faulkner are emblematic of the Lost Generation's exploration of disillusionment, alienation, and the search for meaning in a rapidly changing world. Through their distinctive narrative styles and thematic preoccupations, these writers offer critical insights into the complexities of human experience, reflecting the broader societal issues of their time.

Lewis's critique of American society and his focus on individual aspiration serve as a powerful commentary on the disillusionment experienced by many in the wake of World War I. Faulkner's innovative narrative techniques and exploration of identity reveal the intricacies of human consciousness and the challenges of navigating a fragmented world.

As contemporary society continues to grapple with similar issues of dislocation and existential questioning, the legacy of the Lost Generation endures. The works of Lewis and Faulkner not only shaped the literary landscape of their time but also laid the groundwork for future generations of writers grappling with the complexities of modernity. Their exploration of disillusionment and

alienation continues to resonate, offering insights into the ongoing human quest for meaning in an increasingly fragmented world.

Conclusion. Ultimately, the literary output of the Lost Generation serves as both a reflection of its time and a timeless commentary on the human condition, inviting readers to engage with

fundamental questions of existence that transcend historical boundaries. The works of Sinclair Lewis and William Faulkner remain vital in understanding the complexities of identity, society, and the search for authenticity in an ever-evolving landscape.

REFERENCES

1. Lewis, Sinclair. *Main Street*. Harcourt, 1920.
2. Lewis, Sinclair. *Babbitt*. Harcourt, 1922.
3. Faulkner, William. *The Sound and the Fury*. Random House, 1929.
4. Faulkner, William. *As I Lay Dying*. Random House, 1930.
5. Hemingway, Ernest. *A Moveable Feast*. Scribner, 1964.
6. Tredell, Nicholas. *The Lost Generation: A History of American Literature and Culture from the 1920s to the 1940s*. Cambridge University Press, 2007.
7. Gelfant, Blanche H. *The Lost Generation: A Critical Study of American Literature after the First World War*. New York University Press, 1976.
8. Strychacz, Thomas. *The Lost Generation: A Cultural History of the American Novel*. University of Alabama Press, 1996.
9. McGann, Jerome J. *The Textual Condition*. Princeton University Press, 1991.



UDK:81'44. 811.112.2.811.512.133

Bobomurod MIRSANOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali kafedra mudiri, dotsent

SamDChTI professori, f.f.n M.Begmatov taqrizi ostida

SECONDARY NOMINATIONS FORMATION WITH THE WORDS "DER BÄR" / "AYIQ" IN GERMAN AND UZBEK

Annotation

This article examines the naming of complex terms in German and Uzbek languages, formed on the basis of the association of similarities of ideas inherent in the human psyche, the formation of words "der Bär" / "айик" and their motivation, studied on the basis of encyclopedic dictionaries. This research work pays attention to linguistic and extralinguistic factors of naming in linguistics.

Key words: Naming, thinking, term, association, motivation, component, metaphor, model.

ВТОРИЧНЫЕ НОМИНАЦИИ ФОРМИРОВАНИЕ С СЛОВАМ «DER BÄR» / «АЙИК» В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье рассматривается наименование сложные термины в немецком и узбекском языках, сформированных на основе ассоциации сходств представлений, свойственных человеческой психике, формирование с словам «der Bär»/«айик» и их мотивацию, исследовано на основе энциклопедических словарей. В данной исследовательской работе уделяется внимание лингвистическим и экстралингвистическим факторам именования в лингвистике.

Ключевые слова: Именованье, мышление, термин, ассоциация, мотивация, компонент, метафора, модель.

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA “DER BÄR” / “AYIQ” SO‘ZI ORQALI SHAKLLANGAN IKKILAMCHI NOMLASHLAR

Аннотация

Ushbu maqolada inson psixikasiga xos tasavvurlarning o‘xshashlik assotsiatsiyasi asosida shakllangan nemis va o‘zbek tillarida “Bär”/ “ayiq” so‘zi orqali qo‘shma terminlarning nomlanishi va ularning motivlashuvi entsiklopedik lug‘atlar asosida tadqiq etiladi. Ushbu tadqiqot ishida nomlash jarayonida tilshunoslikda nom ko‘chishning lingvistik va ekstralingvistik omillariga e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Nomlash, tafakkur, termin, assotsiatsiya, motivlashuv, komponent, metafora, model.

Kirish. Jahon tilshunosligida lisoniy tizimning salmoqli qismini tashkil etuvchi terminlar ilm-fan taraqqiyoti uchun boy material beruvchi manba bo‘lgani bois doimo e‘tiborda bo‘lib kelgan. Ikkilamchi nomlash inson ruhiyatining ajralmas qismi bo‘lgan xotira bilan bog‘liq tarzda kechuvchi assosiativ tafakkurning obyektiv borliq narsa-hodisalarini bilishdagi ma‘lumdan noma‘lumga o‘tish asosiga qurilgan psixolingvistik jarayondir. Unda assosiativ tafakkurning o‘xshashlik assosiasiyasi tamoyili yetakchilik qiladi va metafirik ikkilamchi nomlashlar kechadi. Uning zamiriga ma‘lumdan noma‘lumga o‘tish dialektikasi singdirilgandir. Inson assosiativ tafakkurning yondoshlik assosiasiyasi qonuniyati asosida yuzaga kelgan ikkilamchi nomlashlarni tilshunoslikning zamonaviy tadqiqot usullari bilan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiatda mavjud o‘simliklar va hayvonat dunyosi ham g‘oyat xilma-xil va rangbarang, shu bilan birga son-sanoqsiz. O‘simliklar dunyosi va hayvonat dunyosidagi bu xilma-xillikni inson hali to‘liq o‘rganib adog‘iga yetgan emas. Bu jarayon hali ham davom etmoqda va keyin ham davom etadi. Buning ustiga, tabiatdagi mavjud o‘simliklar va jonzorlar tuzilishida, fe‘l – atvorida, shakl-shamoilida bir-biriga o‘xshash, ayni paytda bir-birini takrorlamaydigan noo‘xshash, farqli jihat va belgi – xususiyatlar bor. Inson ularni o‘rganib borish jarayonida ularning o‘ziga xos, o‘ziga mos nomlar ham topish zarur. Bu nomlar insonning zarur paytda informatsiya almashuvi uchun, zarur paytda tafakkur qilishi uchun moddiy borliqning vakili sifatida g‘oyaviy asos vazifasini o‘taydi. Tilning tafakkur bilan bog‘liq jihati ham shunda ko‘rinadi.

Nomlash jarayoni ham inson uchun o‘ziga xos tafakkur jarayoni va ijod jarayoni sifatida qaralishi lozim. Bunda nomlash jarayonining bilish jarayoni bilan bog‘liq jarayon ekanligi ko‘rinadi. Chunki nomlash jarayonida ham insonga xos qiyoslash, tasniflash, abstraksiyalash, analiz, sintez va boshqa tafakkur operatsiyalari bajariladi. Bularsiz borliqni tashkil etuvchi narsa-hodisalarga o‘ziga xos va o‘ziga mos nom berib bo‘lmaydi.

Xo‘p, nomlash jarayoni tafakkur operatsiyalari bilan zich bog‘liq ekan, bu hol ikkilamchi nomlashda qanday namoyon bo‘ladi? Mazkur savolga javob ham tafakkurning o‘zidan qidirib topiladi. Bizningcha, bu savolga javob ham tafakkurning keng amal qiladigan turi – assosiativ tafakkurdan olinadi.

Avvalo, assosiativ jarayonning psixologiyadagi talqinini ko‘raylik:

Assosiativ (psixologiyada) — muayyan sharoitda psixologik hosilalar orasida paydo bo‘ladigan aloqa. Assosiativ inson ongidagi avvalgi turmush tajribalari bilan belgilanadigan tasavvurlar bog‘lanishi, shu bog‘lanishlar tufayli ongda paydo bo‘lgan muayyan tasavvurlar o‘xshashlik, yondoshlik va qarama-qarshilik belgilariga ko‘ra, shunga bog‘liq bo‘lgan boshqa tasavvurlarni hosil qiladi. Assosiativ o‘tmish tajribasi asosida paydo bo‘lib, narsa va voqealarning ob‘ektiv aloqalarini aks ettiradi. Bir ruhiy jarayonning namoyon bo‘lishi assosiativ tufayli ikkinchi (avvalgisini bilan bog‘liq bo‘lgan) ruhiy jarayonni vujudga keltiradi... [7].

Ikkilamchi nomlash ma‘lum bir denotatning doimiy nomi sifatida qo‘llanib turgan so‘zni nomi yo‘q denotatga yangidan nom sifatida ko‘chirishni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, so‘z o‘z fonetik qiyofasini o‘zgartirmagan holda yana bir yangi ma‘noga ega bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Hammaga tanish hayvonlardan biri der Bär - ayiqdir. Xalq og‘zaki ijodi – fol‘klorda ayiq haqida maqol va matallarda ko‘chirilgan, ertaklar yaratilgan, badiiy asarlar yozilgan, badiiy fil‘mlar yaratilgan. Bu o‘rinda ularni eslatib o‘tirish shart emas. Quyida ushbu ajoyib hayvonning nomi yordamida yuzaga kelgan o‘simlik nomi haqida hamda ularning motivlashuvi yuzasidan ma‘lumot berib o‘tmoqchimiz.

Inson umri davomida o‘z hayotiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida o‘simliklar dunyosi bilan ham, hayvonot dunyosi bilan ham muayan muloqatda bo‘ladi, ayrimlari inson hohish irodasiga zid o‘laroq zararli yoki foydasiz bo‘lishi mumkin.

O‘simliklarning ayrimlari, ularning biror a‘zosi insonga tanish hayvonlarning o‘zini, ayrim esa hayvonning biror a‘zosini eslatish mumkin. Ba‘zi hayvonlar, aksincha, biror o‘simlikni yoki o‘simlikning biror a‘zosini eslatadi. Bunday vaziyatlarda eslatilgan jihat ko‘pincha o‘simlik va hayvonlarga nom berishda bir vosita rolini o‘tashi mumkin. Ayni nom berish jarayonida insonning u yoki bu o‘simlikdan, hayvondan manfaatdor emasligi ta‘sirida nomlayotgan narsaga nisbatan salbiy munosabati sezilib qoladi. Ayrim nomlar betaraflikni, xolis munosabatni aks ettiradi.

Bärenklau (f) – lat. Heracleum sphondylium; Heracleum mantegazzianum – baumartiger Riesenbärenklau (m), Herkuleskraut (n) Heracleum sphondylium – deutscher Bärenklau (m), gemeiner Bärenklau (m), Bärenklaukraut (n), Wiesenbärenklau (m), Heilkraut (n), unechter Bärenklau (m) (Bolotina 2008: 874, 875). Bärenklau (f) = Akanthus [nach den mit einer Bärenklaue vergleichbaren Blättern]

(Wahrig 1991). Der deutsche Name leitet sich von der Bärenklaue ab, daher bevorzugen manche die weibliche Form die Bärenklaue; laut Duden ist sowohl die männliche als auch die weibliche Form erlaubt [Heracleum URL]. *Heracleum sphondylium* – die Wiesen-Bärenklaue. Die Riesen-Bärenklaue – lat. *Heracleum mantegazzianum* – Herkulesstaude. Bei Sonnenschein verursacht sein Saft auf der Haut Rötung und Blasen wie bei Verbrennungen. Diese heilen langsam, zurück bleibt oft eine langanhaltende braune Pigmentierung (Spohn, Aichele 2010: 170, 172). *Heracleum* «Bärenklaue, Herkuleskraut»: die Benennung des Bärenklaue (*H. sphondylium* L.) geht aus von lat. *Heraclēa herba* = *spondylium* «Bärenklaue, *Heracleum sphondylium*» (Plin. 12, 128); unklar bleibt, welche Beziehungen tatsächlich zum Mythos des Herkules (gr. *Hēraklēs*) bestanden und wieso der antike Name auf den Bärenklaue übertragen wurde, der ja nicht als Heilpflanze zu gelten hat (Genaust 2012: 286) [2].

Tavsifda nomning motivlashuvi lotincha *Heracleum* nomi qahramon nomidan kelib chiqqan bo'lib, bu turdagi o'simliklarning kattaligi, shuningdek, yuqori o'sish tezligiga asoslangan.

Nom o'xshashlik assotsiatsiyasi asosida shakllangan. O'xshatish obyekti – o'simlik, o'xshatish obrazi – ayiqning panjasi, o'xshatma belgi – o'simlik bargining ayiq panjasiga o'xshashligi. Ellipsislashuv: bargi ayiqning panjasiga o'xshagan o'simlik >Bärenklaue

Bärentraube (f) – lat. *Arbutus uva-ursi* (*Arctostaphylos uva-ursi*); Echte Bärentraube (f), gemeine Bärentraube (f), immergrüne Bärentraube (f), Arznei-Bärentraube (f) *Arctostaphylos* «Bärentraube»: Name von Adans. aufgrund der Nebenbestimmung von *Arbutus uva-ursi* L. und so als Lehnübersetzung dieses *Artepithetons* gebildet zu gr. *árktos* «Bär»; das Sternzeichen des Grossen Bären; der (hohe) Norden «und *staphylē* = lat. *uva* «Traube»; zirkumpolar verbreiteter Kleinstrauch mit blauschwarzen, zu mehreren gehäufteten Beyerchen (in dieser Hinsicht zunächst auf die Heidelbeere, die bei C. Bauhin, *Pinax* 470, noch *Vitis Idaea*, *fructu nigro* heißt, und sekundär auf die Traube des Weinstocks bezogen) (Genaust 2012: 73). Trivialnamen: Für diese Art gibt es, zum Teil nur Regional, auch die Trivialnamen: Bärbenstraube (Bern), Bärentraube, Bewell (Pommern), Wilder Buchs (Bern Oberland), Jackaspapuk (Schlesien), Mehlbeere (Celle), Moosbeere (Frankfurt/Oder), Rausch (Tirol), Rauschgraben (Tirol), Sandbeere, Soltebeerenblätter (Redsburger Apotheke), Steinbeere und Wolfsbeere [*Arctostaphylos* URL] [2].

Nom o'xshatish assotsiatsiyasi asosida shakllangan. O'xshatish obyekti – o'simlik, o'xshatish obrazi – ayiq mevasi, o'xshatma belgi – mevasi va barglarini ayiqning xush ko'rib yeyishi. Ellipsislashuv: bargi va mevasi ayiq xush ko'rib uyidigan o'xshagan o'simlik >Bärentraube

Bärlauch (*Allium ursinum*), im Volksmund auch Bärenlauch, Waldknoblauch oder Wilder Knoblauch genannt, zählt zu den ältesten Nutz- und Heilpflanzen in Europa. Als ein Vertreter der *Amaryllidaceae* (*Amaryllidaceae*) gehört Bärlauch zur Gattung der Lauchgewächse (*Allium*). Weitere bekannte Vertreter dieser Gattung sind Lauch, Zwiebel und Knoblauch. Im Gegensatz zu Knoblauch und Zwiebel ist der Bärlauch jedoch in Europa heimisch. Frischer Bärlauch wird gerne zum Würzen, für Wildkräutersalate oder als Bärlauchpesto verwendet. In der Naturheilkunde wird der Bärlauch insbesondere bei Magen-Darm-Beschwerden eingesetzt. [4].

Der Bärlauch hat aber keine morphologischen Analogien zum Tier Bär und die Bedeutung als Nahrungspflanze der Bären wurde für diesen Fall bereits bezweifelt.

O'simlikni "der Bärlauch", deb nomlanishida ayiqga nisbatan o'xshatish emas, balki ayiqning o'simlik piyozchalarini iste'mol qilishi bilan bog'langan.

Lotincha *ursinum* so'zi "ayiq" deb tarjima qilinadi. Xalq ertaklarida aytilishicha qo'ng'ir ayiq qish uyusidan uyg'onganidan keyin o'simlik piyozchalarini iste'mol qiladi [3]

Bärenklee, Bärntatzel, Bärenpratzen, Bäratap für *Anthyllis vulneraria* wegen seiner filzig behaarten Kelche.

Bärsette für *Onobrychis viciifolia* (Schweiz) wegen der Morphologie der Kelche

Bärwurz, Bärnzotten, Bärkümmel, Bärenfenchel für *Meum athamanticum* ev. wegen der schopfartigen Blattreste am Stengelgrund (fellartig)

Bärenklaue, Bärenfuß, Bärenratz'n, Bärenpot, Bärlappe für *Heracleum sphondylium* wegen der Gestalt der rauhaarigen Blätter

Bärenklaue für *Acanthus mollis* wegen der Blattgestalt

Bärlapp (lappo: Hand, Pfote), Bärätap für *Lycopodium* spp. wegen der Ähnlichkeit der Blätter mit den Klauen des Bären.

Bärätapä (selten Schweiz) für *Dactylis glomerata* mit seinen pfotenartigen Teilblütenständen.

Bärenratzel, Berntatzel für *Antennaria dioica* wegen der dichten Behaarung

Bärenlope für *Lonicera caprifolium*.

Bärenbirne (Kärnten) für *Amelanchier ovalis* als Bären-Nahrung Der Bärlauch hat aber keine morphologischen Analogien zum Tier Bär und die Bedeutung als Nahrungspflanze der Bären wurde für diesen Fall bereits bezweifelt [2].

Ayiqtovon (*Ranunculus*) - ayiqtovondoshlarga mansub ko'p yillik va

ba'zan bir yillik o'simliklar turkumi. Barglari panjasimon bo'lma va o'yama.

Gullari sariq. Mevasi parcha, apokarp, quruq [1].

AYIQTOVONLAR (*Ranunculus*) - ayiqtovondoshlar oilasiga mansub ko'p yillik (ba'zi turlari bir yillik) o'simliklar turkumi. Yer yuzida 600 ga yaqin turi, bu jumladan O'rta Osiyoda 65 turi bor; ko'proq sernam yerlarda, O'rta Osiyoda esa cho'l va adirlarda ham o'sadi. A. poyasining uz. 15-60 sm, ba'zan 80 sm ga boradi; gullari sariq, to'g'ri (aktinomorf), qo'sh gulqo'rg'onli. Gulkosasi va gultojisi 5 bargli, har bir toj bargning tagida qipqisimon o'simta b-n yopilib turadigan shira bezi bor, changchi va urug'chilari ko'p. Gulo'rmi ba'zi turlarida taksiz, boshqalarida sertuk. Barglari panjasimon uyma, poyaning pastidan yuqorisiga tomon maydalashib boradi. Mevasi apokarp va quruq (q. Meva). A.ning O'zbekistonda 32 turi (ko'proq *R. pinnatisectus*, *R. linerilobus*, *R. Severtzovii* va b.) o'sadi. Tarkibida zaharli modda — anemonol bo'lgani uchun A. li o'tloqlarda mol boqish xavfli. A. o'rib quritilganda zaharsizlanadi. Ba'zi turlari xushmanzara o'simlik sifatida ekilladi [7].

Ayiqtovondoshlar (*Ranunculaceae*) - ikki urug' pallalilardan ayritojdorlar qabilasiga mansub o't o'simliklar oilasi. Aksariyati ko'p yillik. Barglari yonbargchasi, ko'pchiligida panjasimon bo'lma yoki o'yama, ba'zi turlarida esa qirqma oddiy. Gullari ikki jinsli va to'g'ri (faqat ayrimlaridagina zigomorf). Gulqo'rg'onli oddiy tojsimon yoki ba'zan qo'shqavat. Bir qancha turlarida ko'p sonli changchi va urug'chilar bor. Mevasi bargak yoki donacha, parcha [1].

Ayiqtovondoshlar (*Ranunculaceae*) — ikkipallalilar sinfining ayritojlilar kenja sinfiga mansub o'simliklar oilasi. A. asosan ko'p yillik (ba'zilar bir yillik) o't. Buta yoki chala buta turlari ham uchraydi. Barglari ketma-ket (ba'zi turlarida

qarama-qarshi) o'rnanagan, ko'pincha yon bargchasi, panjasimon - o'yama yoki

qirqma, oddiy (ba'zilarida murakkab). Gullari ikki jinsli, ko'pchilik turlarida to'g'ri (aktinomorf), ayrim turlarida qiyshiq (zigomorf). Gulqo'rg'onli oddiy yoki qo'shqavat. Sallagul (*Paeonia*), suvviy'ar (*Aquilegia*), parpi (*Aconitum*), isfarak (*Delphinium*), ayiqtovon (*Ranunculus*) kabi turkumlarga mansub o'simliklarning gulkosasi, ko'pchilik turlarida esa gultojlari ham besh bargli [7].

Ayiqtovonlar (*Ranunculales*) – gulli o'simliklardan Magnoliopsida

sinfi, *Ranunculidae* kenja sinfining tartibi [1].

Ayiqquloq (*Verbasum thapsus*) - sigirquyruqdoshlarga mansub o'simlik,

sigirquyruqning bir turi [1].

AYIQO'T (*Tithymalus rapulum*) sutlamadoshlar oilasiga mansub tunganakli ko'p yillik o'simlik. Bo'yi 8-25 sm. Poyasi yakka, silindirsimon.. Barglari mayda, yassi. Mevasi (ko'sagi) shakli tuxumsimon. Martda gullab, iyunda meva beradi. Toshkent, Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi adir va tog' zonalarida o'sadi. A.ning tunganaklarida 5% gacha smola va 0,5-0,6% kauchuk bo'lib, smola tarkibida uchuvchan zaharli modda bor. A.ning quritib maydalangan yer osti qismi (tuganagi) xalq tabobatida sil kasalligini davolashda, shuningdek, surgi sifatida ishlatiladi [7].

Ayiqo't (*Tithymalus rapulum* (Kar. et Kir.) Kl. yet Gurke) – sutlamadoshlar

oilasiga mansub adir, tog'da o'sadigan dorivor ko'p yillik o't [1].

Ayiqmurut, xirsmurut (*Purus regelli*) - ra'nodoshlar oilasiga mansub past bo'yi daraxt. O'rta Osiyo (G'arbiy Tyanshan, Pomir - Oloy) da tarqalgan. Toshkent, Samarqand, Surxandaryo va Qashqadaryo viloyatlarida o'sadi. Ayiqmurut noqulay, suvsiz toshloq sharoitda, quruq tog' yon bag'irlarida va hatto qoyalarning yoriqlarida ham uchraydi. Aprelda gullab, avgustning oxiri va sentabrning boshlarida pishadi. Mevasi qattiq dumaloq, qattiq, diametri 2-3 sm. Ayiqmurutning mevasi uzilib, 10-12 kun o'tgach, yumshab shira tortganidan so'ng iste'mol qilinadi. Mevasining qaynatmasidan tomoq og'rig'ini davolash va yuqumli kasalliklarning oldini olishda

foydalaniladi. Ayiqmurutdan payvandtag sifatida, yangi nok navlari yetishtirishda, ququqtuproqli janubiy tog' yonbag'rlarini o'zlashtirishda va manzarali o'simlik sifatida foydalanish mumkin [7].

Xulosa va takliflar. Ko'rib o'tilganlardan ayon bo'ldiki, ayiq va uning a'zosi nomi bilan shakllangan qo'shma nomlarda assosiativ tafakkurning o'xshatish assosiativiyasi qonuniyati muhim rol o'ynaydi. Shunga muvofiq tarzda o'xshatish ob'ekti, o'xshatish obrazi va o'mahatma belgi munosabati orqali kechgan jarayon ta'sirida o'xshatish oborotiga teng keladigan aniqlovchi komponentdan va o'simlik nomidan iborat murakkab nom yuzaga

keladi. Keyingi bosqichda ro'y beradigan ellipslashuv jarayoni natijasida o'xshatish obrazining nomidan iborat komponentlar o'simlikning qo'shma nomiga aylanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, tarkibida ayiq so'zi ishtirok etgan o'simlik nomlari nemis va o'zbek tillarida bir necha bo'lib, ularning ayrimlarida ayiq so'zining qo'llanilishi shunchaki simvolik xarakterga ega, ayrim nomlar tarkibida aniqlanmishning o'xshash jihatlari nazarda tutiladi. Umuman olganda bunday o'simlik nomlarida xalqona soddalik aks etib turadi, ularda xalqona tasavvurning izlari seziladi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев А.А., Мадумаров Т.А., Дарнев А.С., Сатторов Б.Х., Рўзматов Э.Ю., Сирожидинов Б.А. Биологиядан кискача изоҳли лугат.//Методик қўлланма.- Тошкент: Наврўз, 2016.- 419 б
2. Berichte des Institutes für Landschafts- und Pflanzenökologie der Universität Hohenheim. Heft 17, 2007, S. 199-204, Stuttgart 2008: 200.
3. Sbolewska, Danuta; Podolak, Irma; Makowska-Wąs, Justyna (2015). "Allium ursinum: botanical, phytochemical and pharmacological overview". *Phytochemistry Reviews*
4. Spiridonova G. J. Das Blumen-ABC oder deutsch-russisches etymologisches Wörterbuch der botanischen Pflanzennamen. Ischewsk. "Udmurtische Staatliche Universität" Institut für Fremdsprachen und Weltliteratur. 2015. – 302 S.
5. Odil Rahmonov, Ro'zi Rahmonova. Deutsch-Uzbekisches Wörterbuch. 18000 so'z va iboralar. Akademnashr. – Toshkent. 2017
6. nutrition-press. Fachzeitschrift für Mikronährstoffe. Ausgabe Nr. 12 – Juni 2018 . 4,95 Euro . ISSN 2196-1271 www.nutrition-press.com.
7. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, ўн икки томлик. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.



UDK: 347.2/3.80/81.008

Ma'suma MO'MINOVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., PhD

E-mail: masumamominova0409@gmail.com

ToshDO'TAU professori, f.f.d Z.T. Xolmanova taqrizi asosida

SEMANTIC CHARACTERISTICS OF SIMPLE LEXEMAS BASED ON "WATER"

Annotation

This article analyzes the patterns of water and water-related concepts, the association of several water-based lexemes with lexemes close to it. Grammatical forms that can be combined with the base of water have been proven, and the semantic field of words based on water has been determined. The cultural code function of water-based simple lexemes is revealed on the basis of examples.

Key words: Water, lexeme, semantic field, grammatical form, simple word, semantic network, component, base, aspect.

СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОСТЫХ ЛЕКСЕМ НА ОСНОВЕ «ВОДЫ»

Аннотация

В данной статье анализируются закономерности воды и связанных с водой концептов, ассоциации нескольких лексем, связанных с водой, с родственными лексемами. Доказаны грамматические формы, которые могут сочетаться с основой вода, и определено семантическое поле слов на основе воды. На основе примеров раскрывается культурно-кодовая функция простых лексем водного происхождения.

Ключевые слова: Вода, лексема, семантическое поле, грамматическая форма, простое слово, смысловая сеть, компонент, основа, аспект.

"SUV" ASOSLI SODDA LEKSEMALARING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada suv va suv bilan bog'liq tushunchalarning semalari, suv asosli bir qancha leksemalarning unga yondosh leksemalar bilan assotsiatsiya hosil qilishi tahlil qilingan. Suv asosi bilan birika oladigan grammatik shakllar dalillangan, suv asosli so'zlarning semantik maydoni aniqlangan. Suv asosli sodda leksemalarning madaniy kod funksiyasi misollar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Suv, leksema, semantik maydon, grammatik shakl, sodda so'z, semantik to'r, komponent, asos, aspekt.

Kirish. Inson faoliyati davomida borliq haqida bilimga ega bo'lib, voqea-hodisalarni o'zlashtirib boradi. Narsa-buyum, voqea-hodisaga nom beradi. Nomda inson ongida qabul qilingan axborot, milliy-madaniy belgilar mujassamlangan bo'ladi.

Suv so'zi O'rxun-Enasoy yodgorliklari tilida, "Devonu lug'otit-turk", "Qutadg'u bilig", "Tafsir", "At-tuhfa" kabi manbalarda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida, lug'atlarda va boshqa yodgorliklarda suv, su, suw, siu, sup, sub shakllarida qo'llangan.

O'zbek, qo'miq, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, qarayim, qorachoy-bolqor, boshqird, no'g'oy, ozarbayjon, tuva, turkman, uyg'ur, xakas, yoqut, chuvash tillarida fonetik o'zgarishlar bilan qo'llanadi. Qardosh bo'lmagan tillarda ham o'xshash shakllarda ishlatiladi: arab tili (mo, mo'), koreys, mo'g'ul tillarida (su, usu, us), rus tili (вода), tibet tili (chu, chyu), fors-tojik tili (ob), xitoy tili (shuy, suy) [12]. O'zbek tilida su, suw shaklida qo'llanilib keladi. Suv so'zining etimologiyasi, fonetik jihatdan shakllanishi X.Jabborov monografiyalarida yoritilgan[12].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Suv tabiat hodisasi sifatida antik davr ilm-fanidan boshlab tadqiqot mavzusi bo'lib keladi. Tilshunoslik ilmi falsafa negizida shakllanganidek, olamning va insonning to'rt unsur: suv, havo, tuproq, olov bilan aloqadorligi haqidagi konseptual tahlillar eng qadimgi falsafiy ta'limotlarda amalga oshirilgan. Tilshunoslikning alohida soha sifatida rivojlanishi leksemalarni lisoniy jihatdan tahlil qilish imkonini yaratdi. Keyingi yillarda leksemalar antropotsentrik paradigma asosida tadqiq qilinmoqda. Mavzuning jahon tilshunosligida o'rganilishi XIX asr oxiri XX asming birinchi choragiga to'g'ri keladi. N.V. Grishina [8], I.G. Vrajnov [24], M.A. Sedova [18], T.V. Mirzayeva [13], M.I. Zakirov [27], D.D. Xayrullina [25], M. Aychichek [2], O.V. Starostina [22] tadqiqotlarida muayyan leksemaning qiyosiy-chog'ishtirma aspektidagi lingvokulturologik tadqiqi amalga oshirilgan. Suv leksemasining lingvokulturologik xususiyatlari, milliy lisoniy manzarada tutgan o'rni xususidagi nazariy qarashlar tavsiflangan. U. Galdin voda konseptining verbal vositalar bilan ifodalanishini lingvokulturologik maydon o'lchovi nuqtayi nazaridan o'rgangan [7]. T. Badmayeva ingliz tilidagi water "suv" so'zini 30 xil nomlovchi vazifada qo'llanishi, paradigmalari, so'z yasalishi va frazeologizmlar tarkibidagi ishtiroki nuqtayi nazaridan tahlil qilgan [3]. Y. Shmelyova tadqiqotida XX-XXI asrlar ingliz badiiy

adabiyotidan to'plangan dengiz (more) konseptiga aloqador 1600 leksik birlik, "The Times" davriy nashrining 2004–2009-yillardagi sonidan to'plangan 944 birlik tahlilga tortilgan. Ishda lingvokulturologik maydon tushunchasi dengiz (more) konsepti misolida tahlil qilingan. Suv konsepti unga yondosh bo'lgan uch unsur: havo, tuproq, olov tushunchalari tahlili jarayonida ham o'rganilgan [31]. Suv komponenti ishtirokidagi birliklar sohaga doir etimologik, izohli, adabiy asarlar, lug'atlarda tadqiq qilingan. Rus tilining assotsiativ lug'atida voda so'zining to'qsondan ortiq assotsiatsiyalari keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tilshunosligida sistem-struktur yo'nalishdagi tadqiqotlar soha leksikasi tahliliga [1], tizimli tahlilga [20] bag'ishlangan. Sistem-struktur tilshunoslik paradigma asosidagi tadqiqotlarda lingvistik hodisalarni tizimlarga, guruhlarga birlashtirish, tizimli tasniflash masalasi asosiy e'tiborda turadi. Tizimlashtirishning mazmuniy maydon asosida ko'rinishiga oid tadqiqotlar lingvistik birliklar o'rtasidagi munosabatlarni yoritishga xizmat qildi [11].

Suv sistem-struktur jihatdan bir necha yo'nalishlarda tadqiq etilgan. Birinchi navbatda, so'zning semantik, statistik qo'llanish doirasi, morfemik va grammatik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlarni qayd etish zarur. Tojik tilidagi ob so'zining semantik-uslubiy xususiyatlari yoritilgan. Ishda suv va suv bilan bog'liq leksemalar qiyoslanib, so'z yasali jarayoni, suv bilan bog'liq yangi leksemalarning shakllanish jarayonlari talqin qilingan [1].

Struktur-semantik tahlillar, birinchi navbatda, tilning sinxron ko'rinishiga bag'ishlangan, leksemaning semantik tarkibi, leksik-semantik maydoni va qurshovi, ma'no xususiyatlari xususidagi tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Xususan, rus tilshunosligida suv leksemasi va uning semantik xususiyatlari, semantik tarkibi xususidagi tadqiqotlar ko'p miqdorni tashkil etadi. Jumladan, Y.Zinsova [28], birinchi navbatda, dunyoda suyuqlik xususiyati va ushbu xususiyatga ega bo'lgan hodisalarning mavjudligi tabiiy ravishda istalgan til va uning lisoniy manzarasi uchun juda katta imkoniyat ekanligini ta'kidlaydi.

Tahlil va natijalar. Suv bir qancha leksemalar bilan assotsiatsiya hosil qiladi: yomg'ir, buloq, dengiz, daryo, ariq, ko'l, soy, ko'l, quduq, do'l, zilol, ibriq, suyuq. Bu so'zlarni eshitgan yoki o'qiganda ko'z oldimizda suv jonlanadi. Masalan, igna bilan quduq

qazimoq – ko'p kuch va vaqt talab qiladigan mashaqqatli mehnatni bajarimoq [30].

Suv o'z ko'lami, hajmi, bog'liq bo'lgan makon atamasi bilan yonma-yon qo'llanadi: ariq+suv: Ro'za tutmaysan, tutsang ham ranj tortib sajda qilmaysan (ya'ni namozlaringni o'qimaysan). Tahorat qilishda ham ariq suvini ranjitmaysan deysan (shunchaki poklanasan) [19].

Chashma va suv alohida tushunchani bildirib kelgan: Chashma suvin qoni aylab lolagun, Kim anga ishq ichra yozdim bo'yla pand [16].

Daryo va suv yonma-yon qo'llangan: Qildi daryog'a buxorin parda po'sh, Mehr o'tidin tushmasun deb suvg'a jo'sh [16].

Qor, yomg'ir, jala, buloq so'zlari mantiqan "suv" tushunchasini ifodalasa-da, nutqda alohida-alohida lug'aviy birliklar sifatida ishlatiladi:

Yomg'ir alohida, suv alohida tushunchani ifodalab keladi: Yer yuzin yomg'ur suvi birla yudi, Gard-u chirki ul yumog'din o'ksudi [16] Iliq yomg'ir hali ham savalab turar, ularning yuzlari va badanlaridan oqqan ter yomg'ir suviga qo'shilib kiyimlarini shalabbo qilgan edi [15]. Ganga hali ham uzoqlarda yog'ayotgan jala suvlariga to'lib, loyqalanib oqayotgan bo'lsa-da, yer asta-sekin quriy boshladi [15]. Bu ustunlik daryo suvi kabi buloqlardan, qor suvlaridan, irmoqlardan yig'ilib, ko'payadi [15]. Taxta orasidan oqib tushadigan qor suvi loyqalanib mashinani tanib bo'lmaydigan qilib yuboradi. Buloq suvlaridan yig'ilgan Siyob sovuq kuz kechasida bug'lanib oqmoqda edi [15].

O'zbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida suv hajmi, ko'laminii bildiradigan zamonaviy birliklar ham shakllangan: artezan, fontan, kran, vodoprovod: Daryo suvini ichib bo'lmaydi. Odamlar artezandan suv ichishadi. Daryo bo'yida chanqoq... Orol qurib boryapti [10].

Suv komponentli sodda leksemalar quyidagi grammatik shakllar bilan qo'llanadi:

Suv+egalik shakllari		Suv+shaxs-son shakllari	
suvim	suvimiz	Suvman	–
suving	suvingiz	Suvsan	–
suvi	suvlari	Suvdir	–
Suv+lar+egalik		Suv+kelishik shakllari	
suvlarim	suvlarimiz	suv-	suvga
suvlaring	suvlaringiz	suvning	suvda
suvlari	suvlari	suvni	suvdan
Suv+lug'aviy shakl yasovchi			
suvniki	suvday	Suvdagi	suvgina
suvdek	suvgacha	–	–
Suv+so'z yasovchi			
suvli	suvchi	suvloq	suvsiramoq
suvsiz	fersuv	suvsamog	suvdon
suvsizlik	suvlamog	suvlatmog	suvlik
suvloq	suvsoq	suvxo'r	suvchi
suvchilik	suva	suvogil	suvogli
suvogsiz	suvogchi	suvogchilik	suvliq
suvsar	suvarak	suvot	–

I-jadval. Suv komponentli sodda leksemalardagi grammatik shakllar

So'z semantikasini o'rganish bo'yicha uchta yondashuv mavjud: onomasiologik yondashuv; semasiologik yondashuv; semiologik yondashuv. Keyingi yillarda o'rganish aspektlari kognitiv-pragmatik yondashuv bilan boyitilmoqda [5].

So'z semantikasiga doir semantik maydon, semantik guruh, mavzuiy guruh terminlari ko'p qo'llanadi.

Semantik maydon metodi terminlarni o'qitishda, mazmunini yoritishda, terminlararo mazmunii munosabatlarni aks ettirishda ahamiyatlidir. Semantik maydonda terminlar gipero-giponimik munosabatda bo'ladi. Bu munosabatlar tur va jins munosabatlari nomi bilan ham yuritiladi. Tur ma'nosini tashuvchi giponim lug'aviy birliklar bo'lmas ekan, jins ma'nosini tashuvchi giperonim lug'aviy birligi ham bo'lmaydi [6].

So'z ma'nolarining bir-biriga semantik aloqadorlik asosida bog'lanishi semantik to'rlarni yuzaga keltiradi. Bu esa semantik maydon tushunchasining semantik to'rlar bilan to'ldirilishini taqozo qiladi.

"Semantik to'r" semantika masalalariga qaratilgan integratsiya asosidagi tahlil metodlaridan biri hisoblanadi. Semantik to'r kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasida faol qo'llanmoqda [26]. Semantik to'r ham hodisani, ham metodni ifodalaydi [26].

O'zbek tilida suv komponentli 27ta sodda leksema, leksemalarning kelishik, egalik, lug'aviy shakl yasovchilar bilan o'zgargan 1092ta so'z shakli faol qo'llanadi.

Suv asosidan yasalgan har qanday birlikda madaniy kod bo'lishi mumkin emas, so'z nutqiy pragmatik akt, matnga yuklangan

Tashvishlanmang, janob, – dedim tushuntirib. – Boyagi suv iflos emas, vodoprovod kranining suvi. Bu tuman to'liq vodoprovodlashgan. Bemalol yeyavering, mana, o'zim boshlab bera qolay [10].

Suvning ko'lami katta hudud doirasini ham qamrab oladi: hech e'tibor berganmisiz, Toshkentning suvi nihoyatda shirin [10].

Matnda boshqa tushunchalar suv ma'nosini ifodalab keladi. Suvning belgi-xususiyatini ifoda etuvchi so'z uning o'rnida qo'llanadi: zilol – suv: Zilol so'zi metafora asosida suv tushunchasini ifodalab kelgan: Agar lab tashna (chanqoq)larning qurigan, ranj tortgan halqumi (tomog'i)ga bunday na'ting zilol (suv)idan bir qatrasini tomizsalar [19].

Suv leksemasining semantik tarkibi 62 semadan iborat:

1) suyuq kimyoviy modda; 2) geografik atama; 3) suyuqlik; 4) ichimlik; 5) suv havzasi; 6) daryo; 7) ko'l; 8) dengiz; 9) soy; 10) quduq; 11) ariq; 12) oqim; 13) kanal; 14) anhor; 15) jilg'a; 16) ko'lmak; 17) yomg'ir; 18) qor; 19) muz; 20) bulut; 21) sel; 22) kuch-quadrat; 23) shiddat; 24) oqish; 25) qaytmaslik; 26) to'xtamaslik; 27) soflik; 28) poklik; 29) tiniqlik; 30) balo, ofat; 31) to'g'rilik; 32) uzunlik; 33) uzunlik o'lchovi-o'n tanob; 34) to'g'ri chiziq; 35) uzun yo'l (chevarchilikka oid atama; 36) naqsh; 37) spirtli ichimlik; 38) "shifobaxsh" suv; 39) tiriklik; 40) hayot; 41) yiring; 42) ko'plik; 43) mo'llik; 44) sokinlik; 45) xotirjamlik; 46) cho'milmog; 47) meva shirasi; 48) meva sharbati; 49) meva seli; 50) ta'mga egalik; 51) ta'msizlik; 52) go'sht seli; 53) ter; 54) so'lak; 55) balg'am; 56) sut; 57) ko'z yoshi; 58) tupuk; 59) ho'llik; 60) namlik; 61) tenglik; 62) davr. O'zbek tilida suvning kishilik jamiyatidagi o'rnidan kelib chiqadigan yettita semasi 1) "tiriklik manbai"; 2) "tozalash"; 3) "poklik"; 4) "tiniqlik"; 5) "shiddat"; 6) "axborot saqlash"; 7) "axborot uzatish" semalari faol hisoblanadi.

Suv komponentli sodda leksemalar quyidagi grammatik shakllar bilan qo'llanadi:

Suv+egalik shakllari		Suv+shaxs-son shakllari	
suvim	suvimiz	Suvman	–
suving	suvingiz	Suvsan	–
suvi	suvlari	Suvdir	–
Suv+lar+egalik		Suv+kelishik shakllari	
suvlarim	suvlarimiz	suv-	suvga
suvlaring	suvlaringiz	suvning	suvda
suvlari	suvlari	suvni	suvdan
Suv+lug'aviy shakl yasovchi			
suvniki	suvday	Suvdagi	suvgina
suvdek	suvgacha	–	–
Suv+so'z yasovchi			
suvli	suvchi	suvloq	suvsiramoq
suvsiz	fersuv	suvsamog	suvdon
suvsizlik	suvlamog	suvlatmog	suvlik
suvloq	suvsoq	suvxo'r	suvchi
suvchilik	suva	suvogil	suvogli
suvogsiz	suvogchi	suvogchilik	suvliq
suvsar	suvarak	suvot	–

I-jadval. Suv komponentli sodda leksemalardagi grammatik shakllar

qo'shimcha ma'no va vositalar yordamida madaniy axborot tashuvchi vazifasini bajarishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Suv komponentli leksemalar sodda va murakkab shaklga ega. Sodda leksemalar tub asos hamda shakl yasovchi qo'shimchalar orqali yuzaga kelgan so'zlardan iborat. Suv asosidan o'zbek tilida 30ga yaqin tub so'z hosil qilinadi. Suv asosidan shakllangan tub so'zlarda leksema semalarining barchasi aks etadi. Suv asosli yasama leksemalar asos bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan yangi lug'aviy ma'noni ifodalaydi. Sodda yasama leksemalar suv leksemasi semantikasiga aloqador yangi sememalar va semalarning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Suv asosli o'nga yaqin leksema sinxron aspektda tub so'z sanaladi. Suv leksemasidan grammatik ko'rsatkichlar orqali shakllangan so'z shakllari, yasovchi qo'shimchalar bilan yuzaga kelgan leksemalar, semalardan tarkib topgan semantik to'rlar hosil bo'ladi. Suv leksemasining semantik to'rlari bir konsept doirasidagi munosabatga asoslanadi. Suv leksemasining semantik to'rlari bir leksema asosidagi semantik uzvlar vositasida birlashadi. Har bir leksema alohida semantik uzvlar asosida kichik semantik to'rlarni hosil qiladi. Suv asosidagi semantik to'rlarni hosil qiluvchi leksemalar yadro maqomiga ega bo'ladi. Suv komponentli birliklarga semantik to'r asosida yondashish so'z etimologiyasini aniqlashda, bir fonetik strukturali semantik tizimdagi aloqadorlikni tahlil qilishda, leksema aks etgan munosabat darajasini belgilashda muhim o'rin tutadi. Suv leksemasi o'z semalariga aloqador bir necha ma'nolarda qo'llanadi.

1. Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 65.
2. Айчирик М. Репрезентация концепта вода фразеологической картине мира (на материале русского, турецкого и английского языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2012. – 26 с.
3. Бадмаева Т.И. Концепт вода на английской лингвокультуре. Дисс... канд. филол. наук. – Волгоград, 2006. – 220 с.
4. Бэ Сон Хен. Концепт «воздух» в современном русском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2006. – 24 с.
5. Бочарова М.А. Семантическое поле как способ системного описания лексики. Вестник РУДН, серия Вопросы образования: язык и специальность. 2012. – №4. – С.63-67.
6. Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар (тилшунослик терминлари мисолида). Филол. фан. док. (DSc). – Тошкент, 2022. – 249 б.
7. Галдин У. В. Концепт вода как полевая структура и способы его выражения в русском языке (на материале поэтических текстов И.А.Бродского). Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ставрополь, 2006. – 20 с.
8. Гришина Н.В. Концепт вода языковой картине мира: На основе номинативного и метафорического полей русского языка XI-XX века. Дисс... канд. филол. наук. – Саратов, 2002. – 210 с
9. Ҳошимов А. Лексемаларни майдонларга бўлиш тамойили. – Тошкент, 1998. – Б.62.
10. Ҳошимов Ў. Ярим аср дафтари. –Тошкент, “Моварауннахр” нашриёти, 2014. – 384 б.
11. Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 1998. – Б.20; Ҳошимов А. Лексемаларни майдонларга бўлиш тамойили. – Тошкент, 1998. – Б.62.
12. Жабборов Х. Ўзбек тилида сув лексемасининг лугавий-маъновий хусусиятлари. – Қарши: Насаф, 2005. – 152 б.
13. Мирзаева Т.В. Семантический объем лексемы вода в поэзии Вячеслава Иванова: “Кормчие звезды”. Дисс... канд. филол. наук. – Тамбов, 2008. – 252 с.
14. Потасова А.К. Вербализация концепта «огонь» в древнегерманских языках. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Томск, 2004. – 32 с.
15. Qodirov P. Avlodlar dovoni. – Toshkent, “Yoshlar” nashriyoti, 2019. – 224 b.
16. Раҳмонов Н. Лисон-ут тайр. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 217 б.
17. Рихсиева К. “Қағ” асосли бирликлар генезиси ва семантик тараққиёти. Филол. фан. фалс. док (PhD)...дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 48 б.
18. Седова М.А. Концепт aghе / вода во фриульском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2007. – 27 с.
19. Ситтаи Зарурия. Дебоча. Алишер Навоий. С.Сайфуллох. – Тошкент, 2008. – 134 б.
20. Собиров А. Ўзбек тили лексик сатҳини системалар системаси тарзида ўрганиш. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 23.
21. Содиков Т. Об компонентли сўзлар / Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1982. – Б. 57-59.
22. Старостина О.В. Функционирование единиц лексико-семантической группы вода в поэзии Серебряного века. Дисс... канд. филол. наук. – Казан, 2016. – 179 с.
23. Трофимова А.В. Концепт «огонь» в современном русском языке. Автореф. дисс...канд. филол. наук. – М., 2005; . – 30 с.
24. Вразнова И.Г. Идиоматика в когнитивном и лингвокультурологическом аспекте (на материале фразеологических единиц с компонентами семантического «вода» в русском и английском языке). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2004. – 28 с.
25. Хайруллина Д.Д. Бинарные концепты «огонь» и «вода» как фрагмент языковой картины мира (на материале английского и татарского языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2009. – 25 с.
26. Xolmanova Z. Semantik maydon va semantik to'r imkoniyatlari. “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim va istiqbollar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. –Toshkent, 2022. – Б.37-43.
27. Закиров М.И. Концепт вода / су в русских и татарских народных приметах. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Казань, 2009. – 26 с.
28. Зинцова Ю.Н. «Лексико-семантическое поле «жидкость» в современном немецком языке»: авто. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2009. – С. 22.
29. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Беш жилдик (А.Мадвалиев тахрири остида). – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006-2008. I ж. – 680 б., II ж. – 672 б., III ж. – 688 б., IV ж. – 608 б., V ж. – 592 б.
30. Ўзбек ва турк мақоллари, иборалари. – Тошкент, 1998. – 191 б.
31. Шмелёва Е.Е. Лингвокультурологические особенности морской лексики в английском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2009. – 23 с.
32. Гидрологические термины. – URL: <https://lbvu.ru/dokumentyi/gidrologicheskie-terminy-donwload/>.



Guzal MUSAYEVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi
E-mail: guzal-mus@mail.ru
Nargiza YUSUPOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Perfekt universiteti dotsenti, p.f.n. F.Norboyeva taqrizi asosida

ARTISTIC EXPRESSION IN THE TRANSLATION OF GHAZALS. THE RECREATION OF ALISHER NAVOI'S GHAZALS IN THE GERMAN LANGUAGE

Annotation

This article is devoted to preserving the content, essence and proportionality of the form of poetry in translation, artistic expression and interpretation - the re-expression of ghazals in German. The article provides examples of the translation of Alisher Navoi's ghazals and studies the complex processes of recreating and interpreting artistic images and artistic style in German.

Through the analysis of peer-reviewed translations, the artistic skill of the translator is examined and an attempt is made to reveal the transformative power of poetic translation.

Key words: Artistic expression, poetic translation, ghazals of Alisher Navoi, interpretation, skill, recreation.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ В ПЕРЕВОДЕ ГАЗАЛЕЙ. ВОСПРОИЗВЕДЕНИЕ ГАЗАЛЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ НА НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Данная статья посвящена сохранению содержания, сущности и соразмерности формы поэзии в переводе, художественном выражении и интерпретации - перефразированию газелей на немецком языке. В статье приводятся примеры перевода газелей Алишера Навои, изучаются сложные процессы воссоздания и интерпретации художественных образов и художественного стиля на немецком языке. Путем анализа рецензируемых переводов изучается художественное мастерство переводчика и делается попытка раскрыть преобразующую силу поэтического перевода.

Ключевые слова: Художественное выражение, поэтический перевод, газели Алишера Навои, интерпретация, мастерство, воссоздание.

G'AZALLAR TARJIMASIDA BADIY IFODA. ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING NEMIS TILIDA QAYTA YARATILISHIGA DOIR

Аннотация

Ushbu maqola she'riyatning mazmun-mohiyati va shaklan mutanosibligini tarjimada saqlab qolish, badiiy ifoda va talqin-nemis tilida g'azallarning qayta ifodalanishiga bag'ishlangan. Maqolada Alisher Navoiy g'azallari tarjimasidan misollar keltirilib, unda badiiy obrazlarni, badiiy uslubni olmon tilida qayta yaratish va talqin qilishning murakkab jarayonlari o'rganildi. Ko'rib chiqilgan tarjimalar tahlili orqali tarjimonning badiiy mahorati o'rganilib, she'riy tarjimaning o'zgartiruvchi kuchini ochib berishga harakat qilinadi.

Kalit so'zlar: Badiiy ifoda, she'riy tarjima, Alisher Navoiy g'azallari, talqin, mahorat, qayta yaratish.

Kirish. She'riy tarjima til, his tuyg'u, idrok, talqin va ijod uyg'unligida paydo bo'lib, u asliyat muallifining his tuyg'ularini murakkab matnda - she'riy shaklda ta'sirli yoritib bera olishi kerak. Shoiring ichki kechinmalarini, matn shakli, go'zalligi, milliyligini saqlab qolgan holda qofiyaga solib boshqa millatga yetkazib bera olish - san'atdir. She'riy tarjima sohasida asl matnning nafaqat ma'nosini, balki mohiyatini ham qamrab olish ma'nosida, shoir ijodini belgilab beruvchi badiiy ifoda va hissiy rezonanslarni saqlab qolishda muammolar mavjud albatta. She'riy tarjimada, shu jumladan g'azallar tarjimasidagi badiiy ifoda til, madaniyat va ijod o'rtasidagi o'zaro ta'simi jozibali tadqiq etish vazifasini o'taydi.

Yevropada, shu jumladan Olmoniyada g'azalchilik san'ati urf emasligi hammamizga ma'lum. G'azalchilik janri asoschisi buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning fors va turkiy tillardagi g'azallari Yevropada ham shuhrat qozondi. Navoiyning azaliy misralarining to'g'ridan to'g'ri olmon tiliga tarjima qilinishi nafaqat yurtimizda balki olmonzabon kitobxonlar uchun ham juda katta yangilik bo'ldi va bu xodisa ikki qit'a madaniy merosining madaniyatlararo birlashishida mustahkam ko'prik vazifasini o'tashiga katta umid bag'ishladi. Navoiy she'riyati necha zamonlar avvalgi davrning madaniy merosi haqida, badiiy mahorat haqida chuqur ma'lumot beradi. Navoiy g'azallari tarjimalari badiiy tarjima sohasidagi she'riy ifoda, tilga moslashish va madaniyatlararo rezonansning murakkab jarayonlarini yoritib beradi[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 oktabrdagi buyuk mutafakkir shoir A. Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi qarori yuzasidan Alisher Navoiy asarlarini chet tillarga tarjima qilish, nashr etish va xorijiy mamlakatlarda taqdimotlarini o'tkazish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Ushbu amalga oshirilgan tarjima ishlari, jumladan buyuk shoir Alisher Navoiyning she'riy asarlari g'azallar to'plami, dostonlar,

qisqa to'rtliklardan iborat she'riy to'plamlar ko'rinishida turli xorijiy tillarda dunyo yuzini ko'rdi[2].

Ushbu maqolada biz Navoiy g'azallari tarjimasidan misollari orqali she'riy tarjimada badiiylikni saqlash va talqin qilish, so'z tanlash mahorati, g'azallarni tarjima qilishning murakkab jarayonini tahlili o'rganamiz hamda turli adabiy an'analarni bog'lashda tarjimaning o'zgartiruvchi kuchini yoritib berishga harakat qilamiz. Ushbu tadqiqot jodiy san'at turi sifatida tarjimaning nozik jihatlarini o'rganish orqali she'riyatning klassik janrining bardavom merosining tobora rivojlanib borayotgan jahon adabiyoti maydonida o'rin topishida ahamiyatlidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. She'riy tarjimalarda badiiy ifodaning yoritilishiga oid ilmiy adabiyotlarda, manbaalarda she'riyat go'zalligi va badiiylikni turli tillarga yetkazishning murakkabligi va nozik jihatlar haqida qimmatli tushunchalar berilgan. Tarjimashunos olimlar she'riy asarlarni tarjima qilish bilan bog'liq qiyinchiliklar va strategiyalarni o'rganib, asl matnga xos she'riy vositalar, obrazlilik va hissiy teranlikni saqlash muhimligini ta'kidlaydilar. Badiiy tarjimaga oid tadqiqotlarda tarjimonga she'rning badiiy yaxlitligini saqlab qolgan holda tarjimada uning mazmun-mohiyatini qamrab olish vazifasi yuklanganligi alohida ta'kidlanadi[4]. Ammo g'azallar, ruboiylar kabi murakkab she'riy janrlarni tarjima qilish, ularni boshqa tilda, masalan Yevropa tilida qayta yaratish ancha muncha mahorat talab qiladi. YA'ni, klassik adabiyot manbaalarini yaxshi o'rganib chiqqan, asl matnning janrini, mazmun-mohiyatini chuqur angalgan, maqsad tilini puxta egallagan, tarjimada kerakli muqobillarni to'g'ri tanlay olgan va shu bilan birga shoirona qobiliyat egasi bo'lgan tarjimogina g'azal janridagi she'rlarni boshqa tilda to'g'ri va oydin ifodalay oladi. YA'ni tarjima qilish kompetensiyasi muhimdir. Zero, olmon tarjimashunoslaridan biri Lukresiya Kaim o'z maqolasida tarjima kompetensiyasiga quyidagilarni kiritadi: 1. Har bir tushunchaning madaniyat bilan bog'liq jihatlariga sezgirlik; 2. O'z

madaniyatidan farqli bo'lgan xorijiy mamlakatlar madaniyatiga xos lingvistik va nolingvistik xulq atvor qoidalarini bilish; 3. Tildan foydalanishning barcha bosqichida funksional matn tahlili metodologiyasi[5]. O'zbek tarjimon olimi Ibrohim G'ofurov tarjimada interpretasiya(talqin)ni eng muhim va asosiy bosqich deb ta'kidlaydi. Asl matn muallifi maqsadini anglab, uni yoritib olish, so'zlarni to'g'ri qo'llay olishda maqsadga muvofiqlik, badiiy matnga moslik- go'zallik yaratish prinsipi, deb ta'riflaydi[6].

Tadqiqot metodologiyasi. She'riy tarjimalarda badiiy ifodani o'rganish jarayonida Alisher Navoiy g'azallaridan amaliy misol sifatida foydalanilib, ushbu jarayon badiiy tahlil, qiyosiy tadqiq va lingvistik talqinni o' ichiga oladi. Yevropada Alisher Navoiy ijodiga, asarlariga qiziqish, ularni olmon tiliga tarjima qilish qadim XV-XVI asrlardan beri mavjud. Jumladan olmon xalqi ushbu buyuk shoirming g'azal va ruboiylari tarjimalarini o'qiy boshladi. 1583 yilda ilk bor Navoiyning Xamsasidan ayrim voqealar Yohan Vetsel tomonidan olmon tiliga italyanchadan o'girildi. 1991 yilda kelib o'zbek tarjimoni Yuldosh Parda olmon shoirasi Nora Pferrer bilan hamkorlikda Navoiyning bir necha g'azallarini olmon tiliga o'girdilar. Yana, Hermann Vamperi, Y.Varkentin, D. Bakliskaya, A. Kurella kabi tarjimonlar Navoiyning g'azal va ruboiylarini tarjima qilib nemis diyoriga tanitdilar [7]. 2021 yilda tarjimon X.Rahimov Navoiyning bir qancha g'azallarini olmon tiliga tarjima qilib ushbu to'plamni "Liebeslieder der Nachtigal", ya'ni Bulbul navosi deb nomladi. 2021 yil oxiriga kelib tarjimon yana "Meine Schwarzaugige", ya'ni "Qaro ko'zim" deb nomlangan yana bir to'plamni nashr qildi. Navoiy g'azallarini avvalo hozirgi zamon o'zbek tiliga o'girmay turib tushunish qiyin ekani qanchalik ayon bo'lsa, uni nemischada qayta yaratish shunchalik mushkul ish. Chunki murakkab jarayon hisoblangan she'riy tarjimoni yaratish tarjimonidan ziyorklik va uni chuqur idrok etish bilan birga albatta shoirona qobiliyatni ham talab qiladi. Bunday mahoratni g'azallar tarjimasida ikki baravar his qilish mumkin. Navoiyning bir qancha g'azallarini qo'rqmay tarjima qilishga bel bog'lagan X.Rahimov avval Mavloni Rumiy, Hofiz SHeroziy, Sa'diy SHE'roziy, Umar Hayyom kabi ulug'larimizning nemischa tarjimalarini, qolaversa, Fridrix Ryukkert, Avgust Platen kabi olmonzabon g'azalnavis shoirlar ijodini o'rganib chiqqanini, orttirgan tajribalar asosida o'girayotgan g'azallar mazmuni va shakllari, janr xususiyatlarini saqlab qolishga harakat qilganini ta'kidlaydi [8].

Buyuk shoir, o'z badiiy uslubiga ega o'tkir qalam sohibi A.Navoiyning quyidagi misralaridagi radif va qofiyalarda kelgan lisoniy birliklarning nemis tilidagi ifodasida shakl va mazmun mohiyatning uyg'unlikda kelganini, ammo asliyatdagi o'tkir chizgilar, o'xshatish, almashmalarni tarjimon nemis tilidagi muqobillarini topishga harakat qilganini ko'ramiz.

Qaro ko'zum kulu mardumlig' emdi fan qilg'il,
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.
Yuzung gulig'a ko'ngul ravzasin yasa gulshan,
Qadding niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il.(Navoiy)

Komm, meine Schwarzaugige, menschliche
Regung schaffe,
in meinen Augen für dich ewige Heimat schaffe.
Aus deinem Blumenantlitz, deiner Seyelenblume
mache einen Garten,
aus deiner Ziergestalt und meiner Seyele einen
Rosengarten schaffe. (Xurram Rahimov tarjimasi)[9]

"fan qilg'il", "vatan qilg'il", "chaman qilg'il" so'z birikmalarini "Regung schaffe", "Heimat schaffe", "Rosengarten schaffe" bilan almashtirib so'zlarning muqobillarini topishga harakat qilinganini ko'ramiz. Tarjimon "qilg'il" so'ziga "mach" yoki "machen Sie" emas, balki "schaffe" ni muqobil qilib berib murakkab she'riy janrning badiiy ifodasini ochib berishda ijodiy yondashib tog'ri yo'l tutganligini ko'rish mumkin. Bunda "schaffe" so'zi radif bo'lib kelgan va she'riy tarjimaning mazmun va shaklan qayta ifodalanganligiga erishilgan.

Navoiyning murakkab so'z o'yini, tuzilgan qofiya sxemalari va madaniy murojaatlari, misralarning boyligi va go'zalligi uni boshqa tillarda yetkazib berish uchun ehtiyotkorlik bilan ishlashni talab qiluvchi murakkabliklardir. Navoiy g'azallarining tarjimalari va undagi badiiy ifodaning qayta yaratilishi jarayonida muallifning badiiy tanlovini ko'rib chiqar ekanimiz, muallif uslubini saqlab qolish, ayniqsa, badiiy matndagi obrazli vositalar, metafora, simvol, metonimiya, o'xshatish, frazeologik iboralar, paremiyalarni to'g'ri, tushunarli va aniq talqin qilish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'ramiz [11].

Ko'zung ne balo qaro bo'luptur
Kim, jong'a qora balo bo'luptur.
Majmu'i davoni dard qildi
Dardingki, manga davo bo'luptur.(A.Navoiy)

Warum sind Augen deine schwarz geworden?
Schwarz ist zum Unheil der Seyele geworden.
Alle Heilmittel haben uns nur krank gemacht,
Doch deine Krankheit ist mir zur Heilung geworden. (Xurram Rahimov)

Navoiy ijod uslubiga xos bo'lgan murakkab so'z o'yinida qayta-qayta kelgan "balo", "dard", "davo" so'zlari tarjimada mohirona topqirlik bilan o'girilgan. Birinchi misrada "balo" so'zi atay tushurib qoldirilib, ikkinchi misrada "Unheil"(qora balo) ya'ni "bedavo" bilan almashtirish orqali tarjimaga nafislik bilan yondashib she'ring badiiylikni saqlab qolishga harakat qilingan. "dard", "davo" so'zlari ham xuddi shunday, "Heilmittel", "krank", "Krankheit", "Heilung" so'zlari orqali tarjimonning o'z badiiy uslubida ifodalangan. Bu yerda tarjimon, tilshunos tadqiqotchilarning ta'rif bilan aytganda tarjimada muqobil tanlashda "Almashish" strategiyasi ma'nodosh so'zga nisbatan qo'l keladi[12].

Navoiyning ishqi mavzuda yozgan she'rlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ulardagi ko'p g'oya va timsollar, tasviriy detallar an'anaviy xarakterga ega. Shu bilan birga ishq va ishqiy obrazlar talqinida ham boshqa mumtoz ijodkorlar kabi Alisher Navoiy ramziylikka ko'p o'rin beradi.

Tahlil va natijalar. Natijalar Navoiy g'azallarini tarjima qilish jarayonida tarjimonning o'z badiiy talqinini qanday singdirishini, g'azallarining ohangi, ritmi va tasvirini ularning til va madaniy kelib chiqishiga moslashtirish uchun shakllantirganini ko'rsatadi. Har bir tarjima tarjimonning o'ziga xos uslubi va ijodiy tanlovini aks ettirib, she'r tarjimasidagi badiiy ifodaning subyektiv xususiyatini yoritib beradi. Tahlil Navoiy g'azallarini tarjima qilishda, xususan, asl asarlarning tarixiy-adabiy mazmunini saqlab qolishda madaniy moslashuvning ahamiyatini ochib beradi. Tarjimonlar Navoiy she'riyatining mazmun-mohiyatiga sodiq qolgan holda, madaniy yo'nalishlar, ramziy ma'lumotlar va tarixiy tashbehnlarni maqsadli auditoriyaga mahorat bilan yetkazish kabi muammolarni hal qiladilar[13]. Tarjimalarda she'riy vositalar, qofiya sxemalari va uslubiy elementlardan foydalanish turlicha bo'lib, Navoiy she'riyatida mavjud bo'lgan chuqur ishq, tasavvuf va tabiiy mavzularini yetkazishda lisoniy ifodaning boy gobelenini ko'rsatadi. Mazkur tahlil natijalari Alisher Navoiy g'azallaridan ta'sirchan namuna sifatida foydalangan holda she'riy tarjimalarda badiiy ifodaning serqirraligi haqida qimmatli fikrlar beradi. Navoiy she'riyatini tarjima qilish bilan bog'liq ijodiy jarayonlar va talqiniy qarorlarni ochib berish orqali ushbu tadqiqot she'riy tarjimalar ichiga singib ketgan murakkab badiiylik va madaniy rezonansi tushunishimizga yordam beradi.

G'azallar tarjimasidagi badiiy ifodani o'rganish jarayonida biz tarjimada talqiniy ifodaning naqadar muhimligini ko'ramiz. Xususan, Navoiyning asl misralarining go'zalligi va madaniy boyligini, uning mohiyatini yo'qotmay boshqa tillarga yetkazilishining nozik jihatlarini, she'r tarjimasini sohasidagi ijodkorlik, tilga sodiqlik va madaniy moslashuv o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yoritib beruvchi bir qancha muhim fikrlar yuzaga keladi. Yosh tadqiqotchilardan biri o'z maqolasida badiiy tarjimalarda obrazlar nutqidagi milliy ruhni saqlab qolish tarjimonning eng muhim vazifasi ekanini, agar asl nusxadagi barcha milliy belgilar o'chirib yuborilsa, tarjima qilinayotgan asar o'z qiyofasini yo'qotishi, uning obrazlari asar ruhini belgilamasligiga dalillar keltirib o'tadi[14]. Zero o'zbek xalqi mentalitetida donolik, hozirjavoblik, topqirlik xislatlari mujassamlashgan. Bu xislatlar bining tilimizda o'z ifodasini topgan[15]. Tarjimonlar asl matnning lirik go'zalligini, ta'sirchan tasvirini va musiqiylikni saqlash, maqsadli tilning lingvistik chegaralari va stilistik konvensiyalaridan o'tish kabi qiyinchiliklarga duch kelishadi. Natijalar Navoiy she'riyatining hissiy aks sadosi va badiiy mohiyatini turli kitobxonlar ommasiga yetkazishda tarjimonlarning estetik sezgirligi muhimligini ko'rsatadi. Navoiy g'azallari tarjimasida talqinida har bir tarjimon qofiya sxemalaridan tortib, tasvir va timsolga qadar o'ziga xos lingvistik va she'riy sezgirliklarni ochib beradi [16].

Xulosa va takliflar. Tanlangan tarjimalarni tahlil qilish orqali she'riyatning go'zal janri bo'lgan g'azallarining Yevropa tillarida, jumladan olmon tilidagi talqinida uning badiiy ifodaviy shakl shamoyilini qiyosiy o'rganishga harakat qildik. Maqsad, olmon tilida qayta yaralgan misralarning mazmun mohiyati va madaniy jo'shqinligini qamrab olgan talqinlar tanlovi, estetik sezuvchanlik va

lingvistik moslashuvning jozibasini ochishdir. Navoiy g'azallarini tarjima qilish jarayoni shoir va tarjimonlarning uning she'riyatining chuqur mavzulari va lirik nozikliklari bilan shug'ullanishi natijasida yuz beradigan badiiy evolyutsiyani ochib beradi. Tarjima jarayonlarida bu o'ziga xos ijodiy harakatga aylanadi, bunda har bir tarjimonning uslubi Navoiy ijodiyotidan turli auditoriyalarda aks-sado beradigan ma'no, tuyg'u va obrazlarning yangi gobelenini yaratadi[17]. She'riy tarjimalarga xos bo'lgan til va madaniy jilolarda Navoiy g'azallaridagi ishq, go'zallik, tabiat, tasavvuf kabi mavzular umumbashariy miqyosda kitobxonlar shuurida jaranglaydi. Tarjima prizmasidan kelib chiqqan holda, bu abadiy mavzular yangi hayotiylik

va madaniy ahamiyatga ega bo'lib, turli madaniyatlarni bog'lash hamda ilhomlantirish, nazmiy janrga, shu jumladan g'azallarga bo'lgan his-tuyg'ularini, tasavvurlarini uyg'otish va tushunchalarini rivojlantirishda she'riyatning ta'sirini isbotlaydi. Har bir tarjima o'quvchilarni she'riyatning barcha ko'rinishlaridagi go'zalligini qadrlash, hamdardlik va hissiy ifoda, nazmiy sayohatga chorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbekchadan nemischaga o'g'irilgan she'riy tarjimalar, jumladan g'azallar tarjimalari, ularning talqini, badiiy ifoda va ularning tahliliy tanqidiy muhokamalar madaniyatlararo o'zaro munosbatlarning mustahkamlanishidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR

1. Hojiahmedov A. "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya", Sharq, -T., 1998.
2. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/2021_yilda_-_alisher_navoiy_tavalludining_580_yilligi
3. <https://uza.uz/oz/posts/buyuk-shoir-va-mutafakkir-alisher-navoiy-tavalludining-580-y-19-10-2020>
4. Fazliddinova S.. Alisher Navoiy asarlari tarjimalari tarixi, maqola. Miasto Przeszosci, ISSN-L: 2544-980X. Vol.30.: Kielce 2022.
5. Xasanboyeva O'g'uloy Ibrajanovna. "Til o'rgatish metodikasida leksik birliklarning o'rni", maqola. Jurnal "Экономика и социум" №3(94) 2022 Mart. www.iupr.ru
6. Ibrohim G'ofurov. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. Toshkent-2008.
7. <https://baxtiyor.uz/alisher-navoiy-germaniyada-qanchalik-o-rganishadi/>
8. Tarjima – til va dil so'zlashuvi. Intervyu. HURRIYAT gazetasi. <https://uzhurriyat.uz/2019/10/30/tarjima-til-va-dil-suzlashuvi/?lang=lat> 2019.
9. Alisher Navoiy. "Qaro ko'zum"- Meine Schwarzäugige. G'azallar, Toshkent "Adabiyot" 2021.
10. Keller G., Rachimov Ch.. Alisher Navoiy "Liebeslieder der Nachtigall". Ghasele-Liebeslyrik. Freiburg 2021
11. Qalandarova M.. Nemis tilida sinonimlar va ularning tarjimasini, maqola. <https://inlibrary.uz/index.php/geybullasalomov/article/view/30172>
12. Ro'ziyev Y.. O'zlashtirmalik va mikromatn, maqola. FarDU Ilmiy xabarlar. 6-2022.
13. Garsiya Mariya. "Navoiy tarjima yo'li bilan talqin qilish: g'azal tasvirlaridagi badiiy tanlovlarni tahlili". Xalqaro tarjima konferensiyasi materiallari.
14. Xomidov N. O'zbekcha-nemischada badiiy tarjimalarda milliy koloritning aks ettirilishi. Maqola. Science and innovation. International scientific Journal. 2022 №2
15. Jumaniyozov Zohid Otaboyevich "Ravshan" dostoni nemischada tarjimasida milliylikni qayta yaratish: Filol.fanlari nom. diss, Urganch-2008.
16. Navoiyshunoslik uyushmasi. "Alisher Navoiy g'azallari: badiiy mavzular va tarjimalar tadqiqi". Konferensiya materiallari. 2020
17. <https://tafakkur.net/alisher-navoiy.haqida>



UDK:8 (1751)

Manzur NAMAZOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti
E-mail: manzuraorakova570@gmail.com

QarDU professori, f.f.d B.Yo'ldoshev taqrizi asosida

XX ASR O'ZBEK NASRIDA MUHOJIRLAR HAYOTI VA QISMATI: XARAKTER VA PSIXOLOGIZM

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek nasrida muhojirlar hayoti va qismati, ularning xarakteri va psixologik kechinmalari yoritilgan. O'tkir Hoshimov, Abdulla Qodiriy va Said Ahmad kabi yozuvchilarning asarlarida muhojirlik mavzusi chuqur tahlil qilingan. Asarlar qahramonlarining ruhiy holati, vatanini sog'inish va begona yurtdagi hayotiga moslashish jarayonlari orqali muhojirlarning xarakteri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: O'zbek nasri, muhojirlik, xarakter, psixologizm, ruhiy kechinmalar, Vatan sog'inchi, moslashuv, O'tkir Hoshimov, Abdulla Qodiriy, Said Ahmad.

ЖИЗНЬ И СУДЬБА ЭМИГРАНТОВ В УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ XX ВЕКА: ХАРАКТЕР И ПСИХОЛОГИЗМ

Аннотация

В данной статье описываются жизнь и судьба переселенцев, их характеры и психологические переживания в узбекской прозе. В произведениях таких писателей, как Откир Хашимов, Абдулла Кадыри и Саид Ахмед, глубоко анализируется тема эмиграции. Характер иммигрантов раскрывается через душевное состояние героев произведений, процессы тоски по родине и адаптации к жизни в чужой стране.

Ключевые слова: Узбекская проза, эмиграция, персонаж, психология, духовные переживания, тоска по дому, адаптация, Уткир Хашимов, Абдулла Кадыри, Саид Ахмад.

THE LIFE AND PART OF IMMIGRANTS IN UZBEK PROSE OF THE 20TH CENTURY: CHARACTER AND PSYCHOLOGY

Annotation

This article describes the life and fate of immigrants, their character and psychological experiences in Uzbek prose. In the works of writers such as Otkir Hashimov, Abdulla Kadiri and Said Ahmed, the theme of emigration is deeply analyzed. The character of immigrants is revealed through the mental state of the heroes of the works, the processes of longing for their homeland and adapting to life in a foreign country.

Key words: Uzbek prose, emigration, character, psychology, spiritual experiences, homesickness, adaptation, Otkir Hashimov, Abdulla Kadiri, Said Ahmad.

Kirish. O'zbek adabiyotida muhojirlik mavzusi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Tarixiy voqealar, siyosiy o'zgarishlar va iqtisodiy omillar tufayli ko'plab o'zbeklar o'z yurtlarini tark etib, chet elda yashashga majbur bo'ldilar. Bu jarayon adabiyotda ham keng aks ettirildi. Mustaqillik yillarida, ayniqsa, muhojirlar hayoti va qismati, ularning ichki kechinmalari, xarakteri va psixologik holatlari adabiyotda keng yoritildi.

Adabiyotda psixologizmning rivojlanish tarixini tavsiflab, adabiyotshunos olim L.Ya.Ginzburg "mavjud adabiy janrlarda psixologik yangiliklar endigina nish urayotgan bir vaqtda, badiiy adabiyotning yondosh janrlari bo'lmish - rasoil, kundaliklar, memuarlar va avtobiografik janrlarda psixologizm allakachon o'rmashib bo'lgan edi" deb yozadi [7].

O'zbek adabiyotshunos olimlari tomonidan tuzilgan adabiyotshunoslik terminlari lug'atida badiiy psixologizm atamasiga "badiiy asarda to'laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jamlanmasi" [6] deya ta'rif berilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy psixologizm masalasi ilmiy maydonga o'tgan asrning o'rtalarida kirib kelib, Milliy adabiyotshunosligimizda bu atama sintez bo'lgan holda o'zining ruhiyat (psixologizm), ruhiyat tasviri (psixologik tasvir), ruhiyat talqini (psixologik talqin), ruhiyat tahlili (psixologik tahlili) - kabi nomlariga ega bo'ldi. "Ruhiyat" atamasining "psixologizm" (yun. psyche - qalb; logos - o'rganmoq) termini bilan sinonim sifatida qo'llanilishini joiz deyish mumkin, sababi 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" [1]da ruhga - "jon", ruhiyatga esa - "jonning holati", deya izoh berilgan. Bu izoh albatta adabiy termin uchun nomukammal bo'lsada, ammo ma'no jihatdan ikkila termin ham bir mazmuni beradi [2].

Muhojirlik mavzusidagi asarlar o'zbek nasrining muhim qismiga aylandi. Bu asarlar orqali adiblar muhojirlarning yangi sharoitga moslashishi, begona yurtdagi qiyinchiliklarga bardosh berishi va vatanini sog'inish hissini chuqur tahlil qiladilar. Muhojirlik qismatini tasvirlashda yozuvchilar turli xil badiiy usullar va psixologik

analizlardan foydalanarlar. Asarlar qahramonlarining ichki kechinmalari, ruhiy holati va xarakterini chuqur ochib berish orqali muhojirlikning murakkab va ko'p qirrali mohiyatini namoyish etadilar.

Muhojirlik mavzusidagi asarlar nafaqat qahramonlarning shaxsiy hayotini yoritadi, balki kengroq ijtimoiy muammolarni ham ko'taradi. Muhojirlik natijasida yuzaga keladigan oilaviy, madaniy va ijtimoiy muammolar, vatanidan ajralishning inson ruhiyatiga ta'siri, yangi muhitda o'z o'rnini topish masalalari adabiy asarlarda keng tasvirlanadi. Bu asarlar orqali adiblar muhojirlikning insoniy qadr-qimmatga, milliy identifikatsiya va madaniy merosga bo'lgan ta'sirini chuqur tahlil qiladilar.

Mazkur maqolada o'zbek nasrida muhojirlar hayoti va qismati, ularning xarakteri va psixologik kechinmalari qanday tasvirlanganini tahlil qilamiz. Bu mavzuni yoritishda O'tkir Hoshimov, Abdulla Qodiriy va Said Ahmad kabi yozuvchilarning asarlariga murojaat qilamiz. Ushbu asarlarda muhojirlar hayoti va qismati, ularning yangi sharoitga moslashish jarayoni, ichki kechinmalari va ruhiy holati chuqur tahlil qilingan bo'lib, bu asarlar orqali muhojirlik mavzusining adabiyotdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi.

Tahlil metodologiyasi. O'zbek nasrida muhojirlar hayoti va qismati, ularning xarakteri va psixologik kechinmalarini o'rganishda bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalaniladi. Quyida bu metodologiyalarning asosiylarini keltirib o'tamiz:

Badiiy tahlil.

- ma'no va syujet tahlili - asarlarning syujet chizig'i va unda muhojirlik mavzusining qanday yoritilganini tahlil qilish. Qahramonlarning hayotidagi muhim voqealar va ularning qarorlarining tahlili orqali muhojirlik qismati yoritiladi;

- personaj tahlili - asardagi asosiy qahramonlarning xarakteri, psixologik holati va ularning rivojlanish jarayonini tahlil qilish. Qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati va o'zgarishlari orqali ularning muhojirlik qismati qanday tasvirlanganini o'rganish.

Psixologik tahlil

- ichki monolog va dialoglar - qahramonlarning ichki monologlari va dialoglari orqali ularning ruhiy holatini, ichki

kechinmalarini va xarakterini tahlil qilish. Bu usul orqali muhojirlarning psixologik kechinmalari va ularning yangi sharoitga moslashish jarayoni yoritiladi;

- psixologik tasvir vositalari – qahramonlarning ruhiy holatini ifodalovchi badiiy vositalar, tasvirlar, ramzlar va metaforalar tahlili. Bu usul orqali muhojirlikning inson ruhiyatiga ta'siri va qahramonlarning ichki dunyosi yoritiladi.

Sotsiologik tahlil

- ijtimoiy muhit va sharoitlar – qahramonlarning yashash muhiti va ularning ijtimoiy sharoitlari tahlili. Bu usul orqali muhojirlarning yangi muhitga moslashishi va ijtimoiy qiyinchiliklar bilan kurashishi yoritiladi;

- ijtimoiy va madaniy ta'sirlar – muhojirlikning qahramonlarning ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri tahlili. Bu usul orqali milliy identifikatsiya va madaniy merosning muhojirlik sharoitida qanday saqlanib qolishi yoki o'zgarishi yoritiladi.

Tarixiy-tahliliy yondashuv

- tarixiy kontekst – asarlarning yozilgan davri va tarixiy sharoitlarini inobatga olgan holda tahlil qilish. Muhojirlik mavzusining tarixiy jihatlarini, sabablarini va oqibatlarini yoritish orqali qahramonlarning qismati va ruhiy holati tahlil qilinadi;

- tarixiy shaxslar va voqealar – asarlardagi tarixiy shaxslar va voqealarni tahlil qilish orqali muhojirlik mavzusining tarixiy kontekstida qanday tasvirlanganini o'rganish.

Tadqiqot natijalari. O'zbek nasrida muhojirlar hayoti va qismati, ularning xarakter va psixologik kechinmalarini o'rganish natijasida quyidagi muhim jihatlari aniqlangan:

1. Muhojirlikning sabablari va qahramonlarning ruhiy kechinmalari

O'tkir Hoshimov – "Ikki eshik orasi". Muhojirlikka majbur bo'lgan qahramonlarning asosiy sabablari orasida iqtisodiy qiyinchiliklar, siyosiy tazyiqlar va oilaviy sabablar mavjud. Bu sabablar ularning yangi hayot boshlashga majbur bo'lganliklarini ko'rsatadi. Asarda qahramonlarning vatanini tark etishdan oldin va keyingi ruhiy holati chuqur tasvirlanadi. Ularning vatan sog'inchi, begona yurtidagi qiyinchiliklar va yangi muhitga moslashish jarayonidagi ichki ziddiyatlari aniq yoritilgan.

Abdulla Qodiriy – "O'tgan kunlar". Tarixiy voqealar va siyosiy o'zgarishlar qahramonlarning muhojirlikka duch kelishiga sabab bo'lgan. Qahramonlarning vatanparvarlik tuyg'usi va tarixiy voqealar bilan bog'liq bo'lgan ichki kechinmalari muhim o'rin tutadi. Qahramonlarning vatan sog'inchi, o'zligini yo'qotish qo'rquvi va begona yurtda o'z o'rnini topa olmaslik hissi aniq tasvirlangan. Bu kechinmalar ularning ruhiy holatining murakkabligini ko'rsatadi.

Said Ahmad – "Ufq". Muhojirlikning sabablari orasida iqtisodiy va oilaviy omillar asosiy rol o'ynaydi. Qahramonlarning yangi hayot boshlashga majbur bo'lishgan. Qahramonlarning yangi muhitga moslashish jarayoni, begona yurtda duch keladigan ijtimoiy va madaniy qiyinchiliklar, eski yurtini sog'inish hissi chuqur yoritilgan. Ularning ruhiy kechinmalari orqali muhojirlikning murakkabligi tasvirlangan.

2. Xarakter va psixologik kechinmalar

- qahramonlarning xakteri: muhojir qahramonlarning xakteri ko'pincha kuchli va bardoshli bo'lib, ular yangi sharoitga moslashishga harakat qiladilar. Biroq, ichki ziddiyatlar, umidsizlik va vatan sog'inchi ularning xakterining zaif tomonlarini ham ochib beradi.

- psixologik holati: qahramonlarning psixologik holati, ichki monologlar va dialoglar orqali chuqur tasvirlangan. Ularning ichki ziddiyatlari, yangi sharoitga moslashish jarayonidagi qiyinchiliklari, vatan sog'inchi va yangi muhitga integratsiya qilishdagi muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari tasvirlangan.

- ichki monolog va dialoglar: qahramonlarning ichki monologlari va dialoglari orqali ularning ichki kechinmalari va ruhiy holati yoritilgan. Bu usul orqali qahramonlarning ichki dunyosini, ularning ruhiy holatini va ziddiyatlarini chuqur tahlil qilish mumkin.

- psixologik tasvir vositalari: asarlarda qahramonlarning psixologik holatini ifodalash uchun turli badiiy vositalar, tasvirlar, ramzlar va metaforalardan foydalanilgan. Bu vositalar orqali muhojirlikning inson ruhiyatiga ta'siri va qahramonlarning ichki dunyosi yoritilgan.

3. Ijtimoiy va madaniy muammolar

- ijtimoiy muhit va sharoitlar: qahramonlarning yangi yashash muhiti va ularning ijtimoiy sharoitlari tahlil qilingan. Bu orqali muhojirlarning yangi muhitga moslashishi va ijtimoiy qiyinchiliklar bilan kurashishi yoritilgan;

- ijtimoiy va madaniy ta'sirlar: muhojirlikning qahramonlarning ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri tahlil qilingan.

Milliy identifikatsiya va madaniy merosning muhojirlik sharoitida qanday saqlanib qolishi yoki o'zgarishi yoritilgan.

- tarixiy kontekst: asarlarning yozilgan davri va tarixiy sharoitlari inobatga olinib, qahramonlarning ruhiy holatini va yangi bog'liqligi tahlil qilingan. Bu usul orqali muhojirlik mavzusining tarixiy kontekstida qanday tasvirlanganini o'rganish mumkin;

- tarixiy shaxslar va voqealar: asarlardagi tarixiy shaxslar va voqealarni tahlil qilish orqali muhojirlik mavzusining tarixiy kontekstida qanday tasvirlanganini o'rganish mumkin.

O'zbek nasrida muhojirlar hayoti va qismati, ularning xarakter va psixologik kechinmalari keng va chuqur tasvirlangan. Adiblar qahramonlarning ichki dunyosini, ruhiy holatini va yangi sharoitga moslashish jarayonlarini aniq va ta'sirchan ifoda etadilar. Bu asarlar orqali muhojirlikning insoniy qadr-qimmatga, milliy identifikatsiya va madaniy merosga bo'lgan ta'siri chuqur yoritiladi. O'tkir Hoshimov, Abdulla Qodiriy va Said Ahmad kabi yozuvchilarning asarlari bu borada muhim manba bo'lib, ularning ijodi orqali muhojirlik mavzusining murakkab va ko'p qirrali mohiyatini ochib berish mumkin.

Tadqiqot muhokamasi. O'zbek adabiyotida muhojirlar mavzusi turli davrlarda turlicha yondashuvlarni talab qilgan. Qahramonlarning qismati, ularning vatanini tark etishga majbur bo'lish sabablarini va begona yurtda uchraydigan qiyinchiliklarini ifodalash orqali adiblar xalqning muhim ijtimoiy muammolarini ko'taradilar. Muhojirlarning xakteri va psixologik holatlari asarlarda ularning ichki dunyosini ochib beruvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Adiblar ularning ruhiy holatini, qiyinchiliklarga bardosh berish qobiliyatini va yangi sharoitga moslashuvini chuqur tahlil qiladilar.

O'tkir Hoshimov – "Ikki eshik orasi". Asarda muhojirlikka majbur bo'lgan qahramonlarning hayoti, ularning tug'ilgan yurtini sog'inish hissi va begona yurtdagi qiyinchiliklari tasvirlangan. Asarda muhojirlarning psixologik kechinmalari, vatanini sog'inish va begona muhitga moslashish jarayoni asosiy mavzu sifatida ko'tarilgan. Qahramonlarning ruhiy kechinmalari orqali ularning xakteri ochib beriladi.

"Uning har kuni birdan o'tdi. Eshigi bamisoli ming yildan beri ochilmagan eski bir uyning eshigidek g'iyqillab ochiladi. U qadamini tashlar ekan, yuragi shig'illab yirtilayotganini his qiladi. Har kuni bu darvozadan chiqib, notanish yurtda o'zini topish umidi bilan nafas oladi. Ammo bu umid tezda soviydi, eski xotiralar yuragini qattiq siqadi".

Bu parcha muhojirlikning ruhiy kechinmalarini chuqur tasvirlaydi. Qahramonning har kuni eshikdan chiqib, notanish yurtda o'zini topish umidi, ammo bu umidning tezda soviishi uning ichki ziddiyatlarini va vatan sog'inchini yoritadi. Eshikning g'iyqillashi, yuragining shig'illab yirtilishi kabi badiiy vositalar orqali muhojirlikning qiyinchiliklari, ichki azobi va ruhiy holati tasvirlangan. Bu qahramonning xakteri kuchli bo'lsa-da, uning ichki dunyosida katta ziddiyatlar va ruhiy og'riqlik borligini ko'rsatadi.

Abdulla Qodiriy – "O'tgan kunlar". Asarda qahramonlardan birining muhojirlikka duchor bo'lishi va chet elda o'z joyini topa olmasligi tasvirlangan. Qahramonning ichki ruhiy holati, vatanini sog'inish va begona yurtdagi chekinishlari orqali uning xakteri va ruhiyati chuqur yoritiladi. Muhojirlik qismati orqali insonning o'zligi va identifikatsiyasi masalalari ko'tariladi.

"Yusufbek hoji vatanini tark etishga majbur bo'lganida, ko'zlarida yosh bilan ketdi. Har bir qadamida yuragi o'rtandi, har bir qadamida vatanining har bir tuprog'ini sog'indi. Begona yurtda topgan hayoti unga qarshilik qildi, u yerdagi odamlarga moslashish unga qiyin bo'ldi."

Bu parcha Yusufbek hoji qahramonining muhojirlik qismatini va ruhiy kechinmalarini tasvirlaydi. Qahramonning vatanini tark etishdagi og'riqlik hissiyotlari, har bir qadamida yuragining o'tanishi va vatan sog'inchi aniq yoritilgan. Begona yurtda topgan hayoti unga qarshilik qilishini ifodalash orqali muhojirlikning qiyinchiliklari va moslashishdagi murakkabliklar tasvirlangan. Bu qahramonning kuchli vatanparvarligi va milliy identifikatsiyasini yo'qotmaslikka intilishini ko'rsatadi.

Said Ahmad – "Ufq". Roman qahramonlarining muhojirlikdagi hayoti, ularning yangi muhitga moslashishi va eski yurtini sog'inish hissi tasvirlangan. Said Ahmad qahramonlarning ruhiy kechinmalarini, ularning yangi hayotga moslashuvini va eski hayotini sog'inishini tasvirlaydi. Bu orqali muhojirlarning xakteri va psixologik holati chuqur tahlil qilinadi.

"Anvar yangi yurtda o'zini notanish his qildi. Begona shahar ko'chalari, begona odamlar unga chet elning sovuq va mehrsiz ekanligini his qildirdi. U har kecha uyquga yotishdan oldin, o'z

tug'ilgan joyini, ota-onasini, do'stlarini esladi. Yangi hayotga moslashish unga qiyin bo'ldi, har kecha vatanini sog'indi."

Bu parcha Anvar qahramonining muhojirlikdagi ruhiy holatini yoritadi. Uning begona yurtida o'zini notanish his qilishi, shahar ko'chalari va odamlarning sovuq va mehsiz ekanligini his qilishi muhojirlikning murakkabligini ko'rsatadi. Qahramonning har kecha uyquga yotishdan oldin vatanini eslashi, ota-onasi va do'stlarini eslash orqali uning vatan sog'inchi va ruhiy kechinmalari tasvirlangan. Bu parcha qahramonning yangi hayotga moslashishdagi qiyinchiliklarini, ichki ziddiyatlarini va ruhiy azoblarini ochib beradi.

Har bir parcha orqali qahramonlarning muhojirlikdagi og'ir sharoitlari, vatan sog'inchi va yangi muhitga moslashishdagi

qiyinchiliklari tasvirlangan. Adiblar badiiy vositalar, ichki monologlar va psixologik tasvirlar orqali muhojirlik mavzusining murakkab va ko'p qirrali jihatlarini ochib berishga muvaffaq bo'lganlar.

Xulosa. O'zbek nasrida muhojirlar hayoti va qismati keng yoritilgan mavzulardan biridir. Adiblar qahramonlarning xarakteri va psixologik holatlarini ochib berish orqali ularning ichki dunyosini tasvirlaydilar. O'tkir Hoshimov, Abdulla Qodiriy va Said Ahmad kabi yozuvchilarning asarlarida muhojirlik mavzusi chuqur tahlil qilingan bo'lib, bu asarlar orqali muhojirlarning ruhiy kechinmalari, qiyinchiliklarga bardosh berish qobiliyati va yangi hayotga moslashuv jarayonlari yoritilgan.

ADABIYOTLAR

1. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" нашриёти, 2007.
2. Abdullaeva D.S. Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm tushunchasi va masalaning tarixi // ORIENSS. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/adabiyotshunoslikda-badiiy-psixologizm-tushunchasi-va-masalaning-tarixi>
3. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2001. – 256 b.
4. Qodiriy A. O'tgan kunlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. – 320 b.
5. Said Ahmad. Ufq. – Toshkent: Yozuvchi, 1977. – 400 b.
6. Адабиётшунослик лугати. ДДуронон ва б. Т.: Академнашр, 2013.
7. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. О литературном герое. СПб.: Азбука, 2016.
8. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: учебное пособие. — М.: Флинта: Наука, 2011.



UDK:81'36:81'27

Oydiniso NASIRDINOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi
E-mail: oydinisonasirdinova0@gmail.com

DSc, dotsent T.Kuchkarov taqrizi asosida

MORFOLOGIK SHAKLLARNING NUTQDA QO'LLANISH DARAJASINI ANIQLASHNING O'RGANILISHI VA AHAMIYATI

Аннотация

Morfologik shakllarning nutqda qo'llanish darajasini aniqlash o'zbek adabiy tilida mavjud morfologik shakllar – qo'shimchalarning nutqdagi faol yoki nafaollik sifatini belgilaydi, ularni qo'llanishiga ko'ra “ko'pdan kanga” tartibida darajalanishiga asos bo'ladi. Fe'l so'z turkumiga oid morfologik shakllar misolida olib borilayotgan ushbu tadqiqot, avvalo, jahon va o'zbek tilshunosligida bu borada amalga oshirilgan ilmiy izlanish va natijalarga tayanib lingvostatistik (morfostatistik) jihatdan o'rganiladi, til birliklari EHM imkoniyatlari asosida o'zbek tili korpuslarida miqdoriy metodlar va chastota tahliliga tortiladi. Tadqiqotdan kutilayotgan natija o'zbek adabiy tilidagi 1000 ta faol fe'l va unga oid 97 ta morfologik qo'shimchaning ilmiy asoslangan darajalanish tartibini yaratish va bu asosida xorijliklarga o'zbek tilini oson va bosqichma-bosqich tashkil etishni ko'zda tutadi.

Kalit so'zlar: Morfologik shakl, faol qo'shimchalar, nafaol qo'shimchalar, lingvostatistik metod, morfostatistika, chastota tahlili, darajalanish, miqdoriy o'zgarish.

ИЗУЧЕНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ ОПРЕДЕЛЕНИЯ УРОВНЯ УПОТРЕБЛЕНИЯ MORFOLOGICHESKIX FORM V Rечи

Аннотация

Определение степени употребления морфологических форм в речи определяет активное или неактивное качество морфологических форм – аффиксов в узбекском литературном языке и является основанием для ранжирования их в порядке «от большей к меньшей» по степени их употребления. Данное исследование, проведенное на примере морфологических форм группы глаголов, в первую очередь лингвостатистически (морфостатистически) основано на научных исследованиях и результатах, проведенных в этом направлении в мировой и узбекской лингвистике, языковых единицах, основанных на возможностях будут проанализированы ЭВМ, количественные методы и частота в корпусах узбекского языка. Ожидаемый результат исследования – создание научно обоснованного ранжирования 1000 активных глаголов и 97 морфологических аффиксов узбекского литературного языка, на основе этого иностранцы смогут легко и поэтапно изучать узбекский язык поэтапный способ.

Ключевые слова: Морфологическая форма, активные аффиксы, пассивные аффиксы, лингвостатистический метод, морфостатистика, частотный анализ, градация, количественное изменение.

THE STUDY AND SIGNIFICANCE OF DETERMINING THE LEVEL OF USE OF MORPHOLOGICAL FORMS IN SPEECH

Annotation

Determination of the degree of use of morphological forms in speech determines the active or inactive quality of morphological forms – affixes in the Uzbek literary language and is the basis for ranking them in order "from greater to lesser" by the degree of their use. This study, conducted on the example of morphological forms of a group of verbs, primarily linguostatistically (morphostatistically) is based on scientific research and the results conducted in this direction in world and Uzbek linguistics, language units based on the capabilities of EC, quantitative methods and frequency in the corpora of the Uzbek language will be analyzed. The expected result of the study is the creation of a scientifically based ranking of 1000 active verbs and 97 morphological affixes of the Uzbek literary language, on the basis of which foreigners will be able to easily and gradually study the Uzbek language in a step-by-step way.

Key words: Morphological form, active affixes, passive affixes, linguostatistical method, morphostatistics, frequency analysis, gradation, quantitative change.

Kirish. Har bir til birligi nutqda voqelanishi bilan aniq shakl, mazmun va vazifaga ega bo'ladi. Til birliklarining yaxlit tizim sifatida nutqda qo'llanishi, nutq egalari tomonidan iste'molda faol va nafaolligiga ko'ra darajalanishi tabiiy jarayon. Fonetik, leksik va morfologik til birliklari nisbiy ravishda miqdoran chegaralangan, ammo nutq birliklari variantlilikni, qo'llanish holatiga ko'ra faol yoki nafaollik sifatlarini namoyon qiladi. Tilshunoslikda til va nutq birliklarining miqdoriy o'zgarishi muayyan vaqtdan so'ng sifat o'zgarishlarini aks ettiradi va bu boradagi tadqiqotlar til hodisalariga nisbatan ehtimollar nazariyasini shakllantiradi. Aslida, bu urinishlar tilshunoslikda “80/20” qoidasining tatbiqini ifoda etadi: “Grammatikada Pareto prinsipi grammatik vositalarni qo'llashda yaqqol namoyon bo'ladi. Ba'zi qo'shimchalar boshqalariga qaraganda ancha keng tarqalgan. Masalan, o'zbek tilida otlarning birlik shakli ko'plik shaklidan, o'tgan zamon (-di), boshqa zamon shakllaridan ko'ra ko'proq ishlatiladi. Grammatik vositalardagi ko'p qo'llanuvchi 20 foiz birliklarni aniqlash va undan savod chiqarish amaliyotida foydalanish zarur [6].”

O'zbek tilida morfologik shakllarning nutqda qo'llanish darajasini aniqlash morfologik qo'shimchalarning “oddiydan murakkabga”, “faoldan nafaolga” tomon darajalanishiga asos bo'ladi, bu esa amaliyotda o'zbek tili grammatik qonuniyatlarini xorijliklarga aniq, oson va bosqichma-bosqich o'rgatish imkonini berishi bilan dolzarbdir. Til birliklarining nutqda qo'llanishiga ko'ra darajalanishi

ularning miqdoriy ko'rsatkichlarini – statistik holati, chastotasi va o'zaro qiyosiy matematik tahlillarni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ayni vaqtgacha jahon va o'zbek tilshunosligida til birliklarining nutqda qo'llanish darajasini aniqlash bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borildi, natijada tilshunoslikda lingvostatistika degan yo'nalish shakllandi. XX asrning boshlaridan til va nutqning strukturaviy xususiyatlarini o'rganishga e'tibor kuchaygani sababli tilshunoslikda miqdoriy metodlarni qo'llash boshlandi. Atoqli psixolog va tilshunos olim L.V.Vigotskiy 1934-yilda “Tafakkur va nutq” kitobida tafakkurning til orqali namoyon bo'lishini matematikada birinchi bo'lib ko'rganini ta'kidladi [13]. “O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab statistik usullar yordamida til birliklarini tadqiq etishga alohida e'tibor beriladigan bo'ldi [12].”

Nutqning chastotali xususiyatlari uzoq vaqtdan beri tilshunoslikda o'rganish mavzusi bo'lib kelgan va tilshunoslar hozirgacha nutqdagi fonetik, morfemik, leksik, morfologik va sintaktik birliklarning chastotasini aniqlab kelishmoqda. Til birliklarining ichida leksemalarning nutqda qo'llanish darajasini aniqlash boshqa birliklarga qaraganda yetakchilik qiladi. Bunga sabab “funktional tilshunoslikda birinchi va ikkinchi tilni o'rganishni osonlashtirish maqsadida aniqlangan leksik chastota tilni qayta ishlashning quayligi va tezligida hal qiluvchi markaziy rol o'ynaydi [2].” Ammo morfologik birliklarning nutqda qo'llanish darajasi fonema, leksema, so'z yasovchi morfemalar va sintaktik tuzilmalarga qaraganda tor doirada tadqiq etilgan. “Fonetik birliklar chastotasi

D.M.Segal, M.V.Xitina, A.S.Stern kabi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan. D.M.Segal o'zining "Fonologik statistika asoslari" asarida fonetik birliklarning nutqda qo'llanish darajasini aniqlash natijasida segment birliklar – tovush, so'z, bo'g'in og'zaki va yozma nutqda qanchalik ko'p ishlatilsa, nutqni idrok etish shunchalik tez va oson bo'lishini isbotlagan. J.M.Guzeev, M.V.Ivanova, P.P.Lebedev so'z yasashida ehtimoliy matematik nazariyani tilshunoslikda qo'llagan holda so'z yasovchi affikslarning chastotasini aniqlashdi. Morfologik birliklarning nutqda qo'llanish darajasi va ularning chastotasi tadqiqi bilan A.Ch.Piperskiy, O.V.Oshchepkova, V.T.Sadchenko kabi olimlar shug'ullanishdi. Xususan, A.Ch.Piperskiy nemis tilidagi fe'llarning tovush tarkibi ko'p yoki kamlik holatiga ko'ra nutqda qo'llanish darajasini o'rgandi va zamonaviy nemis tilida so'z uzunligi ≥ 4 fonemali 73% va so'z uzunligi ≤ 3 fonemali 61% fe'llar "yashab qolganligi" haqida ehtimoliy farazlarni ilgari surdi [12]."

O.V.Oshchepkovaning tadqiqotlarida [15] ingliz tilidagi ot, sifat va fe'l so'z turkumi doirasida 86 ta morfologik qo'shimchalarning chastota diapozoni aniqlangan. Olimaning tadqiqotlari til hodisalarining ehtimoliy xususiyatlarini chastota usulida ishlab chiqishga qaratilgan. O.V.Oshchepkova bu izlanishlarni Britaniya Milliy Korpusi (BNC) da qo'llangan A va B qatlam so'zlaridagi qo'shimchalar asosida olib borgan. Nutqni idrok etishda muntazamlik zarurligini hisobga olib, qo'shimchalarni ingliz tilining chastota lug'atidan tanlab olgan va qo'shimchalar chastotaning kamayish tartibida joylashtirilgan.

XX asrning II yarmida Leningradda R.G.Piotrovskiy boshchiligida "Nutq statistikasi" [16] nomli ishchi guruh statistik usullardan foydalangan holda til birliklarini o'rganish bilan shug'ullanishdi. Loyihaning asosiy maqsadi mashina tarjimasini tizimlarini ishlab chiqish bo'lib, unda matnlar leksik va morfologik birliklarning nutqda qo'llanish darajasini o'rganish, bu bo'yicha chastotali lug'atlarini tuzish tamoyillarini aniqlashga qaratilgan edi. R.G.Piotrovskiy birinchi bo'lib nutq statistikasida ishonchli sifatiga bir necha tizimli usullardan foydalanib erishilishini ishlab chiqdi: a) leksik sxemani aniqlash; b) so'z sxemasidagi harf, bo'g'in va morfemik darajani ishlab chiqish; c) cheklangan miqdordagi (shartli) matnda ularning miqdoriy bahosini o'lchash; d) turli tillardagi flektiv va analitik morfologik o'lovchlarni o'rnatish. Olim 5 ta Hind-yevropa tillari – rus, polyak, rumin, ingliz, fransuz tillari, 2 ta turkiy – ozarbayjon va qozoq tillarining miqdoriy ma'lumotlarini olishda bir nechta samarali lingvostatistik metodlardan foydalanadi. Natijalar leksik-grammatik nisbatda baholanib, matndagi so'zlarga qaraganda, muallif tomonidan grammatik tuzilmalar tezroq tuzilishi aniqlanadi. Shunday qilib, morfologik birliklarning nutqda qo'llanish darajasi bilan bog'liq ishlarining deochasi R.G.Piotrovskiyning tadqiqotlari bilan yaratildi.

Ingliz tilshunosi Maykl Kyunion [4] 2008-yilda ingliz tilidagi barcha qo'shimchalar – 1250 dan ortiq so'z yasovchi prefiks, suffiks va morfologik qo'shimchalarni o'z ichiga olgan, 10000 ga yaqin misollar bilan izohlangan "Affiksler lug'ati"ni yaratdi. Anglashiladiki, ingliz tili morfologik jihatdan flektiv til bo'lishiga qaramay, undagi qo'shimchalarning salmog'i anchagina. Aynan shu kabi lug'atlar tilshunoslikda miqdor va sifat tahlillari uchun asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Yaponiyalik tilshunos olim Yosuke Sasao [11] ingliz tilidagi 118 ta faol so'z yasovchi qo'shimchalarning nutqda qo'llanishini BNC (British National Corpus) imkoniyatlaridan foydalangan holda, eng yuqori chastotali 2000 ta so'z orqali aniqladi va chastotasiga ko'ra ularni A – oddiy daraja, B – o'rta daraja, C – yuqori darajadagi qo'shimchalarga bo'ldi. Flektiv tillarda morfologik-sintaktik qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar miqdoriga nisbatan ancha kamligi sababli bu kabi darajalanish oldingi tadqiqotlarda deyarli yoritilmagan.

O'zbek tilshunosligida til birliklarining nutqda qo'llanish darajasi bilan bog'liq tadqiqotlar lingvostatistik tahlillar asosida XX asrning boshlarida shakllana boshladi va bunda, asosan, leksikostatistikaga e'tibor kuchaydi. "O'tgan asrning 20-30-yillaridan boshlab o'zbek olimlari til hodisalarini o'rganishda statistik metodlardan foydalanishgan. O'zbek matbuot tilining leksik tarkibini o'rgangan V.V.Reshetov o'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib lingvostatistik metoddan foydalanishni boshlab bergan edi. [10] Bu ishning tizimli davomi sifatida o'zbek publitsistik matnlarida o'z va o'zlashgan qatlam tarkibi, taraqqiyoti va yozma nutqda qo'llanish darajasini o'rganish maqsadida A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin, F.Abdullayev, M.Mirzayev, I.Rasulov, G.Muhammadjonova kabi olimlar matematik tahlilga asoslangan tadqiqotlar olib borishgan.

O'zbek tilshunosligida til birliklarining nutqda qo'llanish darajasini lingvostatistik qonuniyatlarga ko'ra yirik ko'lamda tadqiq qilgan olim S.Rizayev tildagi tovush, fonema, bo'g'in, so'zshakl va leksemani tadqiqot obyekti sifatida tanlab oldi va ular ustida o'zaro qiyosiy tahlillar o'tkazdi. Statistik kuzatish uchun manbalar 4 yo'nalish – nasr, nazm, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar doirasidagi 20 ga yaqin mualliflarning ijodidan tanlanmalar olingan. Statistik metodda tanlanmaga nutq shakli, matn uslubi, janri, mavzusi hamda nutq egasining yosh, jins, makon va zamon, adabiy yoki sheva xususiyatlarini qamrab olganligiga ko'ra chegara qo'yiladi, chunki bir xalqning barcha til va nutq boyluklarini birdaniga tahlilga tortishning imkoni yo'q. S.Rizayev bolalar adabiyotiga xos badiiy-nasriy asarlarni 10 yillik (1964-1974 yillar) davr tahlilida tadqiq etadi. Olim yangi so'zlarning faollik darajasini, morfologik va etimologik miqdoriy tahlilini so'zlarning kamayib borish tartibida tizimlaydi. Tadqiqot matn shakliga ko'ra faqat yozma matnlarni, morfologik jihatdan esa fe'llarning o'zak morfemasiga ko'ra nutqda qo'llanish holatini tekshiradi. Bunga ko'ra fe'l so'z turkumi nutqda qo'llanish darajasiga ko'ra bog'lovchi va olmoshlardan keyingi o'rinni egallaydi. S.Rizayev lingvostatistika sohasidagi ishlarining salmog'i birmuncha kamligi, ayniqsa, so'zshakllar tarkibidagi barcha morfemalarning umumiy statistik strukturasi hanuzgacha yaratilmaganligi [8] haqida fikr bildiradi.

EHM orqali morfologik birliklar ustida amalga oshiriladigan lingvistik tahlillarni osonlashtirish maqsadida tadqiq etilgan Sh.Hamroyevaning "O'zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta'minoti" [9] nomli dissertatsiyasida boshqa so'z turkumlari qatori fe'l so'z turkumi doirasidagi qo'shimchalarning so'zdagi morfematik qurshovi va ularning turli pozitsion modellari yaratilgan.

O'zbek tilshunosligida morfologik shakllarning nutqda qo'llanish darajasini aniqlashga oid tadqiqotlar lingvostatistika, matn tilshunosligi va morfologiyaga doir ilmiy izlanishlar tarkibida namoyon bo'ladi, ammo so'z turkumlari doirasidagi morfologik shakllar – qo'shimchalarning nutqda qo'llanishi, faol yoki nafaollikiga ko'ra darajalanishi keng ko'lamda o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvostatistika olib borilayotgan tadqiqotning asosiy metodologiyasini belgilaydi, bu esa mohiyatan bosh mezon – "miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga ta'siri" qonuniyatiga tayanadi va miqdoriy natijalar tilshunoslikda til hodisalariga nisbatan ehtimollar nazariyasini keltirib chiqaradi. Amaliy jihatdan til birliklarining, jumladan, morfologik shakllarning nutqda qo'llanish darajasini aniqlash uchun og'zaki va yozma nutq manbalari – tanlanmalar, tahlilga tortilayotgan nutq birliklarining aniq miqdoriy jadvali, chastotasi, natijalarning o'zaro qiyosiy tahlili va ularning faol-nofaollik sifatleri bosqichma-bosqichlikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda til korpuslaridan foydalanish tadqiqotni tez, oson va aniq bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, morfologik shakllarning nutqda qo'llanish darajasi leksik birliklarning lingvostatistik tahlillariga asoslanadi. Chunki lisoniy tizim yaxlitligi qonuniyatiga ko'ra "ma'lum bir lisoniy sathning birligi barcha boshqa sath umumiy ma'nolarining xususiy tajallilaridan holi holda nutqda voqelana olmaydi" [5]. Shunga ko'ra, nutqda yuqori chastotaga ega so'zshakllar grammatik jihatdan maqbul qo'shimchalar bilan keladi, bu esa qo'shimchalar chastotasining aniq bo'lishiga asos bo'ladi. Hozircha o'zbek tili korpuslarida alohida olingan qo'shimchani chastotasini aniqlash mushkul, chunki EHM dasturlari morfologik qo'shimchalarning so'zshakl tarkibidagi holatini tekshiradi. Shuning uchun tanlab olingan so'z turkumiga oid qo'shimchalar ma'lum miqdordagi eng faol so'zlar tarkibida tahlil qilinishi maqsadga muvofiq.

Tahlil va natijalar. Amaliy jihatdan morfologik shakllarning nutqda qo'llanish darajasini aniqlash uchun, dastavval, ma'lum so'z turkumi va unga oid morfologik qo'shimchalar tanlandi. Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek adabiy tili doirasida fe'l so'z turkumiga oid morfologik qo'shimchalar tanlangani bois ularning umumiy va aniq miqdoriy jadvali shakllantirildi. O'zbek tilining izohli lug'atida (2006-y) fonetik variantlari bilan hisoblaganda fe'lga xos 97 ta qo'shimcha borligi aniqlandi. Tanlanma – statistik ma'lumotlar va chastotani aniqlashda manba bo'lib xizmat qiluvchi matnlar yoki matnlar korpusi sifatida 102413160 so'zlik, 125002483 tokendan iborat Araneum Uzbecicum II Beta Ter Minus (Uzbek, 24.07) korpusi tanlab olindi. Araneum Uzbecicum korpusi salmog'i jihatidan boshqa o'zbek tili korpuslaridan ustun va so'zligi eng yuqori korpus bo'lgani uchun u orqali aniqlangan chastota sifati yuqori bo'ladi, bu esa statistikada juda muhim. Korpus tizimida qo'shimchani fe'l-so'zshakldan alohida olingan shakli orqali uning chastotasini topish mumkin. Bu borada jahon lingvostatistik olimlarining tajribalari shuni ko'rsatadiki, eng faol qo'shimchalarni aniqlashdan avval eng faol so'zlar –

fe'llarning muayyan va mukammal darajalangan jadvali shakllantiriladi. O'zbek tilining izohli lug'ati (so'nggi nashr) tarkibida 4700 dan ortiq fe'llar (fe'llning ayrim nisbat qo'shimchalari bilan birgalikda, fe'lli iboralardan tashqari), morfoleksikon bazasi statistik tahliliga ko'ra 3949 ta bosh so'z asosidagi fe'l [16] borligi hisobga olinsa, fe'lga oid barcha morfologik qo'shimchalar shundan eng faol 1000 ta fe'l tarkibida chastota tahliliga tortiladi. Bu jarayonda korpus tadqiqotchining ishini osonlashtirishga xizmat qilsa-da, qidiruv tizimida bir qancha qiyinchiliklar yuzaga keladi. Jumladan, boshqa so'z turkumlari asosida yasalgan sodda fe'llarning natijaviy chastota ro'yxatida o'sha so'z turkumidagi birliklar aralash holda tadqim etiladi, bu esa tadqiqotchini ro'yxatni qaytadan "qo'lda" hisoblab chiqishga undaydi.

Xulosa va takliflar. Morfologik birliklarning nutqda qo'llanish darajasini aniqlash yo'lidagi tadqiqotlar, avvalo, o'zbek tili morfologik lug'atini shakllantirishga xizmat qiladi. Olim O'.Xoliyorov bu kabi tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini shunday sharhlaydi: "O'zbek tili grammatik lug'atining biror turi hozirgacha yaratilmagan. Shuning uchun tilimizda tarjima, orfografik tekshiruv, morfologik avtomat analizator va boshqa kompyuter dasturlari yaratishda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Tilimiz grammatik lug'atlarining tuzilmaganligi o'zbek tili morfologik tizimining juda murakkabligi va morfologik shakllarning miqdori juda ko'pligida

bo'lsa kerak [16]." Bundan tashqari, tadqiqot quyidagi jihatlar bilan amaliy ahamiyatga ega:

Barcha so'z turkumlariga oid morfologik shakllarning nutqda qo'llanish darajasini aniqlash uchun umumiy qonuniyat – lingvistik asos yaratiladi;

Fe'l so'z turkumiga oid so'zlar va morfologik shakllarning aniq chastotasi shakllanadi;

O'zbek adabiy tilidagi eng faol 1000 ta fe'l so'z turkumiga oid leksemalar aniqlanadi va nutqda faoligiga ko'ra darajalanadi;

Fe'l so'z turkumiga oid chastotasi yuqori va faol morfologik qo'shimchalar til malakalarini baholovchi A1, A2, B1, B2, C1 va C2 daraja talablariga moslashtiriladi;

Darajalangan fe'llar va ularning morfologik shakllari ma'lum mavzuyi guruhlariga birlashtiriladi va xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatishga mo'ljallangan darsliklar yaratishda asos bo'ladi;

Tadqiqot natijalari o'zbek tili ta'limiy korpusini tuzishga xizmat qiladi.

Demak, morfologik shakllarning nutqda qo'llanish darajasini aniqlash muayyan so'z turkumiga oid qo'shimchalarni faol-nofaollik darajasiga ko'ra tartiblanishiga asoslanadi. Bu o'zbek tilini xorijliklarga o'rgatishda grammatik bilim berish jarayonini bosqichma-bosqich va tartibli shakllantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish: filol.fanlari nomzodi dis. avtoref. – Toshkent, 1997. – 51 b.
2. Christensen, Ken Ramshoj & Nyvad, Anne Mette. 2024. Complexity, frequency, and acceptability. *Glossa: a journal of general linguistics* 9(1). pp. 1–44. DOI: <https://doi.org/10.16995/glossa.10618>
3. Maycl Quinion. *Affixes: The blocks of English. Affixes: introduction*
4. Mengliyev B. Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabat: filol.f.d-ri diss. – Toshkent, 2002. – 248 b.
5. Mengliyev B. va boshqalar. 80/20 til, adabiyot, ta'lim. Jamoaviy monografiya / Toshkent: "Dimal" nashriyoti, 2024. – 204 b.
6. Muhammedov S. O'zbek tilining alfavitli-chastota lug'ati (gazeta tekstlari asosida). – Toshkent: Fan, 1982. – 111 b.
7. Rizayev S. O'zbek tilining lingvostatistik tahlili: filol.f.d-ri diss. – Toshkent, 2008. – 300 b.
8. Xamroyeva Sh. O'zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta'minoti. Avtoreferat. – Farg'ona, 2021. – 76 b.
9. Yo'ldoshev B. Matnning o'rganishning lingvostatistik metodlari. Uslubiy qo'llanma. 1-qism. – Samarqand: SamDU nashri, 2008. 90 b.
10. Yosuke Sasao. List of affixes// www.academia.edu/2993726/List_of_affixes.
11. Беляева А.С. Частотное варьирование устных спонтанных монологов. ВКРБ. – Пермь, 2020. С.81.
12. Борунов А.Б. Разнообразие речи и методы его измерения в тексте (лингвостатистический подход) // *Litera*, 2017. – 83 с.
13. Гафарова Р. И. Продуктивный и непродуктивный суффиксы универбов русского языка. Ученые записки Таврического национального университета им. В. И. Вернадского Серия «Филология. Социальные коммуникации». Том 23 (62). № 3. 2010 г. С. 127-135.
14. Ощепкова О. В. К вопросу категории частотности суффиксальных элементов английского слова. // *Вестник Санкт-Петербургского университета*, сер. 9, 2007. вып. 4. Ч. II. С. 144-148
15. Пиотровский Р.Г. Информационные измерения языка. Л., 1968.
16. Xoliyorov O'. O'zbek tili ta'limiy korpusini tuzishning ta'limiy asoslari: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2021. – 176 b.



UDK:415.411.14 (045)

Gulshan NASRULLAYEVA,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti professori
E-mail: nasrullayevagulshan1982@gmail.com

DSc N. Yuldosheva taqrizi asosida

ANTROPOMORFIK METAFORALARNING SOTSIOLOGVISTIK VA GENDER XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada antropomorfiq metaforalarning insonga tegishli bo'lgan, shuningdek, faqat insongagina xos bo'lgan barcha tana a'zolari, harakatlar, holatlar, kechinmalar, hatto tuyg'ular ham boshqa predmetlarga ko'chirilganda sodir bo'layotgan lisoniy, sotsiologvistik munosabatlar hamda ularning gender xususiyatlari, ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Shakliy o'xshashlik, belgi o'xshashligi, harakat o'xshashligi, holat o'xshashligi, antropomorfiq metaforalar, gender xususiyatlari, sotsiologvistik munosabat.

СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И ГЕНДЕРНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ АНТРОПОМОРФНЫХ МЕТАФОР

Аннотация

В данной статье рассматриваются языковые и социолингвистические отношения, возникающие при переносе антропоморфных метафор на другие объекты, включая все части тела, действия, ситуации, переживания и даже чувства, принадлежащие человеку и уникальные для человека и его. выявляются гендерные особенности.

Ключевые слова: Сходство форм, сходство характеров, сходство действий, сходство состояний, антропоморфные метафоры, гендерные характеристики, социолингвистическая установка.

SOCIOLINGUISTIC AND GENDER CHARACTERISTICS OF ANTHROPOMORPHIC METAPHORS

Annotation

In this article, the linguistic and sociolinguistic relations that occur when anthropomorphic metaphors are transferred to other objects, including all body parts, actions, situations, experiences, and even feelings that belong to a person and are unique to a person. and their gender characteristics are revealed.

Key words: Shape similarity, character similarity, action similarity, state similarity, anthropomorphic metaphors, gender characteristics, sociolinguistic attitude.

Kirish. Keyingi davr tadqiqotlarida ma'no ko'chishining bir qator turlari farqlandi. Jumladan, metonemiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya kabi. Biroq, o'zbek tilshunosligida ham metaforaning o'ziga xos turlarini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borildi va jarayon davom etmoqda. Jumladan, metaforalar antropomorfiq tadqiq etila boshlandi. Ilmiy tadqiqotlarda zoomorfiq, fitamorfiq, antropomorfiq kabi bir qator turlarga bo'lindi. Antropomorfiq metaforalarning alohida tadqiqiga doir ilmiy izlanishlar mavjud bo'lmagani sababli hozirda faqat inson tana a'zolari nomlarining ko'chma ma'noda qo'llanilishi antropomorfiq metafora sifatida baholanmoqda. Aslida insonga tegishli bo'lgan, ungagina xos bo'lgan barcha narsalar, xususan, barcha tana a'zolar, harakatlar, holatlar, kechinmalar, tuyg'ularga qadar boshqa predmetlarga ko'chirilganda sodir bo'layotgan lisoniy, sotsiologvistik munosabat, sintaktik hodisa antropomorfiq metaforalardir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Insondan tashqaridagi predmetlar tasviriga bag'ishlangan aksariyat she'riy matnda antropomorfiq metaforani uchratish mumkin: Shavkat Rahmonning "Minorai kalon" she'rida ham bunday o'xshatish ketma-ket keltiriladi: / Ming yillar qa'ridan keladi, / kulfatga yo'liqib ming bora. / Tinimsiz toshbo'ron, kirg'inga, / xo'rlikka duch kelgan minor! / Bu o'rinda ham minora xalqning milliy, ma'naviy qadriyati sifatida, jamiyatning o'tmishi, tarixiy xotirasi, ajdodi sifatida tasvirlanganda muallif uni shaxs darajasida ifodalashga jonli qiyofada gavdalantirishga harakat qiladi. "Kulfatga yo'liqish" minoraga emas aslida jamiyat a'zolari – insonlarga xosdir. Quyidagi misralarda ham insonga xos bo'lgan xatti-harakat va holatlar ifodasini ko'rish mumkin: Qichqirvordi uyg'onib tongda: / men giyohman, bir ho'l giyohman. / Men giyohman, qat-qat yaproqli, / gultoj bo'lum ulg'ayganimda. / Men giyohman, sakrasam agar / shovillashim mumkin daraxtday. / Men baqirib qushga do'naman, / agar uchib chiqsam... / Shu kechasi nozik giyohning / tovushini eshitdi osmon. (Saylanma. Shavkat Rahmon, 23)

Tadqiqot metodologiyasi. SHE'r matnida qo'llangan "ulg'aymoq", "baqirmoq", "eshitmoq" fe'llari insondan boshqa narsa va hodisalarga nisbatan qo'llangani uchun ko'chma ma'no hosil bo'lmoqda va bu holat antropomorfiq metaforalarni yaratmoqda. / Sharq uyqudan uyg'onar go'zal, / quyosh chiqishiga o'xshaydi bu hol, / hozircha u yozgi jaziramada, / hozircha dunyoga boqadi mudroq.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ham, asosan, shaxsga tegishli bo'lib, kontekst talabiga ko'ra makonga nisbatan o'qilgan turibdi. Keyingi bandlarda dastlabki banddagi leksik ma'nolarga zid o'laroq "Sharq go'zal uxlaydi" tarzida ifodalanmoqda: Buzilgan dunyoning bir chekkasida / Sharq go'zal uxlaydi, / yo'qlarga o'xshab – ko'mib tashlasalar hamki, / baribir, ruhi o'saverar, idroki o'cap. / Ammo uykusidan uyg'onar go'zal, / hayrat qamrab olar hamma narsani. / Sharq quyosh singari uyg'ongan mahal / dunyo sezib qolar uxlayotganin... (Saylanma. Sh. Rahmon, 27)

She'riy matn davomida ayol kishilarga xos bo'lgan harakat va holatlar boshqa hodisalarga ko'chiriladi. Ayniqsa, "jilmaymoq" va "boylamoq" fe'llari, shuningdek "soch" ot so'z turkumiga tegishli leksemalarning doim o'zi bajarib turgan semantik ma'nodan boshqa uslubiy, pragmatik ma'noga ko'chib o'tganligi sezilib turibdi: / Shunda u jilmaydi. / U jar sochlarin / shu'laviy qo'llari asta boyladi. /

Antropomorfiq metaforalarni o'xshashlikning muayyan xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Shakliy o'xshashlikka ega antropomorfiq metaforalar
2. Belgi o'xshashligiga ega antropomorfiq metaforalar
3. Harakat o'xshashligiga ega antropomorfiq metaforalar
4. Holat o'xshashligiga ega antropomorfiq metaforalar

Antropomorfiq metaforalar ham gender xususiyatlarga ega bo'ladi. SHE'riy matnlarda mualliflar insonlardan boshqa narsa-buyum, voqea-hodisalarni ifodalaganda ko'pincha ayollarga xos bo'lgan shakliy, belgi va harakat-holatlardan foydalanadi. Masalan, Shavkat Rahmon o'z she'rilarida borliqdagi voqea-hodisalarni, asosan, shunday ifodalashga harakat qiladi: / Kuzatdim – har olma rangin sayyora, / sollarib turar hur shabbodalarda, / limilagan anhor eshilib oqar - / shamolda tebrangan shalabbo parda. /

Mazkur misralarda "sollarimoq", "sollarib turmoq" ayollarga xos bo'lgan harakat-holatdir. Bu o'rinda muallif olmaga nisbatan ushbu holat fe'lini qo'llamoqda. Jamiyatda kishilar o'zaro muloqot jarayonida barcha uchun umumiy bo'lgan til birliklaridan birdek foydalansa-da, ayrim lisoniy birliklar qo'llanilishida jinsiga ko'ra farqlanadi. Xususan, "xirom aylamoq", "noz-karashma qilmoq", "nozlanmoq", "hayo", "ibo" kabi so'zlar xotin-qizlarga xosdir. O'zbek tilida ayol kishi metaforik jihatdan asosan, gulga o'xshatiladi. Biroq badiiy matnda gul timsolida ayollarning ichki kechinmalari ham, ruhiy holati ham ifoda qilingan o'rinlar ko'zga tashlanadi: / Devor-la

o'ralgan hovli ichida./ ariqcha labiga egilgan ko'yi./ atirgul o'rtanar kimning ishqida./ epkından qaltirar, to'zgi'gan o'yi./

Misralarning birida qo'llangan "o'rtanar" fe'li aslida insonda boshqa mavjudotlarga xos emas, matnda gul orqali ham insonga ishora qilinayotgani bois mazmunni anglasa bo'ladi. Biroq manzaradagi shoirona munosabatga ko'ra gulning o'ziga, uning qarovsiz ekanligiga ishora qilinayotgan bo'lishi ham mumkin. / Ey, desam, atirgul yomon titradi./ to'kilib ketdimi dedim hidlari./ nuragan devorning bergi yog'ida/ buzilgan yuragim nozik titradi./ Shundoq gul...kimsasiz hovli ichida./ begona nigohdan titraydi muncha./ Munchalar xokisor kimning ishqida./ avjida ochilgan./ emasdi guncha.../

Keyingi badda qo'llangan "xokisor" sifati insonlarga xos xususiyatni ifodalaydi. Lekin mazkur kontekstda u gulga nisbatan qo'llanilgan. "Titramoq" ruhiy holat fe'li kishilar o'rtasida ishlatilishi bilan bir qatorda boshqa narsa-buyumlarda ham sodir bo'lishi mumkin, ammo unda holatni emas, harakatni bildiradi. Ushbu matndagi ifodasi esa, holatni anglatmoqda, shu sababli "begona nigohdan titraydi muncha" misrasida mazkur fe'l metaforik ma'no ko'chishi hisoblanadi./Shundoq gul...haliy boqar hayosiz./ axir, sal yashirsa deyman dardlarin./ eh sho'rluk,Tobora quyosh ayovsiz./ hademay to'kilar baxmal barglari./ (SH.Rahmon, "Birovning guli")

Antropomorfik metaforalarning keng tarqalgan turlaridan biri holatni ifodalovchi metaforalardir. Matnda qo'llangan "hayosiz boqmoq" birikmasi faqat insonlarga xos ekanligi ma'lum. Uning gulga nisbatan qo'llanilishi, qolaversa, "sal yashirsa deyman dardlarin" tarzida keyingi misrada "dardni yashirmoq" birikmalari o'xshashlik asosida ma'no ko'chishiga yaqqol misol bo'la oladi.

Tun kelar,qadimiy osoyishta tun./
oy haydar bulutar-tevalarini./
sanoqsiz qoramtir qalqonlar bilan/
daraxtlar yashirar mevalarini./
Yerdagi koinot parchasi - bog'da./
buzila boshlaydi to'satdan sukun, tinimsiz to'killar...Saharga qadar/rangin olmalarni o'ynab otar tun. (Сайланма. III.Раҳмон, "Қиёс")
Insonga xos harakatlarni boshqa narsa-hodisalarga ko'chirish nafaqat she'riy, balki nasriy, publitsistik matnlarning ham ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq uning she'riy kontekstdagi ifodasi boshqalaridan keskin farq qiladi. Masalan, yuqoridagi badda "daraxtlar yashirar mevalarini" misrasida "yashirmoq" yoki so'nggi misradagi "o'ynamoq" va "otmoq" fe'llari harakatni ifodalab kelgan. Muhim jihati shuki, mazkur fe'llar tunga nisbatan qo'llangani uchun metaforani hosil qilmoqda. Shavkat Rahmon quyidagi she'rda ham holatni ifodalash uchun bir qator metaforalarni hosil qiladi: Qiyoqli, yalpizli xo'b o'zanida/ tovusday tovlanib rosa yayrardi./ quyoshdan qamashgan ko'k ko'zlariga/ majnun ko'zlarim-la uzoq qaradim./ Tiz cho'kib, quyoshni shart to'sganimda/ nafasini chiqarmay tikilganday suv./ so'ng o'pa boshladim: har o'pganimda/ qiqirlab-qiqirlab kulardi bu quv. (SH.Rahmon, "Holat") Mazkur kontekstda antropomorfik metaforalar bilan birga zoomorfik metaforalar ham baravar qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin.

Muallif o'zandagi suvni ham insoniy sifatlar, ham go'zallik ramzi bo'lgan parrandalarga xos belgilar bilan tasvirlamoqda. Barcha tasviriy vositalar, deyarli ko'chma ma'noga asoslangan. Adabiyotshunoslikda insonga xos xususiyatlarning boshqa jonsiz narsa-hodisalar, jonivorlarga ko'chirish jonlantirish ham deyiladi. Lingvistik nuqta nazardan esa bu kabi hodisalar bir so'z bilan metafora deyiladi. Ulardan aynan insonlarga xos bo'lganlari ilmiy tilda antropomorfik metaforalar hisoblanadi: Koinotning sovuq qa'ridan / kelar bizdan xabar olgani, / kelar cheksiz bo'shliqda kezgan / so'qir yerda mangu qolgani... (Sh.Rahmon)

Tahlil va natijalar. Adabiyotshunoslikda, jonlantirish va intoq deb nomlanadigan badiiy tasviriy vositalar mavjud. Ularda insonga xos bo'lgan xatti-harakat, shuningdek, nutqning boshqa narsa va hodisalarga ko'chirilishi tashxis deb nomlanadi. Lisoniy qonuniyatlariga ko'ra esa, umumiy ma'noda metafora hisoblanadi.

Aslida insonga tegishli bo'lgan, uningaga xos bo'lgan barcha narsalar, xususan, barcha tana a'zolar, harakatlar, holatlar, kechinmalar, tuyg'ularga qadar boshqa predmetlarga ko'chirilganda

sodir bo'layotgan lisoniy, sotsiologiyistik munosabat, sintaktik hodisa antropomorfik metaforalardir: Har gal o'zga sayyoralaridan/ bizga yorug' salomlar aytar./ biroq nechun yerni zulmatga/ tashlab, tag'in ortiga qaytar?/ Nechun yerda mangu qololmas./ xomushlanar nechun ketar choq?/ Zulmat bosgan qalblarimizda/ qadr-qimmat toparmi kamroq? (III.Раҳмон, "Ҳур")

Shoir numi obrazli tasvirlash maqsadida uni insoniy xatti-harakatlar asosida ifoda qilmoqda. Ma'lumki, nur yurmaydi. Unga xos bo'lgan harakatlar butunlay boshqa, masalan, porlamoq, hatto taralmoq, yog'ilmoq ham boshqa hodisalarga tegishli bo'lib, ko'chma yoki o'xshatish ma'nosida nurga nisbatan qo'llanib turadi.

Yoxud ko'rmas rostlikni aslo, / yoxud ko'rmas diyonat, g'urur, / balki shundan mangu qololmas, / balki shundan qaytib yurar nur. (SH.Rahmon, "Nur")

She'riy matnlardan tashqari nasriy kontekstda ham antropomorfik metaforalarning nodir namunolari uchraydi. Bunda ko'proq inson tana a'zolari bilan bog'liq ko'chish hodisalarini kuzatish mumkin: /Kuz kunlarining oyog'i va qish kunlarining boshi edi. Daraxtlardagi sariq barglar to'kilib tugagan, yer yuzi o'zining qishqi sariq kiyimini kiygan edi. To'rt tomonining o'ralganlig'i soyasida yaproqlarini to'kilishdan saqlab qolgan bu gilos yog'ochlari ham bu kun tungi qora sovuqqa chidalmay, yelning ozg'ina harakati bilan-da barglarini shirt-shirt uzib tashlamoqda edilar. Havo ochiq bo'lib, quyosh tuzukkina ko'tarilgan, ammo uning o'zi ham bu kun uncha ta'siri yo'q, bu kungi qora sovuq quyosh kuchini-da keskan edi./ (A.Qodiriy, "O'tkan kunlar") O'rta eshikdan Kumushbibi ko'rindi. Burung'i to'lalig'i ketib ozg'inlang'an va lekin bu ozg'inliq uning husniga kamchilik bermay, bil'aks yuqorilatqanlar. Kamon qoshlari ortiq mavj urib o'zini ko'rsatgan, bir oz botat tushkan shahlo ko'zlar tag'in ham tim qoralig, tag'in ham nurlilik kasb etkan edilar. Bu kungi sovuqqa qarshi kiyib olgan sovsar po'stinining yoqalig'i kishining hasadini orttirib, nafis bag'baqalarni o'pib yotar edilar. Biroq unda bir kamchilik bordek ko'rinar edi: shahlo ko'zlar burung'idek o'ynab turmas va so'ng chekdagi bir og'irliq bilan harakatlanar edi./ (A.Qodiriy, "O'tkan kunlar")

Ajratib ko'rsatilgan so'z birikmalari o'zaro munosabatga kirishi o'ziga xos sotsiologiyistik ma'no kasb etmoqda. Har holda, bu ma'no to'g'ridan to'g'ri emas, ma'no ko'chishi orqali sodir bo'lgan. "Kasb etmoq" leksemasi aslida kishilarga xos bo'lsa-da, kontekstda boshqa hodisalarga nisbatan ham qo'llanib turadi. Yoki po'stin Kumushning nafis baqbaqalarini "o'pishi" kabi ifodalarda muallif tegub turishi deb ta'rif qilsa ham bo'lar edi. O'quvchining rashkini qo'zg'ash uchun shunday ifoda tanlangan.

Badiiy matnlar antropomorfik metaforalarning bor imkoniyatini ochib bera oladi. Publitsistik, ilmiy va ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi matnlarda nisbatan bu imkoniyat chegaralangan, ammo shuni alohida ta'kidlash kerakki, sof ilmiy matn jamiyat a'zolariga tushunarli emas, hatto olimlar ham o'z ilmiy natijalarini antropomorfik yoki boshqa turdagi metaforalar orqali tushunarli ifodalab bera oladi. Bu o'rinda siyosiy matnlarda metaforalardan foydalanish masalasi ham ilmiy jihatdan o'rganish lozimligini ta'kidlash lozim.

Xulosa. Ilmiy matnlarda antropomorfik metaforalarning bajaradigan lingvistik, stilistik, sotsiologiyistik hamda pragmatik vazifasini tadqiq qilish ilmiy tilni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbek tilshunosligida metaforalarning ilmiy kontekstda o'rganilishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Antropomorfik metaforalar badiiy matnlarda ko'proq uchraydi. Biroq uning ijtimoiy ahamiyati boshqa lisoniy birliklarga nisbatan ortiqroq ekanligini ham ta'kidlash lozim. Zero, muloqotning turli shakllarida, har xil nutqiy vaziyatlarda mazkur metaforalardan faol foydalaniladi. Ilmiy matnlarda antropomorfik metaforalar bilan birga zoomorfik, fitomorfik metaforalar ham baravar qo'llanilishini kuzatish mumkin, biroq insonga xos shakl, belgi va xususiyatlarning boshqa predmet, narsa-hodisalarga ko'chishi ko'proq she'riy matnlarga xosligini ta'kidlash zarur.

Antropomorfik metaforalarning alohida tadqiqiga doir ilmiy izlanishlar mavjud bo'lmagani sababli hozirda faqat inson tana a'zolari nomlarining ko'chma ma'noda qo'llanilishi antropomorfik metafora sifatida baholanmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. –Тошкент.: Фан. 1995.
2. Худойберганава Д. Матнинг антропоморфик таджики. – Тошкент: Фан, 2013.
3. Худайберганава Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоморфик талқини. Докторлик дисс. автореферати. – Тошкент., 2015.
4. Юсупов Ў.К. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультура атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. – Т., 2011.

5. Сафаров Ш. Принципы системно-семантического анализа синтаксических единиц. –Ташкент.: Ташкентский пос. пед. и-т, 1983.
6. Safarov Sh. Semantika. – T: O'zME davlat ilm. nashr., 2013.
7. Складская Г.Н. метафора в системе языка – СПб.:Наука, 1993
8. Qobuljonova G.K. Metaforaning sistemaviy-lingvistik talqini: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent: 2000.
9. Mahmaraimova Sh. T. Lingvokulturologiya. – Toshkent: Cho'lpon, 2017.
10. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyati. DDA–T.: 2000.



Maftuna NEMATOVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: maftunanematova363@gmail.com

Namangan muhandislik qurilish instituti dotsenti, PhD S.Abdullayeva taqrizi asosida

LINGUISTIC MEANS OF THE CONCEPT "MOTIVATION" IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK LANGUAGES (IN DIACHRONIC AND SYNCHRONIC ASPECTS)

Annotation

This article examines the concept of "motivation" in English, Russian, and Uzbek languages to analyze the nominative density and lacunarity of the linguistic means used for its expression. The research is conducted both diachronically (historically) and synchronically (in the present context). It explores the characteristics, similarities, and differences in lexical and phraseological units, identifying their frequency of use and semantic features. The study demonstrates how cultural and linguistic factors influence the perception and expression of motivation, highlighting the core and periphery of the concept.

Key words: Concept, motivation, linguistic lacunarity, nominative density, diachronic analysis, synchronic analysis, lexical units, cultural specificity.

INGLIZ, RUS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI «MOTIVATSIYA» KONSEPTINING TIL VOSITALARI (DIAXRON VA SINXRON JIHATDAN)

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi «motivatsiya» konsepti tahlil qilinib, uni ifoda etish uchun qo‘llaniladigan til vositalarining nominativ zichligi va lakunarligi o‘rganiladi. Tadqiqot diaxron (tarixiy) va sinxron (hozirgi) rejalarida amalga oshiriladi. Leksik va frazeologik birliklarning xususiyatlari, o‘xshashliklari va farqlari ko‘rib chiqilib, ularning qo‘llanish darajasi va semantik xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot madaniy va til omillarining motivatsiyani qabul qilish va ifoda etishga ta'sirini, konseptning yadrosi va periferiyasini ajratib ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Konsept, motivatsiya, til lakunarligi, nominativ zichlik, diaxron tahlil, sinxron tahlil, leksik birliklar, madaniy xususiyat.

ЯЗЫКОВЫЕ СРЕДСТВА КОНЦЕПТА «МОТИВАЦИЯ» В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКИХ ЯЗЫКАХ (В ДИАХРОННОМ И СИНХРОННОМ ПЛАНЕ)

Аннотация

Статья посвящена сопоставлению концепта «мотивация» в английском, русском и узбекском языках с целью анализа его номинативной плотности — количества языковых средств для выражения концепта. Исследование выявляет различия и сходства в лексических и фразеологических единицах, а также их частотность и семантические особенности, отражающие культурные и языковые специфики восприятия мотивации.

Ключевые слова: Концепт, номинативная плотность, рекуррентность, ядро концепта, периферия концепта, языковые единицы.

Введение. Синхронные и диахронные методы играют важную роль в исследовании концептов, поскольку каждый из них дает уникальное представление о культурной и когнитивной эволюции языка. Синхронное исследование направлено на выявление текущего состояния концепта в различных современных языках, тогда как диахронный анализ позволяет проследить историческое развитие концепта и зафиксировать изменения его номинативной плотности. Такой анализ помогает выявить, как культура и общественные ценности влияют на развитие концептов и их лексические реализации.

С другой стороны, исследование концепта «мотивация» в разноструктурных языках представляет собой важную задачу для когнитивной лингвистики, поскольку позволяет выявить особенности понимания и выражения мотивационных процессов в различных языковых картинах мира. Однако при этом возникает феномен лакунарности, выражающийся в наличии пробелов или недостаточности лексико-семантических средств в одном языке по сравнению с другими.

Методология исследования. Актуальность изучения аспекта лакунарности концепта «мотивация» на примере данных языков обусловлена как межкультурными различиями, влияющими на формирование и восприятие мотивационных механизмов, так и эволюцией самого понятия «мотивация» в диахронном аспекте. То есть, в процессе исторического развития, под влиянием социокультурных и психологических факторов, концепт претерпевает изменения даже внутри одного языка, которые отражаются в нем через формирование новых номинаций, расширение и сужение значений существующих лексем, а также утрату или, наоборот, приобретение значимости определенных аспектов концепта. Иными словами, синхронное исследование позволяет анализировать концепты в их текущем состоянии, выявляя их актуальное значение и использование в языке и культуре на определенном момент времени. Это способствует пониманию того, как концепт интерпретируется и

воспринимается обществом здесь и сейчас, а также какие культурные особенности на него влияют (Дмитриева, 2012: 45-47; Алефиренко, 2020: 112-115). Диахронный подход, напротив, обращается к историческим изменениям концепта, исследуя, как его содержание, ассоциации и значения менялись с течением времени. Следовательно, сопоставление этих данных позволит получить целостную картину специфики лакунарности и плотности концепта «мотивация» как в рамках одного языка, так и при межязыковом сравнении.

Как было выявлено, концепт «мотивация» является ключевым элементом разных дискурсов и в различных языках и культурах он охватывает многогранные значения, связанные с побуждением, внутренней стимуляцией и волевой активностью. Одной из ключевых характеристик данного концепта является его номинативная плотность — способность передаваться множеством разнородных языковых средств, каждая из которых несет в себе различные аспекты содержания концепта (Карасик, 2004: 67). Но для глубокого понимания и анализа концепта необходимо учитывать не только его текущее (синхронное) состояние в языках, но и его историческое (диахронное) развитие, так как такое исследование позволяет выявить общие и уникальные черты восприятия и интерпретации мотивации в выбранных языках, что, в свою очередь, помогает раскрыть культурные и социальные предпосылки, повлиявшие на формирование и развитие концепта в каждом из языков.

Анализ и результаты. Начнем с диахронного анализа: как было сказано ранее, концепт «motivation» в английском языке имеет латинские корни (лат. *movere* — «двигаться»), что указывает на изначальное значение движения или побуждения к действию (<https://www.etymonline.com/word/motivation>). Если рассмотреть историческое развитие термина в английском языке, то можно разделить его на несколько этапов:

В период конца XIX века слово «motivation» стало использоваться в контексте психологии и педагогики, когда

начались активные исследования человеческой мотивации как совокупности внутренних и внешних стимулов. Например, классическая теория мотивации, связанная с именем Уильяма Джеймса, рассматривала мотивацию как силу, ведущую человека к достижению целей и удовлетворению потребностей (James, 1890).

В середине XX века с развитием бихевиоризма и когнитивной психологии термин «motivation» получил новую трактовку. Исследования Абрахама Маслоу и его пирамида потребностей внесли значительный вклад в представление о том, как различные уровни потребностей стимулируют поведение человека (Maslow, 1943: 370-396). Следовательно, к 1970-м годам мотивация была признана важнейшим аспектом образования, бизнеса и менеджмента.

В современном английском языке термин «motivation» расширяет свое значение, охватывая более широкий спектр ситуаций и контекстов. Мотивация обсуждается в сфере личностного роста, на рабочем месте, а также в рамках управления командами, адаптируясь к новым условиям и вызовам современного общества (Pink, 2009).

В русском языке слово «мотивация» появилось значительно позже, чем в английском. Оно изначально пришло через научные и философские круги и было воспринято обществом, благодаря влиянию зарубежных психологических концепций:

XIX — начало XX века: в этот период слово «мотивация» использовалось ограниченно, и его смысловые значения были неясны. В основном оно употреблялось в философских текстах для описания побуждающих факторов, оказывающих влияние на личность (Лосский, 1919:78).

1950–1980-е годы: с развитием психологии и педагогики в СССР термин «мотивация» стал более распространен и начал использоваться в научных кругах. В учебниках и монографиях термин стали применять для описания процесса побуждения человека к деятельности, изучались механизмы, влияющие на мотивацию в различных контекстах (Леонтьев, 1972:84).

1990-е годы — современность: данный концепт стал активно использоваться в самых разных областях, таких как менеджмент, образование и психология. В повседневной речи термин также стал указывать на необходимость внутреннего стимула для достижения целей. Развитие теорий мотивации, таких как теория самоопределения, привело к увеличению интереса к этому концепту (Зинченко & Морозов, 2007: 75).

В узбекском же языке концепт «мотивация» имеет свою особенность: как и в русском, это заимствованный термин, который вошел в язык под влиянием научных и педагогических работ, написанных в советский период, то есть не из самого английского языка, а посредством русского:

Советский период: в это время термин «мотивация» проник в узбекский язык благодаря переводам научных текстов с русского языка. Преимущественно, это были труды по педагогике и психологии, что привело к начальной адаптации термина в научной среде, но применение его в обыденной речи оставалось ограниченным. То есть, эти труды были написаны не на узбекском, а на русском языке.

Современность: с обретением независимости и увеличением контактов с международным сообществом в конце XX и начале XXI века, термин «motivation» стал более широко использоваться в узбекском языке, особенно в образовательных и деловых кругах. Например, в школах и вузах обсуждаются теории мотивации для улучшения учебных достижений, а в деловых кругах мотивация работников стала важной темой. Более того за последние пять лет он активно утвердился в интернет-дискурсе данного языка. (цитирование)

Таким образом, диахронный анализ показывает, что в каждом языке концепт «мотивация» прошел разные стадии развития, отражая специфику культуры и этапы научного развития: если в английском языке термин развивался естественным путем, изначально зародившись в психологии и расширяясь по мере углубления психологических и управленческих исследований, то в русском языке термин был заимствован и развивался под сильным влиянием советской научной школы, а затем адаптировался в новых условиях независимой России. А в узбекском языке термин также заимствован, но из русского языка, и в настоящее время продолжает приспособляться, чтобы охватить современные реалии, связанные с образовательной и деловой сферой.

Теперь перейдем к синхронному анализу:

В английском языке термин «motivation» получил широкое распространение и изучение в различных научных и практических областях. В современном номинативном поле этого концепта используются такие ключевые термины, как drive, incentive, inspiration, aspiration, goal, ambition и enthusiasm. Каждое из этих слов подчеркивает определенный аспект мотивации, будь то внешний стимул (incentive) или внутреннее стремление (drive, ambition). Основные значения концепта «motivation» в английском языке связаны с побуждением к действию и достижением целей. Например, в психологии этот термин широко применяется для обозначения процессов, которые направляют, усиливают и поддерживают целенаправленное поведение (Ryan & Deci, 2000: 54-67). Лексические единицы, образующие номинативное поле концепта «motivation», активно используются также в менеджменте, где выделяют внутреннюю (intrinsic) и внешнюю (extrinsic) мотивацию. Термины intrinsic motivation и extrinsic motivation подчеркивают различие между стимулами, идущими изнутри личности и теми, которые зависят от внешних факторов (Pink, 2009).

В русском же языке номинативное поле концепта «мотивация» сформировалось под влиянием западных психологических и управленческих теорий, адаптированных к российским культурным условиям. Основными элементами номинативного поля концепта «мотивация» являются слова стимул, побуждение, направленность, цель, желание, интерес и вдохновение. В современной российской психологии также активно используются термины внутренняя мотивация и внешняя мотивация, что отражает принятие и адаптацию западных теорий. Исследователи, такие как Асмолов, подчеркивают, что мотивация в российской культуре зачастую ассоциируется с преодолением трудностей и личностным ростом, что добавляет концепту культурно-специфический аспект (Асмолов, 2001).

В узбекском языке концепт «motivatsiya» также получил развитие, однако его номинативное поле меньше по объему и включает как заимствованные термины, так и собственные слова, такие как iroda (воля), majburiyat (обязанность), hamdardlik (сопереживание), boshlang'ich, burilish nuqta (начальная точка, поворотный момент), buyuklik xisini uyg'otish, kelajakni ideallashtirish (пробуждение величия, идеализация будущего). Подобные элементы раскрывают сложные культурные представления о том, что побуждает человека к действию. Заимствованные термины, такие как motivation и stimulus, также присутствуют в узбекском языке и активно используются в управлении и педагогике, однако их употребление ограничено определенными сферами. Например, в учебной среде обсуждается motivatsiya uchachixsa и важность поддержки их shijoat (вдохновения) и havas (желания). Это показывает, что в узбекском языке концепт мотивации совмещает как глобальные, так и национальные особенности, часто связанный с ценностями трудолюбия и благодарности (Фазилов, 2015).

Таким образом, синхронный анализ номинативного поля концепта «мотивация» в английском, русском и узбекском языках демонстрирует сходства и различия в восприятии и выражении этого концепта. В английском языке концепт мотивации представлен как многоаспектное понятие, охватывающее широкий спектр лексем. В русском языке концепт мотивации тесно связан с личностным ростом и внутренним побуждением, тогда как в узбекском языке он сочетает внутреннее и духовные элементы. Исследование номинативного поля позволяет глубже понять, как культурные ценности и традиции влияют на понимание мотивации, и подчеркивает универсальность этого концепта при его культурной специфичности.

В заключении, диахронный и синхронный анализ концепта «мотивация» в английском, русском и узбекском языках позволяет увидеть, как различные языки и культуры развивали свои уникальные представления о мотивации, включая лексические лакуны, которые демонстрируют культурные различия в восприятии и вербализации мотивации, что отражает различные подходы к личностному развитию, эмоциям и социальной динамике в трех лингвокультурах.

Диахронное развитие концепта «мотивация» показывает, что в английском языке он эволюционировал органично, начиная с психологии и управления, и на протяжении многих лет обогатился такими терминами, как drive, ambition, incentive, которые подчеркивают личностную направленность и внутреннюю мотивацию. Однако в русском языке концепт был заимствован, развиваясь под влиянием советской и постсоветской

научной традиции, что подчеркнуло коллективистский и социальный акцент. Узбекский язык, в свою очередь, заимствовал термин из русского, что также повлияло на его восприятие. В результате, узбекский концепт мотивации сохранил черты коллективизма и обрёл элементы духовного аспекта, которые стали важными в местной культуре.

Синхронный анализ выявляет различия в номинативных полях концепта «мотивация» и подчеркивает существование межязыковых лакун, обусловленных культурными особенностями. Например, английский язык включает такие термины, как *incitation*, *craving*, *hunger*, и *affiliation*, которые не имеют точных эквивалентов в русском и узбекском языках. В английском языке выражение *carrot and stick* (кнул и пряник) также популярно для описания мотивирующих факторов, тогда как в языке аналогов нет или они не столь распространены. Эти лакуны указывают на ориентацию англоязычной культуры на личные интересы и достижение успеха.

Русский язык, напротив, испытывает лакуны для таких понятий, как *ache* (боль) и *dream* (мечта) в контексте мотивации, что показывает культурные особенности, где эмоциональные и внутренние аспекты мотивации занимают меньшее место. Отсутствие эквивалентов для *provocation* (провокация), *invitation* (приглашение) и *persuasion* (убеждение) также подчеркивает, что русская культура может меньше внимания уделять мотивации через убеждение, чем английская. В узбекском языке такие

термины, как *freedom* (свобода) и *autonomy* (автономия), не находят точных аналогов, так как узбекская культура акцентирует внимание на коллективизме и социальной гармонии, а не на индивидуальных целях. В узбекской культуре концепт «мотивация» тесно связан с социальными и духовными аспектами, что подчеркивается такими терминами, как *shijoat* (вдохновение), *iroda* (воля), *majburiyat* (обязанность) и *kelajakni ideallashtirish* (идеализация будущего). Эти термины представляют значимые культурные нюансы, которые не имеют прямых эквивалентов в английском и русском языках, что указывает на глубокую связь мотивации с духовными и социальными ценностями в узбекском обществе.

Заключение. Таким образом, синхронное и диахронное рассмотрение концепта мотивации выявляет универсальные черты, такие как стремление к достижению целей и внутренний стимул, а также культурно-специфические особенности. Английский язык подчеркивает многоаспектность и прагматичность мотивации, русский – личностное развитие и социальную направленность, тогда как узбекский сочетает внутренние и духовные элементы. Лексические лакуны демонстрируют значимость культурных ценностей и когнитивных установок, которые влияют на понимание мотивации, подчеркивая уникальность этого концепта в каждом языке и его адаптацию к специфическим культурным условиям.

ЛИТЕРАТУРА

1. Алефиренко, О. В. Исследование концептов: теории и методики. Санкт-Петербург: Издательство «Академический проект», (2020). с. 112-115.
2. Асмолов, А. Г. (2001). Психология личности: Принципы общего психологического анализа. Москва: Издательство МГУ.).
3. Дмитриева, Н. А. Синхронное исследование концептов в языке и культуре. Москва: Издательство «Наука», (2012). с. 45-47.
4. Зинченко, В. П., & Морозов, В. А. (2007). Психология мотивации и эмоций. Москва: Академия.
5. Леонтьев, А. Н. (1972). Деятельность. Сознание. Личность. Москва: Политиздат.
6. Лосский, Н. О. (1919). Свобода воли как основа нравственности. Москва: ГИЗ
7. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Москва: Гнозис, 2004.
8. Фазиллов, Х. (2015). Национальные и культурные особенности мотивации в образовательной среде. Ташкент: Узбекская академия наук.
9. James, W. (1890). *The Principles of Psychology*. Henry Holt and Company.
10. Maslow, A. H. (1943). "A Theory of Human Motivation." *Psychological Review*, 50, 370-396
11. Pink, D. H. (2009). *Drive: The Surprising Truth About What Motivates Us*. Riverhead Books.
12. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). "Intrinsic and Extrinsic Motivations: Classic Definitions and New Directions." *Contemporary Educational Psychology*, 25(1), 54-67.
13. <https://www.etymonline.com/word/motivation>



UDK:8'1751'8111'81'32

Dildor OTAJONOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD
E-mail: dildorotajonova1986@gmail.com

O'zDJTU dotsenti Sh.Abdullayeva taqrizi asosida

ELEKTRON ALOQA VOSITALARINING O‘ZIGA XOS LINGVISTIK JIHATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada elektron aloqa vositalarining turlari va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqiladi. Elektron aloqa vositasi tilshunoslik tadqiqoti obyektining maxsus turi bo‘lib, u o‘zining tabiatiga ko‘ra, ilgari tasvirlangan obyektlarning turlaridan biri (yozma matn, og‘zaki matn, kreollashtirilgan matn) bilan bog‘lanishi mumkin bo‘lgan elektron matnlardir. Bunday korrelyasiya uchun hal qiluvchi omil aloqa sharoitlari, obyektning tabiati va mutaxassisga yuklangan vazifalar bo‘ladi. Shunday qilib, elektron matnlarga messengerdagi yoki ijtimoiy tarmoqdagi yozishmalar, guruh yozishmalar, elektron pochta, SMS xabarlar, veb-sayt yoki ijtimoiy tarmoqdagi post/nashr, nashrning reposti, nashrlarga sharhlar va elektron muhitda boshqa shunga o‘xshash aloqa turlari kiradi.

Kalit so‘zlar: Elektron aloqa, elektron matn, elektron pochta, badiiy ifoda vositalari.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭЛЕКТРОННЫХ СРЕДСТВ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются виды электронных средств коммуникации и их особенности. Электронное средство коммуникации является особым объектом лингвистического исследования, которое по своей природе представляет собой электронные тексты, связанные с одним из ранее описанных типов объектов (письменный текст, устный текст, креолизованный текст). Решающий фактор для такой корреляции — это условия общения, природа объекта и задачи, поставленные перед специалистом. Таким образом, к электронным текстам относятся переписки в мессенджерах или социальных сетях, групповые переписки, электронная почта, SMS-сообщения, публикации на веб-сайтах или в социальных сетях, репосты публикаций, комментарии к публикациям, а также другие аналогичные виды коммуникации в электронной среде.

Ключевые слова: Электронная коммуникация, электронный текст, электронная почта, средства художественного выражения.

LINGUISTIC FEATURES OF ELECTRONIC COMMUNICATION TOOLS

Annotation

This article examines the types of electronic communication tools and their distinctive characteristics. An electronic communication tool is a special type of linguistic research object, which, by its nature, consists of electronic texts that can be related to one of the previously described types of objects (written text, spoken text, creolized text). The decisive factor for such correlation is the communication conditions, the nature of the object, and the tasks assigned to the specialist. Thus, electronic texts include messenger or social media correspondence, group messages, emails, SMS messages, posts/publications on websites or social media, reposts of publications, comments on publications, and other similar forms of communication in the electronic environment.

Key words: Electronic communication, electronic text, email, artistic means of expression.

Kirish. Elektron matnlar har qanday turdagi sud ishlarini ko‘rib chiqishda semantik tadqiqot ob‘ektiga aylanishi mumkin: jinoiy, fuqarolik, hakamlilik, ma‘muriy ishlar. Amaliyot shuni aytishga imkon beradiki, ob‘ektlarning har bir kichik turi ko‘pincha muayyan toifadagi holatlar bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, messengerda yoki ijtimoiy tarmoqda yozishmalar pedofiliya, ishga yollash, o‘z joniga qasd qilishga undash, pora yoki tijorat poraxo‘rlilik holatlarida topiladi; guruh yozishmalar - bir guruh shaxslar tomonidan firibgarlik sodir etilganda; elektron pochta, SMS xabarlar - tahdid, haqorat, tovlamachilik, firibgarlik; veb-saytlardagi nashrlar - nasizmni qayta tiklash, inson sha‘ni, qadr-qimmatini va ijtimoiy obro‘sinini himoya qilish yoki tuhmat qilish holatlari; ijtimoiy tarmoqlardagi nashrlar, repostlar, sharhlar - ekstremizm kabi holatlar bilan xarakterlanadi.

Sud-lingvistik ekspertizani o‘tkazish uchun elektron matnlar turli xil materiallarni saqlash vositalarida – ko‘pincha optik disklarda, flesh-disklarda olinadi, ular ob‘ektlarning elektron tashuvchilarga o‘tkazilishini va ob‘ektlarning o‘zini qog‘oz shaklida qayd etish (yoki boshqa shunga o‘xshash hujjat) bilan birga keladi. Lingvistik ekspertiza doirasida faqat og‘zaki komponent tadqiq qilinishi kerakligi haqidagi fikrga qaramay, kreollashtirilgan matnning noverbal komponentini hisobga olmasdan tahlil qilib bo‘lmaydi (ehtimol, matnning o‘rganish ham amaliy bo‘lmagan noaniq talqin holatlari bundan mustasno): “agar matnda ziddiyatli bayonotlar bilan funksional bog‘liq bo‘lgan noverbal qismlar mavjud bo‘lsa, ularning ma‘nosi lingvistik tahlil ob‘ekti bo‘lishi kerak. Matnning noverbal komponentlari uning ma‘nosini ifodalashning muhim vositasi bo‘lishi mumkin” [5].

Ye.E. Anisimovning kreollashtirilgan matnning tuzilishida turli belgilar tizimlarining kodlari ishtirok etgan matn sifatida belgilaydi [1].

Axborot manbasiga munosabat lingvistik ekspertizalarning ikki sinfga bo‘linishini belgilaydi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bunda ekspert

“tezkor” ma‘lumot manbasini tahlil qiladi, masalan, bosma matn yoki audio yozuv, bahsli nutq ishi) va bilvosita – bunda “bilvosita” manbalar tahlil qilinadi [2].

Elektron matn ko‘pincha o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, chunki u faqat bosma shaklda mavjud, ya‘ni nashrdan oldin tushunishni talab qiladi. Biroq, messengerdagi sharhlar va yozishmalar kabi elektron matnlarning turlari so‘zlashuv nutqining ba‘zi belgilari bilan tavsiflanadi: so‘z birikmalaridan foydalanish, onomatopeya, soddalashtirilgan sintaksis, so‘zlashuv va qisqartirilgan lug‘at va boshqalar. Biroq, elektron matnda bu lingvistik vositalardan foydalanish o‘ziga xosdir va umuman olganda, jonli nutq tiliga qaraganda ko‘proq majburiy, qasddan qilinganlik xarakterga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Elektron matnlarning xususiyatlaridan biri internet tomonidan taqdim etilgan texnik imkoniyatlar bilan bog‘liq multimediyadir. O.V. Dedova ta‘kidlaganidek, “matnning ovoz, videoyozuvlar, har xil turdagi grafik tasvirlar va animatsiya bilan yagona axborot makonida birlashtirish mumkin bo‘ladi” [4]. Ushbu multimedia ob‘ektlari ko‘pincha elektron dialogda alohida nusxalar yoki ularning qismlari sifatida namoyon bo‘ladi, masalan: elektron aloqada aloqa fotosuratlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Shu munosabat bilan, Ye.I. Gorshkoning internetdagi gipermatn va multimedia texnologiyalari bilan bog‘liq vaziyat haqida yozganiga qo‘shilish mumkin: “Elektron matnlar nafaqat matnning, balki qo‘shimcha semantik yuklamalarni o‘z ichiga olgan turli xil audiovizual ma‘lumotlarni ham tobora ko‘proq birlashtirmoqda” [3].

Ye. I. Gorshko ta‘kidlashicha, “internetdagi oddiy matn insonning og‘zaki va noverbal faoliyatining ko‘p qatlamli mahsulotiga aylanadi”, chunki uni yaratishda juda ko‘p odamlar ishtirok etadilar (muallifning o‘zidan tortib material chop etiladigan veb-saytni yaratgan dizaynerlar va dasturchilargacha). Shu bilan birga, elektron tashuvchidagi matnning asosiy mazmuni, birinchi navbatda, uning

og'zaki komponentida, noverbal komponent esa og'zaki shakldagi ma'lumotlarning ta'sirini tasvirlaydi va kuchaytiradi [3]. Shuni ham inobatga olish kerakki, noverbal komponentlar ko'pincha mustaqil ma'lumot yukini ko'taradi, masalan, og'zaki ma'lumotni to'ldiradi yoki o'quvchining ushbu ma'lumotni idrok etishiga ta'sir qiluvchi aloqa funksiyasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'rif va tushunchalarni ishlab chiqish, ilmiy qarama-qarshiliklarni aniqlash uchun nazariy tushunchalarni ko'rib chiqish va berilgan muammolarni hal qilishda maqolada tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, tizimli-struktura usuli kabi umumiy ilmiy usullar qo'llaniladi.

Tahlil va natijalar. Elektron matnda ma'lum darajada o'xshash tarzda elektron matni haqiqiy (virtual emas) muloqot sifatida stilashtirish qiluvchi emoticon belgilari («smaylik», «stikerlari») qo'llaniladi. Emotikon qabul qiluvchiga xabar muallifining hissiy holati, suhbatdosh qanday ko'rishi va muallifning ahvolini tushunishi kerakligi haqida ma'lumot berishga xizmat qiladi. Biroq, muallifning emotikon ko'rsatgan holatda bo'lishi mutlaqo shart emas. Ya'ni, hissiyotlarning haqiqiy namoyon bo'lishidan farqli o'laroq (tilshunos o'zining maxsus bilimlari chegarasidan tashqariga chiqib ketganligi sababli uni to'liq o'rgana olmaydi), elektron matnda kulgich ma'nosini qo'shadigan va o'zgartiradigan matn belgisi sifatida ishlaydi. Emotikon - bu kommunikativ ahamiyatga ega harakat, kommunikativ ahamiyatga ega bo'lgan belgi bo'lib, u turli maqsadlarda va turli funksiyalar uchun ishlatilishi mumkin, masalan: ma'lumot suhbatdosh tomonidan qabul qilinganligi haqida xabar berish uchun u reaktiv funksiyani bajarishi mumkin.

Sud-lingvistik ekspertizadagi emotikonning eng muhim va keng tarqalgan vazifasi istehzoni ifodalash, bayonotning istehzoli tabiatining belgisidir. Shunday qilib, kulgich ba'zi hollarda ma'noni «teskari» qilishi va/yoki tekislashi mumkin. Bu, ayniqsa motivatsiyani o'rganishda muhim bo'lishi mumkin, bunda kulgich motivatsiya mazmunini to'g'ridan-to'g'ri ifodalangan narsaga mos kelmasligini ko'rsatadigan qo'shimcha vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin, masalan:

“Agar 200 ming majburiy shart bo'lsa, mening ham kameramda telefon, internet, televizor, muzlatgich, alkogolli bar, radio va issiq dush bo'lsin!!! =>) Va shuning uchun 20 mingdan oshmaydi. Shunda ham men bunga shubha qilaman”.

Yuqoridagi misolda telefon, internet va hokazolarni kameraga o'tkazish istagi to'g'ridan-to'g'ri ifodalangan, ammo kontekstdan ko'rinib turibdiki, matnda olingan ma'lumotlar mazmunini saqlab qolgan holda, uning ma'nosi shu maqsadda ko'rsatilgan. Belgilangan talablarning amalda bajarilishiga emas, balki 200 ming so'ragan ba'zi xizmatlarning narxini pasaytirish (ishlatilgan kulgich =>) sanab o'tilgan talablarga yengil munosabatda bo'lish zarurligini ko'rsatadi), biroq, istehzo faqat kulgi bilan ifodalangan holatlar juda kam uchraydi.

Elektron matnning yana bir xarakterli xususiyati imlo va tinish belgilarining tez-tez buzilishidir. Bu ko'pincha matn terishning yuqori tezligi bilan bog'liq yoki yozuvchining individual savodxonligini aks ettiradi, ammo so'zlarning imlosini ataylab va shuning uchun semantik jihatdan ahamiyatli tarzda buzish ham mavjud. Bu qandaydir memga havola bilan bog'lanishi mumkin yoki muallif bu so'zni istehzo bilan ishlatganligini ko'rsatishi mumkin.

Og'zaki dialogik nutqqa (messengerlarda yozishmalar) o'xshash ob'ektlar turlari haqida gapirganda, xabarlarni bir zumda qabul qilish va yuborish qobiliyatini, bir zumda javob berish qobiliyatini, shuningdek, kech javob berish yoki hatto xabarlarni javobsiz qoldirish qobiliyatini hisobga olish kerak:

12.03.2022, A – Assalomu alaykum, yaxshimisiz?

04.10.2023, B – Salom, yaxshi.

10.04.2023, A – Aqldan ozganmisan? Bir yil o'tdi.

ADABIYOTLAR

1. Анисимова Е.Е. Паралингвистика и текст (к проблеме креолизованных и гибридных текстов) // Вопросы языкознания, №1, 1992. С. 71–78.
2. Бринев К. И. Лингвистическая экспертиза: типы экспертных задач и методические презумпции // Юрислингвистика, № 9, С. 232-249.
3. Горошко Е. И. Методология изучения текста на электронном носителе. // Актуальные вопросы комплексной судебной психолого-лингвистической экспертизы. Калининград, 2009. – С. 40–50.
4. Дедова О. В. О языке Интернета // Вестник Московского университета. Сер. 9. Филология. 2010. № 3. С. 29.
5. Кукушкина О. В., Сафонова Ю. А., Секераж Т. Н. Методика проведения судебной психолого-лингвистической экспертизы материалов по делам, связанным с противобоем экстремизму и терроризму. – М.: ФБУ РФЦСЭ при Минюсте России, 2014. – 138 С.

Muloqot jarayonini vaqtinchalik manipulyasiya qilish imkoniyatlari suhbatdoshlar tomonidan ko'pincha ma'noni shakllantirish sifatida qabul qilinadi, bu boradagi ahamiyati ekspert tomonidan matni semantik jihatdan normallashtirishda tushuntirilishi kerak (06/03/2023 A – Haqiqiy hayotda uchrashamiz; 06.03.2023 B – Juda tez :) 06.06.2023 B – Xo'sh, nima qilyapsan :) 06.06.2023 A - Norm, band edim).

Bitta xabarda suhbatdoshning bir necha oldingi mulohazalariga javob bo'lishi mumkin va javob oldingi izohlarda ko'rsatilgan ketma-ketlikni saqlab turishi ham, bu ketma-ketlikni buzishi ham mumkin (A – Salom. Bugun ketasizmi? A – Men va Vasya uchun bir gramm oling. B – Vasya kim? Bilmayman. Salom). Mutaxassis shu tarzda “buzilgan” dialogik birliklarda savol va javob mulohazalari o'zaro bog'liqligini tiklashi kerak.

Elektron matnlarning eng keng tarqalgan elementi bu giperhavola (shu jumladan foto va video havolalar). Giperhavolaning funksional maqsadi nutq maqsadini o'z ichiga oladi “induksiya” - har qanday havola uni bosish va unga rioya qilish zarurligini nazarda tutadi. Shu bilan birga, havola “ishontirish” nutq maqsadini ifodalash uchun ham ishlatilishi mumkin (“videoda ifodalangan pozitsiyani baham ko'ring”) va nashriyotning pozitsiyasi haqida bahslash uchun («...ga qarang, ular xuddi men kabi hisoblashadi»). Shunga o'xshash funksiyada elektron matnlar heshteglardan foydalanishi mumkin, bu heshteg ostida to'plangan ma'lumotlar muallif uchun biron bir sababga ko'ra mazmunli bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Lingvistik tadqiqotlar olib borilayotganda, avatar kabi elektron matn elementidagi ma'no muhim bo'lishi mumkin. Avatarning asosiy vazifasi o'z-o'zini identifikatsiya qilish (o'z mansubligini ko'rsatish). Natijada, avatar baholashning ma'nosini va nutq maqsadini o'z ichiga olishi mumkin “ushbu bahoni baham ko'rishga / qabul qilishga ishontirish”. Masalan, ekstremistlar va ular sodir etgan jinoyatlar haqidagi maqola matnida bunday harakatlarga hech qanday baho berilmasligi mumkin. Biroq, agar maqola ekstremizmni bildiruvchi chizilgan belgi yoki timsol belgisi ostida nashr etilsa, muallifning ushbu hodisaga salbiy bahosi haqida gapirish mumkin. Bunday hollarda, modalliklarning merosxo'rligi tamoyiliga muvofiq, salbiy baho maqolaning nashr etilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan kommunikativ harakatga ham tegishlidir.

Xulosa va takliflar. Shu bilan birga, shuni ham hisobga olish kerakki, lingvistik nuqtai nazardan avatar barcha nashrlarda bahoni uzata olmaydi, chunki avatarni o'zgartirishning funksional xususiyatlaridan biri foydalanuvchining oldingi barcha nashrlarida yangi avtorning avtomatik ko'rinishidir, avatar bilan ifodalangan baholash uni o'rnatishdan oldin qilingan, ammo elektron matni o'rnatish vaqtida ushbu avatar ostida mavjud bo'lgan nashrlarga o'tadimi yoki yo'qmi degan qoida bahsli. Shu munosabat bilan ekspert maqomini aniq va ishonchli asoslash zarur. Avatar istalgan atributning yagona tashuvchisi bo'lgan hollarda, avatar o'rnatilishidan oldin tayyorlangan nashrlar to'g'risida ekspert pozitsiyasini baholash uchun nihoyatda ehtiyotkorlik bilan qo'llanilishi kerak. Taxallus elektron matnning o'xshash elementi bo'lib, undagi ma'no og'zaki bo'lganligi sababli, laqab lisoniy tahlil nuqtai nazaridan kamroq bahsli elementdir.

Shaxslararo muloqot bilan bog'liq bo'lmagan elektron matnlarning o'ziga xos xususiyati cheklanmagan miqdordagi odamlarga murojaat qilish qobiliyatidir. Ba'zi hollarda maqsadli qabul qiluvchi o'ziga xos manfaatlarga ega bo'lgan guruhga yoki nashr qilingan tilni bilish bilan cheklangan guruhga yoki nashr qilingan resurs foydalanuvchilariga qisqartirilishi mumkin. Boshqa tomondan, agar matn joylashtirilgan guruh yoki resurs yopiq bo'lmasa, qabul qiluvchi birinchi navbatda nashrga kirish huquqiga ega bo'lganlarning barchasi (internetga kirish huquqiga ega bo'lganlar) ommaviy bo'ladi.



Ulug‘bek RAHMONOV,
Andijon davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: rahmanobulugbek@gmail.com

ADU professori Sh.Shokirov taqrizi asosida

ANGLIYADA LUG‘AT VA GRAMMATIKALARNING YARATILISHINING ILMIY QARASHLARI

Annotatsiya

Maqolada XVII-XVIII Angliyada til akademiyalar tomonidan lug‘at va grammatikalarini chop etishda J. Drayden, J. Swift, D.Defo, J.Addison, B. Uarberton kabi mashhur yozuvchi hamda olimlarning fikrlari tahlilga tortilgan. Unda ingliz tilini “tozalash” ya’ni, “noto‘g‘riliklardan” va “mantiqsizliklardan” ehtiyoq qilish har bir ingliz kishisi uchun muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Til akademiyasi, lug‘at, grammatika, pamflet, tilni to‘g‘rilash, yozuvchilar, jamoatchilik.

СЛОВАРИ И ГРАММАТИКИ В АНГЛИИ НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ИХ СОЗДАНИЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются словари и грамматики XVII-XVIII веков, изданные языковыми академиями Англии. Дж. Драйденом, Дж. Свифтом, Д. Дефо, Дж. Аддисоном, У. Уорбертоном, а также мнения известных писателей и ученых. В нем говорится, что "очищение" английского языка, то есть осознание "неточностей" и "иррациональности", важно для каждого англичанина.

Ключевые слова: Языковая академия, словари, грамматика, памфлет, коррекция языка, писатели, публика.

DICTIONARIES AND GRAMMARS IN ENGLAND SCIENTIFIC VIEWS OF ITS CREATION

Annotation

In this article XVII-XVIII in the publication of dictionaries and grammars by language academies in England. J. Drayden, J. Swift, D. Defoe, J. Addison, W. Warburton opinions of notable writers as well as scholars such as have been drawn into analysis. It states that "cleaning up" the English language, i.e., beingware of "inaccuracies" and "irrationality", is important to every English person.

Key words: Language Academy, Dictionary, grammar, pamflet, language correction, writers, public.

Kirish. Ma’lumki, XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Angliyada akademiyaning tuzish uchun ancha keng ijtimoiy harakat boshlandi. Bu harakat, birinchidan, YEvropa mamlakatlarida (eng avvalo Italiya va Fransiyada) akademiylarning mavjudligi fakti bilan, ikkinchidan, ingliz jamoat arboblari, yozuvchilari, filologlarning tilni “noto‘g‘riliklardan” va “mantiqsizliklardan” tozalash hamda bundan keyin “tozalangan”, “qoidaga muvofiq keladigan” ingliz tilini abadiy (doimiy) ravishda “mustahkamlash” kabi kuchli vatanparvarlik xohishi bilan ruhlanar edi. Tilni “tozalashi” mumkin bo‘lgan, keyinchalik esa uning “sofligining” himoyasiga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan organ sifatida fransuz yoki italyan akademiyalari tipidagi akademiya tasavvur qilinardi.

Adabiyotlar tahlili. 1662 yili shoir va tanqidchi U. Dillon Angliyada til va adabiyot akademiyasini tuzishning konkret loyihasi bilan chiqdi. Uni Drayden qizg‘in qo‘llab-quvvatladi. U 1664 yilda “Men afsuslanaman, shunday go‘zal bo‘lmish ingliz tilida gapirar ekanmiz, masalan, Fransiyadagi kabi biz uning aniq namunasiga ega emasmiz, u yerda bu maqsad uchun, buning ustiga qiroli tomonidan katta vakolatlar berilgan akademiya tashkil qilingan”[5] deb yozgan edi. O‘zining boshqa asarlarida Drayden qayta-qayta akademiyaning va ingliz tilining akademik lug‘atlarini tuzish masalasiga qaytadi. Misol uchun, 1679 yilda u “Garchi hozirgi vaqtda ingliz tilining lug‘at tarkibini tartibga solishda qandaydir yuksalishga erishilgan bo‘lsada, biroq bu to‘g‘risida yana ko‘p narsa qilishga to‘g‘ri keladi”[5] deb yozgan edi. 1693 yili Drayden tilni “yaxshilash” bo‘yicha nufuzli tashkilot tuzish haqidagi masalaga yana qaytadi.

Draydenning dalillariga Daniyel Defo ham batamom qo‘shildi. O‘zining “Loyihalar haqidagi traktati”da (1697) (“Akademiylar haqida” nomli bo‘limida) u Angliyada fransuz akademiyasiga o‘xshagan akademiya tuzishning zaruratini qat’iyat bilan isbotlab berdi. Defo nufuzli tashkilotni tuzishni taklif qildi, uning vazifasiga ko‘ra “ingliz tilini yaxshilash va to‘g‘rilash, ko‘pincha mensimay qaraladigan to‘g‘ri ifodalash san’atini targ‘ib qilish, uslubning sofligini va to‘g‘riligini o‘rnatish, yana shuningdek uni barcha noto‘g‘ri, unga bilimsizlik hamda uslublarni olib kirgan qo‘shimchalardan tozalash, nutqdagi barcha o‘sha, bizning ba’zi bir yozuvchi-dogmatiklarimiz o‘zlarini katta bilimdon fahmlab bizning ona tilimizga olib kirgan shunchalik yangi hosilalardan (agar ularni men shunday deb atay olsam) tozalash kerak edi”[4].

Angliyada akademiyaning yana bir haddan tashqari ashaddiy tarafdorlaridan biri bu J. Swift edi. U akademiyaning tashkil qilishga keng jamoatchilik manfaatini ifoda qilib, 1711-yil 17-iyulda arxiyepiskop Kingga xat bilan murojaat qildi. Unda J.Swift hukumatga tilimizning yaxshilanishi, tozalanishi, mustahkamlanishi uchun ministrlar va qirolicha homiyli ostida o‘ziga xos jamiyat yoki akademiya tuzish maqsadida ta’sir ko‘rsatishni so‘radi”[15]. Oradan bir yil o‘tgach Swift o‘zining keng ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishni qo‘lga kiritgan “Ingliz tilini tuzatish, yaxshilash, mustahkamlash haqidagi taklif” pamfletida bu mavzuga yana qaytadi va kechiktirilmaydigan (oshig‘ich) “amaliy choralar” ko‘rishni taklif qiladi. U xususan, “bizning tilimizga qayta o‘zgartirishlarni kiritish uchun” juda bo‘lmasa komitet tuzish zarur deb hisoblaydi. “Bu vazifani o‘zlariga olgan shaxslar, - deb davom etadi u, - o‘z oldilarida fransuzlarning misoliga ega bo‘ladilar... Grammatikadan tashqari, biz u yerda juda katta nuqsonlarga yo‘l qo‘yamiz, ular juda ko‘p qo‘pol betartibsizlikka e’tibor qaratadilar. Bu tartibsizliklar garchi qo‘llanilishga kirgan hamda o‘rganib ketilgan bo‘lsalar ham, shunga qaramasdan chiqarib tashlanishlari kerak. Ular ko‘plab so‘zlarni topadilar, bu so‘zlar ularni mutlaqo tildan chiqarib tashlashga loyiqdirlar. To‘g‘rilanishi lozim bo‘lgan yana ko‘plab so‘zlarni, ehtimol, bir qancha vaqt ilgari eskirgan, ularning kuchi va jarangdorligi sababli tiklash kerak bo‘lgan so‘zlarni topadilar”[17].

Swiftning takliflari ko‘plab yozuvchilar va jamoat arboblari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Ularning orasida Addison kabi mashhur va obro‘li shaxs ham bor edi. O‘zining “Tomoshabin” nomli jurnalida Addison shunday deb yozgan edi. “Bizning konstitutsiyamizga muvofiq bizda odamlarning bir qanchasining burchlariga qonunlarimizni, erkinliklarimizni, savdo-sotiqni kuzatib turish kiradi. Men yana shu haqida orzu qilamanki, biz yana odamlarning ma’lum miqdorini til ustidan kuzatuvchilar sifatida, ular bizning tilimizga har qanday xorijiy so‘zlarning suqilib kirishlariga halal berishlari uchun ayniqsa, har qanday fransuzcha iboralarni bu qirolikda qo‘llanilishini taqiqlashlari uchun ajratishimiz kerak” [2]. Yana bir boshqa pamfletda Addisonning aniqlashicha, ingliz tilida ko‘p munozarali jihatlar bor. Ular “Bizda akademiya o‘xshash biror narsa bo‘lmasa, u eng yaxshi yozuvchilarning nufuzi bilan, yana shuningdek, tillar o‘rtasidagi analogiya qoidalarining yordami bilan grammatika hamda bizning ona tilimiz o‘rtasida yuzaga keladigan barcha qarama-qarshiliklarni to‘g‘rilamaguncha hal bo‘lmaydilar”[2].

Shunga qaramay, Drayden, Defo, Svift, Addison kabi obro' e'tiborga ega bo'lgan jamoat arboblarning va ko'zga ko'ringan yozuvchilarning yuqorida keltirilgan chiqishlariga qaramasdan, ingliz tili va adabiyoti akademiyasi tuzilmadi. Buning sababi hozirgi kunga qadar oxirigacha aniqlanmagan va har xil mualliflar tomonidan turlicha izohlangan. Misol uchun, B.S.Monro qirolicha Anna boshqargan (1702-1714) yillari akademiyani tuzish uchun eng real payt bo'lgan, deb hisoblaydi. Bundan keyin turli siyosiy sabablar uni tuzish uchun hech qanday real asos bermadilar[8]. Bu masala bilan shug'ullangan boshqa tadqiqotchilar, masalan, go'yo ingliz millatiga xos bo'lgan "antiintellektualizm", yoki inglizlarning rasmiy, davlat aktlarining samarasizligidan farqli ravishda xususiy egalikning samaradorligiga ishonch kabi shunday dalillarni ilgari suradilar[7].

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Angliyada akademiyani tuzishga ko'p sonli da'vatlar va urinishlar ham bo'lib o'tdi. Ammo ular biz XVII asrning o'rtalarigacha kuzatgan o'sha da'vatlarga va urinishlarga qaraganda unchalik real emas edi, chunki hech bir jiddiy filolog o'ziga tilni nazorat qilish hamda unda "yaxshi", "to'g'ri" yoki "sof" ma'yorni o'rnatish masalalarida hakamlarini olish mumkin deb hisoblamadi.

Angliyada akademiyani tuzishga da'vatlar, odatda, ingliz tilining nufuzli lug'atini va grammatikasini nashr qilish talablari bilan birga sodir bo'ldi. Odatda akademik tashkilotni tuzishga chaqirganlar shuni nazarda tutar edilar, bu tashkilot YEvropa akademiyalarining namunasi bo'yicha ham nufuzli lug'atni va grammatikani tuzishga kirishadi. Shu bilan birga "nufuzlilik" shu ma'noda o'ylanar ediki, ko'rsatilgan tashkilot yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi lug'atni va grammatikani tuzadi. U qonun kuchi bilan ingliz tilining "sofligini" va "to'g'riligini" qo'llab-quvvatlaydi hamda uni "tajovuzlardan" himoya qiladi. U bu tajovuzlarga hamisha "vulgar odat" tomonidan duchor bo'ladi, deb o'ylar edi. Shunday qilib, nufuzli "yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi" lug'atni va grammatikani yaratish natijasida (o'sha payt Angliya ijtimoiy fikrining ishonchi komil ediki) kelajak avlodlari uchun "haqiqiy", "sof" va "to'g'ri" ingliz tili saqlab qolindi.

1671 yilda S.Skinnerning vafotidan keyin nashr qilingan ingliz tili etimologik lug'atining muallifi T. Xenshouning muqaddimada yozishicha, inglizlar qachonlardir, ancha o'qimishli YEvropa millatlarining namunasi bo'lar, til va adabiyot akademiyasini yaratadilar. Lug'at va grammatikani tuzadilar hamda shu tariqa o'z tilini "noto'g'riliklardan" va "solesizmlardan" ozod qiladilar.

1693 yili Drayden, keng jamoatchilik fikriga qo'shilib, achchiq alam bilan shunday deydi, "bizda haligacha na ingliz prosodiyasi, na qanoatlansa bo'ladigan lug'at, na grammatika mavjud emas. Shuning uchun bizning tilimiz qandaydir ma'noda vahshiyona (varvarlar)cha". "Men, - deya davom etdi u bu yuz yillikda tilning taraqqiyotiga umid qilgandan ko'ra, uning zaiflashidan ko'proq qo'rqaman"[5]. Drayden bo'lajak akademiya tomonidan tuzilgan lug'at va grammatika aynan shunday vositalarga aylanadilar, birinchidan, ingliz tilini "noto'g'riliklardan" tozalaydi va ikkinchidan, uni qayta ishlangan va to'g'rilangan holda "mustahkamlaydi", deb hisoblardi. Draydeni Defo ham qo'llab-quvvatlaydi. U ingliz akademiyasining vazifalaridan birinchisi "to'g'rilik", soflik va "uslubning ritmikasi" bo'yicha kitoblarni nashr qilinishi amalga oshirishdan shubhalanmas edi.

Tarixchi va pamphletchi Jon Oldmikson o'zining "Mulohazalarida" Sviftning "Ingliz tilini to'g'rilash, yaxshilash va mustahkamlash haqida"gi takliflari bo'yicha quyidagilarni qayd qildi: "Grammatikaning va lug'atning ehtiyoji (zarurligi) ancha ilgirdanoq sezilmoqda. Biz tilimiz chegaradan tashqarida tarqalishiga, chet elliklar uni o'rganishning ancha to'g'ri metodini olmaganlaricha umid qila olmaymiz"[11].

1724 yili Londonda "Har qanday millat uchun yaxshi tilning ko'p afzalliklari haqida" nomli anonim traktat paydo bo'ldi. Unda ingliz tili nufuzli lug'at va grammatikasining mavjud emasligi alohida ta'kidlandi. Ingliz alfavitining o'zi, - deb tasdiqlandi traktatda, - tasodifiy va tartibsizdir. Bizda har qanday maktabda o'rganiladigan grammatika so'zlarning etimologiyasiga, ma'nolariga va qo'llanilishiga asoslanib tilni tartibga keltirishi mumkin bo'lgan yaxshi lug'at idiomalarni, jumlamalarni va yuklamalarning to'g'ri qo'llanilishining to'plami yo'q"[3].

A. Pop barchaga baravar taalluqli yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi lug'atga ega bo'lish istagini ifoda qilar ekan, uning fikriga ko'ra, hatto

asarlari, bo'lajak lug'at uchun asos bo'lib xizmat qiladigan yozuvchilarning ro'yxatini tuzdi[6].

Mashhur tanqidchi va adabiyotshunos U. Uarberton Shekspir asarlarining nashriga yozgan so'zbo'shida (1747) shunday deydi – "ingliz tili hali qiyin va shubhali hollarda foydalanish mumkin bo'lgan namunaga hamda standartga ega emas., chunki bizda so'zlarning keng dengizi bo'ylab olib yurishi mumkin bo'lgan na grammatika, na lug'at, na kartalar, na kompas bor"[9].

Yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi lug'atning yo'qligi bilan ro'y-rost tashvishlangan Chesterfild bu mavzuga yana qaytadi va 1754 yilning noyabrda o'z xatini "World" jurnalida chop ettiradi. Bu xatda qisqa qilib, ammo ajablanarli darajada aniq yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi lug'atni yaratishning ehtiyoji haqidagi o'sha davrning kayfiyati aks ettirilgan. "Men millatimiz uchun sharmandalik (isnod) deb hisoblayman, - deb yozgan edi Chesterfild, - "Shu paytgacha bizda til standarti yo'q, bizning lug'atlarimiz hozirgi kunda, bizning qo'shnilarimiz, daniyaliklar va nemislar so'zlarning kitoblari deb ataydigan narsadan boshqa narsa emas, bu so'zning eng yaxshi ma'nosidagi lug'atlar emas. Barcha so'zlar, yaxshi so'zlar va yomon so'zlar, shu darajada tartibsizlik bilan aralashirib yuborilganki, yaxshi bilmaydigan kitobxon, u buni xohlagan zahoti, bizning kitoblarimizdan so'zlar unisining yoki boshqasining nufuziga asoslanib shunchalik kelishmaganlik bilan, shunchalik noto'g'ri hamda dag'al so'zlashi va yozishi mumkin"[14]. So'ngra Chesterfild nima uchun inglizlarga aynan o'sha vaqtda yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi lug'atning zarurligini yana bir bor shunday tushuntiradi: "Ochiqchasiga tan olish kerakki, - deb yozadi u. – "Hozirgi kunda bizning tilimiz boshboshdoqlik holatida turibdi, bundan ham ko'prog'i, uni yana yomonrog'i kutib turibdi. Bizning erkin va ochiq savdo-sotig'imiz davrida boshqa tillardan ko'plab so'zlar, iboralar o'zlashtirilib, singdirib hamda naturalizatsiya qilib olingan, ular ko'p jihatdan bizni (tilimizni) boyitdi... Hozir so'zlardagi farqlarni joriy qilish vaqti keldi. Beparvolik, o'zlashtirish va naturalizatsiya tugadi. Qat'iy tartib va nufuz zarur" [14]. Shunday qilib, Chesterfildning fikriga ko'ra, o'zgarishlarning binobarin, tildagi "buzilishlarning" sababi til aloqalari hisoblanadilar. Aynan ular ingliz tilini boshboshdoqlik va tanazzul holatiga olib keldilar. Vujudga kelgan holatdan chiqishning o'zi qayerda? Chesterfild, albatta keng jamoatchilik fikrini inobatga olib, faqat bitta chiqish mavjud – diktator (o'z amrini o'tkazuvchi)-lug'at yaratish, - deb hisoblaydi. "Biz ola-g'ovur kunlarda qo'llanilgan qadimiy Rim vositasiga murojaat qilishimiz kerak va diktatorni saylashimiz kerak deya xulosa chiqaradi Chesterfild. Bu prinsippa amal qilib, men bu muhim va mas'uliyatli postga Jonsonning tayinlanishiga ovoz beraman"[14].

Demak, Chesterfild yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi lug'atning yaratilishiga tayyorlanayotgan Jonson lug'atini nazarda tutib va bu lug'atga "to'g'rilik" hamda "kelishganlik" masalalarida so'zsiz bo'ysunishga ochiqchasiga da'vat etadi. Mavjud nutq amaliyotining tahlili haqida hatto so'z ham bormaydi

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Chesterfildning qarashlari o'z davri qarashlarining ifodasi edi. Biroq bu lug'atning va grammatikaning chiqarilishini talab qilgan Chesterfild yoki boshqa yozuvchilar, filologlar o'sha paytda Angliyada ingliz tili bo'yicha na lug'atning, na grammatikaning yo'qligi haqida da'vo qilganlar haq edi deganini bildirmaydi. Butunlay aksincha, XVIII asrning oxiriga kelib lug'atlarining va grammatikalarning ancha-muncha soni nashr qilingan edi. Bular Kersining lug'atlari (1702, 1706), Beylining lug'atlari (1721, 1730), Martinning lug'ati (1749), Uollisning (1653), Xouelning (1662), Kuperning (1685), Braytlendning (1711), Grinvudning (1737), Diluortning (1740) grammatikalari kabi salmoqli va malakali nashrlar bosmadan chiqarildi. Ingliz tili uchun na grammatika, na lug'at yo'q deya fikr bildirar ekanlar, Chesterfild va boshqa jamoat arboblari, yozuvchilar, filologlar aynan yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi lug'at hamda grammatikani nazarda tutgan edilar. Ular shunday lug'atga ega bo'lishni xohlagan edilar, u o'zining butun vujudni qamrab oladigan nufuzi bilan tilni "noto'g'riliklardan" va "dag'alliklardan" tozalasin va qandaydir "to'g'ri", "sof" hamda kelishgan ma'yorni o'rnatin edi. Bunday lug'at haqiqatan ham Angliyada XVIII asrning o'rtalarigacha yo'q edi, haqiqatda esa ijtimoiy fikr uni qattiq turib talab qilar edi. Shu talablarga muvofiq XVIII asrning boshida Angliya ingliz tilining yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi lug'atini yaratishning bir qancha rejaları ilgari surildi.

ADABIYOTLAR

1. Adams E. Old English scholarship in England: From 1566- 1800. Kissenger Publishing, 2010. P. 212.
2. Addison J, Steele R. The spectator: In eight vols. Vol. II. Palala Press, 2015, P. 380.

3. Anonymous. The many advantages of a good language to any nation with an examination of the present state of our own: and also, an essay towards correcting some things that are wrong in it. L., 1724. P. 6.
4. Bolton W.F. The English language, Library Binding, 1987. P. 362.
5. Dryden J. Works in 18 vols. I vol. Ed. by W. Scott. L., 1808. P. 118
6. Johnson S. The plan of an English dictionary (1747). In: The works of S. Johnson in eleven volumes, Vol. IX, L., 1787, P. 190.
7. Haugen E. Language conflict and language planning: the case of modern Norwegian. Harvard University Press, 2014, P. 409.
8. Monroe B.S. An English academy. – Modern Philology, vol. VIII, 1910, P. 107-122.
9. Mr. Warburton, Mr. Pope, The works of Shakespeare in 8 vols. Vol. I, Gale ECCO, Print Editions, 2010. P. 366.
10. Mulcaster R. Elementarie (1582). Oxford, 1925. P. 308.
11. Osselton N.E. Branded words in English dictionaries before Johnson. Groningen, 1958, P. 191.
12. Segar M. Dictionary making in the early eighteenth century. - "Reviews of English Studies", 1931, vol. VII, No. 26, p. 210-213.
13. Scott W. The works of John Dryden. Works in 18 vols. I vol. Outlook Verlag, 2020. P. 160.
14. Stanhope P.D. (Chesterfield). Letters to his son. Legare Street Press, 2023. P. 624.
15. Swift J. Letter to archbishop King (1711). - In: Swift J. Works. Vol. XV, ed. by T. Sheridan, N.Y., 1812.
16. Voltaire. Lettres philosophiques. Creative Media Partners, LLC, 2018, P. 186.
17. Свифт Дж. Предложение об исправлении, улучшении и закреплении английского язы'ка. - В кн.: Свифт Дж. Памфлеты, пер. с англ., М., 1955, с. 77.
18. Честерфилд (Стенхоп Ф.Д.). Писма к сыну. М., Neoclassic, 2023. С. 288.



Dilyayra RUZIYEVA,

O'zbekiston Respublikasi ichki Ishlar Vazirligi, Buxoro akademik litseyi o'qituvchisi

E-mail: ruziyevadilyayra300@gmail.com

Milliy Universiteti Xorijiy til va adabiyoti kafedrasida dotsenti v.b. S.B.Xamdamova taqrizi ostida

JAHON ADABIYOTIDA OTA OBRAZINI O'RGANISHDA TURLI YONDASHUVLAR TADQIQI

Annotatsiya

Maqola jahon adabiyotida ota obrazining xilma-xil timsollarini o'rganish, turli madaniyat va janrlarda ota obrazi qanday tuzilganligini tahlil qilishga qaratilgan. Ota obrazini turli nazariy yondashuvlar, jumladan, psixoanaliz, feminizm va post-mustamlakachilik orqali o'rganib, tadqiqot otalik haqidagi o'zgaruvchan rivoyatlarni va bu tasvirlar jamiyat meyorlarini qanday aks ettirishi yoki tanqid qilishini ochishga intiladi. Tadqiqot shuningdek, otalar va ularning farzandlari o'rtasidagi hissiy, psixologik va avlodlar tarangligini o'rganib chiqadi va bu munosabatlar shaxsiyat, oilaviy tuzilmalar va kuch dinamikasini shakllantirishga qanday hissa qo'shishini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Ota obrazi, patriarhat, hokimiyat, himoya, axloqiy hokimiyat, avlodlar to'qnashuvi, hissiy masofa, g'oyib ota.

INVESTIGATION OF DIFFERENT APPROACHES TO STUDYING THE IMAGE OF FATHER IN WORLD LITERATURE

Annotation

The article aims to explore the diverse representations of the image of father in world literature, analyzing how literary fathers are constructed across different cultures and genres. By examining the father figure through various theoretical approaches, including psychoanalysis, feminism, and post-colonialism, the research seeks to uncover the shifting narratives of fatherhood and how these portrayals mirror or critique societal norms. The study also investigates the emotional, psychological, and generational tensions between fathers and their children, highlighting how these relationships contribute to the construction of identity, familial structures, and power dynamics.

Key words: Image of father, patriarchy, authority, protection, moral authority, generational conflict, emotional distance, absentee father.

ИССЛЕДОВАНИЕ РАЗНЫХ ПОДХОДОВ К ИЗУЧЕНИЮ ОБРАЗА ОТЦА В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

В статье исследуются разнообразные представления образа отца в мировой литературе, анализ того, как литературные отцы конструируются в разных культурах и жанрах. Рассматривая фигуру отца через различные теоретические линзы, включая психоанализ, феминизм и постколониализм, исследование стремится раскрыть меняющиеся нарративы отцовства и то, как эти изображения отражают или критикуют общественные нормы. Исследование также изучает эмоциональные, психологические противоречия между отцами и их детьми, подчеркивая, как эти отношения способствуют построению идентичности, семейных структур и динамики власти.

Ключевые слова: Образ отца, патриархат, авторитет, защита, моральный авторитет, конфликт поколений, эмоциональная дистанция, отсутствующий отец.

Kirish. Ota siymosi jahon adabiyotida ustunlik, himoya, donolik, ba'zan esa zulm timsoli bo'lib xizmat qilganligi bilan muhim o'rinni egallagan. Turli madaniyatlarda, tarixiy davrlarda va adabiy an'analarda ota qahramoni oilaviy mas'uliyat, axloqiy yo'l-yo'riq, ijtimoiy ierarxiya va hissiy murakkablik kabi turli mavzularni o'zida mujassam etgan markaziy shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Adabiyotda otalar haqiqiy, hamda ramziy ma'noda tasvirlangan bo'lib, jamiyatdagi o'zgarishlarni va erkakning o'rni, usunligi, hamda oila haqidagi madaniy e'tiqodlarni aks ettiradi.

Otaning adabiyotdagi roli ko'pincha kuch, hokimiyat, axloq va qadriyatlarini avlodlarga etkazish kabi inson tajribasining asosiy jihatlari bilan bog'liq. Patriarxal jamiyatlarda otalar ko'pincha tartib-intizomning timsoli sifatida tasvirlanadi, barqarorlikni saqlaydigan ijtimoiy va oilaviy tuzilmalarni ifodalaydi. Shu bilan birga, adabiyot ko'pincha bu tasvirlarni shubha ostiga qo'yadi yoki buzib tashlaydi, nuqsonli, mavud bo'lmagan yoki ruhan uzoq ota obrazlari orqali otalikning murakkabligini ochib beradi.

Tadqiqot usullari. Adabiyotda ota obrazi haqidagi tadqiqotlar psixologiya, sotsiologiya, feminizm va madaniyatshunoslik kabi turli obyektlar orqali o'rganilgan. Olimlar ota siymosi qanday tasvirlangan, bu obraz jamiyatdagi o'zgarishlarni qanday aks ettirishi, uning adabiy asarlarda xarakter rivojlanishi va mavzulariga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Biz o'z ishimizda adabiyotdagi "ota" obrazini quyidagi yondashuvlar asosida o'rganishga qaror qildik:

Psixoanalitik yondashuv. Adabiyotdagi ota obrazini o'rganishning eng qadimgi va eng ta'sirli asoslaridan biri Zigmund Freyding Edip kompleksi haqidagi nazariyalaridan kelib chiqadi. Freyding fikriga ko'ra, ota ko'pincha hokimiyat va axloqiy tartibni ifodalaydi va o'g'ilning otani engish yoki almashtirish istagi takrorlanadigan motivdir. Freyding g'oyalari "Gamlet" (Shekspir) va "Shoh Edip" (Sofokl) kabi asarlarda ota-bola munosabatlarini o'rganish uchun ishlatilgan.

Jaklin Rouzning "Silviya Platning iztirobi" asari ota-qiz munosabatlarini shoirning ijodiga qanday ta'sir qilishini psixoanalitik obyekt orqali o'rganadi. Jamiyat qonuni va tartibini ifodalovchi Jak

Lakaning ramziy ota haqidagi nazariyasi adabiy tadqiqotlarda otalarning jamiyatdagi o'rni tahlil qilish uchun qo'llanilgan. J.Lakanian asarlari ko'pincha "Qirol Lir" kabi otalik obrazlari kuch, nazorat va o'ziga xoslik bilan bog'liq bo'lgan matnlarni sharhlash uchun ishlatiladi.

Feministik tanqidlar ota siymosiga xos bo'lgan patriarxal tuzilishga, xususan, otalar adabiyotdagi kuch dinamikasini qanday ifodalashga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar ko'pincha otaning roli erkak va ayol qahramonlariga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqadi va adabiyotdagi qizlar patriarxal hokimiyat ostida o'z shaxsiyatlarini qanday muhokama qilishlariga e'tibor beradi. Masalan, Adrien Richning ona-qiz munosabati haqidagi asari otaning yo'qligi yoki mavjudligi va uning roli badiiy asarlarda ayol o'zligiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi.

Yaqinda olib borilgan feministik tadqiqotlarda tajovuzkor erkaklik tushunchasi va uning ota siymosidagi timsoli o'rganilgan. Researchers examine how fatherhood is linked to expectations of male strength, emotional stoicism, and dominance, and how these traits affect family dynamics in literature. Tadqiqotchilar otalikning erkak kuchi, ruhiy stoizmga aloqadorligini va bu aloqadorlikning adabiyotda aks etishini o'rganishgan. Misol tariqasida Salli Robinsonning "Marked Men: Inqirozdagi oq erkaklik" asarida Amerika adabiyotida, ayniqsa Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda otalik va erkaklik tasvirlari muhokama qilinadi.

Madaniy va tarixiy yondashuv. Olimlar XX asr adabiyotida ota siymolari ko'pincha sifatida taqdim etilishini, urush, sanoatlashtirish va an'anaviy oila tuzilmalarining buzilishi kabi ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettirganini ko'rib chiqadilar. Modernistik matnlarda ko'pincha otalar begona yoki umidsizlikka uchragan, masalan, Jeyms Joys va Frans Kafka asarlarida tasvirlangan. Mark Andersonning "Kafkaning otasi: matnning o'qish, otani o'rganish" asari Kafkaning otasi bilan munosabatlarining ramziy og'irligini va uning adabiy asarlariga, xususan, "Evrilish"ga qanday kirib borishini o'rganadi.

Postkolonial yondashuv. Adabiyotdagi ota siymosini zamonaviy mustamlakachilik va patriarxal hokimiyatning kesishishi nuqtayi nazardan ko'rib chiqadi. Otalar ko'pincha mustamlakachi kuchlarni ramziy timsoli bo'lib, o'g'illarning (yoki qizlarning) isyoni esa mustaqillik va o'zini o'zi anglash istagini ifodalaydi. Chinua Achebening "Narsalar parchalanib ketdi" asarida ota obrazii Okonkvo mustamlakachi kuchlar tomonidan e'tiroz bildirilayotgan an'anaviy afrikalik erkaklikni o'zida mujassam etgan. Tadqiqotlar otaning hokimiyati mustamlakachilik tazyiqlari ostida qanday pasayganini o'rganadi.

Falsafiy va axloqiy yondashuvlar. Ba'zi adabiyotshunoslar ota figurasi ekzistensialistik (mavjudlik qarashi: bu ma'nosiz dunyoda har bir inson ozod va o'z ishlariga javobgar degan qarash tarafdori) nuqtai nazardan o'rganib, erkinlik, mas'uliyat va haqiqiylik mavzulariga e'tibor berishadi. Ekzistensial adabiyotdagi ota obrazlari ko'pincha qahramonning avtonomiyasini cheklaydigan zolim kuchlarni ifodalaydi. Fyodor Dostoevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" asari ko'plab falsafiy tadqiqotlar mavzusi bo'lib, olimlar ota-bola munosabatlari atrofidagi axloqiy va ekzistensial inqirozlariga e'tibor qaratishgan.

Xitoy va yapon adabiyotida otalikni o'rganishda Konfutsiyning farzandlik taqvisi va otaning axloqiy ustoz sifatidagi roli ko'pincha ta'kidlanadi. Olimlar ushbu madaniy meyorlar burch, sharaf va qurbonlik haqidagi hikoyalarga qanday ta'sir qilishini o'rganadilar. Konfutsiy qadriyatlar Ba Jinning "Oila" kabi matnlarida o'rganilgan bo'lib, u hokimiyati yosh avlodlar tomonidan hurmat qilinadigan va e'tiroz bildiradigan ota siymosini taqdim etadi.

Munozaralar va tahlillar. Jahon adabiyotida ota obrazii madaniy, psixologik, axloqiy jihatlarni o'zida aks ettiruvchi ko'p jihatlarda taqdim etilgan. Otalar ko'pincha hokimiyat, donolik, yo'l-yo'riq, qurbonlik yoki ba'zi hollarda beparvolik va ziddiyatni anglatadi. Bu tasvir madaniy va adabiy sharhga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Biz jahon adabiyotida turli obyektivlar orqali ota siymosini tahlil qildik:

1. Ota hokimiyat va axloqiy rahbar sifatida. Ko'pgina adabiy asarlarda ota qahramonni hayot qiyinchiliklariga yo'naltiruvchi axloqiy kompas sifatida tasvirlangan. Bu raqamlar ko'pincha obro'li bo'lib, jamiyat va oilaviy umidlarni ifodalaydi. Atticus Finch "Masxara qushini o'ldirish" (Harper Li) zamonaviy adabiyotdagi eng mashhur ota obrazlaridan biridir. U adolat idealini o'zida mujassam etgan axloqiy to'g'rilik, mehr-oqibat va mardlik timsoli. Qirol Lir "Qirol Lir"da (SHekspir) hokimiyat va qulashning murakkab obrazini taqdim etadi, bu erda uning qizlariga noto'g'ri ishonchi fojiga olib keladi. Uning sayohati patriarxal hokimiyatning zaifligini aks ettiradi.

2. Ota himoyachi va ta'minotchi sifatida. An'anaga ko'ra, ota ko'pincha oilaning ta'minlovchisi va himoyachisi sifatida tasvirlangan, ularni tashqi xavflardan himoya qiladi va ularning farovonligini qo'llab-quvvatlaydi. Odissey "Odissey" (Gomer) dagi o'g'li Telemax bilan uchrashish va o'z oilasini tiklash uchun ko'p yillik qiyinchiliklarni boshdan kechirgan qaytib kelgan ota siymosini ifodalaydi. Uning sayohati ham jismoniy, ham metafora bo'lib, otalik sinovlarini ifodalaydi. "Garri Potter" seriyasidagi Artur Uizli (J.K.

Rouling) moliyaviy qiyinchiliklarga qaramay, otalikning tarbiyalovchi va himoya qiluvchi tomonlarini ko'rsatib, Uizli bolalariga mehribon va qo'llab-quvvatlovchi ota sifatida tasvirlangan.

3. Ota ixtilof timsoli sifatida. Ba'zi asarlarda ota qarama-qarshilik manbai bo'lib, avlodlar yoki mafkuraviy to'qnashuvlarni o'zida mujassam etgan, ko'pincha qahramonning o'sishiga yoki isyoniga olib keladi. Gregor Samsaning "Evrilish" (Frans Kafka) filmidagi otasi avtoritar (qonun va buyruqlarga so'zsiz itoat qiladigan) va hissiy jihatdan uzoq, Gregor bilan munosabatlari Gregorning o'zgarishidan keyin yomonlashadi. Otaning rad etishi va shafqatsizligi jamiyatdagi bosim va hissiy begonalashuvni anglatadi.

4. Qurbonlik ramzi sifatida ota. Otaning fidoyi shaxs sifatidagi roli ko'plab adabiy an'analarda kuchli tasvirdir. Otalar ko'pincha farzandlari uchun o'zlarining xohish-istaklarini, qulayliklarini yoki hatto hayotlarini qurbon qiladilar. Jan Valjan "Bechoralar" filmida (Viktor Gyugo) Kozetta uchun ota siymosi bo'lib, unga yaxshi kelajakni ta'minlash uchun shaxsiy baxt va xavfsizligini qurbon qiladi. Uning fidoyiligi otalik sevgisining o'zgartiruvchi kuchini ifodalaydi.

"Rojdestvo Kerol" filmidagi Bob Kratchit (Charlz Dikkens) sabr-toqat va fidoyilik ramzi bo'lib, oilasini, ayniqsa nogiron o'g'li Tini Timni boqish uchun og'ir sharoitlarda tinimsiz mehnat qiladi.

5. Otaning badiiy asardagi roli: asosiy yoki ikkinchi darajadagi obraz sifatida. Ba'zi rivoyatlarda ota deyarli ko'rinmaydi yoki muallif nazaridan chetda qoladi, ko'pincha qahramonni o'z holiga tashlab qo'yadi. Bu holat qahramonning hayoti va dunyoqarashini shakllantirishda muhim element bo'lib xizmat qilishi mumkin. Jeyms Tayron "Kunga bo'lgan uzun sayohat" (Yujin O'Nil) - pulga bo'lgan ishtiyoqi va oilasiga beparvolik bolalariga chuqur hissiy ta'sir ko'rsatadigan hissiy jihatdan uzoq otadir.

Xulosa. Ushbu tadqiqot turli an'analar va madaniyatlarda otalikni tasvirlashning turli usullarini ta'kidlaydi. Qahramon otalarning epik ertaklaridan tortib, qarama-qarshi otalik shaxslarining zamonaviy hikoyalargacha, otalarning adabiy tasvirlari o'zgaruvchan ijtimoiy meyorlar, gender rollari va oila dinamikasiga javoban rivojlandi. Klassik adabiyotda otalar ko'pincha barqarorlik, axloqiy yo'l-yo'riq va davomiylikni ifodalaydi. Masalan, Gomerning "Odissey" yoki Virgiliyning "Eneyda"si. Biroq zamonaviy adabiyot bu arxetiplarni sintezlashtirib, otalarni jamiyatning umidlari, shaxsiy munosabatlari bilan kurashayotgan murakkab personajlar sifatida tasvirlaydi. Artur Millerning "Sotuvchining o'limi" yoki Filipp Rotning "Patrimoniya" kabi asarlari zamonaviy dunyoda ota bo'lish nimani anglatishini ta'kidlab, an'anaviy otalik ideallariga qarshi chiqadi.

Jahon adabiyotidagi otalarning rang-barang va murakkab obrazlarini o'rganib, bu tadqiqot nafaqat otalikni adabiy va madaniy tuzilma sifatida chuqurroq anglash, balki erkakning oila va jamiyatdagi o'rni va roli haqida ham ma'lumot beradi. Ota figurasi, shubhasiz, adabiyotning markaziy mavzusi bo'lib qoladi va biz individual o'ziga xoslikni va kengroq ijtimoiy o'zgarishlarni o'rganishimiz mumkin bo'lgan obyektivni taklif qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Boshkova, G., Shastina, E., Shatunova, O. Bolaning shaxsini shakllantirishda bobo va buvilarning roli (bolalar adabiyoti materiali bo'yicha). Ijtimoiy fanlar bo'yicha ta'lim tadqiqotlari jurnali, 9 (2), 2018. 283-294 p.
2. Brownell, C., Rashid, A. Devor o'rniga ko'priklar qurish: Yosh bolalarni ovoz chiqarib o'qishni tanqidiy savodxonlikka jalb qilish. Kurikulum tadqiqotlari jurnali, 2(1), 2020. 76-94 b.
3. Jonson, D. J. Otaning mavjudligi muhim: Adabiyotlarni ko'rib chiqish. 1996 yil.
4. Makkey, B. Otalarning ahamiyati (fanga ko'ra). 2018 yil
5. Randal, D. D., Ueyd, C. M. Amerikalik otaning roli: OAV afsonasini tekshirish. Qiyosiy oila tadqiqotlari jurnali, 17 (3), 1986. 371-388 p.
6. Raxmanova, V. K. Iteraturada otalik va otalarga munosabatning birinchi tajribasi. Psixologik fan va ta'lim, 4, 2008. 48-56 b.
7. Shastina, E., Jentgens, S., Shatunova, O., Borisov, A., Bojkova, G. Maktabgacha va boshlang'ich maktab o'quvchilarini zamonaviy ta'limda adabiy pedagogikaning o'rni. Kosmos va madaniyat, Hindiston, 8(1), 2020. 234-243 p.



Iskandar SATTIBAYEV,
Andijon shahar 1- ixtisoslashgan maktab o'qituvchisi
E-mail: muallim.media@gmail.com

DSc, professor B.Qurbonova taqrizi asosida

SHE'RIY ASAR TARJIMASIDA DISKURSIV REKONSTRUKSIYA MUAMMOSI

Annotatsiya

Diskurs tushunchasini muallif hamda o'quvchi o'rtasidagi muloqot jarayoni o'laroq talqin qilinganda, she'riy asar vositasida yuzaga keluvchi diskursning naqadar xassos hodisa ekanligini anglash mumkin. Shunday ekan, she'riy asarni aslyatdan tarjima tiliga o'girishda ham muallif zimmasiga ushbu diskursni to'laqonli qayta tiklash vazifasi yuklanadi. Maqolada diskurs, diskurs rekonstruksiya masalalari muhokama qilingan bo'lib, ushbu tushunchalar mashhur tarjimalarni tahlil qilish orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: Diskurs, rekonstruksiya, diskurs rekonstruksiya, she'riya, she'riy asar, tarjima.

THE ISSUE OF DISCURSIVE RECONSTRUCTION IN POETIC TRANSLATION

Annotation

When the concept of discourse is interpreted as a process of dialogue between the author and the reader, it becomes clear how sensitive the discourse emerging from a poetic work can be. Therefore, in translating a poetic work from the original into another language, the translator is tasked with fully reconstructing this discourse. The article discusses issues of discourse and discourse reconstruction, with these concepts illuminated through an analysis of famous translations.

Key words: Discourse, reconstruction, discourse reconstruction, poetics, poetic work, translation.

ПРОБЛЕМА ДИСКУРСИВНОЙ РЕКОНСТРУКЦИИ В ПЕРЕВОДЕ ПОЭТИЧЕСКОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Аннотация

При интерпретации концепции дискурса как процесса диалога между автором и читателем становится понятно, насколько чувствительным может быть дискурс, возникающий в поэтическом произведении. Поэтому при переводе поэтического произведения с оригинала на другой язык на переводчика возлагается задача полной реконструкции данного дискурса. В статье обсуждаются вопросы дискурса и реконструкции дискурса, причем эти концепции освещаются через анализ известных переводов.

Ключевые слова: Дискурс, реконструкция, реконструкция дискурса, поэтика, поэтическое произведение, перевод.

Kirish. She'riy asarning talqini va unung tarjimasi o'zaro bog'liq unsurlar ekanligini e'tiborga olsak, ularning muayyan she'riy asarga oid diskursdagi ahamiyatini aniq ilg'ab olish mumkin. Yaxshi ma'lumki, shoir she'riy asar yaratish asnosida o'zida mavjud bo'lgan his-tuyg'ular, fikrlar, tushunchalar va kechinmalarni til vositalari yordamida kodlaydi, va uni she'riy matn shakliga keltiradi. Shu o'rinda shoirning o'z his-tuyg'u va kechinmalarini til vositalari orqali izhor qilishini diskursning boshlanish nuqtasi deb hisoblash mumkin, zero bunda ijodkor hali moddiy shaklga ega bo'lmagan unurni o'ziga xos talqin orqali moddiy – ya'ni yozma/og'zaki shaklga o'tkazadi.

Mazkur jarayonning mantiqiy davomi o'laroq shoir qalamiga mansub asarni tarjima qilishga bel bog'lagan tarjimon ham ushbu diskursga kirishadi. Tarjimon she'ning aslyatini o'qib, undagi barcha badiiy uslublar, so'zlarning shoir nazarda tutgan ma'nolari hamda grammatik tuzilmalarning ekstralingvistik xususiyatlarini to'g'ri ilg'ashi talab etiladi. Aks holda, tarjimon she'ning aslyatini tarjima tilida to'laqonli qayta tiklash imkoniyatini yo'qotadi.

Nazmiy asarni aslyatidagi daqiq xususiyatlarigacha anglay olgan tarjimon endi diskursni keying bosqichga ko'taradi. YA'ni, endi u o'z talqinida anglagan matnini tarjima tili vositasida qayta kodlashga kirishadi. Agar tarjimon tarjima tilida kodlash jarayonini to'g'ri amalga oshira olsa, u aslyat tilidagi diskursni to'liq qayta tiklagan hisoblanadi, chunki sherning tarjima tilidagi shakli ham uning aslyat holatidagi jozibasini saqlab qolgan bo'ladi.

Yuqorida tasvirlangan diskurs risoladagiday kechuvchi tarjima jarayoniga oid bo'lib, amaliyotda aslyat tilidagi badiiy diskursni tarjima tiliga to'laqonli o'tkazish ko'p qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Tabiiyki bunga nafaqat lingvistik, balki madaniy, tarixiy, jo'g'rofiy va boshqa omillar sabab bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, diskursiv rekonstruksiya she'riy asarlar tarjimasida juda muhim ahamiyat kasb etuvchi bosqich sifatida ko'riladi.

Matn har qanday talqinning moddiy asosidir, chunki aynan matnda muallifning g'oyasini eng to'g'ri ochib berishga yordam beruvchi barcha signallar mavjud[2]. Shu bilan birga, tarjima qilinadigan matndagi ishoralar ochiq oydin yoki yashirin tarzda ifodalanishi ham mumkin. Shuning uchun matnning o'ziga xos ma'nolarini ochib berishga xizmat qiluvchi vaziyatlarni ham yaxshi

tushunmoq kerak. Boshqacha qilib aytganda, to'laqonli tarjima uchun diskursiv rekonstruksiya muhimdir. Diskursiv rekonstruksiya bu tilga oid jarayon bo'lib, unda vaziyat kontekstini tiklash amalga oshiriladi. Bu jarayon "germenevtik doira" orqali harakatni o'z ichiga oladi, ya'ni biz matnning uning konteksti orqali tushunamiz va aksincha. Natijada, bu jarayon diskursni yaratadi, bu esa chet tilidagi matnning to'g'ri talqin qilishga yordam beradi. U o'z ichiga zamon, makon, voqea va qatnashuvchilarga oid kontekstlarni oladi[3]. Diskursiv rekonstruksiyaning ushbu ta'rifidan kelib chiqadigan bo'lsak, u she'riy asarni to'g'ri tarjima qilish uchun u yaratilgan kontekstni, hamda ushbu matn yaratilgan kontekstni tushunish uchun undagi lisoniy unsurlarni yaxshi tushunishni taqozo qiladi. Bu esa, diskursiv rekonstruksiya o'z ichiga tildan tashqarida bo'lgan hodisalarni ham olishini anglatadi.

Nazmiy tarjimaning nasriy tarjimaga nisbatan murakkabliklarini hisobga olganda, undagi diskursiv rekonstruksiyaning to'laqonli amalga oshirish amri maholday ko'rinishi mumkin. Biroq, agar quyidagi omillarni e'tiborga oladigan bo'lsak, masalaga bir oz bo'lsa-da oydinlik kiradi. Tarjimon uchun faqat chet tilini bilish yetarli emas. Muvaffaqiyatli tarjima uchun majburiy shart sifatida tarjima qilinayotgan mamlakatning madaniyati, siyosati, iqtisodiyoti haqida bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi, chunki matnning tushunish matnini tashkil etuvchi gaplardan, jumalardan, so'zlardan iborat bo'lgan ma'nolar yig'indisi bilan cheklanmaydi. Bu har qanday, hatto dastlab oddiy ko'ringan matnga ham tegishlidir.

Demak, bir matnning aslyat tilidan tarjima tiliga muvaffaqiyat bilan o'tkazish uchun faqatgina tilga oid bilimlar emas, balki diskursiv rekonstruksiya ham talab etiladi.

Misol tariqasida o'tgan asr boshlarida A. Avloniyning I. Krilov masallarini ruschadan o'zbekchaga qilgan she'riy tarjimasiga to'xtalajak.

Krilovning "Lebed, Shuka i Rak", "Lisa i Kozyol", "Martishka i ochki", "Proxojiye i Sobaki" kabi mashhur masallari tarjima qilinarkan, Avloniyning o'z ta'biri bilan aytganda "ularni eng oson usul ila", "ochuq til va oson tarkib ila" taqdim etish niyati yo'lidagi harakat ekanligini tushunasiz. E'tiborli jihati shundaki, tarjimon originaldagi "Lebed" ya'ni Oqqushni "O'rdak" deb, "Rak"ni "Qisqichbaqa" deb emas, "Toshbaqa" deya ijodiy o'zgartirib taqdim

etadi. Buning sababi shundaki, o'zbek bolalari dengiz hududlarida yashamagani uchun qisqichbaqa va oqqushning qanday jonzot ekanligini bilmasliklari mumkin edi. Avloniy "oson usul ila" deganda huddi shuni nazarda tutib, rus muallifi asarlarini o'zbek bolalariga mo'ljallab to'liq qayta ishlaydi. Asarga ma'lum maqsad yuzasidan ijodiy erkin murojaat qilganligi uchun uning nomini muvofiq ravishda o'zgartiradi[1].

Avloniy amalga oshirgan she'riy tarjimalarga munosabat bildirar ekanmiz, shuni ta'kidlashimiz lozimki, bu tarjima namunalarning nomlanishidanoq o'zbekchada rus muallifi boshlab bergan diskurs jarayonining aks etmaganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, agar Avloniy masallar aslyatiga nisbatan bunalchalik radikal o'zgarishlarga yo'l qo'yganligining sababi – oddiy kitobxon, ayniqsa maktab yoshidagi bolalarga asarlarning tushunarli bo'lishi asosiy mezon sifatida olinganligi ekanligini hisobga olsak, bu "diskursiv dekonstruksiya"ning sababi tarjimonning no'noqligi emasligini ko'rishimiz mumkin.

XX asr birinchi yarmida o'zbek tiliga qilingan she'riy tarjimalarning eng yorqin namunalaridan yana biri bu A. Pushkinning "Yevgeniy Onegin" nazmiy romanining mashhur o'zbek adibi Oybek tomonidan qilingan tarjimasidir.

Ushbu asarning tarjima jarayoni haqida yozar ekan, Oybek she'riy asarlarining tarjimasini uchun eng maqbul usul erkin tarjima ekanligini ta'kidlaydi. Chunki tarjimon kichik lirik she'rni uqib, shoir g'oyasini, u aytmoqchi bo'lgan fikrini o'zicha o'zlashtirib oladi, bu she'rning badiiy hususiyatlarini yaxshi o'rganadi. So'ngra shu shoirming g'oyasini, obrazlarini erkin ravishda o'z tarjimasida qayta tiklaydi. Boshqacha qilib aytganda, she'r muallifi boshlab bergan diskursni tarjimon davom ettirib, uni tarjima tilida rekonstruksiya qiladi. Lekin "Yevgeniy Onegin"dek romanni erkin tarjima qilish qiyin[5].

Romanda turli voqealar tasvirlanadi, turli-tuman qahramonlar yuradi, sharoit tasvirlari, manzaralar beriladi. "Yevgeniy Onegin"ning hammasini o'qib chiqib, yangidan she'riy romanni yaratish to'g'ri bo'lmaydi. Chunki asardagi har bir detal ma'lum bir ma'noga ega. Shuning uchun ham bu o'rinda, menimcha, erkin tarjima yo'lidan bormay, mumkin qadar original ruhini to'la saqlashga intilib, asarni adekvat tarjima qilish kerak bo'ladi. Bunday tarjima metodi Pushkin romanining ruhi va ma'nosini buzmaslik imkonini beradi.

Adibning e'tirofidan shu narsa aniq ko'rinib turibdiki, aynan diskursni tarjima tilida to'g'ri rekonstruksiya qilish ehtiyoji eng murakkab vazifalardan birini osonroq usulda emas, balki tillararo muqolotni eng to'laqonli ta'minlab bera oluvchi murakkabroq yo'l bilan amalga oshirishga undagan.

Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romanini XX asr o'rtalarida ingliz tiliga tarjima qilgan mashhur adib va tarjimon V. Nabokov ushbu jarayon haqida "Problems of translation: Onegin in English" – "Tarjimadagi muammolar: Onegin ingliz tilida" deb

nomlangan maqola yozadi. Ushbu maqolasida Nabokov asl matnning daqiq jihatlarigacha ingliz tilida qayta tiklash (diskursiv rekonstruksiya) haqida quyidagilarni ta'kidlaydi:

Adabiyot durdonasi hisoblangan asarni boshqa bir tilga tarjima qilishni xohlagan kishi faqat bitta vazifani bajarishi kerak, bu esa butun matnni va faqat matnni mutlaqo aniq qayta yaratishdir (diskursiv rekonstruksiya). "So'zma-so'z tarjima" dan boshqa narsa haqiqiy tarjima emas, balki taqlid, moslashtirish yoki parodiya hisoblanadi.

Masala shundaki, bu o'rinda tarjimon qofiya orqali ohangdorlikni yoki asardagi mazmuni yetkazib berish o'rtasida tanlashga majbur: tarjima aslyatdagi matnni va faqatgina uni mutlaqo sadoqat bilan qayta yaratishi mumkinmi va jarayonda asl nusxaning shakli, ohangi va qofiyalarini saqlab qolishi mumkinmi? Sa'nat asari (bu o'rinda she'riy asar) o'zining bo'lg'usi tarjimoniga shakl va mazmunning bir-biridan ajralgan ko'rinishda namoyon bo'lishi o'z ona tilida ijod qilib, shakl va mavmuni yaxlid nirlilik sifatida ko'ruvchi ijodkorni hayratga solishi mumkin va bu holat ushbu ikki unsirdan biri tarjima tiliga o'tkazilib, boshqasi e'tibordan chetda qoldirilishi ehtimolini yaratadi. Bunday vaziyatda she'riy asarning aslyatdagi lisoniy xususiyatlari undan shilib olinadi va uning tarkibiy qismlari ajratib olinib, ilmiy nuqta nazardan diqqat bilan o'rganiladi[6].

Nabokov o'zining davrida "Yevgeniy Onegin" nazmiy romanining ingliz tiliga qilingan 4 xil tarjimasini mavjudligi, biroq ushbu tarjimalarning birortasi qoniqarli darajada emasligini tanqid qiladi. Bunga asosiy sabab o'laroq esa, tarjimonlarning rus millati va Rossiya hayoti va turmush tarsi bilan yaqindan tanish emasligi deb ta'kidlaydi. Navokovning aq'tiyat bilan ta'kidlashicha, "Yevgeniy Onegin"ni ingliz tiliga qofiyali qilib tarjima qilish mumkin emas. Qolaversa, undagi rus hayoti va turmush tarziga xos bo'lgan tushunchalarni qanchalik ko'p sonli bo'lmasin, kerakli izohlar bilan birgalikda taqdim etish shart[6].

Ayni asarning ikkita adib va ikki xil tilga tarjima qilish jarayoni tahlilidan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, bunday murakkab topshiriq uchun bir tomonlama, oddiy yechim topish imkonsiz. Oybek o'z tarjimasida adekvatlikka intilib, iloji boricha qofiya va ohangdoshlikni saqlashgan intilsa, Nabokov, aksincha, bu asarni qofiyali tarjima qilish imkonsiz, degan xulosaga kelmoqda. Masalaning bunday mohiyat kasb etishi diskursiv rekonstruksiyaning chindan-da muhim va murakkab tarjima unsuri ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni qat'iyat bilan ta'kidlash mumkinki, nazmiy asarning tarjimasini jarayonida uning tuzilishini oldindan belgilangan qat'iy formula yoki qonun-qoidalar asosida amalga oshirish mumkin emas. Zero, agar nasriy asarni badiiy ijod namunasi hamda fikrlar parvozinin mahsuli deb hisoblasak, nazmiy asarning yaratilishi bundan-da xassos jarayon hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/shuhrat-rizaev-yangi-davr-tarjimachiligimiz-kashshofi/> "Жаҳон адабиёти", 2013 йил, 7-сон.
2. Калиш Е.Е. Лингвотеоретические предпосылки понятия реконструкция дискурса // Вестник Иркутского государственного лингвистического университета. – 2010. – №. 4 (12). – С. 18-27
3. Калиш Е.Е. Реконструкция дискурса в целях перевода. Теоретические проблемы. Монография. - Иркутск 2018. – С. 18
4. Кухаренко В.А. Практикум по интерпретации текста: Учебное Пособие. – Просвещению 1987. – С. 4
5. Oybek. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. XVIII jild. – Toshkent. 1981. – B. 13.
6. Nabokov V. Problems of translation: Onegin in English. The translation studies reader. Edited by Lawrence Venuti. Fourth edition. – Routledge. 2021. – P. 148-149
7. Venuti L. The translator's invisibility // Criticism. – 1986. – T. 28. – №. 2. – P. 179-212.



Sevara SULEYMANOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi
E-mail: sevara@mail.ru

DSc, professor Sh.Botirova taqrizi asosida

ПРИРОДА ЖАНРА РАССКАЗА И ЕГО ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ МОДУС

Аннотация

В данной статье рассмотрены природа жанра рассказа, его исторические корни и модусы художественности. Рассказ как краткий, но содержательный жанр ярко отражает внутренние переживания человека и социальные проблемы. Анализируются драматизм сюжета, психология персонажей, роль языковых средств, а также эстетические особенности жанра. Освещены возможности влияния на мировоззрение читателя через лаконичное выражение глубокого содержания.

Ключевые слова: Рассказ, модус художественности, краткий сюжет, символы, эстетическое воздействие, исторические корни, природа жанра.

THE NATURE OF THE SHORT STORY GENRE AND ITS ARTISTIC MODALITY

Annotation

This article explores the nature of the short story genre, its historical roots, and its artistic modality. As a concise yet rich genre, the short story vividly conveys human emotions and societal issues. The study analyzes dramatic plotlines, character psychology, the importance of linguistic tools, and the aesthetic characteristics of the genre. Additionally, it highlights the potential to influence readers' perspectives through the compact yet profound expression of meaning.

Key words: Short story, artistic modality, concise plot, symbols, aesthetic impact, historical roots, genre nature.

QISSA JANRI TABIATI VA UNING BADIYYLIK MODUSI

Аннотация

Ushbu maqolada qissa janri tabiati, uning tarixiy ildizlari va badiyylik modusi ko'rib chiqilgan. Qisqa hajmli, lekin mazmunan boy janr sifatida qissa insonning ichki kechinmalari va ijtimoiy muammolarni ta'sirchan tarzda yoritadi. Maqolada qisqa va dramatik syujetlar, qahramonlar psixologiyasi, til vositalarining ahamiyati hamda janrning estetik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, qisqa hajmda keng mazmunni ifodalash orqali o'quvchi dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qissa, badiyylik modusi, qisqa syujet, ramzlar, estetik ta'sir, tarixiy ildizlar, janr tabiati.

Kirish. Adabiyot inson tafakkuri, tuyg'ulari va madaniyatining ifodasi sifatida, jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida alohida o'rin tutadi. Unda insonning ruhiy olami, hayotiy voqealar va ijtimoiy muammolar badiiy shaklda aks etadi. Qissa janri esa adabiyotning muhim turlaridan biri bo'lib, unda muxtasarlik va ta'sirchanlik birlashib, o'quvchiga katta ruhiy ta'sir o'tkazish imkonini beradi.

Qissa janri nafaqat voqea va hodisalarni hikoya qilish, balki insonning ichki dunyosi, uning his-tuyg'ulari va falsafiy qarashlarini chuqur aks ettirishga qaratilgan. Bu janrning tarixiy ildizlari xalq og'zaki ijodiyotiga borib taqaladi, undagi o'ziga xoslik esa adabiyotdagi boshqa janrlardan ajratib turadi.

Hozirgi kun adabiy jarayonida ham qissa janri ahamiyati kamaymagan, aksincha, turli davr va xalqlar adabiyotida uning yangi shakl va yo'nalishlari rivojlanmoqda. Ushbu maqolada qissa janri tabiati, uning estetik xususiyatlari va badiyylik modusi tahlil qilinadi. Bu orqali janrning adabiyotda tutgan o'rni va ahamiyatini yanada chuqurroq tushunish maqsad qilingan.

Adabiyotning turli janrlari orasida qissa o'ziga xos o'rin tutib, o'quvchining hissiyotlari va fikrlash dunyosiga ta'sir etuvchi kuchli vosita hisoblanadi. Qissa janri nafaqat badiiy asar sifatida, balki ma'naviy, axloqiy va falsafiy g'oyalarni yoritishning samarali shakli sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Unda insonning ichki dunyosi, hayotiy tajribasi va jamiyatdagi mavqei muxtasar va ta'sirchan tarzda aks ettiriladi.

Qissa janri tarixi xalq og'zaki ijodiyotiga borib taqaladi, bu esa uning ijtimoiy-tarixiy ildizlarini ko'rsatadi. Har bir xalqning madaniy va tarixiy an'analarda qissa janri muayyan o'rin tutib, zamon o'tishi bilan turli shakllar va mazmunlar orqali rivojlanib borgan. Bugungi kun adabiyotida ham qissa o'zining universal xususiyatlari tufayli dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Ushbu maqolada qissa janri tabiati, uning estetik xususiyatlari va badiyylik modusi tahlil qilinadi. Shuningdek, qissaning adabiy jarayondagi o'rni va uning o'quvchiga ruhiy va ma'naviy ta'siri xususida fikr yuritiladi. Maqolaning asosiy maqsadi — qissaning badiyylik xususiyatlarini chuqurroq ochib berish orqali uning janr sifatidagi mohiyatini tushunishga yordam berishdir.

Qissa janri ildizlari xalq og'zaki ijodiyotiga borib taqaladi, u insonning ijtimoiy va ma'naviy tajribasini saqlash, uzatish vositasi sifatida paydo bo'lgan. Xalq og'zaki ijodiyotidagi afsona, doston, hikoya va latifalar qissaning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Turli xalqlarda u turlicha ko'rinish va xususiyatlarga ega bo'lsa-da, uning umumiy mazmuni — hayotiy voqealarni muxtasar, ramziy va ta'sirchan shaklda bayon qilish orqali axloqiy va ma'naviy qadriyatlarini yoritishdan iborat bo'lgan.

Islom olamida qissa janri rivojlanishi Qur'oni Karimdag i qissalar va islom ulamolarning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga qaratilgan asarlari bilan bog'liq. Qur'onning o'zida turli payg'ambarlar va ularning hayot yo'liga oid qissalar bor, ular islomiy qissa janri asosiy ilhom manbai bo'lgan. Bular insonlarning axloqiy qadriyatlarini, sabr, taqvo va hayot haqiqatlari haqida mulohaza yuritishga undagan.

Sharq adabiyotida qissa janri alohida o'rin tutib, mashhur allomalar va shoirlar ijodida rivojlangan. Xususan, Alisher Navoiyning "Xamsa"sidagi qissa shaklidagi hikoyalar insonning axloqiy jihatlari ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asaridagi muxtasar voqealar va falsafiy mulohazalar qissaning badiiy xususiyatlari bilan hamohangdir.

O'zbek xalq og'zaki ijodiyotida qissa janri latifalar, xalq dostonlari va hikoyalarda keng namoyon bo'lgan. Masalan, "Alpomish" dostonidagi voqealar muxtasarlik va dramatism jihatidan qissa janriga xos xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodida sodda, lekin mazmunli hikoyalar orqali kishilarga axloqiy saboq berish an'anasi mavjud bo'lgan.

Zamonaviy adabiyotda qissa janri modern va postmodern elementlari bilan boyitilib, yangi mavzular va g'oyalarni qamrab olmoqda. Insonning shaxsiy tajribasi, ichki kechinmalari va zamonaviy jamiyat muammolari qissa janri namoyon shakllarida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston yozuvchilari ijodida qissaning milliy an'analari va zamonaviy estetika bilan uyg'unlashgan ko'rinishlari kuzatiladi.

Qissa janri tarixiy ildizlari juda qadimiy bo'lib, u inson tafakkuri va tuyg'ulari taraqqiyotining muhim bosqichlarini aks ettiradi. Xalq og'zaki ijodiyoti, islomiy madaniyat va o'rta asrlar

adabiyotida shakllangan bu janr o'zining ahamiyatini hech qachon yo'qotmagan. Zamonaviy davrda esa qissa yangi shakl va mazmun bilan boyib, adabiyotning universal janri sifatida rivojlanmoqda.

Qissa janri o'zining mazmun-mohiyati, shakl va g'oyaviy xususiyatlari bilan adabiy janrlar orasida alohida o'rin tutadi. Unda muxtasarlik, ta'sirchanlik va ramziy ma'nolar o'ziga xos uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Qissa inson hayotining turli qirralarini, ichki kechinmalarini va ijtimoiy muammolarini muxtasar shaklda ifoda etadi. Janrning tabiati quyidagi asosiy jihatlarda namoyon bo'ladi:

Qissa janrida voqealar qisqa, lekin to'liq mazmunli shaklda ifodalanadi. Syujetda ortiqcha tafsilotlardan voz kechilib, asosiy g'oya yoki tuyg'u markaziy o'rin tutadi. Muxtasarlik qissaning ta'sirchanligini oshirib, o'quvchini hayratda qoldirishga yordam beradi. Shu bilan birga, muxtasar hajm o'quvchiga badiiy asarning umumiy mazmunini tushunib olish imkonini beradi.

Qissa janrining muhim xususiyatlaridan biri qahramonlarning ichki dunyosini chuqur va ta'sirchan tarzda aks ettirishdir. Qissa qahramonlari ko'pincha hayotning chuqur muammolari, shaxsiy kechinmalar va ruhiy iztiroblar bilan to'qnashadi. Ularning ichki ziddiyatlari qissa syujetining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Qissa janrida ko'pincha voqealar va qahramonlarning harakatlari ortida simvolik ma'nolar yashirin bo'ladi. Qahramonning hayot yo'li yoki bitta voqea orqali kengroq ijtimoiy yoki ma'naviy mazmun ifodalani. Bu qissani nafaqat sodda hikoya, balki falsafiy yondoshuvni talab etuvchi asarga aylantiradi.

Qissada qahramonlar odatda ko'plab xarakter qirralariga ega emas, balki bitta yoki ikki muhim jihat bilan tavsiflanadi. Bu oddiygina xarakterlarning ta'sirchan bo'lishiga va ular orqali muhim g'oyalarni yetkazishga yordam beradi.

Qissa janrida syujet dinamikasi yuqori bo'lib, tez va aniq rivojlanadi. Voqealar shiddatli ritmda bo'lib o'tadi, bu esa o'quvchini qiziqitirib turishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, syujetda kutilmagan burilishlar va dramatik vaziyatlar ko'p uchraydi.

Qissa janri ko'pincha axloqiy, ma'naviy yoki ijtimoiy g'oyalarni yetkazishga qaratilgan. Unda inson hayotining ma'naviy qadriyatlarini, axloqiy prinsiplari va ijtimoiy burchlari ko'tariladi. Bu esa qissani nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy asar sifatida ham ahamiyatli qiladi.

Qissada hikoya qilish uslubi sodda, lekin ta'sirchan bo'lib, o'quvchiga voqealarni yaqindan his qilish imkonini beradi. Hikoyachi ovozi ko'pincha ohangli va samimiy bo'lib, o'quvchi bilan bevosita aloqa o'rnatadi.

Qissa janrining tabiati muxtasarlik, his-tuyg'ular ifodasi va ramziylik bilan ajralib turadi. U insonning ruhiy dunyosi va ijtimoiy voqeliklarning muxtasar ifodasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Qissaning asosiy xususiyati — uning oddiy, lekin ta'sirchan bo'lishida. Bu janr adabiyotda insonning ichki kechinmalari va hayotiy tajribalarini yetkazish uchun ajoyib vosita sifatida dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Qissa janridagi badiiylik modusi

Qissa janri adabiyotning ta'sirchan va serqirra janrlaridan biri bo'lib, unda badiiylik modusi o'ziga xos qirralarda namoyon bo'ladi. Badiiylik modusi — bu asardagi estetik ta'sirni ta'minlaydigan usullar va elementlar majmuasi bo'lib, qissaning mazmuni, shakli va o'quvchiga yetkazuvchi ta'sirini belgilaydi. Qissa janrida badiiylik modusi quyidagi jihatlarda ko'zga tashlanadi:

Qissa janrida til vositalari juda muxim o'rin tutadi. Mazmunni muxtasar ifodalash uchun sodda, biroq o'ta ta'sirchan til qo'llaniladi. Quyidagi til xususiyatlari badiiylik modusini oshiradi:

Simvollar va metaforalar: Qahramonlar harakatlari yoki voqealar ramziy ma'nolar bilan boyitiladi. Masalan, tabiat tasvirlari qahramonning ichki holatini aks ettirishi mumkin.

Tashbehtar va epitelar: Bular qissaning estetik va hissiy ta'sirini kuchaytiradi.

Qissaning badiiylik modusida qahramonlarning ichki kechinmalari markaziy o'rin tutadi. Ularning tuyg'u va his-tuyg'ularini chuqur ifoda etish uchun psixologik tahlil uslublari qo'llaniladi. Bunday yondashuv o'quvchiga qahramonning ruhiy holatini chuqur his qilish imkonini beradi.

Qissa janridagi badiiylik modusi, avvalo, syujetning dramatik jihatlari bilan bog'liq. Quyidagi elementlar bu jarayonni ta'minlaydi:

Kutilmagan burilishlar: Bu o'quvchining qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi.

Qisqa, biroq shiddatli vaziyatlar: Qissaning ta'sirchanligi uchun muhim.

Vaqt va makonni ifoda etish

Qissada vaqt va makon elementlari oddiy, lekin ahamiyatli tarzda aks etadi. Ular orqali voqealarning mazmuniy va estetik ta'siri kuchaytiradi:

Vaqtning muxtasarligi: Voqealar qisqa davr ichida, lekin chuqur dramaturgiya bilan aks ettiriladi.

Makonning ramziyligi: Qahramonning harakatlari va holatlarini aks ettiruvchi tabiat yoki muhit tasviri qissaning badiiy ta'sirini oshiradi.

Qissa janrining asosiy badiiy xususiyatlaridan biri uning g'oyaviy mazmunidir. Qissa orqali yozuvchi muayyan axloqiy, ma'naviy yoki ijtimoiy g'oyani o'quvchiga yetkazadi. Bu g'oya ko'pincha bevosita emas, balki ramziy va falsafiy mazmunda ifodalanadi.

Qissada tasviriy vositalar muxtasar bo'lsa-da, ta'sirchanligi bilan ajralib turadi:

Tabiat tasvirlari: Qahramonlarning ichki holatlarini ochishda muhim rol o'ynaydi.

Xarakter va vaziyat tasvirlari: Qisqa, lekin samarali tasvirlar orqali syujetning ahamiyatli nuqtalari o'quvchiga yetkaziladi.

Qissadagi badiiylik modusi ko'pincha uning mazmuniy universalligi bilan belgilanadi. Voqealar va qahramonlarning taqdiri muayyan bir jamiyat yoki davrga xos bo'lsa-da, ular orqali kengroq insoniy va ma'naviy masalalar yoritiladi.

Qissa janridagi badiiylik modusi uning muxtasarligi, ta'sirchan tili va chuqur g'oyaviy mazmunida namoyon bo'ladi. Unda insonning ichki dunyosi, tuyg'ulari va ijtimoiy hayot dramaturgiya bilan aks ettiriladi. Qissaning badiiylik modusi o'quvchiga nafaqat estetik zavq berish, balki uni fikrlashga, tuyg'ularini chuqur anglashga chorlaydi. Shu bois qissa janri adabiyotda ham estetik, ham ma'naviy ahamiyatga ega.

Xulosa. Qissa janri o'zining muxtasar, ta'sirchan va ko'pqirrali xususiyatlari bilan adabiyotning muhim va universal janrlaridan biri hisoblanadi. U xalq og'zaki ijodiyotidan tortib, zamonaviy adabiyotgacha turli bosqichlarda rivojlanib, inson tuyg'ulari va fikrlarini ifoda etishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ldi.

Qissa janrining tabiati uning muxtasarligi, qahramonlarning ichki dunyosi va voqealarning ramziyligi orqali o'z aksini topadi. Bu janr nafaqat voqealarni hikoya qilish, balki inson hayotining chuqur ma'naviy va axloqiy jihatlari ochib berishda alohida o'rin tutadi. Unda tilning ta'sirchanligi, dramaturgiya, vaqt va makonning uyg'unligi kabi badiiylik modusi elementlari orqali o'quvchini nafaqat o'ylashga, balki his qilishga chorlaydi.

Zamonaviy qissa janri o'zining tarixiy ildizlaridan ilhom olgan holda, yangi mavzular, uslublar va g'oyalarni qamrab olib, hozirgi jamiyat muammolarini o'ziga xos tarzda yoritmoqda. Shu bilan birga, qissa janri insonning ma'naviy olamini boyitish, estetik zavq bag'ishlash va ijtimoiy hayotni tushinishda muhim rol o'ynashda davom etmoqda.

Qissa janrining shiddatli rivoji uning adabiy jarayondagi ahamiyatini yanada oshirib, uning badiiy qudrati va estetik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu esa uni adabiyotdagi eng dolzarb va bardavom janrlardan biri sifatida saqlab qolishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Айни, А. "Қисса ва унинг бадий хусусиятлари".
2. Навоий, А. "Ҳамса".
3. Расулов, И. "Ўзбек адабиётида қисса жанрининг ўзига хослиги".
4. Тоғасев, М. "Бадийлик назарияси".



Malika TILAVOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: tilavovamalika005@gmail.com

DSc, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida

SCIENTIFIC AND THEORETICAL CONSIDERATIONS OF LEXICAL UNITS IN LINGUISTICS

Annotation

The main part of the world's languages is made up of lexical units used in a general and comprehensive sense. In the process of communication, lexical units with a limited usage environment include special words and phrases, that is, terms. Opinions about the conducted research on lexical units are based on lexicography and terminology. The study of lexical units related to education requires consideration of the opinions and views of linguists on terminology with lexicography. The scientific-theoretical views of Arbatsky and other linguists on lexical units are widely covered in this article.

Key words: Lexical unit, archaic words, historicisms, neologisms, synonyms, homonyms, antonyms, paronyms, single-meaning, ambiguous lexical units, word, term, L.V. Sherba, V.V. Vinogradov, X.Kasares, P.Filin, V. Doroshevskiy, O.S. Axmanova, D.N. Shmelev, Y.D. Apresyan, D.I. Arbatskiy.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ РАССМОТРЕНИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

Основную часть языков мира составляют лексические единицы, употребляемые в общем и всеобъемлющем смысле. В процессе общения к лексическим единицам с ограниченной средой употребления относятся специальные слова и словосочетания, то есть термины. Мнения о проведенном исследовании лексических единиц основаны на лексикографии и терминологии. Изучение лексических единиц, связанных с образованием, требует учета мнений и взглядов лингвистов на терминологию с помощью лексикографии. В статье широко освещены научно-теоретические взгляды Арбатского и других лингвистов на лексические единицы.

Ключевые слова: Лексическая единица, архаичные слова, историзмы, неологизмы, синонимы, омонимы, антонимы, паронимы, Л.В. Щерба, В.В. Виноградов, Х. Касарес.

TILSHUNOSLIKDA LEKSIK BIRLIKLARGA OID ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

Аннотация

Dunyo tillarining asosiy qismini umumiy va keng qamrovli ma'noda ishlatiladigan leksik birliklar tashkil qiladi. Muloqot jarayonida foydalanish muhiti cheklangan leksik birliklarga esa maxsus so'zlar va so'z birikmalari, ya'ni terminlar kiradi. Leksik birliklarga oid amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida fikr - mulohazalar leksikografiya va terminologiyaga zaminida vujudga keladi. Ta'limga oid leksik birliklarni tadqiq qilish leksikografiya bilan terminologiyaga oid tilshunos olimlarning fikr va qarashlarini ko'rib chiqishni talab qiladi. Seyger va Vyuster, L.V. Sherba, V.V. Vinogradov, D.I. Arbatskiy va boshqa tilshunos olimlarning leksik birliklarga oid ilmiy-nazariy qarashlari ushbu maqolada keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Leksik birlik, arxaik so'zlar, istorizmlar, neologizmlar, sinonimlar, omonimlar, antonimlar, paronimlar, bir ma'noli, ko'p ma'noli leksik birliklar, so'z, termin, L.V. SHERBA, V.V. Vinogradov, X.Kasares, P.Filin, V. Doroshevskiy, O.S. Axmanova, D.N. Shmelev, Y.D. Apresyan, D.I. Arbatskiy.

Kirish. Hozirgi davrda mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy, ilmiy-texnikaviy va ta'lim tizimlaridagi islohotlar tilning leksik qatlamiga kirib kelayotgan xalqaro leksik birlik (neologizmlarni o'zlashishini jadallashtirish). Bu jarayon kasb va soha egalarining o'z mutaxassisligiga oid leksik birliklarning asl mazmun-mohiyatiga oid yetarli bilimga ega bo'lishlarini talab etmoqda.

Dunyo tillarining asosiy qismini umumiy va keng qamrovli ma'noda ishlatiladigan leksik birliklar tashkil qiladi. Muloqot jarayonida foydalanish muhiti cheklangan leksik birliklarga esa maxsus so'zlar va so'z birikmalari, ya'ni terminlar kiradi. Ularning umumiy ishlatiladigan leksik birliklardan farqi shundaki, tibbiyot, texnika, arxitektura, qurilish, iqtisodiyot, siyosat, yurisprudentsiya, ta'lim - tarbiya va boshqa sohalarida mantiqiy ma'noni anglatish uchun xizmat qiladi. Masalan, gipotoniya (tibbiyot), sinch (qurilish), gipotenuza (matemataka), da'vogar (yurisprudentsiya), elektron doska (ta'lim) va boshqalar.

Leksik birliklarga oid amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida fikr - mulohazalar yuritadigan bo'lsak, biz leksikografiya va terminologiyaga murojaat qilishimiz tabiiy, albatta. Ta'limga oid leksik birliklarni tadqiq qilishdan oldin leksikografiya bilan terminologiyaga oid tilshunos olimlarning fikr va qarashlarini ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Shuni alohida qayd etish lozimki, o'zining funktsional-semantik vazifalari bilan terminologiya fani leksikografiyaga yaqin hisoblanadi. Leksikografiya leksik birliklarga oid umumiy nazariy ma'lumot va manbalar xususida muayyan bilimlarni egallash uchun asosiy tayanch manba ham bo'lishi mumkin. Terminlar esa terminologiya fanida o'rganiladigan leksik birliklar bo'lib, aniq bir fan sohasiga oid til birliklarini ifodalaydi. Tilshunos olimlardan Seyger va Vyuster terminologiyani tilshunoslik, mantiq va axborot ilmi-ga o'zaro

bog'liq bo'lgan elementlarni murakkab termin va leksik birliklar orqali rasmiy tarzda o'rganuvchi fan sifatida ko'radi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Leksikologiya fani doirasida o'rganiladigan leksik birliklarga oid ilmiy ishlarda, ta'rif va tavsif berishda olimlar ularni ayrim leksik vazifalar asosida ko'rib, tahlil qilish muhimligini ta'kidlashadi. Ba'zi olimlar ularni "Turli-xil tushunchalarni anglatuvchi aniq atama, leksema yoki so'zdir" - degan fikrni ham ilgari surishadi.

M.Zavislavskayaga ko'ra esa: "Leksik birliklar matnda berilgan so'zlarning muhimlik nuqtai nazaridan tanlangan til birliklarining qo'llanish nuqtasining eng yuqori bo'lgan segmentidir. Segmentdan oldingi va keyingi juft so'zli leksik birliklarning chegaralarini belgilab beradi" - deya izohlaydi. M.Zavislavskayadan farqli tarzda tilshunos olim B.N. Golovin leksik birliklarni quyidagicha ifodalaydi: "Ular odatda mustaqil foydalanish mumkin bo'lgan kichik til birliklariga bo'linmasdan ma'noni ifodalovchi va nomni anglatuvchi nutq tovushi turkumi hamda nutq elementlarining o'zgarimasdan, bir asosni turli xil elementlar bilan birlashtirish natijasida hosil bo'lgan barcha tilning shakliiy to'plamidir".

Ushbu fikr qadimgi davrda ham o'z tasdig'ini topgan bo'lib, leksik birliklar yunoncha "lexis" so'zidan kelib chiqqan, "ma'lum bir tilning lug'atlarida keltiriladigan ma'no anglatuvchi lingvistik birlik"- degan ma'noni anglatadi. L.V.Sherba ham yuqorida keltirilgan olimlarning fikriga qo'shilib leksik birliklarga quyidagicha ta'rif beradi: "Leksik birliklar" - muayyan so'zlar bo'lib, "ma'no ifodalovchi", "anglatuvchi" - degan ma'nolarni bildiradi. Qadimgi lotin tilida mavjud bo'lgan "lexeme" tushunchasi "so'z" degan ma'noni anglatadi. Tilshunos olim A.I. Smirnskinyning fikricha: "Leksik birlik - bu muayyan so'z bo'lib, o'zining alohida va maxsus belgilari bilan chegaralanmaydi va keng ma'noda, keng muloqot doirada qo'llanilishi mumkin. U ekspressivlik, muayyan buyum yoxud

tushunchani ifoda etuvchi, o'zining qat'iy mazmuniy chegarasiga ega bo'lmagan so'zdir".

Tadqiqot metodologiyasi. Turli tillarga oid leksik birliklar, leksikologiyaning nazariy muammolari bilan shug'ullangan L.V. Sherba, V.V. Vinogradov, X.Kasares, P.Filin, V. Doroshevskiy, O.S. Axmanova, D.N. Shmelev, Y.D. Apresyan, D.I. Arbatskiy, Ye.M. Vereshagin, I.G. Olshanskiy, M.N. Nikitin, V.D. Devkin, P.N. Denisov, V.G. Gak kabi tilshunoslar olimlar leksik birliklarga oid asosiy uch ta'rifni keltirishgan:

1. Haqiqatni anglatuvchi belgi, jarayon, ko'rinish, ma'no ifoda etuvchi so'z va so'z birikmalari;

2. Fonetik qoplam, tovushlar ketma-ketligi;

3. Insoniyat ongida paydo bo'luvchi tushuncha va voqelikni anglatuvchi so'zlar.

Tilshunos Y.S.Maslova "...tildagi leksik birlik aniq tushunchani anglatuvchi, muayyan ilmiy qonuniyatlarga bo'ysunuvchi, insoniyat muloqot qilish maqsadida qo'llaniladigan tovushlar to'plamidir" – degan fikrni qayd etadi. Ushbu fikrlarga zid ravishda esa AQSHning "Merriam Webster Dictionary" lug'atida so'zlar ham leksik birliklar sifatida izohlanishi xususida quyidagicha ta'rif beriladi:

- belgi va tushunchani anglatuvchi muloqotda qo'llaniladigan nutq tovushi;

-yagona ildiz orqali turli flektiv elementlarning so'z turkumlarini o'zgartirib hosil qiluvchi til shakli tizimi;

- yozma yoki bosma shakldagi og'zaki nutqni ifodalovchi til belgisi.

N.V. Podolskaya, N.V. Vasileva, T.L. Kandelakilarning fikricha, "...hozirgi zamon terminologiyasi tabiiy yo'l bilan shakllanadigan leksik birliklar qatlami bo'lib, undagi har - bir til birligi qo'llanilishi uchun o'zining aniq ifodasi, chegarasi va o'ziga xos maydoniga ega".

Qayd etilganidek, leksik birlik, so'z va termin tilshunoslikda bir -biriga chambarchas va uzviy bog'liq, ularning o'rtasidagi korrelyatsion munosabatlar mavjudligini terminshunos olimlarning ta'riflaridan ham aniqlash mumkin. V.P. Danilenko har qanday tilga oid so'zlarning butun yig'indisi leksik birliklar, deb hisoblaydi. Ular qatoriga arxaik so'zlar, istorizmlar, neologizmlar, sinonimlar, omonimlar, antonimlar, paronimlar, bir ma'noli va ko'p ma'noli leksik birliklar ham kiradi - deb ta'kidlaydi.

Tahlil va natijalar. Binobarin, so'zlar morfemalardan tashkil topgan bo'lib ular tushunchani anglatganda, leksik birliklar esa "nomlash"ni ifodalab, nafaqat bir so'zni balki bir qancha buyumlar sinfini, turini va ko'rinishini bildirishi mumkin. So'zning aniq sohaga oid leksik birliklardan farqini aniqlashda biz uning tildagi funktsional-semantik jihatdan o'rnini bilishimizdadir, - deb hisoblaymiz.

Tilshunos olim A.E. Mamatovning ta'kidlashicha: "...so'z tilning asosiy leksik birligi bo'lib, predmetlarning nomlarini va ularga xos xususiyatlarini va munosabatlarni o'rganish uchun xizmat qiladi. So'zlar fonetik va grammatik shaklga hamda har bir tilga oid leksik va grammatik ma'noga ega bo'lishi mumkin. Leksik ma'no bu so'zning mazmuni va unda ifoda etilayotgan tushuncha, belgi va harakat bo'lishi mumkinligini e'tirof etadi. Ular insoniyat ongida narsaning fizik va moddiy qiyofasini aks ettiradi".

Chog'ishtirma terminologiya masalalari bilan maxsus shug'ullangan tilshunos olim O.S.Axmedov tilda mavjud bo'lgan terminlarni leksik birliklar qatoridan o'rin egallashi mumkinligini ta'kidlaydi va "...terminologik birliklar leksik-semantik jihatdan umumadabiy shaklga ega bo'lgan, umumxalq tilida umumiste'molda muntazam ishlatiladigan leksik birliklar"-deya qayd etadi. S.F.Akobirovning fikricha esa "leksik birliklar keng, umumiy, mavhum, abstrakt, ilmiylik tushunchasiga ega emas, eskirgan, nofoal, emotsionallikka, ekspressivlikka ega, jamiyatga, turli soha vakillariga oid aloqa qurolidir".

Xulosa va takliflar. Dunyo tillarining asosiy qismini umumiy va keng qamrovli ma'noda ishlatiladigan leksik birliklar tashkil qilishi va muloqot jarayonida foydalanish muhiti cheklangan leksik birliklarga esa maxsus so'zlar va so'z birikmalari, ya'ni terminlar kirishi hamda leksik birliklarga oid amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida fikr-mulohazalar haqida bu maqolada atroflicha ochib berildi. Leksikografiya bilan terminologiyaga oid tilshunos olimlarning fikr va qarashlarini ko'rib chiqildi. Mazkur dissertatsiya tadqiqotidagi leksik birlik borasida berilgan nisbiy fikrlar, "mavjud muayyan sharoit, narsa, voqelikni til belgisi orqali (so'z, ibora, so'z yoki iboraning maxsus belgilar bilan birikmasi) ifodalash va bu til belgisidan foydalanayotgan vakillar tomonidan ongli ravishda ta'riflash natijasida hosil bo'luvchi leksik birlikdir. Yuqoridagi fikr va qarashlarga hamda lisoniy qoidalarga ko'ra, terminologiya – tarkibi tizimli tashkil etilgan ma'lum leksik birliklardan iborat.

ADABIYOTLAR

1. Wüster E. The structure of the linguistic world of concepts and its representation in dictionaries. Washington. 2004. P.-216.
2. Violeta S. Word formation. Londov. 2016. P.-145.
3. Zawislawska M. Lexical units as the center piece of a wordnet. 2018. P.-134.
4. Головин, Б. Н. Введение в языкознание. – Москва: Высш. школа, 1977. 312 с.
5. Щерба Л. В. Языковая система и речевая деятельность. – М -2004. – 432 с.
6. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. 2017. 342 с.
7. Маслова Ю.С. Введение в языкознание. М.: Высшая школа, 1997. 115 с.
8. Подольская Н.В., Васильева Н.В., Канделаки Т.Л. Общая терминология: вопросы теории. 1898. 254 с.
9. Даниленко В.П. Лексико-семантические и грамматические особенности словтерминов. Исследования по русской терминологии. Москва: 2001. 310с.
10. Маматов А.Э. Замонавий лингвистика. Тошкент: Фан. 2020. 286 б.
11. Ахмедов О.С. Инглиз тили иктисодиёт терминологиясида соматик ва зоономик компонентли терминларнинг таржимадаги лексик - семантик хусусиятлари. Тошкент: FLEDU.UZ -№11.135 б.
12. Кўнгулов Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубиёт асослари. Тошкент.1992.151 б.
13. Tilavova, M. (2021). The Impact Of Motivation In Learning Foreign Languages. Журнал иностранных языков и лингвистики, 4(9).
14. Tilavova, M. (2021). РОЛЬ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА. Журнал иностранных языков и лингвистики, 4(9).
15. Tilavova, M. (2021). Variability Of Phraseological Units In English And Semantic Problems In Translation. Журнал иностранных языков и лингвистики, 4(9).



Zilola TILLABAYEVA,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi, PhD
E-mail: tillabayeva87@bk.ru

Samarqand davlat universitetining professori, filologiya fanlari doktori M.B.Abdiyev taqrizi asosida

SAMARQAND VILOYATI QARLUQ SHEVALARINING LEKSIK-SEMANTIK GURUHLANISHI XUSUSIDA

Annotatsiya

Maqolada Samarqand viloyati qarluq shevalarining leksik tarkibi, lug'aviy tarkibidagi turfa xillik kishining moddiy-ma'naviy faoliyati, tabiat hodisalari, tana a'zolari kabi turli-tuman sohalarga oid so'zlarni mavzuiy guruhlar bo'linib, adabiy tildagi ma'nolari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Samarqand viloyati, qarluq shevalari, leksik tarkib, mavzuiy guruhlar, adabiy til, leksik-semantik.

О ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОЙ ГРУППИРОВКЕ КАРЛУКСКИХ ДИАЛЕКТОВ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В статье разделены лексический состав карлукских говоров Самаркандской области, разнообразие лексического состава, слова, относящиеся к различным областям, таким как материальная и духовная деятельность человека, явления природы, части тела. на тематические группы и анализируются их значения в литературном языке.

Ключевые слова: Самаркандская область, карлукские диалекты, лексический состав, тематические группы, литературный язык, лексико-семантика.

ON THE LEXICAL-SEMANTIC GROUPING OF KARLUK DIALECTS OF SAMARKAND REGION

Annotation

In the article, the lexical structure of the karluk dialects of the Samarkand region, the diversity of the lexical structure, the words related to various areas such as the material and spiritual activity of a person, natural phenomena, body parts, are divided into thematic groups, and their meanings in the literary language are analyzed.

Key words: Samarkand region, karluk dialects, lexical composition, thematic groups, literary language, lexical-semantic.

Kirish. Har qanday xalq hayotida paydo bo'ladigan voqea-hodisalar dastlab tilning leksikasida aks etadi. Shuning uchun ham leksika til strukturasi elementlari ichida eng harakatchani [1] va xalq maishiy saviyasining oynasi hisoblanadi [2]. Zotan, Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash" [3] zarurligini bejizga ta'kidlab o'tmaganlar. Zotan, "til doimo o'sishda, rivojlanishda bo'lgan dinamik hodisadir" [4]. O'zbek xalq shevalarining leksik tarkibi juda xilma-xil bo'lib, leksikadagi turfa xillik kishining moddiy-ma'naviy faoliyati, tabiat hodisalari, tana a'zolari kabi turli-tuman sohalarga oid so'zlarni mavzuiy guruhlar bo'lganda yorqin namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shubhasiz, o'zbek tili va shevalar leksikasini ayrim tor soha doirasida aks ettirgan ishlar talaygina. Jumladan, S.Ibrohimovning "Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi" nomli doktorlik ishi, "O'zbek qo'ychilik terminologiyasi" (B. O'rinov), "O'zbek tilida chevarchilik leksikasi" (T.Dadaxonova), "O'zbek tilida kiyim-kechak nomlari" (M.Asamutdinova), "O'zbek tilida to'y marosimi nomlari" (Andijon grupp shevalari materiallari asosida. A.Jo'raboyev), "O'zbek tilining etnografik leksikasi" (Qashqadaryo shevalari materiallari asosida N.Mirzayev), "O'zbek tilida polizchilik terminlari" (T.Nu'monov), "Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida chorvachilik terminlari" (M.Bo'ronov), "O'zbek tili chorvachilik leksikasi" (Farg'ona vodiysi materiallari asosida T.Xo'jamberdiyev), "O'zbek tilida meva nomlarining tarixiy-etimologik asosi" (Yu.Eshonqulov), "O'zbek tili pazandachilik leksikasi" (N.Ikromova), "Soha leksikasining sistem tahlili" (M.Abdiyev) kabi ishlar shular jumlasidan [5].

H.Ne'matov, R.Rasulov "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari" kitobida haqli ta'kidlaganlaridek: "Leksik maydonlardan tashqari sistem leksikologiyada har bir soha (kasb-hunar, marosim, urf-odat, kishi nomlari, joy nomlari, ilmiy atamalar) alohida-alohida atalgan lug'aviy tizimlar sifatida o'rganiladi. Har bir sohaning o'zida o'z leksemalari, sinonimik va antonimik qatorlari, leksemalarning ma'noviy guruhlar, leksemalarning mavzu to'dalari va maydonlari ajratiladi. Ularning har biriga alohida, nisbatan mustaqil tizimlar sifatida qaraladi"[6].

R.Safarova ham o'zining "Leksik-semantik munosabatning turlari" qo'llanmasida o'zbek tilida leksik-semantik munosabatning

turlari haqida fikr yuritib, shunday yozadi: "Sistem leksikologiyaning taraqqiyot bosqichi so'zlarni tematik va leksik-semantik guruhlariga birlashtirib, ma'noni tarkibiy qismlarga ajratib o'rganish bilan xarakterlanadi. Xuddi shu bosqichda o'zbek tili leksikologiyasida ham so'zlarni leksik-semantik guruhlariga birlashtirib o'rganish, ya'ni sistem tilshunoslik, sistem leksikologiya asoslari shakllanadi. Xuddi shunday asosga tayangan holda sistem leksikologiyada alohida leksik-semantik guruhlar sifatida asosan sinonimik ma'nolar asosida bog'langan leksik paradigmalar, antonim ma'noga ega bo'lgan so'zlar guruhi, turli tematik va leksik-semantik qatorlar, leksik paradigmalar tadqiqot manbai bo'lib keldi" [7].

N.Shoimova 1999-yil "O'rta Qashqadaryo jelovchi qipchoq shevalari leksikasi" mavzusida nomzodlik ishini yoqladi. Ushbu dissertatsiyada O'rta Qashqadaryo "je"lovchi qipchoq shevasi leksik qatlami tadqiq etilgan. Unda sheva materiallari adabiy tildagi so'zlar bilan qiyoslanib, ular o'rtasidagi umumiylik va farqli jihatlar ochib berilgan. Mazkur sheva leksikasini insonlarning tashqi ko'rinishini ifodalovchi, psixologik-ruhiy hissiyotlari, holatlarini ifodalovchi leksemalar, uy-ro'zg'or buyumlar nomlari, chorvachilikka oid leksik birliklar sifatida mavzuiy guruhlarha bo'lib misollar yordamida tahlil qilgan [8].

M.Abdiyev va A.Xusainovning tadqiqotlarida ham leksemalar leksik-semantik guruhlariga bo'lib o'rganilgan [9].

O'z navbatida har bir adabiy til ham milliy tilning boshqa tomoilariga, xususan, uning quyi formalari hisoblangan mahalliy dialekt va shevalariga kuchli ta'sir ko'rsatib, ulardan bir qismini o'ziga moslashtiradi, bo'ysundiradi va o'ziga singdirish yo'li bilan o'z ixtiyoriga ola boradi. Lekin shu bilan birga, ayni vaqtda, adabiy tildagi qandaydir so'zlar, qandaydir ibora va formalar zamonlar o'tishi bilan asta-sekin eskirib, iste'moldan (qo'llanishdan) chiqqa boshlaydi va ularning o'rni xalqning jonli tili hamda shu jonli tilning turli ko'rinishlaridan iborat bo'lgan mahalliy dialektlar va xalq shevalari tomonidan, ularning yangi-yangi imkoniyatlari yoki tashqi omil tomonidan to'ldirila boradi [10].

Tahlil va natijalar. Biz ham mazkur maqolamizda ushbu ilmiy ishlardan tajriba to'plab, Samarqand viloyati qarluq shevalari bo'yicha to'plagan materiallarimiz asosida so'zlarni leksik-semantik guruhlariga bo'lib tahlil qilishni lozim topdik:

Uy-ro'zg'or anjomlari leksik-semantik guruhi (LSG):

Ābcinak (yupqa papiros qog'oz), āftāva (obdasta), ajnak (ko'zoynak), aryančak (arg'imchoq), belinčak (belanchak), ālqundi (ishlatilgan sovun qoldig'i), bāzbarrāk (varrak), šamāltijāk (yelpig'ich), korpāj-u bālišť (ko'rpa-yostiq), lajli (quda tomonidan olib kelinadigan sovg'a-salomlar; patnis), sārsozān, bāndāk (to'g'nag'ich), iškammā (hayvon qatqorni), nilčop (ivutilgan o'smani qoshga surtish uchun ishlatiladigan, uchiga paxta o'ralgan cho'pcha), nimkāsa (kosadan kichik, piyoladan katta kosacha), nuri (go'ng), pāku (ustara), pāpeč (bolani beshikka bog'lashda oyog'ini o'rashda ishlatiladigan paxtali mato), kiftpoš (bolani beshikka bog'lashda yelkasini o'rashda qo'llaniladigan paxtali mato), sārpeč (bolani beshikka bog'lashda boshini o'rashga mo'ljallangan mato) kabi.

2. Oziq-ovqatga oid LSG: konārgā (tomizg'i), ugra (O'TIL, II, 263-b)- yupqa yoyilib, uzun va mayda qilib kesilgan xamir- ogrā, āšiārd, xāmirāš, uzma, āši:burda (Zarafshon v.), unāši (Shofirkon), lāxčāk (Peshku), mājda āš (Bux.t), āburoyan- palov masalliqi, barak (chuchvara. Turlari: pudinābārāk, kādubārāk, go'shbārāk, hāvobārāk), māstāvā (mastava), bičāk (yupqa xamir ichiga qovoq yoki o't solib pishiriladi. Bichak turlari: kādubičāk, ālāfinbičāk, kābāckibičāk), yelāk- yong'oq kattaligidagi qiyma go'sht. Asosan sho'rvaga solinadi. Ovqatning yelāk sorbā deb nomlanishi ham shundan.). 3. Binokorlikka oid LSG: Hāvli-žāj (uy-joy, xonadon), bām (uyning tashqi tomondagi tepa qismi, ya'ni tom), šift/šif (uyning ich tomondan tepa qismi, ya'ni ship), čerdāk (tom bilan ship oralg'idagi bo'shliq joy), bālāxānā (tepadagi uy, xona), dēdburā (mo'ri, ya'ni oshxona, pechka, o'choq kabilarning tutun chiqib ketadigan joyi), tāšnāv/ ābrez (qadimda o'zbek xonadonlarida kiraverishda yuz-qo'lni yuvishga mo'ljallangan maxsus joy) kabi. 4. Mehnat anjomlari LSG: Ābtārāzu (qurilayotgan g'isht devorning tekisligini o'lchash uchun ishlatiladigan mehnat anjomi), peštāb (vintni buraydigan asbob), gāčxāk (devorlarni muvash uchun elakdan o'tkaziladigan qum aralashirilgan ganch), girā (iskana), kāššāk (sixmola), kirkā (chekich), zubilā (temirchinig o'tkir uchli bolg'asi), pājšāxā (panshaxa), rāžžā (asosan duradgorlar ishlatilishiga mo'ljallanib, qora rangga ivutilgan uzun ip-chizg'ich), rāndān (siyohdon). 5. Kiyim-kechakka oid LSG: ārāxčīn (yupqa yozgi do'ppi), qālpāq, doppi (do'ppi), kāltāčā (mursak. Aza kunlari ayollar kiyadigan maxsus ustki kiyim), tumāq (quloqli issiq qalpoq, quloqchin), nif (lippa), dāmān (etak), kissā (cho'ntak), čāpān (to'n), girvān (yoqa), sārāndāz (yoping'ich), žāhāk (jiyak), sāri ezārpāčā (ayollar lozimining pastki qismi), qoltori (qo'lqop), bālāji (ayollar lozimining tepa qismi), qoltuqkissā (kiyimning ichki cho'ntagi). 6. Etimologiyalarga tegishli LSG: Āzākāšājān (azadan chiqish uchun o'tkaziladigan ayollar yig'ini), mā'rākā (to'y va azalarda o'tkaziladigan har qanday yig'in, o'tirish), yep-ičār (ziyofat), jirtiš (vafot etgan kishining xotirasi uchun ko'mish marosimida qatnashganlarga beriladigan bir parcha oq surp), qāzāntoldi (navro'z kuni yil davomida xonadonda to'kin-sochinlik bo'lishi maqsadida uydagi idishlarni suvga to'ldirish odati). 7. Kasb-hunar egalari nomlariga oid LSG: āšpāz- ovqat tayyorlash, pishirish bilan shug'ullanuvchi shaxs. (Āšpāzdi qoli žudājām širin ekān.), naxotfuroš- no'xat sotuvchi kishi. (Qo'shim naxotfuroš kečā qizini qijāmāt qilub āšxorākān qildu.), mantupaz- manti tayyorlab, pishiradigan kishi. (Bu māntupāz mā'rākālārgā āqqāl bāmāzā māntulār piširip berādu.), bāzārqom- bozorning boshlig'i. (Bu bāzārqomni do'žigā pālāv pišādu.), nānfuroš- non sotuvchi. (Šu nānfurošni nāni judo bāmāzā, Gālāāšijāniki-dā), nānfuroš- nos sotuvchi, qālpāqfuroš- do'ppi sotuvchi kabilari.

8. Shaxs va narsalarning xususiyat, holatini ifodalovchi LSG: Āši-tāši (mo'l-ko'l), ālus (g'ilay ko'z), bādburuš (beo'xsho'v mo'ylovli kishi), bozbālā (baquvvat, kuch-quvvatli erkak kishiga

nisbatan ishlatiladi), gulāb (pushti rang), guppi (lofchi), zulbijā (g'arq pishgan), mārbāz (ayyor), fač (bemaza. Ovqatga nisbatan tuzi kam bo'lsa, mevaga nisbatan shirin bo'lmasa), fit (bekora bo'lgan, siyqasi chiqqan).

9. Shaxs va narsalarning harakatini bildiruvchi LSG: Hābāzi (cho'milish, suvda suzish), āruy bermāq (kekirish), ārāx qilmāq (terlamoq), idrāmāq (so'lib, buzilib qolmoq), purs-i žoj (so'rab-surishtirish. Ājlānāj, dāmmād tārfāni āqqāl pursi- žoj qildilāruḡmu?)

10. Uy va yovvoyi hayvonlar, hasharot nomlariga oid LSG: Āxurij (bo'rdoqi qo'ylar, ya'ni qo'lda boqiladigan semiz qo'ylar), mādā (urg'ochi), tāvušqān (quyon), gosālā (buzoq), gāždum (chayon), pišāk (mushuk), xārpuš (tipratikan), kāltākālās (kaltakesak), morčā (chumoli), mālāx (chigirtka), tārtānāk (o'rgimchak), sozānāk (ninachi) kabilari.

Shuni ta'kidlash lozimki, Samarqand viloyati qarluq shevalarida buzoqning yoshligi inobatga olinib, gosālā so'zi ko'chma ma'no kasb etib, hali ko'p narsalarga aqli yetmaydigan bo'shashgan bolalarga nisbatan mazkur so'zning qo'llanilishi kuzatiladi: Hā, gosālā, kelāpsānmi hāmmādān kejin keč qālip? Adabiy tildagi ari so'zi ham shevalarda turlicha nomlanadi: Toshkentda āri, Qashqadaryoda zāmmur, Samarqandda esa zāmbor [11]. Aynan shu so'z ham ko'chma ma'no kasb etib, tili bilan kishilarni qattiq ranjitib qo'yadigan kishilarga nisbatan qo'llash kuzatiladi: Vāj zāmborčāje bir pāsda xāfā qilli-qojdi.

O'rgimchak leksemasi to'r to'qib, pashsha kabi mayda jonivorlarni tutib yeydigan bo'g'in oyoqli hasharotni anglatib keladi. Biroq Toshkent shevasida orgūmčāj, Samarqandda tārtānāk, Farg'onada ormānčik tarzida fonetik har xillikka ega [11].

11. Ish-harakatning belgisini bildiruvchi LSG: Āndāk (biroz), āndāktār (sal keyinroq), bā (yana. Mehmānzānla, bā jana kelinglā.), ba:d, so'yun, bā:dāz (keyin), dukkāsa (ikkovlashib), lāhās (betoqat), nāxās, nāxāstdān (kutilmaganda)

12. Meva va sabzavot nomlariga oid LSG: Āškādu (ovqatlariga solinadigan qovoq), ālāfi (oq jo'xori ko'kpoyasi, don solmaydi, mollar uchun yemish sifatida ekiladi), bājimžān (baqlajon), qārāqārāqči (qora uzum turi), zāmicā (handalak), zārdālu (o'rik. Turlari: ŷolunī zārdālu), kādu (kadi. Turlari: nāskādu, āškādu), murut (nok), nāšpātu (nashvati), tārrāk (pishib yetilmagan qovuncha, sapcha), šālyāmčā (rediska).

Shulardan jo'xori qadimiy qishloq xo'jalik ekini bo'lib, hududlarda har xil nomlanadi. Mākkā, mākāžuvāri, žuvāri kabi nomlar bilan atalish Samarqand hududida kuzatiladi. Olxo'ri va qaroli kabi mevalar ham shevada o'zgacha ataladi. Masalan, ālu, qārālu kabi atalishlarga ega. Shaftoli ham šāftālu deb ataladi. Tokni o'stirish bilan bog'liq turli xil nomlanishlar mavjud: Toshkentda iškām, Andijonda vāliš, Samarqandda esa vāiš deyiladi.

13. Kasallik nomlariga xos LSG: Tumāq (tumov), qučānāq (chaqaloqlarda dastlabki oylarda kuzatiladigan kuchanishga o'xshash holat), quyānčiq (epilepsiya kasalligi), nāzlā (burun yo'llarida kuzatiladigan kasalik), gomižžā (ko'zga chiqadigan teskan kasalligi), dārdigoš (quloq og'ri'i), dārdīsār (bosh og'rig'i), dārdidāst-u pāčā (oyoq-qo'l og'rig'i), xāriš bogān (qichima kasal), mijānyu (radikulit) va hokazo.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida ta'kidlashimiz mumkinki, o'zbek dialektologiyasi fanida so'zlarni leksik-semantik guruhlariga bo'lib o'rganish o'zbek tili va shevalar bo'yicha leksik birliklarning barchasini to'plab, qiyosiy-tarixiy va etimologik jihatdan tadqiq etish ikki tilli hamda shevalar izohli lug'atlaridagi chalkashliklarning bartaraf etilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Виноградов В. В. Развитие советского языкознания. Изд. АПН. М., 1950. – С.23.
2. Абаев В. И. О развитии литературных языков иранских народов Советского Союза. М., 1969. – С.72.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентини Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил, 28 декабрдаги “Тараққиёт йўлимининг шиддати янада ошаверади” мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2018 йил, 29 декабрь.
4. Нурмонов А. Лингвистик тадқиқот методологияси ва методлари. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 61.
5. Ўзбек шевалари лексикаси. Тошкент: Фан, 1991. – Б.120.
6. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 82-83.
7. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 4.
8. Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё желовчи қипчоқ шевалари лексикаси. Филология фанлари номзоди дисс.–Тошкент, 1999.
9. Абдиев М. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: Халқ мероси, 2004. – Б. 42-100; Хусанова А.Я. Татарские говоры Оренбуржья лексико- семантический аспект.– Казань, 2017.- С. 27-90.
10. <https://fayllar.org/reja-milliy-til-umumxalq-tili-va-adabiy-til-tushunchalari.html>
11. Шаабдурахманов Ш. Карлукское наречие узбекского языка. - Ташкент, 1983.-С. 9, 134.



UDK: 347.78.03

Sitora TURABOYEVA,

Fan va texnologiyalar universiteti dotsenti v.v.b., PhD

E-mail: turaboyevasitora64@gmail.com

PhD D.Tashpulatova taqrizi asosida

LEXICAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF CONCEPTUAL UNITS "FRIEND" AND "STRANGER" IN UZBEK

Annotation

The article discusses the lexical-semantic study of the concept of moral values in the Uzbek language, in particular, the description of the eastern civilization through the analysis of language phenomena. Also, scientific recommendations and proposals are given on the basis of the principles of adequacy and equivalence in the translation of linguistic and cultural units.

Key words: Linguoculturology, moral values, concept, comparative-associative, linguo-spirituality, verbal and non-verbal means, semantic, syntactic.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ «ДРУГ» И «ЧУЖОЙ» В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В статье рассматривается лексико-семантическое исследование понятия нравственные ценности в узбекском языке, в частности описание восточной цивилизации посредством анализа языковых явлений. Также даются научные рекомендации и предложения на основе принципов адекватности и эквивалентности при переводе лингвокультурных единиц.

Ключевые слова: Лингвокультурология, нравственные ценности, концепт, сравнительно-ассоциативный, лингводуховность, вербальные и невербальные средства, смысловые, синтаксические.

O‘ZBEK TILIDA “DO‘ST” VA “BEGONA” KONSEPTUAL BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada o‘zbek tilidagi axloqiy qadriyatlarni bildiruvchi konseptning leksik-semantik tadqiqi, xususan, til hodisalari tahlili orqali sharh tamaddunining tavsifi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, lingvokulturologik birliklarni tarjima qilishda adekvatlik va ekvivalentlik tamoyillaridan kelib chiqib yondashish bo‘yicha ilmiy asoslarga ega bo‘lgan tavsifiya va takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: Lingvokulturologiya, axloqiy qadriyatlar, konsept, qiyosiy-assotsiativ, lingvoma‘naviyatshunoslik, verbal va noverbal vositalar, semantik, sintaktik.

So‘z semantikasiga oid samarali tadqiqot usullaridan biri muayyan bir so‘zga xos bo‘lgan leksik-semantik xususiyatlarni aniqlash uchun ajratib olingan til birliklarining lug‘aviy ma‘nolarini turli aspektlarda tahlil qilish va konseptga bog‘lanadigan til birliklarining xuddi shunday xususiyatlarini yuzaga chiqarishdan iborat. Shuning uchun ham do‘st konsepti va uning diskursiv qarama-qarshisi bo‘lgan begona konseptlarini hamda ushbu konseptosferadagi verballashgan til birliklari o‘rtasidagi farqli xususiyatlarni tahlil qilish ushbu tadqiqot ishining muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Muayyan konseptning «xotirasi»ga murojaat qilmasdan turib, milliy konseptosferada uning qanday o‘rin tutganini aniqlash mumkin emas[9]. Etimologik tahlil yordamida konseptning tildagi evolyutsion rivoji, yo‘qolib ketgan yoki yangi paydo bo‘lgan semantik belgilari harakatining dinamikasini aniqlashdek muhim jarayon amalga oshadi[10]. Demak, konsept etimologiyasi uning semantik rivoji, shuningdek, tabiatiga xos bo‘lgan o‘zgarishlarni dalillash imkonini beruvchi omildir. Konseptning muayyan tildagi etimologik tahlili uning nominativ maydonini aniqlashdagi ilk qadam bo‘ladi.

Konseptning keng ko‘lamli va ko‘p sathli ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, S.X.Lyapin, Yu.S.Stepanov va V.I.Karasik ta‘kidiga ko‘ra, tadqiqot obyektidan kelib chiqqan holda, ma‘lum bir konseptning ustuvor yarusi belgilab olinad: ya‘ni qaysidir

tadqiqotning diqqat markazida masalaning psixologik yoki psixolingvistik aspektlari tursa, yana boshqa bittasida – etimologiya, etnografiyaga oid muammolar, uchinchisida esa masalaning madaniy, lingvokulturologik jihatlari ustivorlik kasb etishi mumkin[11].

V.A.Maslova konseptning ko‘p qirrali tushuncha ekanligini hisobga olib, uning tavsifini keltirishda bir qator o‘ziga xos, ajralmas xususiyatlarini e‘tiborga olish muhimligini ta‘kidlaydi. Ya‘ni, konsept: 1) inson tajribasi minimal birliklarining ideal tasavvurida so‘z orqali ifodalani, maydon tuzilmasiga ega bo‘lgan ifodasi; 2) bilimlarni saqlash, ularga ishlov berish va uzatishning asosiy birligi; 3) o‘z dinamik chegarasi va aniq funksiyalariga ega; 4) ijtimoiy xususiyatlarga ega bo‘lib, uning negizida hosil qilinadigan assotsiativ maydonda o‘z pragmatik jihatlarini namoyon qiladi; 5) konsept – madaniyatning muhim bo‘g‘inidir[12].

O‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘zlashgan “do‘st” va uning antikonsepti “begona” haqida so‘z yuritilgan ekan, aytish joizki, eski turkiy adabiy tili bosqichigacha bo‘lgan davrda boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish deyarli xos bo‘lmaganligi tufayli mazkur leksik birliklar uchramaydi[13].

“Do‘st” so‘ziga “O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar izohli lug‘ati”da quyidagicha ta‘riflar beriladi[14]:

№	Ta‘rif	Misollar
1	“Totuvlik munosabati bilan bog‘langan” ma‘nosini beradi, ma‘nodoshlari: jo‘ra, oshna, o‘rtoq	Mana shu vaqtgacha jo‘ralarning soni hamon o‘sha – to‘qqizdan ortmaydi. (A.Qahhor, “Sarob” romanidan).
2	Tarafdor, homiy	Musulmonqulga tarafdorlaringiz bo‘lsa, tinchlikcha qo‘shindan chiqib ketsin! (A.Qodiriy, “O‘tgan kunlar” romanidan).
3	Diniy tasavvufda Xudo	Allohim(xudoyim) sen meni eng yaqin do‘stimsan, doim meni eshitasan, Allohim-o‘zing sabr ber, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsat. (Bolaning Ollohga murojati, https://t.me/Mahzun_qalblardan).

O‘zbek tilining ma‘nodoshlik lug‘atida “Do‘st” konseptining quyidagi ma‘nodoshlari berilgan:



Keling, endi bu ma'nodosh so'zlarning badiiy asarlarda qo'llanilish o'rinlarini ko'rib chiqsak:

Do'st-yorlar yig'ilib, chog'ir ichib, musiqa va raqslar bilan tong orttiradilar. (Oybekning "Navoiy" romanidan)

Yaxshilar doim nasihat aylar o'z ahbobiga: ichmagil, hushyor bo'l, tushma balo girdobiga. (Voqif)

Habibim band etar ko'nglimni,

Tabibim pand etar doim. (E.Vohidov)

-Ha, ishing qalay, Omon og'ayni?

-Ye, so'rama, o'rtoq, -dedi, - bo' kib qoldim.

-Ie, nimaga bo'kasan?

-Sen ketganingdan keyin xo'jayinning bir-ikki qur oshnalari mehmon bo'lib kelishdi. (G'.G'ulom. "Shum bola")

"Do'st" va uning kontekstual antikonsepti "begona"ning hozirgi zamon o'zbek tili leksikografik izohlariga to'xtaladigan bo'lsak, «O'zbek tilining izohli lug'ati»da quyidagi ta'rif keltiriladi:

DO'ST - shafqatli o'rtoq, yor, oshno, mahjub(a)] 1 Qarashlari, dili, ish faoliyati yaqin bo'lgan, inoklik, ahillik bilan bog'langan ikki yoki undan ortiq kishining har biri; o'rtoq, zid. dushman. Qadrdon do'st. Chin do'st. Qiyomatli do'st. Vafodor do'st. O'z do'stim deb so'z aytma, do'stingning ham do'sti bor.

2 Yaqin, tanish, oshno. Mana bu do'stim bilan men daryodan o'tolmay qoldik. Shu yaqindagi qishloqqa non so'rab bordik. (I. Rahim. "Chin muhabbat")

Do'stingdan top. Do'sti, yaqin kishisi biror yomonlik qilganda aytiladigan ibora. Do'sti sodiq. Vafodor, sadoqatli do'st. "Dunyoda do'sti sodiqni topish qiyin ekan". (A.Qodiriy. "Mehrobdan chayon") Jon (yoki jonajon) do'st, jonini ham ayamaydigan, samimiy, beg'araz do'st. "Po'ylab-po'ylab, xo'b tomosha qilsang-chi, To'y-tomosha qulluq bo'lsin, jon do'stim". («Yusuf va Ahmad»). "Avval aytganimdek, akademik Habib Muhamedovich Abdullayev bilan

[Abdulla Qahhor] jon do'st edilar". (K.Qahhorova. "Chorak asr hamnafas"). Ish (yoki mehnat) do'sti birga ishlab, mehnat jarayonida orttirilgan do'st. "Ish do'sting — jon do'sting. Ko'rib qo'y, deb so'zni boshlayman, mehnat do'stim — asal yoringma". (G'ayratiy) Mol do'sti oldi-berdi munosabatlarida orttirilgan do'st, biror narsadan ilinji bo'lgani uchungina oshno bo'lgan, yuzaki do'st. "Jon do'sting jondan kechsa ham, mol do'sting molidan kechmaydi". Maqol. Piriga ham do'st bo'lmaydi. Hech kimsaga do'st bo'lmaydigan yomon odam haqida. "Erining yuz-xotirini qilmaydigan xotin piriga ham do'st bo'lmaydi". (A. Qahhor. "Qo'shchinar chiroqlari");

3. Murojaat qilish shakli. "Xo'sh, taqdir, nega xomushsiz? -E, aziz do'stim, sal qiynalibroq qoldim". (N.Safarov. "Hayot maktabi");

4. Diniy tasavvufda: Alloh, ey xudo. Har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: "Hey do'st, shaydullo, banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo". (A.Qahhor. "Bemor");

Do'st tortmoq 1) "Do'st!" deb xudoga yolvormoq. "O'z odatining aksicha do'st tortdi-da, yuqoriga qaradi". (S.Anorboyev. "Oqsoy") 2) ko'chma qichqirmoq, sayramoq. "Rohat"ni eshitib, Tantiboyvachcha "ezib yuboringiz, jonidam!" deb qichqirdi va bangilar kabi bir "do'st!"tortdi. (Oybek. "Tanlangan asarlar");

DO'ST (o' - cho'ziq) und. s. Tasanno, ofarin ma'nolarini bildiradi. Do'st, kam bo'lmang! Bog'larni qoplaydi zavqu shavq, qarsak, Keksalar og'zida: "Do'st!", "Barakallo!". (Uyg'un. "Tong qo'shig'i");

"Begona" konsepti tub so'z hisoblanib, do'st konsepti ifodalagan tushunchalar bilan oppozitiv munosabatni ifodalaydi. Begona konsepti ham birinchi semantik ma'nosida tanish, tanish-bilish leksemalari bilan semantik oppozitsiya munosabatini namoyon qiladi. Quyida "Begona" konseptiga berilgan ta'rifni ko'ramiz. BEGONA — qarindosh yoki tanish bo'lmagan; yot

№	Ta'rif	Misolalar
1	Qarindoshlik yoki boshqa jihatdan bir toifadagi, guruhdagi kishilardan chetda turuvchi, ularga munosabati bo'lmagan;	Menga begona bo'lsangiz, o'g'lingizga begona emassiz-ku. A.Qahhor, Qo'shchinar chiroqlari
2	Tegishli bo'lmagan, chetdan kelgan; chet.	Tunlari har hovli eshigida o'sha yerda yashovchilardan navbatchilar tayinlanadi — begona kirmasin. Shuhrat, Shinelli yillar.
3	O'zgalarga tegishli, notanish; o'zga.	Begona shahar. Mana endi, begona ko'z, begona quloqning yo'g'ida uchovi xo'xolashib, og'iz-burun o'pishib kelayotir. M.Ismoiliy, Farg'onat.o.
4	Ko'chma ma'noda xabari bo'lmagan, ko'rman, bilmagan; yot.	Hayotning dag'al muomalasidan begona, faqat uning chuchuk so'zlarinigina tinglab kelgan Otabekka bu xo'rlik turmushdan birinchi zarba edi.

Begona o't - Odamlar yoqmaydigan, ammo madaniy ekinlar orasida tasodifiy urug'dan ko'karib chiqqan yovvoyi o't. "Yerdan yaxshi unum olish uchun yerning begona o'tlardan tozalanishi, kuzda chuqur chopilishi, go'ng solinishi kabi masalalarga ko'p ahamiyat berib qoladi". (A.Qodiriy. "Obid ketmon")

BEGONA - Beklarga, beklar nasliga xos bo'lgan, dabdabali, hashamatli; beklarcha.

O'zbek tilining etimologik lug'atida bu til birligiga quyidagicha ta'rif beriladi. "Bu sifat fors tilida bigane shaklida, tojik tilida esa begona shaklida, o'zbek tilida ham begona shaklida keltirilgan. Ko'rinadiki, bu sifat o'zbek tiliga tojik tili shaklida olingan; qarindoshligi, tanishligi yo'q, yot ma'nosini anglatadi. Bu sifat bilan o'zbek tilida begonalash, begonasira" fe'llari hosil qilingan, yetti yot begona sifati qabul qilingan[15].

Ko'rib turganimizdek, begona leksemasi ham shakldoshlik xususiyatiga ega sanaladi va ikkinchi ma'nodagi semantik yadroga beklarga aloqadorlik ma'nosi ifodalanadi. Yuqorida berilgan begona konseptining birinchi semantik ma'nosi orasida mazmuniy bog'liqlik kuzatilsa-da, har biri o'zaro ichki semalarga ega sanaladi. Begona konseptining birinchi izohidagi qarindoshlik yoki boshqa jihatdan bir toifadagi, guruhdagi kishilardan chetda turuvchi, ularga munosabati bo'lmagan degan izoh genetik yoki boshqa jihatlariga ko'ra o'zaro yaqin munosabatda bo'lgan insonlar orasiga bevosita aloqador bo'lmagan shaxsni ifodalasa, ikkinchi izohda tegishli bo'lmagan, chetdan kelgan degan ma'noda begonalik darajasi bir pog'ona yuqoriga ko'tariladi. O'zgalarga tegishli, notanish; o'zga ma'nosi esa yuqoridagi har ikkala ta'rifdan yuqoriga ko'tariladi va ma'nolar orasida ham ichki oppozitsiya munosabatini aks etishini ifodalaydi.

Lingvokulturologik jihatdan faol konseptlarning ko'pchiligi o'zlarining konseptual invariantlariga ega bo'ladi. Mazkur ma'nodosh

invariantlar sinonimlar orqali ifodalanadi, tayanch so'z bilan ma'nou munosabatlariga muvofiq ravishda qaysidir birlari yadro, boshqalari esa periferik zonalardan joy oladi. A.N.Prixodko sinonimlarning qo'llanilish konseptning lisona subyektiv baho bilan aks ettirish vositasi deb hisoblaydi[6]. So'z turkumlari kesimida qaralganda, "do'st" va "begona" konseptlari hosil qiladigan konseptual maydon birliklari bir qator birliklar bilan bitta konseptosferaga mansub hisoblanadi. Aytish lozimki, biz quyida keltiradigan leksik birliklar ma'lum semantik xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadi.

Mazkur verbalizatorlar orasida nafaqat o'z qatlam, balki o'zlashtirma so'zlarga oid namunalar safi ham keng bo'lib, bu mazkur konsept ingliz lingvomadaniyati uchun davrlar osha naqadar aktualligi ortib borayotganligidan dalolat beradi. Zero, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, konseptual maydon kengligi, tegishli konseptning o'sha etnos uchun ahamiyati darajasini ham belgilay oladi. Turli madaniy maydonda yashovchi insonlarning ongidagi lisoniy manzara turlicha ekanligi shubhasiz. Ularning muloqoti doirasida bu o'zgalchaliklar o'z aksini topmay iloji yo'q. Insoniyat uchun eng ahamiyatli fenomen bo'lgan «do'stlik» turli madaniyatlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Bu turlichalik ularning ona tilida o'z aksini topadi. Shu bilan birga bir tili ona tili sifatida tan oluvchi ikki jins vakillari ham bu borada o'ziga xos manzara yaratadilar. «Konseptlar mohiyatan umumbashariy, mintaqaviy, milliy, etnik turlarga yoki xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, «urush», «tinchlik», «olam», «tabiat», «havo» konseptlari umumbashariy ahamiyat va xususiyati bilan xarakterlanadi. «Non», «suv» konseptlari mintaqaviy-jo'g'rofiy xususiyatlarga egaligi bilan o'ziga xos. «Do'stlik», «begonalik», «xiyonat», «vafo» konseptlari esa milliy xarakteri bilan boshqa konseptlardan ajralib turadi»[17].

Do'st va begona konseptlarining semantik ma'no maydonida nazarda tutilgan mazmun har doim ham leksemalar orqali voqelanmasligi mumkin. Ayrim nutqiy vaziyatlarda butun matn

parchasida nazarda tutilgan pragmatik hamda semantik ma'no do'st va begona konseptida nazarda tutilgan mazmunning kognitiv anglanishi uchun xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Матвеев П.Е. Моральные ценности: моногр. – Владимир: Владим. гос. ун-т, 2004. – 190 с.
2. Моральные ценности и личность / под. ред. А.И. Титаренко, Б.О. Николаичева. – М.: Изд-во МГУ, 1994. – 175 с.
3. Кондрашов В.А. Человек в мире моральных ценностей // http://samlib.ru/k/kondrashow_w_a/file1.shtml
4. Тематический философский словарь / Н.А. Некрасова, С.И. Некрасов, О. Г. Садикова. – М.: МГУ ПС (МИИТ), 2008. – http://thematic_philosophical.academic.ru/
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. 144-bet. "O'ME" Davlat ilmiy nashryoti
6. Macmillan English dictionary.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. "O'ME" Davlat ilmiy nashryoti
8. Graham, J., Haidt, J., & Nosek, B. a. (2009). Liberals and conservatives rely on different sets of moral foundations. *Journal of personality and social psychology*, 96(5), 1029–1046.
9. Воркачев С. Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // *Филологические науки*. – 2001. – Т. 1. – №. 1. – С. 64-72
10. Валюкевич Т.В. Семантикоэтимологический анализ лингвокультурного концепта ВНЕШНОСТЬ / Т.В.Валюкевич // *Вестник Харьковского национального университета им. В.Н.Каразина*. – Харьков: ХНУ им. В.Н. Каразина, 1964. – N973: Серия: Романо-германская филология. Методика преподавания иностранных языков. Вып.68. – 2011 (1460 а). – С. 155-159
11. Красавский Н.А. Концепт "Zorn" в пословично-поговорочном фонде немецкого языка. // *Теоретическая и прикладная лингвистика*. Выпуск 2. Язык и социальная среда. – Воронеж. Изд-во ВГТУ, 2000. – С.78 89//eidos.rsl.ru
12. Маслова В. А. Введение в когнитивную лингвистику. – М.: Флинта: Наука, 2006. – С.37.
13. Турсунов У., Уринбаев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б.117.
14. Yorqinoy Namroyeva "O'zbek tilining o'zlashma so'zlar o'quv izohli lug'ati". – Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2007. 45-bet
15. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilingning etimologik lug'ati. T.:2010
16. Приходько А. Н. Концепты и концептосистемы. – Днепропетровск: Белая Е. А., 2013. – С.78.
17. Рустамова Д.А. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспекти: Филол. фан. б. фалс. док... дисс. – Фаргона, 2018. – Б.97.



UDK:81'276:81'373.45:37

Sirojiddin TURDIMURODOV,
Termiz davlat universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail: turdimurodovs@tersu.uz

DSc. Dotsent S.Zokirova taqrizi asosda

THE ROLE OF EUPHEMICAL DICTIONARIES IN THE DEVELOPMENT OF LANGUAGE, SPEECH AND EDUCATION

Annotation

This article discusses the euphemistic units that are important in the Uzbek language and its speech, and their lexicographic features, as well as ranking factors. The construction of dictionaries for various purposes and their learning, the importance of mastering the full potential of one's own language, increasing literacy, and raising the culture of speech, are discussed. The ranking factors of euphemistic units in the formation of a certain speech culture are shown through linguistic analysis through examples.

Key words: Lexeme, euphemism, lexicology, lexicography, vocabulary structure, Uzbek language, euphemistic units, graduoniminya, semantics, ranking factors.

РОЛЬ ЭВФЕМИЧЕСКИХ СЛОВАРОВ В РАЗВИТИИ ЯЗЫКА, РЕЧИ И ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматриваются эвфемистические единицы, имеющие важное значение в узбекском языке и его речи, и их лексикографические особенности, а также факторы ранжирования. Обсуждаются построение словарей различного назначения и их изучение, важность освоения всего потенциала собственного языка, повышения грамотности, поднятия культуры речи. Путем лингвистического анализа на примерах показаны факторы ранжирования эвфемистических единиц в формировании определенной речевой культуры.

Ключевые слова: Лексема, эвфемизм, лексикология, лексикография, словарный состав, узбекский язык, эвфемистические единицы, градуониминья, семантика, факторы ранжирования.

TIL, NUTQ VA TA'LIM TAKOMILIDA EVFEMIK LUG'ATLARNING O'RNI

Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek tili va uning nutqida muhim o'rinda turuvchi evfemik birliklar va ularning leksikografik xususiyatlari shuningdek, darajalanish omillari haqida fikr yuritilgan. Lug'atlarning turli maqsadlarda tuzilishi va ularni o'rganish, o'z tilining imkoniyatlarini to'laroq egallashda, savodxonlikni oshirishda, nutq madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etishi haqida munosabat bildirilgan. Evfemik birliklarning ma'lum nutqiy madaniyatni shakllantirishda darajalanish omillari misollar orqali lingvistik tahlil qilinganligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Leksema, evfema, leksikologiya, leksikografiya, lug'at tarkibi, o'zbek tili, evfemik birliklar, graduoniminya, semantika, darajalanish omillari.

Leksikografiyaning vazifasi juda keng bo'lib, u qanday lug'at tuzish talab ehtiyojlariga javob berishi lozimligini o'z ichiga oladi. Shuni aytib o'tish kerakki, kishilarning yodda tutib qolish qobiliyati naqadar kuchli bo'lmasin, bir tildagi barcha so'zlarni, ularning xilma-xil ma'nolarini esda saqlab qolishi nihoyatda qiyin va mushkul masala deyish mumkin. Shuning uchun ham kishilarning ana shunday ehtiyojini qondirish uchun turli xildagi lug'atlardan foydalanib kelinmoqda.

Har qanday tilning so'z boyligi u tarixiy yoki zamonaviy tusda bo'lmasin, insonlar tomonidan tuziladigan rang-barang lug'atlarda ma'lum darajada o'z aksini topadi. Lug'at tilning so'z boyligini o'zida saqlovchi akkumulator vazifasini bajaradi. Bugun muayyan tilshunoslikning qay darajada rivojlangani, uning takomil topgani ayni tilda yaratilgan lug'atlarning turi, miqdori va sifati bilan o'lchanadi deyish mumkin.

Sinonimik qatordagi leksemalar ayni qatordagi boshqa leksemalar bilan leksik ma'nosining mavjud umumiy semasiga ko'ra aynan bir xil kelsa ham, qolgan a'zolari ba'zi belgi xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadi. Sinonimik qatordagi ana shu farqlilik graduonimlarning yuzgacha kelishi uchun zamin hozirlaydi. Bu esa sinonimiyaning ichki tomoni, xususan, bir-biriga o'tishlarida lug'aviy darajalanish hodisasi uchun muhim vazifa bajaradi [1].

So'ngi davrlarda so'zlararo ma'noviy munosabatlar doirasi kengayib, ma'nodoshlik (sinonimiya) va zid ma'nolilik (antonimiya) hodisalarini o'rganish bilan cheklanib qolmay, ma'noviy darajalanish (graduonimiya) kabi ma'noviy munosabat ham lisoniy-lug'aviy tizimda mavjudligi tan olina boshladi. Bu holat esa sinonimiya va graduonimiya munosabatlariga ham oydinlik kiritishni taqozo qiladi. "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"da ma'nosi darajalanuvchi so'zlar ko'p hollarda sinonimlar sirasida berilar edi. Albatta, graduonimiya hodisasi maxsus ajratilmagach, ma'nosi darajalab ko'rsatuvchi so'zlar ko'p hollarda turli sinonimik uyalar ichiga tarqatilib yuborilgan. Buning haqqoiy sabablari ham mavjud edi. Chunki, sinonimlar ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlarni o'z

ichiga oladi" [2]. Shunay ekan, kelgusi tadqiqlarda esa ularni ma'lum darajada farqlash, ajratish zarur deb hisoblaymiz.

Graduonimik qator a'zolarini sinonimik qator birliklaridan ajratishdagi asosiy belgi ma'no va mazmun jihatidan darajalardagi farqlanishdir. Ammo hozirgi kungacha ko'pgina tillardagi sinonimlar lug'atlarida ular aralash holda keltirilishi graduonimiyani tushunishga, uni ajratishga to'sqinlik qilib kelmoqda. So'zlar graduonimik lug'atlarining yaratilishi sinonimlar va graduonimlarni o'zaro farqlash, bir-biridan ajratishga yordam beradi. Bundan tashqari, onlayn lug'atlar, albatta, leksemalarning sinonimlari, antonimlarini aks ettirish bilan birga darajali qatorni tashkil qiluvchi graduonimlarni ham ifodalashi maqsadga muvofiq. Davr talabi va yoshlarning ko'proq kompyuter, internet bilan muloqot qilishining ortib borishi, ular orqali ma'lumot, bilim olish imkoniyatlarining yuqoriligi onlayn lug'atlarni ham takomillashtirishga katta e'tibor berish, yangi tadqiqotlardagi nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash kabilarni taqozo qiladi [3]. Mavzuviy nuqtayi nazardan evfemik sinonimlar qatorlarning graduonimik munosabatlar asosida shakllantirilishi bu boradagi ma'lum farqliliklarni ochishda qo'l keluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida evfemik darajalanish qonuniyatining namoyon bo'lishi, uni ifoda etuvchi til vositalari, ularda darajalanish hodisasining sathlararo xususiyati, daraja tushunchasining evfemik birliklar semantikasidagi funksional ma'nolar bilan bog'liq holda namoyon bo'lishi, evfemik birliklarning leksikografik talqinida graduonimik qonuniyatlarga tayanilishi monografik tarzda maxsus tadqiq etilmagan. Hozirgacha turli evfemik birliklar orqali xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan darajalanish hodisasi yaxlit leksik-semantik maydon sifatida o'rganilmagan. Evfemik darajalanish tushunchasiga kengroq doirada qarash, funksional-semantik maydon sifatida tahlil qilish, darajalanish omillari va vositalarini aniqlash, evfemik graduonim qatorlarni semantik-struktur asosida shakllantirish.

Tilshunoslikda o'quv lug'atchiligi leksikografiyaning alohida sohasi sifatida e'tirof etiladi. Prof. B.Baxriddinova o'zining

“O'zbekistonda o'quv lug'atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari” [4] nomli dissertatsiyasida zamonaviy o'quv leksikografiyasi masalasi va vazifalari muhokamasini kun tartibiga olib chiqdi. O'quv lug'atchiligi borasida olim qayidagicha munosabat bildiradi: “Ma'lumki, XX asr boshlarida umumiy leksikografiyadan o'quv lug'atchiligi ajralib chiqdi va o'quv lug'atlarining zamonaviy avlodlarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Tilshunoslik va pedagogika fanlari oralig'idagi lingvodidaktik yo'nalish – o'quv lug'atchiligi tarmog'ining maxsus soha sifatida rivojlanayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda o'quv lug'atlari milliy qadriyatlarga sodiq, dunyoqarashi keng, ongi yetuk, mustaqil fikrli, og'zaki va yozma nutqi ravon avlodni tarbiyalashda muhim ijtimoiy-siyosiy va madaniy vazifani bajaradigan, maktab darsliklariga yordamchi vosita sifatida ta'lim tizimida o'ziga xos o'rin egallaydi” [4].

Evfemizmlarni o'rganishda biz ishini bosqichma-bosqich tashkil etishni mantiqan to'g'ri deb hisoblaymiz, bunda har bir bosqichda biz taklif qilayotgan mashq va topshiriqlar turlari qo'llaniladi:

1) Evfemizatsiyaning milliy miqyosda aniqlangan mavzuviy guruhlar bilan tanishish;

2) Nutqiy vaziyat va kontekstdagi evfemik vositalarni tan olish;

3) Muloqot nutqi va matnini hisobga olgan holda o'quvchilar nutqida evfemistik o'rin almashtirishlardan foydalanish malakasini shakllantirish ishlarini olib borish “O'zbek tili evfemalari o'quv lug'ati”ni o'rganishning muhim bosqichlari hisoblanadi. Shunda o'quvchilarimizning ongi-shuuriha ushbu lug'at yaxshi yetib boradi va muloqot madaniyatining shakllanishida muqim o'rinishadi.

Ba'zi o'quv lug'atlari muayyan fanni o'qitishda umumiy yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi o'zbek tili fani va uning o'zbek tili leksikologiyasi, semasiologiyasi kabi bo'limlari, yoki nutq madaniyati va uslubiyat asoslari fanlarini o'qitishda ushbu lug'at ham o'quv metodik ta'minot vazifasini o'taydi.

Masalan, tog'ridan to'g'ri aytish, noqulaylik, o'ng'aysizlik tug'dirishi mumkin bo'lgan, qo'pol tarzda aytiladigan va eshitiladigan shu o'rinda ochiq aytilishi “no'o'rin”, ya'ni, yashiriladigan, bekitiladigan urishmoq o'rnida qo'llaniluvchi evfemik ma'nodosh qatoriga e'tiborimizni qaratdik. Masalan:

aytishmoq, janjallashmoq, koyishmoq, mojaralashmoq, urishmoq, g'ijillashmoq, qizarishmoq, tiklashmoq, olishmoq, so'kishmoq. Bir-biriga tanbeh, koyish bildiruvchi so'zlar aytmog, san-manga bormog, Aytishmoq so'zida (aytishishda) janjal, mojaroning darajasi har xil (kuchli, kuchsiz) bo'lishi mumkin. Shuningdek, aytishmoq so'zi koyish, haqorat sodir bo'lgan holatda ham, sodir bo'lgan holatda ham qo'llanaveradi. Janjallashmoq, mojaralashmoq so'zlarining ma'nosidagi nozik farq ularning o'zagidan kelib chiqadi. Koyishmoq kam qo'llaniladi va bunda haqoratli koyish so'zlari ishlatilgan bo'ladi. Urishmoq, olishmoq, tiklamog so'zlarida “san-manga borish” kuchli darajada bo'ladi. G'ijillashmoq ko'proq og'zaki nutqqa xos. Qizarishmoq kam qo'llaniladi. So'kishmoq asosan haqoratli, beadab so'zlar bilan aytishish ma'nosida qo'llanadi [5].

O'rtaroqda aytishib o'tirgan ikki bola to'satdan bir-biri bilan mushlasha ketdi (H.G'ulom) va b. Keltirilgan o'rinlarda ushbu sinonimik qator lug'atdagi boshqa leksemalarning ham asosan uslubiy qo'llanilishi nuqtayi nazaridan funksional-semantik tahlil qilishga harakat qilingan (Ko'pgina so'z ma'nolarining kuchli kuchsiz darajasi haqida e'tibor qaratilgan, lekin darajalanuvchi sinonimik qatorning darajalanishi nuqtayi nazardan e'tibor qaratilmagan, muallif izohi). Bunda urishish jarayoni ko'pincha g'ijillashmoqdan so'ngra so'kishmoqdan boshlanishini e'tiborga olsak, olishmoq so'ngra qizarishmoq, jarayonidan o'tib tiklashmoq harakatida davom etadi. Shundan so'ng yuqoridagi harakatlar izchlligi, ketma-ketligi aytishmoqdan, janjallashmoqqa o'tib, nihoyat eng yuqori mazmun mojaralashmoq (nizoning kuchayib ketishi)qa qarab ma'no kuchayish yuzaga kelayotganligini anglash qiyin emas albatta. Bunda so'z ma'nolari ushbu harakat mazmuni orqali yuzaga chiqadi. Ushbu sinonimik qatorga qo'shimcha ravishda tortishmoq so'zini ham sinonim sifatida kiritish mumkin (albatta bu tavsiya). Xullas, anglashilganidek, nisbatan kuchsiz g'ijillashmoq, biroz jiddiy harakat so'kishmoq, so'ngra harakatning kuchayishi tarzida olishmoq va qizarishmoq, tiklashmoq, harakatning ancha kuchayganligini

anglatuvchi aytishmoq, janjallashmoq nihoyat undanda yuqori daraja va ko'rinishdagi mojaralashmoq kabi evfemik ma'nodosh so'zlar graduonimik munosabat kasb etmoqda. Namuna sifatida evfemik graduonim qatomi qayta shakllantiramiz: g'ijillashmoq, tortishmoq, so'kishmoq, olishmoq, tiklashmoq, aytishmoq, qizarishmoq, mojaralashmoq.

Ushbu graduonimik ketma-ketlikda berilishi semantik xususiyatlari to'g'ri tartiblangan qator tarzida baho berish mumkin. Qator bilan tanishayotgan kishi leksema ma'nolari haqida izchillikda tasavvur uyg'onishiga ham yordam beradi. Natijada so'z ma'nolarining farqini anglashi osonlashadi, fikrlashi kengayadi. Agar alifbo tartibida bo'lsa uni shaklga qarab shunchaki tez o'qib o'tkazib yuborishi mumkin.

“O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati”ning har ikkala (1974 va 2022) nashrida ham URISHMOQ leksemasining evfemik bo'lmagan sinonimik qatori alohida shakllantirilgan. Masalan URISHMOQ, OLISHMOQ, YOQALASHMOQ, SOLISHMOQ, MUSHTLASHMOQ, SO'QISHMOQ [6]. Ushbu qatorni yuqoridagi sinonimik qatordan ma'lum farqi evfemik emasligida deb aytish mumkin. Lekin mana shu sinonimik qatorda ham tadqiqotchi G'.Rahmonov aniqlaganidek, graduonimik munosabatlar mavjud. YA'ni harakat anglatuvchi leksemalarda harakatning kuchayib borishi nazarda tutilgan holda mazmuniy darajalanish asosida joylashtirilgan. Afsuski, shu kabi darajalanish mazmuni aks etgan leksemalar lug'at maqolalarida bu haqdagi fikr-munosabatlar, batafsil tarzda ifodalangan. Asosan leksemalarning uslubiy qo'llanilishi haqida fikrlar yuritilgan xolos. Ta'kidimiz shuki, lug'at maqolalarida ana shunday darajalanish mazmuni haqidagi izohlar ham ifodalinishi maqsadga muvofiq.

“O'zbek tili evfemalari o'quv lug'ati” (darajalanish asosida)ni tuzishda e'tiborga olinadigan tamoyillar quyidagilar:

Avvalo lug'atlarda qo'llanilishi milliy mentalitetimizga zid, (ammo lug'at fondimizda mavjud) taqiqlangan, odob-axloq meyorlariga to'g'ri kelmaydigan leksemalar ro'yxatini ya'ni denotat so'zlarni shakllantirish. Keyingi o'rinda ana shunday so'z o'rnida o'rin almashib qo'llaniladigan evfemik ma'nodoshlik kasb etuvchi so'zlarni aniqlash.

Evfemik xarakterdagi so'z va uning ma'nodoshlarining darajalanish qatori bilan birgalikda shakllantirish va ularni bir qatorda kamida uchta (ayrim o'rinlarda (mantiqiy ikkita)) so'zlikning evfemik ma'nodoshlarini graduonimik tamoyillarga ko'ra qatorini shakllantirish.

Evfemik graduonim vositalarning har birini mazmunan o'sish yoki kamayish ketma-ketligida izohlash. Izohli lug'atlarda ana shunday ketma-ketlikda berilmagan o'rinlarni shu asosda to'ldirib izohlash.

Harakat yoki belgining, nutqiy qo'llanilishdagi evfemik graduonim qatordagi eng quyi (ma'noda o'sish bo'lganda) mazmuni anglatuvchi leksemani aniqlash va uni graduonimik qatorning boshlanish nuqtasiga joylashtirish.

Harakat yoki belgining, nutqiy qo'llanilishdagi evfemik graduonim qatordagi eng yuqori (ma'noda kamayish bo'lganda) mazmuni anglatuvchi leksemani aniqlash va uni graduonimik qatorning boshlanish nuqtasiga joylashtirish.

Izohli lug'atlardagi ma'nodosh so'zlarning ma'nodoshlarini kengaytirish va ulardagi ayrim aynanlik va farqlik xususiyatlarini mukammal darajada izohlashga e'tibor qaratish.

Darajalanish qatorlari kamida uchta ma'nodoshlardan iborat darajalanuvchi birliklarning darajalanishi yuzaga kelayotganligini angatuvchi graduonim yoki darajalanish qisqartma belgilari grd. (graduonim), drj. (darajalanish) kabi shartli qisqartmalardan unumli foydalanish. Ushbu shartli qisqartmalardan birini “Lug'at tuzilishi va undan foydalanish” va “Shartli qisqartma va belgilar” qismlaridan izohi bilan joy olishini ta'minlash zarur.

Evfemik darajalanishda quyidagi omillar evfemik ma'noli leksemalar darajalanishining yuzaga kelishida alohida ahamiyatga ega. Masalan: 1) leksemaning yuqori badiiylkda qo'llanishiga ko'ra; 2) leksemalararo ma'noning kengayishiga ko'ra; 3) harakatni yumshog ifodalashdagi iceraxik munosabatga ko'ra; 4) Evfemalarda ijobiylik bo'yog'ining ortib borishiga ko'ra; 5) harakatning jiddiy tus olish darajasiga ko'ra; 6) evfemizmlarning yuqori madaniylik bilan qo'llanilish belgisining ortishiga ko'ra kabi omillar orqali evfemik darajalanish yuzaga kelishi aniqlandi.

№	Evfemik darajalanishning yuzaga kelish omillari	Evfemik birliklarning darajalanishi
1	Leksemaning yuqori badiiylkda qo'llanishiga ko'ra	XOTIN - yor → yostiqdosh → jufti halol → rafiqa → oyisi → turmush o'rtog → umrdosh / umr yo'ldosh
2	Leksemalararo ma'noning kengayishiga ko'ra	SEMIZ - etli, to'la, do'mboq, lopildoq, lappos

3	Harakatni yumshoq ifodalashdagi ierarxik munosabatga ko'ra	QAMALMOQ - qo'lga tushmoq/ushlanmoq → olib ketilmoq → sudlanmoq → hukm qilinmoq → yelkaga ilmoq → kesilmoq → ozodlikdan mahrum etilmoq → qora kursiga o'tirmoq / o'tirmoq → o'tirib chiqmoq
4	Evfemalarda ijobiylik bo'yog'ining ortib borishiga ko'ra	UYLANMOQ - beshikkerti qilinmoq → bag'ishlanmoq / atalmoq → non sindirmoq → boshini bog'lamoq / ro'mol bog'lamoq → fotiha bo'lmoq...
5	Evfemik harakatning jiddiy tus olish darajasiga ko'ra	AJRASHMOQ - orasidan ola mushuk o'tmoq → ahdi buzilmoq → yulduzi yulduziga to'g'ri kelmaslik → ko'ch ko'tarmoq/uyi buzilmoq → orani ochiq qilmoq → hayoti buzilmoq → pattasini qo'lga tutqazmoq/taloq qilmoq
6	Evfemizmlarning yuqori madaniylik bilan qo'llanilish belgisining ortishiga ko'ra	QARI - bolaligi ortda qolmoq → belidan quvvati ketmoq → soch oqarmoq → soqoliga oq tushmoq → tish tushmoq → yoshuli → oqsoqol → keksa → faxriya → otaxon/onaxon → bobo/buvi

Anglashilganidek, kelgusida nashr etiladigan “O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati” hamda “O'zbek tili evfemalarining izohli lug'ati” nashrlarida graduonimik munosabatni e'tiborga olish, badiiy asarlardan keltirilayotgan misollarni yangilash, unda evfemik ma'nodosh leksemalar paradigmasida so'zlarning nutqiy

qo'llanilishidagi ayrim leksemalarning graduonimik munosabatini inobatga olish, ushbu lug'atlarning takomilini ta'minlashga bevosita katta xizmat qiladi. Bu esa o'zbek tilining takrorlanmas xususiyatlarini anglash va leksemalarning ma'no qirralaridagi o'ziga xosliklar haqida tushunchalarga ega bo'lishda katta yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Раҳмонов Ғ.Р. Ўзбек тилида лугавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати: Филол.фан.б. фал.док. ...дисс. – Фарғона, 2019. – Б. 37.
2. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида лугавий градуонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996. – Б. 47.
3. Джумабаева Ж. Турли тизимли тилларида лексик ва стилистик градуонимия. Монография. – Тошкент, 2017. – Б. 97.
4. Баҳриддинова Б. Ўзбекистонда ўқув лугатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. докт (DSc) ... дисс. – Самарқанд, 2020. – 260 б.
5. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли лугати. Тошкент. Ўйитувчи. 1974. –Б. 23.
6. O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. II tom. – Toshkent. G'.G'ulom nashriyoti. 2022. 208 b.
7. Turdimurodov S. O'zbek tilida evfemik ma'no. – Toshkent. Lesson Press nashriyoti. 2023. 112 b.



Nilufar TURUMOVA,
GulDU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: nilufar@mail.ru

DSc, professor Sh.Botirova taqrizi asosida

THE UNITY OF TIME AND SPACE IN A LITERARY WORK

Annotation

This article explores the theoretical foundations of the unity of time and space in a literary work and their role in shaping artistic representation. The unity of time and space is analyzed as a crucial element that enhances the development of events, character portrayal, and the emotional and aesthetic impact of the work. Examples demonstrate how the harmony of time and space serves as a key tool for enriching the content of a literary piece.

Key words: Unity of time, unity of space, literary work, aesthetic impact, character portrayal, symbolic space, emotional experiences.

ЕДИНСТВО ВРЕМЕНИ И ПРОСТРАНСТВА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические основы единства времени и пространства в художественном произведении и их роль в формировании художественного изображения. Единство времени и пространства анализируется как важный элемент, влияющий на развитие событий, характеры героев, а также на эмоциональное и эстетическое воздействие произведения. Примеры показывают, как гармония времени и пространства служит ключевым средством обогащения содержания произведения.

Ключевые слова: Единство времени, единство пространства, художественное произведение, эстетическое воздействие, характер героя, символическое пространство, эмоциональные переживания.

BADIIY ASARDA ZAMON VA MAKONNING BIRLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy asarda zamon va makon birligining nazariy asoslari va ularning badiiy tasvirni shakllantirishdagi roli yoritiladi. Asarda zamon va makon birligi voqealar rivoji, qahramonlarning xarakteri hamda asarning hissiy va estetik ta'sirini oshiruvchi muhim element sifatida tahlil qilinadi. Misollar orqali zamon va makonning uyg'unligi asar mazmunini boyituvchi asosiy vosita sifatida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Zamon birligi, makon birligi, badiiy asar, estetik ta'sir, qahramon xarakteri, ramziy makon, hissiy kechinmalar.

Kirish. Adabiyot inson tafakkurining va tuyg'ularining badiiy ifodasidir. Badiiy asarlarni mukammal idrok etishda va ularning mazmunini tushinishda zamon va makon tushunchalari muhim o'rin tutadi. Zamon va makon – badiiy asarning asosi, qahramonlarning hayotiy voqealarini, xarakterlarini va ruhiy kechinmalarini tasvirlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Har bir asar o'z davrining muayyan bir tarixiy, ijtimoiy va madaniy voqeligini aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, zamon va makon badiiy olamni yaratish jarayonida nafaqat sahna, balki voqealarning rivojlanish asosidir.

Adabiyotshunoslik nazariyasida zamon va makon birligi drama janrida Aristotelning "Poetika" asaridan boshlab muhim tamoyil sifatida ko'rib chiqilgan. Keyinchalik bu birlik boshqa adabiy janrlarda ham o'z aksini topgan. O'quvchi badiiy asarni o'qiyotganda muallif tomonidan yaratilgan zamon va makon ichiga kirib, voqealarning rivojlanishiga guvoh bo'ladi. Shu sababli zamon va makonning to'g'ri tasvirlanishi asarning umumiy mazmuniga ta'sir ko'rsatadi va uning badiiy qiymatini oshiradi.

Mazkur maqolada badiiy asarda zamon va makon birligi tushunchasi, ularning o'zaro aloqasi va asarga ta'siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, zamon va makon birligining o'quvchiga ta'sir ko'rsatish xususiyatlari misollar asosida yoritib beriladi. Bu mavzuni o'rganish badiiy asarlarning tuzilishini va ularning mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Zamon va makon tushunchasi. Badiiy adabiyotda zamon va makon tushunchalari voqealar rivoji, qahramonlarning xarakteri va asarning umumiy mazmunini shakllantiruvchi muhim unsurlar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tushunchalar adabiy jarayonni to'liq anglash va asarni to'g'ri talqin qilishda muhim ahamiyatga ega. Zamon – voqealar sodir bo'layotgan vaqt oralig'i bo'lsa, makon – voqealar kechayotgan joy yoki muhitni anglatadi. Bu ikki tushuncha o'zaro birini to'ldirib, badiiy asarning yaxlitligini ta'minlaydi.

Zamon tushunchasi. Zamon badiiy asarda voqealarning qaysi davrda sodir bo'lganini, ularning ketma-ketligini va davomiyligini belgilaydi. U ikki asosiy ko'rinishda namoyon bo'ladi:

Tarixiy zamon – asarda tasvirlangan voqealar aniq tarixiy davrga bog'langan bo'ladi. Masalan, Lev Tolstoyning "Urush va

tinchlik" asarida Napoleon davrining tarixiy voqealari asos sifatida olingan.

Ramziy zamon – voqealar aniq tarixiy davrga bog'lanmagan bo'lib, ko'proq falsafiy yoki umumiy g'oyalarni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, Gabriel Garsia Markesning "Yolg'izlikning yuz yili" asarida zamon o'ziga xos ramziy ko'rinishda ifodalanadi.

Makon tushunchasi Makon voqealar sodir bo'layotgan joyni, muhitni yoki muallif tomonidan yaratilgan badiiy olamni anglatadi. Makon real yoki ramziy ko'rinishda tasvirlanishi mumkin:

Real makon – geografik jihatdan aniq belgilangan joy. Masalan, Ernest Xemingueyning "Parij bayrami" asarida Parij shahri tasvirlangan.

Ramziy makon – real hayotda mavjud bo'lmagan, muallif fantaziyasi mahsuli bo'lgan joy. Masalan, Jorj Oruellning "1984" romanidagi "Okeaniya" ramziy makon sifatida voqealar rivojini aks ettiradi.

Zamon va makonning o'zaro aloqasi. Zamon va makon tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular birgalikda badiiy asarning voqelikni ifodalash darajasini belgilaydi. Ushbu birlik voqealarning ishonchli va mantiqiy tasvirlanishini ta'minlaydi. Masalan, Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romanida zamon va makon birligi o'quvchini asarning markaziy g'oyasiga yaqinlashtiradi va uning ichki mazmunini ochib beradi.

Shunday qilib, zamon va makon badiiy asarning strukturaviy elementlari sifatida qahramonlarning hayotiy voqealari va ichki dunyosini chuqurroq tasvirlashga imkon beradi. Ushbu tushunchalarning o'rganilishi badiiy adabiyotning mohiyatini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Zamon birligi badiiy asarning voqealar rivoji, qahramonlarning xarakteri va asar mazmunining yaxlitligini ta'minlovchi muhim tamoyillardan biridir. U voqealarning qachon va qanday ketma-ketlikda sodir bo'lganini belgilash orqali asarning ichki mantiqiylikini va estetik yaxlitligini ta'minlaydi. Zamon birligi Aristotelning "Poetika" asarida drama janri uchun muhim tamoyil sifatida qayd etilgan bo'lsa-da, keyinchalik boshqa adabiy janrlarda ham keng qo'llanila boshlandi.

Zamon birligining mazmuni va ahamiyati. Badiiy asarda zamon birligi quyidagilarni anglatadi:

Vaqtning chegaralanganligi – asarda tasvirlangan voqealar muayyan vaqt oraliqida sodir bo'ladi. Bu voqealar o'zaro bog'liq va mantiqiy tartibda rivojlanadi.

Vaqtning izchil tasvirlash – vaqtning izchil va tartibli tasvirlanishi voqealar ketma-ketligini o'quvchiga tushunarli qilib taqdim etadi. Bu, ayniqsa, tarixiy va biografik janrlarda muhim hisoblanadi.

Asar g'oyasini ochib berish – zamon birligi orqali muallif voqealarni qahramonlar xarakteri va ichki kechinmalari bilan uyg'un tarzda ifoda etadi.

Badiiy asarda zamon birligining turlari. Badiiy asarda zamon birligi bir necha xil ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin:

Tarixiy zamon – asarda tasvirlangan voqealar real tarixiy davrga mos tushadi. Masalan, Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" romanida Napoleon davridagi voqealar tarixiy zamon birligiga asoslanadi.

Psixologik zamon – voqealar qahramonning ichki dunyosida sodir bo'lgan kechinmalar bilan bog'liq. Masalan, Jeyms Joysning "Uliss" romanida bir kun ichidagi voqealar qahramonning psixologik kechinmalari bilan uyg'unlashtiriladi.

Ramziy zamon – voqealar real vaqtga bog'lanmagan holda tasvirlanib, asarning asosiy g'oyasini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, Gabriel Garsia Markesning "Yolg'izlikning yuz yili" asarida zamon ramziy ma'noda tasvirlangan.

Zamon birligining badiiy asarga ta'siri. Zamon birligi asarning umumiy mazmunini chuqurlashtiradi va qahramonlarning harakatlarini o'quvchi uchun ishonarli qiladi. Zamon birligi orqali muallif:

Qahramonlarning rivojlanishini ochib beradi – qahramonlar voqealar davomida o'zgaradi, shaxsiy xususiyatlarini namoyon qiladi.

Voqealarning mantiqiylikini ta'minlaydi – voqealar bir-biriga bog'liq tarzda rivojlanadi, bu esa o'quvchiga asarni tushunishni osonlashtiradi.

O'quvchining vaqtini his qilishiga yordam beradi – zamonning aniq tasvirlanishi voqealarning o'ziga xosligini va ularning ta'sirchanligini oshiradi.

Misolalar. Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asarida voqealar bir necha kun ichida sodir bo'lib, qahramonning ruhiy va jismoniy kurashi zamon birligida aks ettirilgan. Bu bir tomondan voqealarning izchilligini ta'minlasa, boshqa tomondan qahramonning ichki dunyosini ochib beradi.

Shunday qilib, badiiy asarda zamon birligi muallifga asarning estetik butunligini ta'minlashga imkon beradi. Ushbu birlik nafaqat qahramonlar xarakterini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi, balki asarning mazmunini va falsafiy asoslarini ham boyitadi.

Badiiy asarda makon voqealar sodir bo'ladigan joy, muhit yoki sahna sifatida muhim ahamiyatga ega. Makon tasviri voqealarning mantiqiylikini va qahramonlar xarakterining rivojlanishini ta'minlaydi. U o'quvchiga asardagi voqealar olamini tasavvur qilish, qahramonlarning hissiyatlarini his qilish va asarning umumiy mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Makondagi tasvirning mazmuni. Badiiy asarda makon quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

Geografik makon – voqealar sodir bo'layotgan joyning tabiiy, ijtimoiy yoki madaniy tavsifi. Bu turdagi makon asar voqealarini real hayotga yaqinlashtiradi. Masalan, Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asarida dengiz qahramonning hayoti va ichki kechinmalari bilan uzviy bog'liqdir.

Ramziy makon – real geografik joy emas, balki muallif tomonidan yaratilgan badiiy olam. Bu makon odatda asar g'oyasini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, Jorj Oruellning "1984" romanida "Okeaniya" ramziy makoni totalitar rejimning mohiyatini ko'rsatadi.

Ichki makon – qahramonlarning hissiy va ruhiy dunyosini aks ettiruvchi tasvirlar. Masalan, Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" romanida qahramon Raskolnikovning xonasi uning ruhiy holatini ifodalaydi.

Makondagi tasvirning roli. Makondagi tasvir badiiy asarning mazmunini va qahramonlarning xarakterini ochib berishda bir qator muhim vazifalarni bajaradi:

Voqealar rivoji uchun fon yaratadi – makon voqealar sodir bo'ladigan muhit sifatida xizmat qiladi. Masalan, Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romanida Qozog'iston dashtlari voqealar rivojini belgilovchi asosiy fon hisoblanadi.

Qahramon xarakterini ochib beradi – makonning qahramon hayoti va faoliyati bilan bog'lanishi uning ichki dunyosini tushunishga yordam beradi. Masalan, G'afur G'ulomning "Shum bola" asaridagi Toshkent ko'chalari qahramonning bolalik ruhiyatini ochib beradi.

Asar g'oyasini boyitadi – makon ramziy ma'nolarni ifodalash orqali muallif g'oyasini chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Masalan, Kafka asarlaridagi noaniq va bosimli makon qahramonlarning cheklanganligini va o'zligini tasvirlaydi.

O'quvchiga hissiy ta'sir ko'rsatadi – makondagi tasvir orqali o'quvchi asar voqealarini o'ziga yaqin his qiladi. Masalan, Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" asarida qishloq va shahar muhitining tasviri orqali o'quvchi voqealarning tarixiy kontekstini his qiladi.

Makondagi tasvirning badiiy asarga ta'siri

Makondagi tasvir asar mazmunining butunligini ta'minlaydi va o'quvchini voqealar rivojiga jalb etadi. Bu, ayniqsa, quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

Asarning haqiqiylikini oshirish – aniq va real makon tasviri asarga ishonch uyg'otadi. Masalan, Abdurauf Fitratning "O'g'uzxon" dostonida tarixiy makon tasviri o'quvchini o'tmish voqealariga yaqinlashtiradi.

Vaziyatni dramatiklashtirish – makon tasviri voqealarning hissiy qudratini oshiradi. Masalan, Shakespearenig "Makbet" tragediyasida qorong'u qal'a muhiti voqealarning dramatzimini kuchaytiradi.

Qahramon va makon o'zaro aloqasi – qahramonlar harakati va hissiy holati ko'pincha makon tasviri bilan uyg'unlashtiriladi. Masalan, Jeyn Ostinning "Mag'rurlik va xurofot" asarida qahramonlarning jamiyatdagi mavqei va munosabatlari tasvirlangan muhit orqali ochiladi.

Makondagi tasvir badiiy asarning asosiy unsurlaridan biri bo'lib, voqealarning mantiqiy rivojlanishini ta'minlaydi, qahramonlarning ichki kechinmalarini ochib beradi va asar g'oyasini boyitadi. Makon real yoki ramziy bo'lishidan qat'i nazar, uning tasviri orqali muallif o'quvchini o'z badiiy olamiga jalb qiladi. Shuning uchun, badiiy asarda makonning to'g'ri tasvirlanishi asarning estetik va hissiy ta'sirini kuchaytiruvchi muhim omildir.

Badiiy asarda zamon va makon birligi voqealar rivoji, qahramonlarning xarakteri va asarning estetik yaxlitligini ta'minlaydigan muhim tushunchalar hisoblanadi. Ushbu birlik orqali muallif voqealar olamini yaratadi, o'quvchini asar ichiga olib kiradi va asarning mazmunini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Zamon va makon o'zaro bog'liq holda ishlatilganda, ular bir butunlikni hosil qilib, badiiy asarning ta'sirchanligini oshiradi.

Zamon va makonning o'zaro aloqasi. Voqealarning konteksti. Zamon va makon voqealarning mantiqiy rivojini ta'minlaydi. Masalan, Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" romanida voqealar aniq tarixiy zamon (Napoleon urushlari davri) va makon (Rossiya hududi) birligi orqali tasvirlangan. Bu birlik voqealarni ishonarli va mazmunan boy qiladi.

Qahramonlar va voqealar rivoji. Zamon va makon qahramonlar hayoti va ularning qarashlari bilan uzviy bog'liq. Qahramonning ichki kechinmalari va tashqi harakatlari ko'pincha zamon va makonning o'ziga xos xususiyatlari bilan mos keladi. Masalan, Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" romanida qahramon Raskolnikovning hayotidagi ruhiy kurashlar zamon (Peterburgning qashshoq ijtimoiy muhitidagi zamonaviy davr) va makon (tor va zulmatli xonalar) bilan uyg'unlashgan.

Ramziy ma'noda uyg'unlik Ba'zi asarlarda zamon va makon ramziy ma'noda ishlatiladi. Bu holda, zamon voqealarning umumiy falsafiy mazmunini anglatib, makon uning tasviriy shaklini yaratadi. Masalan, Gabriel Garsia Markesning "Yolg'izlikning yuz yili" asarida zamon doirasining qayta takrorlanishi va "Makondo" makoni ramziy ma'noda insoniyat tarixidagi muqarrar hodisalarni aks ettiradi.

Zamon va makonning bir-birini to'ldirishi

Zamon va makon birligi o'zaro to'ldiruvchi vazifani bajaradi: Asarning yaxlitligini ta'minlash – Zamon va makon birlikda ishlatilganda asar voqealari yaxlit va mantiqiy birlashtirilgan bo'ladi. Bu o'quvchini voqealarga ishonishga undaydi.

Hissiy ta'siri oshirish – Makonning hissiy va estetik tasviri zamonning ruhiy foniga moslashadi, bu esa o'quvchining voqealar rivojiga yanada chuqurroq kirib borishini ta'minlaydi.

Qahramonlarning ruhiy holatini aks ettirish – Zamon va makon o'rtasidagi uyg'unlik qahramonlarning ichki kechinmalari va voqealar oqimini aniqlashga yordam beradi.

Zamon va makon birligining badiiy asarga ta'siri

Voqealarning tabiiy rivojlanishi. Zamon va makon birligi voqealarning izchil va tabiiy tasvirlanishini ta'minlaydi. Masalan, Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romanida dashtning makoni va qahramonlar hayotidagi tarixiy zamon o'zaro uyg'un bo'lib, voqealarning chuqurligini ko'rsatadi.

O'quvchining voqealarga jalb qilinishi. Zamon va makon birligi o'quvchiga voqealarni his qilish, qahramonlar bilan birga

yashash imkonini beradi. Masalan, Shakespearenin "Romeo va Julietta" asarida Verona shahri (makon) va oila o'rtasidagi nizolar davri (zamon) birligi o'quvchini voqealarning markaziga olib kiradi.

Asar g'oyasini boyitish Zamon va makonning uyg'unligi asarning falsafiy va estetik jihatdan boy bo'lishiga xizmat qiladi. Bu bir butunlik nafaqat voqealarni yaxlit qiladi, balki muallif g'oyasini chuqurroq ochib beradi.

Zamon va makon birligi badiiy asarning mazmunini boyituvchi va uning ichki mantiqiyligini ta'minlovchi asosiy elementlardan biridir. Ular birgalikda o'quvchini voqealarning estetik va hissiy olamiga olib kiradi, qahramonlar xarakterini chuqurroq ochishga yordam beradi va asarning falsafiy mohiyatini boyitadi. Shu sababli, zamon va makonning o'zaro uyg'unligi badiiy asarning sifatli va mazmunli bo'lishini ta'minlaydigan muhim omil hisoblanadi.

Badiiy asarda zamon va makon birligi nafaqat voqealarning tabiiy va mantiqiy rivojlanishini ta'minlaydi, balki asarning hissiy va estetik ta'sirini kuchaytiruvchi asosiy vosita sifatida ham xizmat qiladi. Ushbu birlik orqali o'quvchi voqealarga yanada yaqinlashtiriladi, qahramonlarning ichki dunyosi va ular yashayotgan olam o'zaro uyg'un tarzda tasvirlanadi.

Xulosa. Zamon va makon birligi badiiy asarda voqealarning mantiqiyligini ta'minlabgina qolmay, balki asarning mazmunini boyituvchi, hissiy ta'sirini oshiruvchi va muallif g'oyasini o'quvchiga yetkazuvchi asosiy unsurlardan biridir. Ushbu birlik orqali o'quvchi asarning estetik va falsafiy qatlamlariga kirib boradi, voqealarni chuqurroq his qiladi va qahramonlarning hayotiy dunyosini kengroq anglaydi. Shu sababli, zamon va makon birligining badiiy ta'siri adabiyotdagi eng muhim vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Aristotel. Poetika. Toshkent: Fan, 2002.
2. Bakhtin, M.M. Forms of Time and Chronotope in the Novel. In: The Dialogic Imagination. Austin: University of Texas Press, 1981.
3. Lotman, Yu.M. Structure of the Artistic Text. Moscow: Nauka, 1970.
4. Galsworthy, J. The Forsyte Saga. London: Penguin Classics, 2001.



UDK:811. 512. 133'271

Shaxnozaxon USMONOVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: zafarbekismatov@gmail.com

DSc.professor M.Zokirov taqrizi asosida

LINGUOPRAGMATIC ANALYSIS A LITTLE OF LEXICAL MEANS OF EMOTIONAL-EKSPRESSIVENESS USED IN
ABDURAUUF FITRAT'S ART

Аннотация

We know well that pragmatics and the concept of emotional-expressiveness is still one of the central concepts in today's modern linguistics. On the example of the works of many poets and writers, this concept has been studied in several areas of linguistics. The use of these words, which express only the relation of value, in Fitrat's poems and their linguo-pragmatic analysis have not yet been studied. Therefore, this article analyzes the linguo-pragmatic features of linguistic tools expressing emotional-expressiveness in Abdurauf Fitrat's art. At the same time, the artistic findings of Fitrat are also studied, and what the poet actually wants to say is illuminated.

Key words: Emotion, emotionality, expressiveness, emotive, emotional-expressive meaning, emotional-expressive color, morphological method, pragmatics, linguopragmatics, stylistics

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ЛЕКСИЧЕСКИХ СРЕДСТВ ВЫРАЖАЮЩИХ ЭМОЦИОНАЛЬНО-
ВЫРАЗИТЕЛЬНУЮ ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТЬ ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АБДУРАУФ ФИТРАТА

Аннотация

Мы хорошо знаем что понятие, прагматика и эмоционально-выразительности по прежнему остоетсяодним из центральных понятий в современной лингвистика. На примере произведений многих поэтов и писателей данное понятие изучалось в нескольких областях языкознания. Употребление этих слов, выражающих лишь ценностное отношение, в стихотворениях Фитрата и их лингвопрагматический анализ до сих пор не изучены. Поэтому в данной статье анализируются лингвопрагматические особенности языковых средство выражения эмоционально-выразительности в прежнему произведениях Фитрата. При этом изучаются и художественные находки Фитрата, освещается то, что на самом деле хочет сказать поэт .

Ключевые слова: Эмоция, эмоциональность, экспрессивность,эмотив, эмоционально-выразительное значение, эмоционально-выразительная окраска, морфологический метод, прагматика, лингвопрагматика, стилистика.

ABDURAUUF FITRAT ASARLARIDA KELGAN EMOTSIONAL-EKSPRESSIVLIKNI IFODALOVCHI BA'ZI LEKSIK
VOSITALARNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

Аннотация

Zamonaviy tilshunosligimizda pragmatika va emotsional-ekspressivlik tushunchasi hali ham markaziy tushunchalardan ekanligini yaxshi bilamiz. Ko'plab shoir va yozuvchilarimizning asarlari misolida bu tushunchani bir necha tilshunoslik yo'nalishlarida tadqiq qilingan. Faqat baho munosabatini ifodalaydigan bo so'zlarni Fitrat she'rlarida qo'llanishi va ularning lingvopragmatik tahlilini hali o'rganilmagan. Shu bois mazkur maqolada Abdurauf Fitrat asarlarida emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi lisoniy vositalarning lingvopragmatik xususiyatlarini tahlil qilinadi. Shu bilan birga Fitratning badiiy topilmalarini ham o'rganilib, shoir aslida nima demochiligini yoritiladi.

Kalit so'zlar: Emotsional-ekspressiv ma'no, emotsiya, emotsionallik, ekspressivlik, emotiv, emotsional-ekspressiv bo'yoq, morfologik usul, pragmatika, lingvoparmatika, stilistika.

Kirish. Bugungi kunda tilshunoslikning eng muhim vazifalari: tilning jamiyatda tutgan o'rnini, tabiati, ijtimoiy funksiyasi, undan foydalanish, nutqni shakllantirish, muomala, muloqot samaradorligini ta'minlash, nutq jarayonida til birliklaridan foydalanishga e'tibor, madaniyatli, nutqi shakllangan shaxslarni tayyorlash, komil insonni tarbiyalash kabi masalalarni yoritishdan iboratdir. Chiroqli nutq tuzish malakasini egallashdek inson faoliyati borasidagi nozik muammolarga juda qadimdan alohida e'tibor qaratilgan ma'lum. Nutqiy faoliyatda adabiy tilning qonun-qoidalari, me'yorlariga amal qilgan holda, shuningdek, so'zlashish madaniyatini, boy tilimizdan maqsadga muvofiq foydalana olish malakasini egallash, va albatta, millatimiz mentalitetini hisobga olib turib, qabul qilingan urf-odatlar doirasida to'g'ri, tushunarli, aniq, mantiqli, jo'yali, ta'sirchan yozma va og'zaki nutq malakasini egallash insonning madaniylik darajasini, komilligini bildiruvchi, belgilab turuvchi bosh xususiyatdir. Kishilarning muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishlari va bunday faoliyatni doimiy o'rganishlari, nutqiy aloqaning samarali kechishini belgilovchi omillarni tadqiq etishlari uchun tilshunoslarimizga, jumladan, yoshlarimizga, juda keng imkoniyatlar mavjud. Zero yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek, "Yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun hech qachon o'zining dolzarbligini va zaruriyligini yo'qotmaydiga masala bo'lib qoladi". [1:44]. Nutqiy etiket va nutqiy faoliyat atamallari o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab ilmiy muomalaga kiritildi va alohida soha sifatida o'rganila boshlandi. Jumladan jahon tilshunoslari Lakoff, P. Braun va Levinson, G. Lich, S.Blum-Kulka, J. Kulpeper, M. Haug va boshqalar; [2] rus tilshunosligida Rudneva, Yezinkyan, Aplatov,

Belyayeva, Aplatov, Zemskaya kabi bir qancha olimlar tomonidan tadqiq etishgan. O'zbek tilshunosligida Sh. Iskandarova, S. Mo'minov, Sh. Safarov, H. Turdiyeva, B. Odinayev, S. Saydullayeva, A. Shomaxmudova, M. Xolova, N. Adanboyeva, N. Ruziyeva [3] kabi bir qancha tilshunoslar tomonidan xushmuomalalik kategoriyalari va usullari sotsiolingvistik, pragmatik aspektlarda "nutqiy etiket" ning leksik birliklari tahlil etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asrda Oksford maktabining yirik vakillari J.Ostin, J. Serl, G.P. Grays va ularning izdoshlari inson tili harakatlarini tabiiy sharoitlarda o'rganishga e'tibor qaratdilar. Bu olimlarning fikricha, tabiiy tilning asosiy maqsadi kishilar o'rtasida muloqotni ta'minlashdan iborat. Shunday qilib, lingvistik tadqiqotlar markaziga inson o'zining aloqa jarayonida ko'zlagan maqsadi, muloqotning samarali yakun topishini ta'minlovchi kommunikativ vaziyat sharoiti kabilar bilan kirib keldi. Oksford maktabi qarashlari mohiyatida mavjud olam, avvalo, kommunikativ vaziyatni hosil qiluvchi va so'zlovchining maqsadi va vazifalarini belgilovchi omil sifatida turadi. [4:5,10] Bu esa tilshunoslikda keskin burilishlar bo'lishini ta'minladi va tilshunoslikda XX asrda yetakchilik qilgan struktural paradigma asta-sekinlik bilan o'z o'rnini asosiy tadqiqot obyekti nutq va uning insonga munosabatini o'rganish bo'lgan antroposentrik, etnosentrik va kommunikativ qarashlarga bo'shatib berdi. O'zbek tilshunosligida lingvopragmatika haqida Sh.Safarov "Pragmalingvistika" [5], M.Hakimov "O'zbek pragmalingvistikasi asoslari" [6], Z.Pardayev "Pragmatik lingvistika"[7], N.Qazaqova "Badiiy matn pragmatikasi (G'afur G'ulom nasriy asarlari misolida)" [8] monografiyasini yaratganlarini bilamiz. Biz ham ushbu maqolamiz orqali Fitrat

asarlarida qo'llangan ayrim so'zlarning lingvopragmatik tahlilini ko'rib chiqamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Bilamizki, badiiy matn pragmatik tahlilida muallif va qahramonlar nutqiga oid oshkora va yashirin maqsad, ya'ni intensiya, nutqiy taktika, pragmatik ma'noning ifodalaniş usul va vositalari, pragmatik presuppozitsiya, fikrga qo'shimcha tarzda ifodalangan modal munosabatlar kabi masalalar diqqat markazida bo'ladi. Aynan shundan kelib chiqqan holda badiiy matn pragmatik tahlilida quyidagi mezonlarni qayd etishimiz mumkin:

Avvalo, badiiy matnda qo'llangan turli sathga oid til birliklarining muallif intensiyasi (maqsadi)ga mosligi aniqlanadi. Agar tilning barcha sathlariga oid birlik va vositalari yozuvchining ichki maqsadiga muvofiq tarzda qo'llansa, badiiy asarning shakli va mazmunini yaxlitligi ta'minlanadi. Ma'lumki, nutq murakkab va serqirra jarayon bo'lib, bunda tilning barcha sathlariga oid birliklar uyg'un tarzda muallif maqsadini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Yana bir mezonga ko'ra, badiiy matnning pragmatik potentsiali (ta'sir kuchi), emotsional-ekspressivligi va uni yuzaga chiqaruvchi vositalar tahlil qilinadi. Bilamizki, badiiy matnning boshqa matn turlaridan farqli jihati ham emotsional-ekspressivlikning kuchli ifodalanişini, tasvirlanayotgan voqelikning kitobxon his-tuyg'ulariga ta'sir etishi, to'liqlantirishi, muayyan obyektga nisbatan ijobiy yoki salbiy pozitsiyani shakllantirishi bilan xarakterlanadi. Badiiy matnning ta'sir kuchi informativlikning emotsionallikka yo'g'rilganida ko'rinadi. Misol uchun she'riy matn yuqori darajadagi emotsionallik mahsuli va ifodasi sanalsa, nasriy matnda ham his-tuyg'u ifodasi va ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu esa matnning pragmatik ta'sir kuchini yuqori bo'lishini ko'rsatadi. Masalan, Fitrat she'rlarida keltirilgan gul, kul, qopqon, ruh ("Achchig'lanma, degan eding"); yulduz, shaytonlar, zulular, qoplonlar, chog'ir ("Mirrix yulduziga"); bulutlar, umid, yirtilar, ezilasan, sezgisiz ("Ovunchoq") kabi so'zlar, ma'lum tushuncha anglatishdan tashqari, yozuvchining shu tushunchaga loqayd qaramasligini, aksincha, ijobiy va salbiy emotsional munosabatda ekanligini ham ko'rsatib turadi. Bu baho elementi tinglovchi tomonidan ham odatda, so'zlovchi nazarda tutgandagidek idrok etiladi. Tilshunoslikda bunday xususiyatga ega bo'lgan leksika emotsional-ekspressiv bo'yoqdor leksika, stilistik bo'yoqdor leksika, ekspressiv-stilistik leksika terminlari ostida o'rganilmoqda. Fitrat she'rlarida qo'llangan badiiy matn (jumladan, she'r)larda qo'llangan ko'plab leksikalarda ijobiy va salbiy baho munosabati mavjud. Bu baho elementi tinglovchi tomonidan ham odatda, so'zlovchi nazarda tutgandagidek idrok etiladi. Tilshunoslikda bunday xususiyatga ega bo'lgan leksika emotsional-ekspressiv bo'yoqdor leksika, stilistik bo'yoqdor leksika, ekspressiv-stilistik leksika terminlari ostida o'rganilmoqda. Bu nom, umuman olganda, obyektiv haqiqatga mos keladi, chunki bu xil atamalar bu tip leksikaning eng muhim jihati — emotsional-ekspressiv baho elementiga ega ekanligini nazarda tutadi [9]. Bu jarayonni Fitrat asarlari misolida ko'rib chiqsak.

Odatda, undov so'zlar his-tuyg'uni bo'rttirib ko'rsatish uchun qo'llanadi:

Oh... u kunlar!...

Sho'r suvlardan chiqib kelgan bu maymun,

Tulki, ilon, shayton, aldovchi mal'un

Anglizlar!...

Hamda uning quyrug'ini tutkanlar! ("Qor") [10]

Mazkur she'rda Fitrat "Oh" undov so'zi orqali o'z his-tuyg'usini yanada bo'rttirib anglatishga urinyapti. Bundan tashqari shoir ushbu she'rda inglizlarni maymun, tulki, ilon, shayton kabi sifatlashlar orqali polisemik gradatsiyani yuzaga keltirgan. Bu orqali ingliz xalqining aldovchi xalq ekanligiga urg'u bergan.

Gapur menga, ey Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi?! "Yurtim qayg'usi" she'rda kelgan ushbu "Ey" xitobi adibning yurti kelajagi uchun ancha qayg'udaligini yana bir bor ta'kidlayapti.

Fitratning "Munozara" dramasi qahramonlari nutqida "hoy" va uning eskirgan varianti "ay" undovini ketma-ket qo'llash orqali gap mazmuniga gradatsiya yuklangan o'rinlarni uchratamiz:

Mudarris: Hoy, bechora farangi! Sen shariatni bilmaysan... Ay, odam, og'zingni yum! Shar'iy mas'alalar haqida behuda gapurma [11].

Shu asarda yana "ay" undovi "hoy" undoviga nisbatan kuchliroq salbiy munosabat ifodalashini quyidagi gapda ham ko'rishimiz mumkin:

Mudarris: Ay, odam, sen madrasa ko'rmagan, bizning ilmlarni o'qimagan bo'lsang, bu gaplar bilan nima ishing bor?..

"Hoy" so'zining o'rnida eskirgan "o'y" leksikasini qo'llash orqali tinglovchiga nisbatan kuchli tahdid borligini anglaymiz.

Demak, "o'y" undovi "hoy" va "ay" undovidan ko'ra salbiyroq munosabatni ifodalalar ekan:

Mudarris (Fursat bermasdan kamoli g'azab bilan): O'y, o'y... E odam, og'zingga qara, islom ulug'lari haqida gap gapirma, seni shunday jazolab, chekkaga surayki... [11]

Matn remarkalarida undalma bilan "ay" undovini qo'llash orqali borgan sari noilojlikda qolgan odam iltijosini ko'ramiz:

Mudarris: (Ay Xudo! Bu nogahon baloni qayerdan boshing'a yubording? Meni asta-asta rasvo qilishiga yaqin qoldi.) [11]

"Hoy" so'zining o'zini qo'llash orqali kuchli g'azab ma'nosi anglashiladi:

Mudarris: Hoy, nodon, yana foydali maktab deysan. Gumon qilasanki, men hali sening firibingga aldanyapmanmi? [11]

Endigi undov so'zimiz matn tarkibida bir o'zi gap hosil qilgan. Bunday vaqtlarda undov so'z ma'nosi yanayam kuchayib, matnda salbiy yoki ijobiy emotsionalikni oshirayotganini kuzatamiz:

Mudarris: O'ho! Hammasi qayoqda?! Faqat aytilgan jumlaning o'qiydilar [11].

Yuqoridagi misolda "o'ho" undovi yakka o'zi gap hosil qilgan bo'lsa, navbatdagi misolimizda gap tarkibida kelib yana bir boshqa mazmuni ifodalagan:

Mudarris: O'ho, biz Buxoro ulamosi arab tilini arablarning o'zidan ham yaxshiroq bilamiz [11].

Keyingi mezon tavsifida muallifning o'ziga xos uslubi, muloqot strategiyasi va til birliklarini pragmatik omillarga mutanosib qo'llanishi bilan bog'liq xususiyatlarni o'rganiladi. Masalan, Fitratning bir qancha she'rlarida til nuqtayi nazaridan mukammal ishlangan mumtoz badiiyat namunalarini qatorida tura oluvchi asarlardan bo'lib, umumxalq tili va o'sha davr uchun yangilik bo'yog'i sezilib turgan neologizmlardan foydalanish mahoratining betakror namunasi sanaladi. Tilshunoslikda erkalash-suyish, ko'tarinkilik, ulug'vorlik, hurmat-e'zozlash kabi ma'nolarni bildiruvchi so'zlar ijobiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar sanaladi. Masalan: arslonlar o'lkasi, millatning saodati, baxti ("O'gut"), ma'rifat nuri ("O'qut'uvchilar yurtiga"), ishqning eng nozli, erka, injiq yog'dusi, ma'shuq ("Shoir"), Erka malak, nozli quyosh, umidimning guli ("Achchig'lanma, degan eding"), munisim, hamdamim, madadkorim ("Go'zalim, bevafo gulistonim"), qip-qizil gulim, yop-yorug' oyim, mungli ko'nglumning podishosi, ko'nglimning buti yo xudosi ("Kim Deyay Seni?"), Qizil gulim, qora ko'zim, tilagim ("Bir oz kul"), Ey arslonlar arsloni, yo'lbars yanakli bolalar, tog' g'avdali o'g'lonlar ("Yurt qayg'usi") kabi. Bu misollar Fitrat she'rlarida uchragan shaxsiy topilmalarimiz hisoblanadi.

Nafarat, g'azab, kinoya, kesatiq, jirkanish, munmanlik, mensimaslik, kibrilik, masxara kabi subyektiv munosabatni ifodalovchi so'zlar esa salbiy ma'no qirrasiga ega so'zlar sirasiga kiradi. Fitrat she'rlarida ham bundan leksikalarni uchratamiz. Masalan: maymun, tulki, ilon, shayton, aldovchi mal'un Anglizlar, hamda uning quyrug'ini tutkanlar! ("Qor"), o'ksuzlangan tilak, yo'qul jon ("Yana yondim"), g'arbli olbosti ("Sharq"). Bular esa shoirning she'rlarida ishtirok etgan salbiy o'ttenkali so'zlar asosidagi shaxsiy topilmamizdir.

Bu kabi nozik ma'nolarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va baholash lisoniy tahlilning asosini tashkil qiladi. "Poetik morfologiyaning tadqiq doirasi ulardan biri o'ziga xos qo'llangan affiksalar poetik tadqiqi jarayonida, avvalo, turli leksik-grammatik kategoriyalar jihatidan bo'linishi hisobga olinadi" [13]

Badiiy asarda qo'llanilgan morfologik paralelizm yoki har qanday tasviriy-ifodaviy vositani qayd etish yoki mavjudligini ta'kidlashning o'zi yetarli bo'lmaydi. Asl maqsad shu tarzda tasviriy vositalar yoki badiiy san'atlar yozuvchi aytmog'chi bo'lgan fikrni qay darajada ravon, qulay, jozibador yoxud san'atkorona ifodalashga xizmat qilganini aniqlashga qaratilishi lozim. Aks holda, bu jo'n va zerikarli mashg'ulotga aylanadi. Badiiy tasvir vositalari o'z nomi bilan badiiyatga xizmat qiluvchi vositalardir. Ular biz uchun qidirib topilishi shart bo'lgan narsa yoki asosiy maqsad emas. Uslubiya misol:

Mudarris: Choy sovudi. Siz juda g'avg'ochi ekansiz [11].

Morfologik birliklarning alohida estetik maqsad bilan she'riy nutqda parallel ravishda qo'llanilishi ko'p kuzatiladi.

Meni behuda tashlading ketding,

Nega o'ldirmading-da, tashlading ketding [10].

Xulosa va takliflar. Yuqorida fikr va tilshunoslar qarashlari hamda ular asosida berilgan misollar Abduraf Fitratning davr adabiy tilini shakllantirish va takomillashtirish borasidagi pragmatik qarashlari o'zbek tilshunosligining XIX asr oxiri XX asr boshlari davriga oid mavjud nazariy fikrlarni boyitishga xizmat qilganini

isbotlaydi. Yana adibning o'zbek tilshunosligida dramatik va lirik uslubga xos bo'lgan hozirjavoblik, hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirish, isbotlash, o'quvchini bunga

ishontirish hamda shu maqsadga muvofiq holda tilning lug'aviy birliklaridan foydalanish kabi lisoniy me'yorlarning shakllanishidagi xizmatini ham ko'rsatib bergan.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson maanfaatlarini taminlash – yurt taaqqiyoti va xalq farovonligiing garovi. – Toshkent, "O'zbekiston" NMIO, 2017. – B. 44.
2. Руднева Е.А. Рецензия на книгу: Dániel Z. Kádár., M. Naugh "Understanding Politeness" // Антропологический форум, № 27, 2014. – С. 214-221.; Ерзинкян Е. Л. Лингвистическая категория вежливости: семантика и прагматика, Ереван, Издательство ЕГУ 2018, – С. 46-87; Алпатов В.М. Категория вежливости в современном японском языке. Москва.: Наука, 1973; Беляева Е.И. Принцип вежливости в речевом общении // Иностранные языки в школе, 1985, № 2. – С. 3-10; Ерзинкян Е.Л. Концепт вежливости в свете теории речевых актов // Иностранные языки в школе, № 4-5. Ереван, 2009. – С. 62-73; Земская Е.А. Категория вежливости в контексте речевых действий // Логический анализ языка. Язык речевых действий. Москва: Наука, 1994. – С. 131-136
3. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фанлари номзоди... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 140.; Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари дри...дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 235.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 320. Турдиева Х. Нуткий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (ПхД) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б.180.; Odayev B. O'zbek nutqiy mulqotning lingvopragmatik xususiyatlari (Erkin A'zam asarlari misolida): Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2024. – B. 54.; Saydullayeva S. Ingliz va o'zbek tillarida nutqiy etiketlarning lingvomadaniy xususiyatlari: Filol.fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD)...diss. Avtoref.– Samarqand, 2023. – B. 48. ; A. Shomaxmudova, Nutqiy aktlar kontekstida hurmat tamoyillarini voqealantiruvchi sotsiopragmatik omillar (Ispan tili misolida); Filol. fanlari dok. (DSc)... diss. avtorf. – Toshkent. – 2023. – B. 9.; Xolova M. Ingliz va o'zbek badiiy asarlarda xushmuomalalik kategoriyasining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyatlari. – Buxoro: Kamolot, 2023. – B. 66.; Adanboyeva N. Ingliz va o'zbek tillarida xushmuomalalik kategoriyasining aksiolingvistik tahlili: Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD)...diss. Avtoref.– Farg'ona, 2024. B. 55.; Ruziyeva N. Ingliz va badiiy diskursi dinamikasida xushmuomalalik strategiyalarining shartlanishi: Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD)...avtoref. – Buxoro, 2024. – B. 48.
4. Wolfram Bublitz Andreas H. Jucker Klaus P. Schneider.Handbooks of Pragmatics, – Walter de Gruyter GmbH & Co. KG, Berlin/Boston, 2011. – B. 86.
5. Темиргазина З.К. Современные теории в отечественной и зарубежной лингвистике.- Павлодар. 2002. – с. 65-96-97. Axrorov A. Lingvopragmatika. O'quv qo'llanma. "Lesson Press" MCHJ nashriyoti, 2023. – 5-10-b.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. Б.318.
7. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. –Тошкент: Академнашр, 2013. – 176 б.
8. Пардаев З. Прагматик лингвистика (ўқув-услубий қўлланма). –Самарқанд, 2013. Б.262.
9. Қозоқова. Н. Бадий матн прагматикаси (Ғафур Ғулум насрий асарлари мисолида) – Наманган, 2022. – 136 б.
10. Ўзбек тили лексикологияси. - Тошкент: Фан, 1987. – 160 б.
11. «Шарқ юлдузи» журнали.- Тошкент, 1991.– 6 сон. – 4, 22 б.
12. Фитрат. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. –4-, 47-, 52-, 56-, 57-,60-, 61-,63-, 69-,70-, 73-б.
13. Рихсиева Г. Нисбат шакллариининг лингвопозтик тадқиқига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, 2-сон. – Б. 75-77.



УДК:808.5

Тимур ХАМРАКУЛОВ,

Преподаватель Международного Университета Туризма и Культурного Наследия «Шелковый Путь»

E-mail: t_hamrakulov@mail.ru

По отзыву доцента НИСИ П.Ботирова

ОСОБЕННОСТИ ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ДЕТЕКТИВА Д.БРАУНА

Аннотация

В данной статье рассматриваются примеры широкой возможности интерпретации в интеллектуальных детективах Д.Брауна, отмечается многофункциональность использования мощного пласта культурной информации, создание новой нарративной модели.

Ключевые слова: Интертекстуальность, нарративная модель, авторское сознание, интеллектуальный детектив.

INTELLEKTUAL DETEKTIV D.BRAUNNING INTERTEKSTUALLIGI XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada D.Braunning intellektual detektiv hikoyalarida talqin qilishning keng imkoniyatlari misollari ko'rib chiqiladi, madaniy ma'lumotlarning kuchli qatlamidan foydalanishning ko'p qirraliligi va yangi hikoya modeli yaratilishi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Intertekstuallik, hikoya modeli, muallif ongi, intellektual detektiv.

FEATURES OF INTERTEXTUALITY OF THE INTELLECTUAL DETECTIVE STORY BY D. BROWN

Annotation

This article examines examples of the broad possibility of interpretation in the intellectual detective stories of D. Brown, notes the multifunctionality of using a powerful layer of cultural information, and the creation of a new narrative model.

Key words: Intertextuality, narrative model, author's consciousness, intellectual detective story.

Введение. Интеллектуальные детективы Д.Брауна интересны, насыщены разнообразной, но всегда эксклюзивной культурной информацией. Насыщенная культурная информация, обращение к «неизвестным» страницам творчества художников и скульпторов, проникновение в тайные пространства музеев и Ватикана-делает интеллектуальные детективы Д.Брауна несомненно отличным креативным полигоном для исследователей. Считаем продуктивной идею неразрывной связи «когнитивного механизма» и его продукта(авторское сознание - структура и жанр произведения).

Анализ литературы по теме. Художественное сознание в трактовке Л.А. Зака это- «механизм(способ) художественно-образного освоения мира, система идеальных структур, порождающих, программирующих и регулирующих художественную (творческую и воспринимательскую) деятельность и ее продукты»(Зак 1990:7). Как уже отмечалось, авторское сознание, широкий интеллектуальный горизонт, креативность Д.Брауна, глубокая начитанность во многих культурологических и технологических вопросах способствовали созданию интеллектуального детектива. Согласимся с утверждением У.Эко: «Повествование в современных романах, напротив, направляет интерес читателя прежде всего на непредсказуемость того, что произойдет, т.е. на новизну сюжета, который выдвигается на первый план» (Эко 2005: 180). Во всех пяти интеллектуальных детективах Д.Брауна традиционное для жанра убийство мотивировано, связано и происходит в мощных параметрах культурологического факта, истории или великой книги. Информация, судя по наличию в каждом детективе, тематических «Благодарностей», была неоднократно интерпретирована автором. Возможно спрогнозировать алгоритм подобной до вербальной работы писателя: предварительно найти символ в большом количестве материала, который затем сужается, концентрируется и реализуется в «квест», затем необходимо зашифровать его для расследования Р.Лэнгдоном, показать процесс расшифровки в ткани художественного текста. Сопоставляя «Благодарности» и знаковые приметы в деталях «пазла» для «квеста» уже в готовом тексте, возможно ощутить сложную, многоуровневую интерпретационную работу Д.Брауна.

Филологи выделяют несколько видов информации в художественном тексте (Гальперин, Валгина, Болотнова, Моль), подчеркивая логическую и эстетическую, содержательно-концептуальную, подтекстовую(Папина). Считаем, что в данной классификации важно следующее понятие: «Эстетическая информация связана с авторской картиной мира, его целями, мотивами, эмоциями, оценками, воплощенными в образной

форме... Особенностью эстетической информации является воплощение автором знаний о мире в образной форме в целях самовыражения и художественного воздействия на адресата» (Болотнова 2009:41).

Уже в первом произведении «Ангелы и Демоны» Д.Браун апеллирует к мощному пласту информации, связанной с культурой «Иллюминатов». Образное определение Ю.М.Лотмана, что «текст подобен зерну, содержащему в себе программу будущего развития», следует понять применительно к предварительной «до текстовой» интерпретации Д.Брауна информации о связях Галилея и Мильтона, архитектурном таланте Рафаэля и символах «Иллюминатов» в работах Бернини («Ангелы и Демоны»). Н.А.Кузьмина в исследовании «Интертекст. Тема с вариациями» уточняет разные аспекты его проявления, суммируя, подчеркивает: «...среди текстов влияния такого рода может быть выделено три группы: тексты культуры, политические тексты и реклама»(Кузьмина2018:86). Культурная информация в детективах Д.Брауна анализируется с неожиданной стороны, на которую акцентирует автор: «Художественный текст зиждется на субъективной интерпретации» (Шехтман 2005:21). Именно субъективная интерпретация Д.Брауном всего корпуса предварительных знаний, отбор той векторной информации, которую можно использовать в качестве зашифрованного «послания» в деле криминального расследования есть основа его интеллектуальных детективов. «До вербальную» интерпретацию и ее реализацию в художественном тексте можно образно представить, как два параллельных течения. Отметим важный базис интерпретации, который включает диалогичность-знания. Вне интеллектуального багажа и специализированных знаний (истории культуры разных эпох и стран, творчества художников, организаций Иллюминатов, Приората Сиона, Масонов, понимания внутренней работы музеев и архива Ватикана и т.д) автор не мог бы вступить в полноценный диалог с артефактом культуры или книгой Данте, тем более интерпретируя их. Н.А.Кузьмина приводит убедительные цитаты ученых разных гуманитарных дисциплин, трактующих явление интертекстуальности. Выделим определение И.П.Смирнова: «... способность текста полностью или частично формировать свой смысл посредством ссылки на другие тексты» (Кузьмина 2018:41).

Криминальная тема всех детективов Д.Брауна развивается на фоне мощного культурного пространства, как в прямом, так и в образном понятии этого значения. Место преступления – великие здания, можно сказать Прецедентные пространства культуры –Лувр, Вестминстерское аббатство в

детективе «Код да Винчи»; Капитолий, Библиотека Конгресса- в «Утраченном символе»; Музей Данте, Палаццо Веккьо, Собор Святой Софии – в «Инферно»; музей Гуттенхайма, Фамилия Саграда в «Происхождении».

Культурологическая информация, касающаяся даже одной картины или истории создания Фамилии Саграда Гауди, или необходимый для бегства героев «коридор Вазари», все подвергалось осмыслению Д.Брауна для создания именно такой нарративной модели детектива. В каждом произведении отмечается процесс диалогизации автора с артефактом, культурным пространством и перевод посредством «демонстрации» когнитивного процесса Р.Лэнгдона в плоскость криминального расследования. Все вышесказанное еще раз подтверждается словами В.Н.Черниговской: «... система знаний, сложившаяся к моменту создания вторичного текста и обуславливающая его понятийно-терминологические и методологические рамки» (Кузьмина 2018:41).

Методология исследования. Художественная ценность интеллектуального детектива Д.Брауна не вызывает негатива у многочисленной критики в первую очередь из-за огромного масштаба культурной информации и уникальной работы с ней автора (когда «понятийно-терминологические рамки» раздвинуты в план художественный- Т.Х.). Нарративная модель детектива Л.Брауна создана по его личностным когнитивным лекалам, а значит, неповторима.

Анализ и результаты. Обращаясь к последнему интеллектуальному детективу «Происхождение», текст которого насыщен современными достижениями (искусственный интеллект Уинстон, суперкомпьютерный гений Э.Кирш и т.д.), отметим традиционные «Благодарности»: «Благодарю команду блестящих ученых Суперкомпьютерного центра Барселоны, которые щедро делились со мной идеями, энтузиазмом, своим удивительным миром...»(Браун 2017:539), а также «спасибо моему компьютерному гуру...». Читая между строк данные благодарности, следует обосновать их значение и связь с текстом детектива.

1. Появление в последних детективах не похожих героев на фанатичных маньяков, против которых борется Р.Лэнгдон, очевидно. Блестящий ученый-биолог Б.Зобрист, интеллектуал и знаток Данте в «Инферно», одержимый идеей уничтожить версию «божественного происхождения» человечества Э.Кирш в «Происхождении». Делать Р.Лэнгдона предельно сведущим в вопросах новейших компьютерных технологий, значит, идти против художественной логики и достоверности. Поэтому в детективе «Инферно» союзником в вопросах биологии и здравоохранения выступает доктор Сински, а Р.Лэнгдон тщательно интерпретирует все, что касается «Божественной комедии». Компьютерную «часть» в детективе «Происхождение» курирует Искусственный Интеллект Уинстон, а художественную загадку, зашифрованную Э.Киршем в стихотворении У.Блейка, традиционно решает Р.Лэнгдон.

2. Криминальный конфликт разворачивается в параметрах культурного пространства (Флоренции, Венеции, Стамбула- «Инферно») или Барселоны в детективе «Происхождение», поэтому Р.Лэнгдон, неоднократно посещавший данные города и музеи, традиционно выполняет роль культурного гида, открывая новые возможности для расследования. Поэтому прием в качестве доказательства определение интертекста, которое по всем параметрам определяет интеллектуальные детективы Д.Брауна: «Интертекст - это объективно существующая реальность, являющаяся продуктом творческой деятельности человека, способная бесконечно самогенерировать по стрелке времени» (Кузьмина 2018: 42). Считаем, что принципы интерпретации культурного материала, если соглашаться с мнением ученых (Лотман, Руднев, Степанов, Золян, Р.Барт), что «весь воспринимаемый нами эволюционирующий мир рассматривается как множество текстов», применимы уже к первому детективу Б.Брауна.

Начало расследования всегда Д.Браун начинает с анализа некоего Прецедентного Имени или артефакта: « A little book written by a guy named Galileo... It is supposed to contain something called il segno... sign, clue, signal” (Brown 2000: 205). Информация об Иллюминатах подается в произведении дозированно, начиная

с анализа клейма на груди Л.Ветра, поэтому логично, что автор создает напряженный «внутренний монолог» Р.Лэнгдона, заставляя его вспоминать все больше подробностей по теме «а диалог в архиве с В.Ветра приводит к первой расшифровке. Источником знака должны стать три книги Галилея: «Dialogo... Discorsi... Diagramma». Напряженность поиска и масштабы архива Ватикана сопряжены с коротким отрезком времени- 4 часа до объявленной двойной опасности: взрыв антивещества и казни кардиналов. Д.Браун в данном произведении и в последующих любит сложные, многоходовые подсказки: герои нашли источник- второй ход-найти нечто математическое «diga ruga»; третий этап –обоснование подсказки в четверостишие Мильтона на английском языке, который и 16 веке для Ватикана оставался «вне интереса»; четвертый этап интерпретации знаний в вектор расследования заключается в ложно понятий подсказке Мильтона: «From Santi's earthly tomb with demon hole» (Brown 2000: 252). Как видим, Д.Браун собирает «пазлы» из трудов Прецедентных имен (Галилей-Мильтон- Рафаэль), а поскольку информация не очевидная, то в тексте детектива существует один из вариантов такого загадочного комплекса, как можно предположить. Каждый этап расследования Р.Лэнгдона - это несколько вариантов подсказок, порой ложных, что еще более усиливает напряжение повествования. Автор приводит интересные сведения о встрече Мильтона и Галилея в 1638 году в Риме, что закреплено на полотне художника эпохи Возрождения : «Annibale Gatti's famous Galileo and Milton which hung even now in the IMSS Museum in Florence» (Brown 2000:249).

Интерпретация художественных полотен традиционно для Д.Брауна входит в общую систему интерпретации. В произведении «Код да Винчи» каждая картина Леонардо будет иметь серию подсказок, зашифрованных Соньером. В интеллектуальном детективе «Утраченный символ» картина Дюрера «Меланхолия» будет настоящим художественным квестом для понимания пути спасения Питера Соломона. «Инферно» - пример чистой литературной интерпретации знаковой книги – «Божественной комедии» Данте, содержит сцену, в которой Р.Лэнгдон пытается интерпретировать картину Вазари «Битва при Марчанах» в поисках подсказки или картину Боттичелли, являющуюся иллюстрацией «Ада».

Логическим обоснованием обращения к скульптурным творениям Бернини служит символика Иллюминатов и целенаправленная казнь кардиналов ассасином. Когнитивной задачей Р.Лэнгдона является интерпретация всех скульптурных работ Бернини, чтобы из огромного количества выбрать соответствующие четырем стихиям, чтобы за короткое время успеть опередить убийцу. Таким образом, базой для успешной интерпретации «материала» являются глубокие знания вопроса Р.Лэнгдоном, его умение концентрироваться в кризисной ситуации. Примечательно, что Д.Браун создает «этапы расследования» героя, имитируя реальное пространство Рима, реальное время достижения фонтанов или церкви на машине, в соответствии с законами(погоня) и параметрами жанра.

Заключение. Выводы:

1.Интерпретация в широком смысле этого понятия есть особенность нарратива Д.Брауна, что соответствует высокому интеллектуальному уровню его авторского сознания.

2.Культурологическая информация, касающаяся даже одной картины или истории создания Фамилии Саграда Гауди, или необходимый для бегства героев «коридор Вазари», все подвергалось осмыслению Д.Брауна для создания именно такой нарративной модели детектива.

3.В каждом произведении отмечается процесс диалогизации автора с артефактом, культурным пространством и перевод посредством «демонстрации» когнитивного процесса Р.Лэнгдона в плоскость криминального расследования.

3. Нарративная модель детектива Л.Брауна создана по его личностным когнитивным лекалам, а значит, неповторима.

4.Криминальный конфликт разворачивается в параметрах культурного пространства (Флоренции, Венеции, Стамбула- «Инферно») или Барселоны в детективе «Происхождение», поэтому Р.Лэнгдон, неоднократно посещавший данные города и музеи, традиционно выполняет роль культурного гида, является аналитиком, способным когнитивно провести расследование.

ЛИТЕРАТУРА

1. Болотнова Н.С. Коммуникативная стилистика текста. Словарь-тезаурис. М.: Флинта, 2008. - 382 с.
2. Браун Д «Происхождение»- М.: Издательство АСТ,2022. -544 с.

3. Васильчикова Т.Н. Теория интертекста в филологии: основные этапы исторического формирования// Известия Самарского научного центра РАН. Социальные, гуманитарные, медико-биологические науки, т.18.-2016, №1(2).- С.180-196.
4. Закс Л.А. Художественное сознание. - Свердловск, 1990.-112 с.
5. Кузьмина Н.А. Интертекст. Тема с вариациями. Феномены языка и культуры в интертекстуальной интерпретации М. : Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2018.-272с.
6. Шехтман Н.А. Понимание речевого произведения и гипотекст-Оренбург. Из-во ОГПУ, 2014.- 148с.
7. Эко У. Роль читателя. Исследования по семиотике текста. Санкт-Петербург «Symposium» 2005.- 236с.
8. Brown D Angels and Demons.- London. A Random house Group Company, 2000.- 620 p.



UDK:811 111 1

Azizbek XOLISOV,
Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti o'qituvchisi
E-mail: azizbekxolisov@gmail.com

ADCHTI professori Z. Kobulova taqrizi asosida

BRIEF CONSIDERATIONS ON THE TYPOLOGICAL ANALYSIS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION TERMS

Annotation

While the time is rapidly developing, training of builders-engineers, architecture, construction structures, metal structures, technology of construction processes, technology of construction of buildings and structures, organization of construction and construction and related issues are gaining relevance.

Key words: Builder-engineer, complex, term, typology, topical, considerations.

КРАТКИЕ СООБРАЖЕНИЯ О ТИПОЛОГИЧЕСКОМ АНАЛИЗЕ АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНЫХ ТЕРМИНОВ

Аннотация

В то время как время стремительно развивается, приобретает актуальность подготовка строителей-инженеров, архитектуры, строительных конструкций, металлоконструкций, технологии строительных процессов, технологии возведения зданий и сооружений, организации строительства и строительства и связанных с ними вопросов.

Ключевые слова: Строитель-инженер, комплекс, термин, типология, актуальность, соображения.

SHAHARSOZLIK VA QURILISH TERMINLARINING TIPOLOGIK TAHLILIGA DOIR QISQACHA MULOHAZALAR

Annotatsiya

Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda quruvchi-muhandislarni tayyorlash, shaharsozlik, arxitektura, qurilish konstruksiyalari, metall konstruksiyalari, qurilish jarayonlari texnologiyasi, bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi texnologiyasi, qurilishni tashkil etish va qurilish va u bilan bog'liq masalalar dolzarblik kasb etmoqda.

Kalit so'zlar: Quruvchi-muhandis, kompleks, termin, tipologiya, dolzarb, mulohazalar.

Kirish. Respublikamizda shaharsozlik va qurilish kompleksiga yuqori malakali yosh kadrlarni yetkazib berish bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida qaralmoqda. Ma'lumki, qurilish industriyasini rivojlantirish, ya'ni yangi qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarni ishlab chiqarish bilan qurilish tizimini tubdan o'zgartirish mumkin. Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda quruvchi-muhandislarni tayyorlash, arxitektura, qurilish konstruksiyalari, metall konstruksiyalari, qurilish jarayonlari texnologiyasi, bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi texnologiyasi, qurilishni tashkil etish va qurilish va u bilan bog'liq masalalar dolzarblik kasb etmoqda. Jahon tilshunosligida tilning lisoniy imkoniyatlaridan amaliy foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. Tilshunoslikning qator sohalar va fanlar bilan aloqasini o'rganish natijasida tilning etnolingvistik, lingvokulturologik, sotsiolingvistik, sotsiopragsmatik xususiyatlarini to'laqonli qamrab olish imkonini berishi ayon bo'la boshladi. Tilning bunyodkorlik vazifasi, amaliy ahamiyati tilshunoslikning qator sohalar va fanlar bilan integratsiyalashuvi natijasida ochib berildi. Shu ma'noda lisoniy tizimning madaniy, ijtimoiy, milliy, mantiqiy va disskursiv vazifalarni bajarishi masalalarini o'rganish dolzarb bo'lib qoldi. Zamonaviy dunyoni kasb tiliga murojaat qilmasdan tasavvur qilish qiyin, bu yerda globalashuv sharoitida madaniyatlar o'rtasidagi yaqin aloqa va bilim sohalarini dinamikasi uzluksiz kasbiy ta'limni rag'batlantiradi. Shunday qilib, ma'lum bir tilni va uning terminologik apparatini maxsus maqsadlarda o'zlashtirish kasbni va uni rivojlantirish imkoniyatlarini chuqurroq va yaxshiroq tushunish sifatida qabul qilinadi.

Dunyo tilshunosligida shaharsozlik va qurilish sohasiga oid terminlarning tadqiq qilish shuningdek, nazariy asoslari va sotsiomadaniy aspekti borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Qurilish sohasiga oid terminlarning semantik guruhiga mansub leksemalarni nazariy jihatdan o'rganish o'zbek tilida mazkur birliklar semantikasi, nazariyasi, sotsiopragsmatik talqini, o'zaro tarjimai hamda leksikografik talqinini mukammallashtirishi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi. Turli tizimli tillarga mansub bo'lgan o'zbek tilida qurilish sohasiga oid leksemalarning umumiy va farqli jihatlari, o'zaro tarjimasidagi muammolarni aniqlash hamda leksikografik talqini bo'yicha takliflar ishlab chiqish lingvodidaktika, tarjimashunoslik, sotsiopragsmatik va leksikografiyaning ayrim muammolariga yechim topishi bilan dolzarblik kasb etadi.

Matn qurilish sohasidagi ilmiy-texnik progresning asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda bayon qilingan. Atrof-muhitni

muhofazalash, yoqilg'i-energetik resurslarni tejash va ikkilamchi mahsulotlarni qo'llash kabi qo'yilgan vazifalarga mos ravishda sanoat chiqindilarining qo'llanilishi, shuningdek, qurilish materiallarini ishlab chiqarishda moddiy va mehnat resurslarini tejash, yoqilg'i va energiya xarajatlarini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Qurilish materiallarining sifati doim uning tuzilmasi bilan aniqlanadi. Shuning uchun, materialni oldindan berilgan xossalari bilan olish uchun, uning oldindan berilgan texnik xarakteristikasiga javob beruvchi tuzilmasini yaratish lozim. Bunday uslubiy asosda turli xil noorganik va organik qurilish materiallarini o'rganish birlashtirilgan. Qurilish materialshunosligi o'ziga xos tarixga ega. Eng qadimgi va juda keng tarqalgan giltuproq asosidagi qurilish materiallari insoniyat tarixining ilk davridayoq ishlatilgan. Giltuproqdan pishirilgan g'isht ishlab chiqarish tarixi 5-6 ming yilga teng[1].

Bino va inshootlarni tabiiy tosh materiallaridan qurish antik dunyo tarixi bilan bog'langan. Misr piramidalari, Buyuk Xitoy devori, Rim Kolizeyi va boshqalar. "Tizim muayyan leksik halqaning o'zaro munosabatda bo'lgan elementlardan tashkil topgan bir butun obyektidir", [2] degan fikri ham asoslidir. Ushbu paragrafda termin va so'z munosabati uyg'unligining mazmun-mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan ochib berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Terminlar, shubhasiz, nutq birliklari hisoblanadi, faqat ularda so'zlarga nisbatan muayyan chegaralar mavjud. Termin va so'z uyg'unligi haqidagi fikr va qarashlar V.M. Solnsev ishlarida ko'proq ko'zga tashlanadi. Bizning fikrimizcha, termin til birligi sifatida qabul qilinishidan oldin u nutq birligi bo'lgan, chunki har qanday yangi leksik birlik ma'nosidan qat'i nazar, dastavval, og'zaki nutq birligi sifatida muayyan lisoniy vazifani bajaradi. Shunday qilib, terminning nutq doirasidan til doirasiga o'tishi va tegishli leksikografik manbalardan o'rin egallashi lingvistik va ekstralingvistik hodisaning tabiiy mahsulidir"[3]. Ushbu fikrlarga tayanib, termin va so'zning nutq birligi sifatida vujudga kelishi tabiiy hodisa, ularning til birligi sifatida qo'llanishi esa notabiiy deyish nazariy jihatdan maqsadga muvofiq. Tahlil jarayonida "so'zlar ma'nosining torayishi terminlarning paydo bo'lishiga zamin yaratishi" haqidagi nazariy fikrlardan ma'lum bo'ldiki, hozirda olimlar terminlarni muayyan sohalar bilan chegaralash jarayoniga jiddiy e'tibor qaratmoqda.

"Termin asosan o'zi mansub soha doirasida ishlatiladi"[4], mazmunidagi ilmiy- nazariy mulohaza negizida tadqiqot manbasi

sifatida muayyan sohaga oid matnlarni tanlab olish va ular tarkibidagi soha terminlarini tahlil qilish mohiyati anglashiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qurilish terminologiyasi muammolariga oid o'zbek va ingliz tilidagi ilmiy manbalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qurilish texnologiyalari va qurilish sohasida ilmiy va kasbiy aloqada (ham og'zaki, ham yozma) faoliyat yurituvchi terminologik birliklarning umumiy fondi jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

Shu bilan birga, ko'plab o'zbek tilshunoslari ta'kidlashlaricha, o'zbek terminologiyasi hali shakllanish bosqichida, shuning uchun qurilish sohasida terminologik modellashtirish tamoyillari, usullari va usullarini ishlab chiqish uni yanada rivojlantirish uchun muhimdir.

O'zbek terminologiyasining rivojlanishiga asosan tilshunoslar, tarjimonlar va terminologlarning yaqin ilmiy aloqalari yordam beradi.

Arxitektura va shaharsozlikning maqsadi qulay sun'iy interyer yaratishdir. Boshqacha aytganda, arxitekturaning maqsadi insonning yashashi va hayoti uchun qulay, qulay va xavfsiz muhitni yaratishdir.

Shaharsozlik va arxitektura sohasi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1) arxitektura ijtimoiydir, chunki u davrning ijtimoiy sharoitlarini aks ettiradi (ijtimoiy talablarga javob beradi) va jamiyatning hukmron sinfi tomonidan shakllantiriladi;

2) shaharsozlik mintaqaviydir, chunki u mahalliy iqlim sharoiti va mahalliy qurilish materiallari bilan belgilanadi.

3) shaharsozlik milliydir, chunki u xalq va madaniy an'analarni aks ettiradi;

4) shaharsozlik va arxitektura har doim zamonaviydir, chunki u jamiyatning ma'lum bir davrdagi ilmiy-texnik taraqqiyotini aks ettiradi

5) shaharsozlik va arxitektura tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki u insonga ta'sir qiladigan san'atdir. ("Avval biz uy quramiz, keyin esa uy bizni quradi")

6) arxitektura va shaharsozlik zamon ruhining aksidir (badiiy uslublar, ijtimoiylik va boshqalar orqali).

Bugungi kunda shaharsozlik va qurilish sohasiga kirib kelayotgan yosh mutaxassislar ushbu sohaning terminologiyasi va tipologiyasi bilan tanishishi va samarali natijaga erishish uchun sohani mukammal egallamoq'i zarur.

Shaharsozlik va arxitektura tipologiyasi - bu binolar va inshootlarning turlarini shakllantirishning asosiy tamoyillarini ularning afzal xususiyatlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda tizimlashtiradigan va ishlab chiqadigan fan. Arxitektura inshootlariga qo'yiladigan talablarni ochib beradi, binolarning turlari va turlarining tasnifi va nomenklaturasini (ro'yxatini) belgilaydi; loyihalash me'yorlarining asosiy parametrlarini va boshqalarni belgilaydi. Arxitektura tipologiyasi binolar va inshootlarni maqsadi (funktsiyasi) bo'yicha farqlaydi (tasniflaydi); kosmik rejalashtirish echimlari bo'yicha; arxitektura-konstruktiv yechimlar bo'yicha; qurilish texnologiyasi bo'yicha va boshqalar.

Shaharsozlik va arxitektura ekologiyasi - tabiiy muhit va insonning yashash muhiti manfaatlarini uyg'un tarzda uyg'unlashtirgan sun'iy arxitektura va landshaft muhitini yaratish tamoyillari haqidagi fan[6].

Tahlil va natijalar. Shaharning kattaligi va ma'muriy ahamiyati, shuningdek, hududiy joylashuvi shaharning aholi punktlari

tizimidagi rolga ta'sir qiladi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha shaharlar tizim markazlari va turli ahamiyatga ega bo'lgan kichik markazlarga (etakchi va ikkinchi darajali) bo'linadi.

Shaharlar tasnifining muhim xususiyati uning iqtisodiy profilidir (asosiy iqtisodiy funktsiya). Shaharlar quyidagilarga bo'linadi:

- sanoat,
- avtomobil,
- kurort,
- tarixiy shaharlar - turistik markazlar;
- ma'muriy markazlar;
- ko'p funktsiyali shaharlar (aniq ixtisoslashgan emas).

Qoida tariqasida, shaharning o'sishi bilan uning ko'p funktsionalligi ortib bormoqda.

Turar joy turi. Shaharlararo sayohatlar (ulanishlar) sifati va intensivligiga qarab turar joyning ikkita asosiy turi ajratiladi: avtonom va o'zaro bog'langan. Ushbu bo'linishning asosini turli funktsional o'zaro bog'lanishlar tashkil etadi. Aholi punktlarining funktsional o'zaro bog'liqligi - aholi punktlarini rivojlantirishning ichki muammolarini hisobga olmasdan turib hal qilib bo'lmaydigan o'zaro bog'liqlikdir. Bu aholining yashash joyini o'zgartirish (migratsiya) natijasida yuzaga keladigan va maqsadli va barqarorlikka ega bo'lgan qit'alararo sayohatlari.

Avtonom tipdagi aholi punktlari tuman hududida aholi punktlararo aloqalarning yo'qligi yoki zaif rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Ko'pincha u tabiiy-iqlim sharoitida (o'ta shimol, cho'l, tog', botqoq), shuningdek, ularning rivojlanishining birinchi bosqichida yangi o'zlashtirilgan hududlarda uchraydi.

O'zaro bog'langan turar joy turi murakkab tuzilish bilan tavsiflanadi. Bu turar-joylararo aloqalarning diqqatga sazovor joylari bo'lgan markaziy shaharlarning, odatda yirik shaharlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Atrium (atrium) (lot. atrium - yopiq hovli, aterdan - kuydirilgan, qora, ya'ni kuydirilgan xona) - 1) domusning qadimiy (etrusk yoki rim) turar-joy binosining markaziy xonasi, ichki qismi engil hovli, undan boshqa barcha xonalarga chiqish yo'llari bor edi, tomida kichik teshik (compluvium) va o'rtada hovuz (impluvium). Dastlab, atriumdagi hovuz o'rnida kamin bor edi va uyingizda bir teshik tutun uchun chiqish bo'lib xizmat qildi; 2) oxirgi Rim va Vizantiya me'morchiligida ayvonlar bilan o'ralgan hovli yoki ibodatxonaga kirish eshigi oldidagi galereya; 3) zamonaviy ko'p qavatli yoki katta binolarda ichki hajm boshqa xonalar ochiladigan galereyalar bilan o'ralgan bir yoki bir necha qavatdir. Atrium ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin (yopiq atriumda siz zalni, qishki bog'ni va hokazolarni tashkil qilishingiz mumkin). Boshqacha qilib aytadigan bo'lsa, atrium - binoning ko'p yorug'lik maydoni ko'rinishidagi qismi, vertikal ravishda (uch yoki undan ko'p qavatli), binoning pol qismlariga (galereyalar, binolarni o'rab turuvchi inshootlar va boshqalar) ulashgan. va, qoida tariqasida, yuqori yoritishga ega.

Chordoq (yunoncha attikos) — 1) ko'pincha o'ziga xos poydevor va kornişga ega bo'lgan toj pardasi (ba'zan past qavatga to'g'ri keladi) ustida qurilgan devor; 2) chodimning qavati, ya'ni joylashgan

Albatta, tahlil qilingan terminlar arxitektura va qurilish sohasining barcha xususiyatlarini qamrab ololmaydi, bu yo'nalishdagi ishlar davom ettirilishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. "Solntsev V.M. Tilshunoslikning umumiy kursi Moskva, 1977.-19 b.
2. "Sarimsoqov H.A. Ingliz va uzbek tillarida sport terminlari tagil va tadkik. Monografiya. Toshkent,
3. Pavol S. Oksford universiteti nashriyoti bo'yicha Oksford qo'llanmasi, 2009. P. 218. "Vinokur G.O. Rus texnik terminologiyasida so'z shakllanishining ba'zi hodisalari haqida / Tatarinov
4. Rus terminologiyasi tarixi V.A.. T.I Terminologiya klassikasi. Insho va o'quvchi M
5. Moskva litseyi, 1994. 218-284-betlar. "Budagov R.A. Inson va uning tili M.: MDU, 1976. - B. 176.
6. "Bragina A.A. Termindagi ma'no va soylalar. // Terminologiya va nutq madaniyati. M. Fan, 1981. S. 37-38.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат нашриёти, 2008 – Б. 533
8. <https://ziyouz.uz/>
9. Даниюшина Ю. В. Бизнес-дискурс: термин, типология, анализ// Известия Волгоградского государственного педагогического университета. - 2010. - № 2 (46). - С. 48 - 52. - С. 48



UDK:811.111'44

Gulnora XOLMUROTOVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: gulnoraxolmurodova5@gmail.com

TerDU dotsenti M.Qodirova taqrizi asosida

O'ZBEK TILI INTERYER DIZAYNER TERMINLARINING TARIXIY VA ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqola o'zbek tilidagi interyer dizayn terminlarining kelib chiqishi, rivojlanishi va zamonaviy qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot beradi. Globallashuv jarayonida xalqaro terminlar, masalan, "dizayn" va "interyer", o'zbek tiliga kirib, milliy madaniyatga moslashgani tahlil qilinadi. Shuningdek, "mihrab" va "koshin" kabi tarixiy terminlarning diniy va me'moriy mazmunini saqlab qolayotgani ko'rsatiladi. Terminlarning globallashuv va milliy madaniyat uyg'unlashuvidagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Interyer dizayn, terminologiya, termin, madaniy moslashuv, tarixiy-etimologik xususiyatlar.

ИСТОРИЧЕСКИЕ И ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕРМИНОВ ИНТЕРЬЕРНОГО ДИЗАЙНА В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Настоящая статья предоставляет подробную информацию о происхождении, развитии и современном использовании терминов интерьерного дизайна в узбекском языке. Анализируется, как в процессе глобализации международные термины, такие как «дизайн» и «интерьер», вошли в узбекский язык и адаптировались к национальной культуре. Также показано, как исторические термины, такие как «михраб» и «кашин», сохраняют своё религиозное и архитектурное значение. Раскрывается роль терминов в гармонизации между глобализацией и национальной культурой.

Ключевые слова: Интерьерный дизайн, терминология, термин, культурная адаптация, историко-этимологические особенности.

THE HISTORICAL AND ETYMOLOGICAL CHARACTERISTICS OF INTERIOR DESIGN TERMINOLOGY IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

This article provides detailed information about the origin, historical development, and contemporary usage of interior design terminology in the Uzbek language. It analyzes how international terms entered the Uzbek language during the process of globalization, how they adapted to the national culture, and how the terms maintain their national identity. International terms such as "design," "interior," and "plinth" have been widely used in modern architecture and technology and have been adapted to the Uzbek language. Meanwhile, historical terms like "mihrab" and "koshin" continue to preserve their religious and architectural significance. This analysis demonstrates the integration between globalization and national culture, highlighting the role these terms play in enriching national culture.

Key words: Interior design, terminology, term, cultural adaptation, historical-etiological features.

Kirish. O'zbek tilidagi interyer dizayn terminlarining shakllanishi va rivojlanishi jamiyat madaniyati, estetik qarashlari va xalq an'analari bilan bog'liq. Bu terminlar turli manbalardan boyib, boshqa tillardan kirib kelgan leksik birliklar orqali shakllangan [4].

Ma'lum bir sohaga tegishli maxsus tushunchalarni mantiqan aniq va tushunarli ifodalash uchun qo'llanadigan so'zlar va so'z birkmalarining majmuasi terminologik leksika deb ataladi. Bu atama lotincha "terminus" (chegara) va "logos" [14] (ilm-fan) so'zlaridan kelib chiqqan. Terminologik leksikaning asosiy birliklari terminlar (yoki atamalar) hisoblanadi. Hozirgi kunda "termin" bilan bir qatorda "atama" va "istiloh" so'zlari ham shu ma'noda ishlatiladi, ammo ular "termin" tushunchasini to'liq aks ettirmaydi. "Atama" keng ma'noga ega bo'lib, geografik obyektlar va atoqli nomlar uchun ishlatiladi. "Istiloh" esa ko'proq tarixiy matnlar (adabiyot tarixi, Sharq falsafasi)da termin sifatida qo'llanadi [6]. Biroq, "termin" ilmiy jihatdan aniq va maxsus soha tushunchalarini ifodalovchi so'z bo'lib, u har doim muayyan sohaga tegishli terminlar tizimi doirasida qo'llanilganda termin sifatida tan olinadi. Shu jihatlar bilan ular umumxalq leksikasiga kiruvchi so'zlardan farqlanadi, chunki umumiy leksika keng qamrovli, terminlar esa faqat o'z sohasi bilan chegaralanadi.

Interyer dizayn terminologiyasi jamiyat taraqqiyoti, xalqaro ta'sirlar, texnologik yutuqlar va zamonaviy me'moriy qarashlar bilan o'zgarib borgan. Ushbu maqola terminlarning struktur-semantik xususiyatlari va ularning o'zbek tilidagi rivojlanishini tahlil qiladi. Terminlarning shakllanish tarixi, asl ma'nosi, qo'llanilishi va xalq madaniyati bilan bog'liqligini ochib beradi.

Tadqiqotning maqsadi interyer dizayn terminlarining tarixiy ildizlari va zamonaviy qo'llanilishiga e'tibor qaratishdir. Terminlarning etimologik tahlili orqali ularning milliy madaniyatga singishib ketishi va boshqa tillar bilan aloqalari ochib beriladi. Dizayn terminlari xalqimizning tarixiy taraqqiyoti va madaniy o'ziga xosligini aks ettiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Interyer dizayn terminologiyasini o'rganishda mahalliy va xalqaro manbalar muhim ahamiyatga ega. Qadimiy turkiy, arab, fors, rus va ingliz tillaridan kirib kelgan terminlarning etimologik va semantik xususiyatlari yoritilgan. Masalan, "koshin" va "mihrab" [12]; kabi atamalar o'zbek me'morchiligida o'zlashib, madaniy merosga singgan. O'zbek tilshunosligida termin va sohaviy terminologiya bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, bu borada qator olimlarning ishlari e'tirofga sazovor. Masalan, H. Dadaboyev, A.Madvaliev, P. Doniyorovlar [13]; tomonidan olib borilgan tadqiqotlar o'ziga xos yondashuvlari va ilmiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ular terminlarning strukturasi, semantikasi va milliy madaniyatga ta'siri masalalarini chuqur o'rganishda, O'zbek tilidagi sohaviy terminologiyaning shakllanishiga katta hissa qo'shganlar. Terminologiya — bu murakkab jarayon bo'lib, unda tabiiy tildagi so'zlar konseptual qayta ishlash bosqichidan o'tadi. Bu jarayonda so'zlar muayyan soha tushunchalarini aniq ifodalash uchun maxsus ma'nolar bilan boyitiladi [2].

Terminologiya va sohaviy terminlar bo'yicha qancha tadqiqotlar olib borilgan bo'lmasin, bugungi kunda til va madaniyatning uzviy bog'liqligini ochib berish dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari dunyo tillariga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgan bir paytda, o'zbek tilida interyer dizayn sohasiga oid terminlarni lisoniy jihatdan izchil o'rganish, ularning tarixiy-etimologik xususiyatlarini tadqiq etish hanuz zarurat bo'lib qolmoqda. Shu sababli, ushbu maqolaning mavzusi o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada interyer dizayn terminlarining o'zbek tilidagi lisoniy va etimologik xususiyatlari quyidagi yondashuvlar asosida tahlil qilinadi:

Deskriptiv tahlil: Terminlarning zamonaviy til qoidalariga mosligi, funksional va semantik jihatlarini bilan birga, ularning sintaktik

xususiyatlari, ya'ni til ichida qanday ishlatilishi, shuningdek, sinonim va antonim terminlar tahlil qilinadi.

Etimologik tahlil: Terminlarning kelib chiqishi va ularning turli tillardan o'zlashish jarayonlari o'rganiladi. Shuningdek, terminlarning o'zbek tilida qanday mazmuniy o'zgarishlar bilan o'zlashgani va tarixiy rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi.

Korpus lingvistikasi: O'zbek tili korpusidan foydalanib, terminlarning qo'llanilish chastotasi, kollokatsiyalari (ya'ni, qaysi so'zlar bilan birga ishlatilishi), stilistik jihatlar va kontekstual ishlatilishi o'rganiladi.

1-jadval. Terminlarning zamonaviy til qoidalariga mosligi

Misol	Tahlil
Interyer dizayni	"Dizayn" so'zi o'zbek tilida grammatik jihatdan qoidalarga moslashgan (xalqaro "dizayn" so'zi o'zbek tilida tushum kelishida "dizayni" shaklida), boshqa so'zlar bilan ham o'zaro bog'lanib ketgan. Bu termin o'zlashish jarayonida o'zbek tili morfologik tuzilmasiga moslashgan.

Terminlarning muayyan soha doirasida maxsus ma'noga ega bo'lishi uning funksional xususiyatini belgilaydi:

2-jadval. Funksional jihatlar

Misol	Tahlil
Yorug'lik dizayni	Bu termin soha doirasida aniq funktsiyani ifodalaydi (yorug'likning interyerdagi o'rni texnik jihatdan tartibga solishni). Bu termin kundalik nutqda kamroq uchrami mumkin, lekin professional sohada aniq ma'noga ega.

Terminlarning semantik jihatlar ularning maxsus yoki umumiy ma'nosini ochib beradi. Masalan:

3-jadval. Semantik jihatlar

Misol	Tahlil
Mihrab	"Mihrab" so'zi tor ma'noda masjidning aniq joyini ifodalasa, kengroq kontekstda diniy me'moriy element sifatida ham ishlatilishi mumkin [10]. Bu termin o'ziga xos diniy va me'moriy mazmunga ega.

Terminlar gapda boshqa so'zlar bilan birikib, aniq sintaktik vazifani bajaradi. Misol:4-jadval. Sintaktik xususiyatlari (gapda ishlatilishi)

Misol	Tahlil
Koshin bilan qoplash	"Koshin" so'zi gapda boshqa so'zlar bilan birikib, sintaktik jihatdan to'g'ri qo'llanadi ("koshin" so'zi termin sifatida ishlatilib, "qoplash" fe'li bilan bog'langan.). Bu termin birikma orqali aniq harakat yoki amalni ifodalaydi, ya'ni me'moriy bezak jarayonini anglatadi.

Terminlar o'rtasidagi sinonim va antonim munosabatlar ularning semantik ma'nosini aniqlashda yordam beradi:5-jadval. Sinonim va antonim terminlar


	Misol	Tahlil
Sinonim	dekor va bezak	Bu so'zlar qisman sinonim. "Dekor" kengroq ma'noda dizayn elementlarini anglatadi, "bezak" esa umumiy bezatish ma'nosida ishlatiladi. Sinonimlar o'zaro almashinuvchan bo'lishi mumkin, lekin har biri o'z kontekstida maxsus ishlatiladi.
Antonim	minimalizm ≠ barokko	Bu ikki termin dizayning qarama-qarshi uslublarini ifodalaydi. Minimalizm sodda va minimal elementlar bilan tavsiflanadi, barokko esa ko'p bezakdorlik va boy detallar bilan farqlanadi. Antonimlar bir-biriga qarama-qarshi dizayn uslublarini ifodalaydi, bu ularning semantik ma'nosi va qo'llanishida aniq farqlarni keltirib chiqaradi.

Quyida ushbu terminlarning etimologik tahlilini jadval asosida taqdim etamiz:

№	Termin	Kelib chiqishi	Asl ma'nosi	O'zbek tiliga kirib kelishi
1.	Dizayn	Lotin tilidan(design) → Fransuzcha (dessein, desseing) → inglizcha (design)	Chizish, loyihalash	Texnik va san'at terminologiyasi orqali
2.	Interyer	Lotin tilidan (interior) → inglizcha (interior)	Ichki makon	Me'morchilik va dizayn orqali
3.	Mihrab	Arabcha (محراب)	Masjidda qibлага qaragan joy	Diniy me'morchilik orqali
4.	Koshin	Forscha (كاشي)	Keramika, plitka	Me'morchilikda fors tilidan
5.	Plintus	Lotincha (plinthus)	Taglik, pastki chekka	Me'moriy termin sifatida
6.	Minimalizm	Lotincha (minimus)	Minimal, eng kam elementlar	San'at va dizayn uslubi sifatida
7.	Barokko	Italiyacha (barocco)	Bezakdor, ortiqcha detallar bilan boy	San'at va me'moriy uslub sifatida [9]

Yuqoridagi terminlar orasidagi farqlarni aniqlash uchun ularning qo'llanilish chastotasi tahlil qilindi. "Dizayn" va "Interyer" kabi terminlar keng qo'llanilib, zamonaviy sohalarida faol ishlatiladi. "Mihrab" va "Koshin" esa asosan tarixiy va diniy kontekstlarda

kamroq uchraydi. "Minimalizm" zamonaviy dizaynda faol qo'llanilsa, "Barokko" kamroq ishlatiladigan tarixiy atama sifatida namoyon bo'ladi. Quyida bu terminlarning o'zbek tilida qanchalik keng tarqalganligini ko'rsatadi ushbu chizma orqali ko'rishimiz mumkin:



Yuqoridagi grafikda O'zbek tili korpusidagi ba'zi terminlarning qo'llanilish chastotasi tasvirlangan. Terminlar ("Dizayn", "Interyer", "Mihrab", "Koshin", "Plintus", "Minimalizm", "Barokko") gorizontal o'qda joylashgan bo'lib, har bir terminning tepasidagi ustun ularning korpusdagi qo'llanilish chastotasini aks ettiradi. Chastotaning qiymati esa vertikal o'qda ko'rsatilgan. Grafikdan quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish mumkin:

"Interyer" va "Dizayn" terminlari eng ko'p ishlatilgan (mos ravishda 3 va 2 marta).

"Mihrab" va "Minimalizm" terminlari ham yuqori chastotaga ega bo'lib, 2 marta ishlatilgan.

"Barokko" termining qo'llanilish chastotasi nisbatan kam (1 marta).

"Koshin" va "Plintus" kabi terminlar bu matnda hech keltirilmagan.

Bu ma'lumotlar orqali dizayn va interyer bilan bog'liq terminlarning ishlatilishidagi o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Agar yanada kengroq korpusdan foydalanilsa, bu terminlarning haqiqiy qo'llanilish darajasini aniqroq baholash mumkin bo'ladi. Grafik bu terminlar orasidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi.

Globalshuv jarayonida ushbu terminlarning madaniy mazmuni va milliylikni aks ettirish darajasi tahlil qilish natijasida, ularning milliy madaniyatga moslashishi yoki o'zlikni saqlab qolish darajasi o'rganildi:

1. Moslashish:

Misol: "Dizayn" atamasi globallashuv natijasida o'zbek tiliga kirib keldi va texnologiya hamda san'at sohasida keng qo'llanilib, til qoidalariga moslashtirilgan. Bu jarayonda "dizayn" termini milliy madaniyatga moslashib, zamonaviy o'zbek tilida keng ishlatila boshladi va terminologik tizimning bir qismiga aylandi.

2. O'zlikni saqlab qolish:

Misol: "Mihrab" atamasi arab tilidan kirib kelgan bo'lib, asrlar davomida o'zining diniy va madaniy mazmunini hozirgacha saqlab kelmoqda. Bu atama Islom me'morchiligida qiblani ko'rsatadigan joy sifatida keng qo'llaniladi. Bu termin globallashuv jarayoniga qaramay, milliy va diniy xususiyatlarini saqlab qolgan va o'zining tarixiy ma'nosini davom ettirmoqda.

Ushbu misollar globallashuv ta'sirida terminlarning milliy madaniyatga qanday moslashishi yoki ularning milliy xususiyatlarini qanday saqlab qolishi mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. O'zbek tili interyer dizayn terminlarining tarixiy va etimologik xususiyatlarini o'rganish, ularning kelib chiqishi, tarixiy o'zgarishlari va zamonaviy qo'llanilishini tahlil qilish orqali muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bu tahlil terminlarning milliy madaniyat bilan qanday moslashgani va globallashuv sharoitida o'z o'rnini qanday saqlab qolayotganini aniqlashda muhimdir. Globallashuv ta'sirida xalqaro atamalar, masalan, "dizayn", "interyer" va "plintus" tilga kirib, texnologiya va me'morchilik sohaslarida faol ishlatilmoqda. Shu bilan birga, "mihrab" va "koshin" kabi tarixiy terminlar o'z mazmunini saqlab kelmoqda. Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilidagi interyer dizayn terminlari zamonaviylik va milliy o'zlikni birlashtirib, madaniy boylikni boyitishda muhim rol o'ynamoqda.

ADABIYOTLAR

1. Бектемиров Х., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. - Тошкент, 2002.
2. Володина М.Н. Когнитивно – информационная природа термина. – Москва, 2000. – С.67.
3. Гринев А.С. Сопоставительный анализ английской и русской архитектурной терминологии: На материале тематического поля «Теория и история архитектуры»: автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Москва, 2004. – 20 с.
4. Дадабоев Х., Хамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007.
5. Джумагалиева А.С. Лингвосомиотика дискурса ландшафтного дизайна: на материале английского языка: автореферат дис. ... кандидата филологических наук. – Волгоград, 2014. – 22 с.
6. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент, 1977.
7. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент, 2017.
8. Нозилов Д.А. Ўрта Осиё дизайни тарихидан. Ўқув кўлланма. – Тошкент, 1998.
9. Расулов Р., Умиров И. Ўзбек тили тасвирий ифодаларининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 137 б.
10. Усмонов С. Ўзбек тилининг лугат составида тожик-форсча ва арабча сўзлар / Навоийга армуғон (тўплам) – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 110- 128.
11. Abdushukurov B. Eski turkiy til leksikasi. - Toshkent, 2015.
12. Veruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1968; Сочинения. Т.1: Туркестан в эпоху Монгольского нашествия / Бартольд, Василий Владимирович; АН СССР, Ин-т нар. Азии; Перед загл.авт.акад. В.В. Радлов. - М.: Издат. восточ. лит-ры, 1963. – 760 с.
13. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. - Toshkent, 2019.
14. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Termin>



Shaxnoza XUDAYKULOVA,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: ShXudaykulova@uwed.uz

Dotsent, PhD Sh. Normatova taqrizi asosida

BADIIY MATNDA ERK-ERKSIZLIK (ERKIN-QUL) AKSIOLOGEMALARINING VOQELANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kontekstual leksik-semantik tahlil orqali Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijod namunalari asosida badiiy matnda qadriyatlar namoyon bo'lishi, badiiy adabiyot ezgu qadriyatlar targ'ibotida qudratli vosita ekanligi, shuningdek, aksiologik birliklarning badiiy matnda qay tarzda verballashuvi xususida fikr yuritiladi.

Kali so'zlar: Qadriyatlar, aksiologiya, dominanta, Cho'lpon, konsept, erk, erkinlik, tenglik, qul, qullik, assotsiatsiya, metafora.

РЕАЛИЗАЦИЯ АКSIОЛОГЕМ СВОБОДА-ЗАВИСИМОСТЬ (СВОБОДА-РАБСТВО) В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Аннотация

Художественная литература является мощным инструментом познания истинных ценностей человека, а также ярким примером того, как вербализуются аксиологические единицы в произведениях. В данной статье посредством проведённого контекстного лексико-семантического анализа показано проявление ценностей в произведениях Абдулхамид Сулеймана.

Ключевые слова: Ценности, аксиология, доминанта, Чолпан, концепт, свобода воли, свобода, равенство, раб, рабство, объединение, метафора.

THE REALIZATION OF THE AXIOLOGEMS OF FREEDOM-DEPENDENCE (FREEDOM-SLAVE) IN THE ARTISTIC TEXT

Annotation

In this article, through a contextual lexical-semantic analysis, based on the examples of the work of Abdulhamid Sulayman son of Cholpon, the manifestation of values in the artistic text, the fact that fiction is a powerful tool in the promotion of noble values, as well as how axiological units are verbalized in the artistic text will be considered.

Key words: Values, axiology, dominant, Cholpan, concept, free will, freedom, slave, slavery, association, metaphor.

Badiiy matnning aksiologingistik tahlili ijodkorning, muayyan asarning qadriyatlar olami manzarasini yuzaga chiqarish maqsadini qo'yadi va qadriyatlarini ajratib olish hamda ularning kontekstdagi talqini asosida amalga oshiradi.

“Qadriyat bahosi aslini olganda idrok qilinayotgan/boshdan kechirilayotgan/ anglanayotganlarning hissiy-intellektual ahamiyatini didga asoslangan xulosa, vijdon hukmi, ishonch ramzi, mediativ mulohaza ko'rinishida yuzaga chiqishidir”. Bu jihatdan XX asr yangi o'zbek adabiyotining darg'alaridan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijodi diqqatga sazovor. Ma'lumki, Cho'lpon o'zbek she'riyatida tom ma'noda “erk kuychisi” deb tan olingan shoiridir. “Tarixiy davr va tarixiy sharoit Cho'lpondan muhabbat va tabiat lirikasidan ko'ra shu davrdagi o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvolini yaxshilashga qaratilgan asarlar yozishni taqozo etdi. Vatan va millat manfaatini bilan yashagan shoir davrning shu talabi bilan bolsheviklar olib borgan siyosatning mustamlakachilik mohiyatini fosh etishga, xalqni zulm va zo'raonlikka qarshi hurriyat uchun kurashga da'vat etishga qaratilgan she'rlar yozdi”. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligida shoir ijodining yetakchi mavzusi millat erki istiqlol ekanligi va bunga sabab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy omillar o'z tadqiqi va e'tirofini topgan. Biz aksiologik lingvistika nuqtayi nazaridan shoir badiiy olamida dominanta belgi bildiruvchi erkin va qul va hamda uning ot shakli erk/erkinlik-erksizlik aksiologema juftligining voqelanishini nazmiy asarlari misolida tadqiq qilishga urinib ko'rdik. Kuzatish va tahlillar, aytaylik, eng universal hayot va o'lim, ezigulik va yovuzlik, sevgi va nafrat kabi qadriyatlar bilan qiyoslaganda, Cho'lpon she'rlarida erkin hamda uning o'zagi erk va qul va ushbu o'zakdan hosil bo'lgan erkinlik va qullik aksiologik juftligi qo'llangan iqtiboslar son jihatdan ko'pchilikni tashkil etishi ma'lum bo'ldi.

Ushbu konsept kontekstini shartli ravishda ijobiy + va salbiy - shaklida belgilab oldik va kontekstda qo'llanishi holatlari nuqtayi nazaridan - shakli ko'proq uchrashning guvohi bo'ldik. Konsept definitiviyalari bo'yicha Cho'lpon she'riyati badiiy strukturasi quyidagi ma'nolarini ajratish mumkin:

1. Erkin yadroviy, ya'ni “har qanday to'siq, g'ov, monelikdan xoli bo'lgan, erk-ixtiyori o'zida bo'lish” ma'nosida:

Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmas,

Bir erkin kulmasdan uzilding?

Binafsha, nimaga hidlaring sochilmas,

Yerlarga egilding, cho'zilding?

Erkin leksemasi kulmasdan bo'lishsiz fe'li bilan qo'llash orqali qarshilantiriladi va shu bilan bog'liq ochilmas, hidlari sochilmas inkor shaklidagi ravishdoshlar, uzilding, egilding, cho'zilding leksemalari orqali - kontekstda bo'ysunish, tobelik, qullik aksiologik assotsiatsiyalarini hosil qiladi.

2. Erkin konseptining qisinish, tortinishdan xoli holda; bemalol definitiviyasi.

Jonlandi, yashardi, ko'kardi qarashim,

O'zimda bir turli erkinlik sezamen.

Cho'lpon she'rlarida erkinlikning bu tariqa qarshilantirishsiz namoyon bo'lishi juda oz hollarda uchraydi. Mazkur matnda + ma'no dagi kontekstda jonlanish, yasharish, ko'karish leksemalari bilan birgalikda tiriklik, umid bilan bog'liq assotsiativ maydon vujudga keladi.

3. Erkin konsepti siyosiy, iqtisodiy, huquqiy mustaqillikka ega bo'lgan, ozod, hur defenitsiyasida. Konsept o'rta periferiyadagi ushbu ma'nosida aksariyat hollarda aksilqadriyat qullik yoki uning konnotatsiyalari bilan birga - kontekstdagi aksiologik maydonni hosil qiladi

Sening erkin tuprog'ingda hech haqi yo'q xo'jalar,

Nega seni bir qul kabi qizg'anmasdan yanchalar?

Erkin tuprog - birikma tarkibidagi har ikki leksemaning konnotatsiyasidan hosil bo'lgan, tuprog okkazonal sinonimi ona zamin, vatan hamda shu bilan bog'liq mustaqillik, suverenitet assotsiatsiyasini uyg'otadi va haqi yo'q, xo'jalar, qul singari ijtimoiy-siyosiy sohaga moyil leksemalar hamda yanchalar bo'yoqdor leksemasi bilan zidlanadi.

Shoir she'rlarida erkin leksemasi bilan teng ma'nodosh mavqeda erk, hur, ozod leksemalari ham dominanta aksiologik konsept sifatida qo'llaniladi.

Xalq istagi: ozod bo'lsin bu o'lka,

Ketsin uning boshidagi ko'lanka.

Ushbu she'riy matn eksplitsit baholash mazmuniga ega, o'z mohiyatiga ko'ra media matn xususiyatlarini namoyon etadi, siyosiy terminologiyaga oid xalq, ozod, o'lka istilohlari ushbu xususiyatni ta'kidlaydi, bosh leksemaning konnotatsiyasi boshidagi (ustidagi ma'nosida) hamda Cho'lpon obrazlar olamida kuzatilgan alohida metaforik mazmundagi (xalq ustidan hukmronlik qiluvchi) ko'lanka -

istibdod, ketsin buyruq maylidagi fe'l bilan ekpressiv-emotsional bo'yoq kasb etadi.

Qul leksemasining "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi quyidagi ma'nolari aks ettirilgan: 1. Eksploatatorlik jamiyatining ilk davrlarida xususiy mulk, mol qatori olib-sotilgan, butunlay xo'jayinga qaram bo'lgan, hech qanday haq-huquq va mol-u mulkka ega bo'lmagan xizmatkor. 2. Umuman, sinfiy jamiyatda eksploatatsiya hamda siyosiy-iqtisodiy qaramlik asoratida har qanday huquqdan mahrum bo'lgan, eziluvchi kishi. 3. Kimsaga ko'r-ko'rona xizmat qiluvchi, bo'ysunuvchi; itoatgo'y, malay, xizmatkor. 4. Ko'chma. Biror kimsaga, narsaga qattiq berilgan, dardi, xayoli o'shanda bo'lgan kishi, uning fidoyisi. 5. Banda (O'TIL, V, 367).

Shunga ko'ra, shoir ijodida erk aksiologemasi bilan birgalikda qo'llanuvchi qul konsepti ham turli shakllarda namoyon bo'ladi. Chunonchi:

1. Erk va qul aksiologik juftligi yadroviiy ma'nosida:

Nega seni bir qul kabi qizg'anmasdan yanchalar?

Nega sening qalin tovushing "ket" demaydi ularga?

Matnda konsept yadrosidagi ma'no ayamadan, ezmoq fe'llarining ma'noviiy sinonimlari qizg'anmasdan, yanchmoq leksemalari hamda tovush so'zining baland belgi bildiruvchi leksemaning konseptual sinonimi qalin hamda ritorik so'roq gap shakli orqali - kontekstda kuchli salbiy aksiologik bahoni o'ziga singdirib olgan.

Shuning uchun tubanlarning tubani

Yovuz, buzuq kishilar ham erkincha

Talarlardi, emarlardi-da uni

So'karlardi orqasidan har kecha.

Ushbu parchada erkincha/erkin yadrosi salbiy mazmun kasb etganligi kuzatiladi. Konseptning - kontekstdagi aksiologik maydonida salbiy uslubiy bo'yoqdor belgi bildiruvchi leksemalar yovuz, buzuq hamda salbiy uslubiy bo'yoqdor talarlardi, so'karlardi fe'llari va emarlar okkazonalizmi maqsadli baho assotsiatsiyasini uyg'otadi.

2. Erk va qullik aksiologik metafora shaklida:

Binafsha, sen uchun ko'kragim erk yeri,

Bu yerdan ko'klarga uchgil.

Ushbu parchada metonimiyaga uchragan ko'kragim (qalb, ko'ngil) hamda erk konseptining yer leksemasining periferiyadagi joy ma'nosi bilan birgalikda shaxs erkinligi aksiologik leksemasi mazmunini kasb etadi.

Kishan kiyma, bo'yin egma,

Ki, sen ham hur tug'ilg'onsan!..

Matnda qullikning aksiologik bahosi diafora turidagi kishan kiyma metafora orqali implitsit tarzda voqelanadi va bo'yin egma bo'lishsiz mazmundagi buyruq fe'li hamda hur konsepti va his-hayajon buyruq gap shaklda hissiy-ekspressiv baho oraqali eksplitsit tarzda o'z tasdig'ini topadi.

Har kecha ko'klarda o'ynagan yulduz

Aytar edi menga: "Erklik yulduzi -

Tutqin ellar uchun samo kunduzi.

Ko'ngilda qolg'usi uning bir izi".

Metaforalar asosida qurilgan ushbu matnda aksiologik mazmun to'liq implitsitlik xususiyatiga ega. Badiiy matn tabiatidan kelib chiqib, ushbu mazmun ijodkorning individual obrazli tafakkur mahsuli bo'lmish metaforalar orqali voqelanadi: Erklik yulduz - konsept yadrosi yulduz leksemasi bilan - mustaqil vatan, qulning

okkazonal tutqun sinonimi ellar bilan birga - mustamlaka metaforasini vujudga keltiradi, samo va kunduz leksemalari birgalikda metaforik yorug' kun ma'nosini ifodalaydi, shoir ijodida erkin va qul leksemalari maydonida ko'p uchraydigan ko'ngilda uning izi qoldi - erkinlik orzusining qalblarda saqlanishi haqidagi fikrni o'ziga singdiradi.

3. Qullik yadrosi definitsiyasi (eksploatatsiyaning tarixan dastlabki va eng qo'pol shakli sifatida, unda qul ishlab chiqarish qurollari qatorida, o'z xo'jayini - quldorning mulki ma'nosida qo'llanilgan (O'TIL, V, 367).

Oltinli qo'ng'izni bolalar ushlabshib,

Ip bilan ko'klarga uchirib o'ynaylar.

Qullikni sevmagan yo'qshilni kuchlashib,

Nimaga o'zining erkiga qo'ymaylar.

Ushbu parchada qullik yadrosining ixtiyori o'zida emas definitsiyasining aksilqadriyat sifatidagi bahosi erkka oppozitsiyadagi oyog'i ip bilan bog'langan, sevmagan, yo'qsul, kuchlashib, o'zining erkiga qo'yamaslik leksema va leksik birliklarida voqelanadi. Badiiy matnning o'ziga xosligi shundaki, ijobiy bo'yoqdor leksema obrazli matnda salbiy bahoga xizmat qilishi mumkin. Agar semantik bahoni kontekstda oladigan bo'lsak, Oltinli qo'ng'izni bolalar ushlabshib, Ip bilan ko'klarga uchirib o'ynaylar misrasidagi bolalar, ko'k, uchirmoq, o'ynamoq leksemalari kontekstdan tashqarida salbiy baho tashimaydi, biroq she'riy matnda qiyoslash yo'li bilan qullikning aksilqadriyat sifatidagi bahosiga xizmat qiladi.

Shuningdek, shoir badiiy aksiologik olamida qullikning okkazonal sinonimi, konnotativ ma'nodagi tutqun konseptiga murojaat qilishi ham kuzatiladi:

Mangu tutqunlikka kirdimi o'lka?

Xayolda porlagan shamlarni so'ndi?

Ushbu parchada tutqunlikning "asirlik" ma'nosidagi yadrosi o'lka va kirmoq leksemalari bilan birgalikda metaforik mazmun kasb etadi, xayol, porlagan shamlar - erkinlikning metaforik talqini, ya'ni domen manbadagi sifatarning maqsad sohasiga proyeksiya qilinishi ro'y beradi, natijada, implitsit tarzda aksiologik baho bilan yo'g'rilgan yurtning mustamlakachilik balosiga girftor bo'lganligi hamda erkinlik haqidagi orzularning puchga chiqqanligi haqidagi fikr verballashadi.

Cho'lpon she'riyatida erkin-qul aksiologemasining talqiniga bag'ishlangan bandda badiiy matnning tabiatan aksiologiklik - baholovchilik xususiyati hamda undagi aksiologik dominantalar tadqiq qilindi.

3. Grice, H. P. *Logic and Conversation*. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and Semantics* (Vol. 3, pp. 41-58). Academic Press, 1975.
4. Hofstede, G. *Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations*. Sage Publications, 2001.
5. Jakobson, R. "Closing Statement: Linguistics and Poetics." In T. A. Sebeok (Ed.), *Style in Language* (pp. 350-377). MIT Press, 1960.
6. Langacker, R. W. *Foundations of Cognitive Grammar: Volume I: Theoretical Prerequisites*. Stanford University Press, 1987.

7. Lyons, J. *Semantics* (Vols. 1-2). Cambridge University Press, 1977.
8. Mey, J. L. *Pragmatics: An Introduction*. Blackwell Publishing, 2001.
9. Searle, J. R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge University Press, 1969.
10. Saussure, F. de. *Course in General Linguistics* (C. Bally & A. Sechehaye, Eds., W. Baskin, Trans.). 1916.



Nargiza YULDASHEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, PhD

PhD F.Jalolova taqrizi asosida

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA QO'SHMA OTLARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot zamonaviy tilshunoslikda qo'shma otlarning lingvopragmatik xususiyatlarini chuqur o'rganishga bag'ishlangan. Qo'shma otlar, ikki yoki undan ortiq so'zlarning birlashmasi sifatida, nutqiy muloqotda ko'plab ma'nolarni ifodalash va kontekstual ahamiyatni oshirish imkonini beradi. Tadqiqot davomida qo'shma otlarning muloqotdagi roli, kontekstual ma'nolari va o'zaro munosabatlardagi ahamiyati tahlil qilinadi. Lingvopragmatika nuqtai nazaridan, qo'shma otlar kommunikativ vaziyatlarga mos ravishda qanday ishlatilishi, pragmatik maqsadlar va nutqiy strategiyalar qanday amalga oshirilishi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot metodologiyasi nutqiy materiallar, anketalar, intervyular yoki til korpuslaridan foydalanish kabi usullarni o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqot natijalari til o'rganish jarayonida qo'shma otlarning ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi va muloqotda samaradorlikni oshirish uchun amaliy tavsiyalar taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, lingvopragmatika, qo'shma otlar, umumiy xususiyatlar, lingvistika.

LINGUOPRAGMATIC CHARACTERISTICS OF COMPOUND NOUNS IN MODERN LINGUISTICS

Annotation

This study is devoted to the in-depth study of the linguo-pragmatic properties of compound nouns in modern linguistics. Compound nouns, as a combination of two or more words, can express multiple meanings and increase contextual significance in speech communication. During the study, the role of compound nouns in communication, their contextual meanings and their importance in interactions are analyzed. From the point of view of linguo-pragmatics, how compound nouns are used in relation to communicative situations, pragmatic purposes and speech strategies are considered. Research methodology includes methods such as using spoken materials, questionnaires, interviews or language corpora. The results of this study shed light on the importance of compound nouns in the language learning process and provide practical recommendations for improving communication efficiency.

Key words: Linguistics, linguo-pragmatics, compound nouns, common features, linguistics.

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СЛОЖНЫХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

Данное исследование посвящено углубленному изучению лингвопрагматических свойств сложных имен существительных в современном языкознании. Сложные существительные, представляющие собой комбинацию двух или более слов, могут выражать несколько значений и повышать контекстуальную значимость в речевом общении. В ходе исследования анализируется роль сложных существительных в общении, их контекстуальные значения и значение во взаимодействиях. С точки зрения лингвопрагматики рассматриваются способы употребления сложных существительных применительно к коммуникативным ситуациям, прагматическим целям и речевым стратегиям. Методология исследования включает такие методы, как использование устных материалов, анкет, интервью или языковых корпусов. Результаты этого исследования проливают свет на важность сложных существительных в процессе изучения языка и дают практические рекомендации по повышению эффективности общения.

Ключевые слова: Языкознание, лингвопрагматика, сложные существительные, общие признаки, лингвистика.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda qo'shma otlar (kompleks nomlar) tilning murakkab strukturasi va semantik ko'lamini aks ettiruvchi muhim elementlardir. Ular bitta yoki bir nechta otlarning birikmasi bo'lib, yangi ma'no va kontekst yaratadi. Qo'shma otlar, ko'pincha, ikki yoki undan ortiq komponentdan tashkil topib, birgalikda ishlatishda turli semantik qatlamlar yaratishga imkon beradi. Bu jarayon tilning dinamik tabiatini namoyon etadi, chunki qo'shma otlar doimo yangi kontekstlar va vaziyatlarga mos ravishda rivojlanadi va o'zgaradi.

Qo'shma otlar tilning kommunikativ jihatlarini belgilab berishda va ko'plab ma'lumotlarni samarali tarzda uzatishda muhim rol o'ynaydi. Ular muloqotda aniq ma'lumotlarni taqdim etishda yordam beradi va ko'pincha qisqa, lekin ma'no jihatidan to'liq iboralarni yaratadi. Masalan, "davlat xavfsizligi" yoki "o'qituvchi tayyorlash" kabi iboralar, o'z ichida keng ma'nolarni saqlaydi va muloqotda murakkab tushunchalarni oddiy va tushunarli shaklda ifodalash imkonini beradi.

Lingvopragmatik nuqtai nazardan, qo'shma otlarning ishlatilishi til munosabatlarining ko'lamini kengaytiradi va muloqotda nuqtai nazar, hissiyotlar va ijtimoiy kontekstni ifodalashda xizmat qiladi. Ular kommunikativ vaziyatlarga qarab, ma'nolarini o'zgartirishi va kontekstga moslashishi mumkin. Masalan, "sahna ortidagi ishlar" iborasi faqat badiiy faoliyat bilan bog'liq bo'lishi bilan birga, o'z ichida ijtimoiy va madaniy jarayonlarni ham aks ettiradi.

Shuningdek, qo'shma otlarning muloqotdagi roli, tilshunoslik, psixologiya va madaniyatshunoslik sohasida o'zaro aloqalar o'rganilishini taqozo etadi. Ular til va ijtimoiy muloqot o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Misol uchun, "do'stlik ko'prigi" ifodasi do'stlik va muloqotning ahamiyatini ta'kidlaydi, bu esa ijtimoiy aloqalarning mohiyatini o'rganishda muhimdir.

Ushbu tadqiqot, qo'shma otlarning lingvopragmatik xususiyatlarini chuqurroq o'rganishga qaratilgan bo'lib, ularning til va ijtimoiy kontekstdagi roli hamda ahamiyatini yoritadi. Buning natijasida, tilshunoslik doirasida qo'shma otlarning o'rni va ahamiyatini yanada chuqurroq tushunish imkoniyati yaratiladi. Tadqiqot natijalari tilshunoslikda yangi fikrlar va yondashuvlarni keltirib chiqarishga, shuningdek, qo'shma otlarning keng tarqalgan ishlatilishini va ularga bo'lgan e'tiborni oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qo'shma otlar tilshunoslikda keng o'rganilgan bo'lib, turli tadqiqotchilar ularning strukturaviy, semantik va pragmatik jihatlarini tahlil qilgan.

1. Strukturaviy xususiyatlar

A. Karimova (2020) o'zining "Qo'shma otlar va ularning tilshunoslikdagi o'rni" maqolasida qo'shma otlarning morfologik va sintaktik jihatlarini tahlil etadi. U qo'shma otlar turli otlardan tashkil topib, yangi ma'no yaratishini ko'rsatadi. Masalan, "kitob do'koni" ifodasi ikki otlarning birikmasidan kelib chiqib, do'konning maqsadini aniqlaydi. Qo'shma otlar ko'pincha ikki yoki undan ortiq komponentdan iborat bo'lib, ularning har biri ma'lum bir semantik vazifani bajaradi.

2. Semantik xususiyatlar

B. A. Rahmonova (2021) "Zamonaviy o'zbek tilida qo'shma otlar" nomli dissertatsiya ishida qo'shma otlarning semantik xususiyatlarini o'rganadi. U qo'shma otlarning yangi ma'no va hissiyotlar yaratishida qanday rol o'ynashini tahlil qiladi. Qo'shma

otlar, masalan, "dostlik ko'prigi" kabi iboralar orqali ijtimoiy munosabatlari va hissiyotlari ifodalashda samarali vosita bo'ladi.

3. Lingvopragmatik jihatlar

S. Murodov (2019) "Lingvopragmatika: nazariy asoslar va amaliyot" asarida qo'shma otlarning pragmatik ahamiyatini o'rganadi. Uning fikricha, qo'shma otlar til va muloqot jarayonida kommunikativ vaziyatlarda ma'lumot uzatishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, "oila qo'shig'i" ifodasi, faqatgina ma'lumotni uzatish bilan cheklanmay, balki oila tushunchasiga bo'lgan hissiy munosabatni ham aks ettiradi. Qo'shma otlar ijtimoiy kontekstga mos keladigan ma'nolari shakllantirishi, ularning pragmatik xususiyatlarini yanada oshiradi.

4. Madaniyat va lingvopragmatika

Yana bir muhim jihat – qo'shma otlarning madaniyatshunoslikdagi roli. Qo'shma otlar, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqani ochib berish orqali, xalqning mentaliteti va qadriyatlarini ifodalashda yordam beradi. E. Rahmonova (2021) tadqiqotida madaniy kontekstda qo'shma otlar qanday ishlatilishini va ularning muloqotdagi o'rni tahlil etadi. Masalan, "bahor bayrami" kabi ifodalar xalq an'analari va madaniyati bilan bog'liq bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy vaziyatda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda qo'shma otlarning lingvopragmatik xususiyatlarini o'rganish maqsadida bir nechta metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Avvalambor, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish jarayoni o'tkazildi. Qo'shma otlar va ularning pragmatik xususiyatlari bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, maqolalar va dissertatsiyalar o'rganildi. Bu jarayon tadqiqotning nazariy asoslarini belgilashga yordam berdi.

Shuningdek, korpus tahlili usuli qo'llanildi. O'zbek tilidagi qo'shma otlar va ularning ishlatilishini aniqlash maqsadida turli manbalardan (matbuot, adabiyot, onlayn resurslar) olingan yozma nutq materiallari tahlil qilindi. Bu usul, qo'shma otlarning real kommunikativ kontekstda qanday ishlatilishini ochib berdi.

Tadqiqot davomida eksperiment va anketalar ham o'tkazildi. Ijtimoiy va madaniy kontekstda qo'shma otlarning qabul qilinishi va ularning ma'nolarini tushunish uchun respondentlar orasida anketalar o'tkazildi. Bu metod lingvopragmatik jihatlarni aniqlashda muhim rol o'ynadi.

Bundan tashqari, lingvistik ekspertlar va tilshunolar bilan suhbatlar o'tkazilib, ularning qo'shma otlar haqidagi fikrlari va tajribalari to'plandi. Bu usul tadqiqotning amaliy ahamiyatini oshirdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar tahlil qilindi va bir nechta muhim natijalar keltirildi. Birinchidan, qo'shma otlarning struktural xususiyatlari o'rganildi. O'rganilgan materiallar natijasida qo'shma otlarning turli morfologik va sintaktik strukturalari aniqlanib, ularning birikma shakllari va ma'no o'zgarishlari tasvirlandi. Masalan, "ta'lim muassasasi" ifodasi

ta'lim sohasidagi muhim joyni anglatadi va bu qo'shma ot ma'lum bir kontekstdagi semantik ahamiyatini oshiradi.

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qo'shma otlar kommunikativ jarayonlarda muhim rol o'ynaydi. Ular muloqotda his-tuyg'ularni ifodalash, ma'lumot uzatish va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda samarali vositalardir. Misol uchun, "dostlik poydevori" kabi ifodalar ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Uchinchidan, tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat shundaki, qo'shma otlar madaniy kontekstga bog'liq ravishda o'zgaradi. Ular xalqning mentaliteti va qadriyatlarini aks ettirish orqali kommunikativ vaziyatlarda qo'shimcha ma'no va kontekst yaratadi. Bu jihat qo'shma otlarning madaniyat va til o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi.

So'nggi natija shuni ko'rsatdiki, qo'shma otlarning semantik va pragmatik jihatlarini tilshunoslik va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytiradi. Bu, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari zamonaviy tilshunoslikda qo'shma otlarning lingvopragmatik xususiyatlarini o'rganishning muhimligini ko'rsatadi. Qo'shma otlar tilning murakkab va ko'p qirrali qirralarini ifodalashda samarali vosita bo'lib, ularning o'rganilishi til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurlashtiradi. Tadqiqot natijalari kelgusida qo'shma otlar va ularning pragmatik jihatlarini o'rganish uchun yangi yo'nalishlar ochish imkonini beradi.

Xulosa. Shunday qilib, zamonaviy tilshunoslikda qo'shma otlarning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinishi, til va muloqot jarayonida ularning ahamiyatini ochib beradi. Qo'shma otlar, nafaqat tilning struktural jihatlarini, balki uning kommunikativ va madaniy funksiyalarini ham o'rganishga yo'naltirilgan. Ular muloqotda ma'lumot almashish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va muayyan hissiyotlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Qo'shma otlarning lingvopragmatik xususiyatlarini o'rganish orqali, tilshunoslikning yangi qirralarini kashf etish imkoniyati yaratiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qo'shma otlar faqat tilning morfologik va sintaktik jihatlariga bog'liq bo'lib qolmay, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda ham muhim ahamiyatga ega. Ularning semantik qatlamlari va pragmatik funksiyalari tilshunoslik, madaniyatshunoslik va ijtimoiy psixologiya o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurlashtiradi. Shuningdek, qo'shma otlar, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ochib berib, xalqning mentaliteti va qadriyatlarini aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot davomida olingan natijalar zamonaviy tilshunoslikda qo'shma otlarning o'rni va ahamiyatini aniqlab berdi va kelgusi tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlar ochdi. Shunday qilib, qo'shma otlar tilshunoslik va lingvopragmatika sohasida davom etadigan tadqiqotlar uchun qiziqarli va dolzarb obyekt bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Davlatov R. (2022). Semantika va pragmatika: o'zaro aloqalar. til va adabiyot.
2. Isakov T. (2023). O'zbek tilida qo'shma otlar: struktura va ishlatilish. tilshunoslik tadqiqotlari.
3. Karimova A. (2020). Qo'shma otlar va ularning tilshunoslikdagi o'rni. o'zbek tilshunosligi jurnali.
4. Mamatqulova, F. (2023). Madaniyat va til: o'zaro bog'liqlik. madaniyatshunoslik masalalari.
5. Murodov S. (2019). Lingvopragmatika: nazariy asoslar va amaliyot. tilshunoslik va madaniyat.
6. Rahmonova E. (2021). Zamonaviy o'zbek tilida qo'shma otlar. dissertatsiya.
7. Yuldasheva N. (2022). Linguocultural characteristics of compound nouns representing customs and ceremonies in english and uzbek. journal of pharmaceutical negative results, 1830-1832.



Aziza YUNUSOVA,
Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: a.a.yunusova@buxdu.uz

BDU dotsenti, PhD N.Qobilova taqrizi asosida

LISONIY SHAXS NAZARIYASIGA ZAMONAVIY QARASHLAR

Annotatsiya

Ushbu maqola zamonaviy tilshunoslikda lisoniy shaxs tushunchasini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda Yu.N.Karaulov, V.I.Karasik, A.V.Puzirev, O.A.Leontovich va boshqa tilshunos olimlarning lisoniy shaxsning tuzilishi va darajalari haqidagi qarashlari keltirilgan. Maqolada lisoniy shaxsning kognitiv, qadriyat va xulq-atvor jihatlari, shuningdek, uning madaniyatlararo muloqot bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Lisoniy shaxs til, shaxs va madaniyatning o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi ko'p bosqichli va ko'p komponentli kategoriya ekanligi haqidagi g'oyaga alohida e'tibor beriladi.

Kalit so'zlar: Lisoniy shaxs, antroposentrizm, zamonaviy diskurs, tilshunoslik, konsept.

СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ТЕОРИЮ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ

Аннотация

Данная статья посвящена изучению концепции языковой личности в современной лингвистике. Рассматриваются взгляды таких ученых, как Ю.Н. Караулов, В.И. Карасик, А.В. Пузырев, и О.А. Леонтович и других на структуру и уровни языковой личности. В работе анализируются когнитивные, ценностные и поведенческие аспекты языковой личности, а также её связь с межкультурной коммуникацией. Особое внимание уделяется идее, что языковая личность является многоуровневой и многокомпонентной категорией, отражающей взаимодействие языка, личности и культуры.

Ключевые слова: Языковая личность, антропоцентризм, современный дискурс, языкознание, концепт.

CONTEMPORARY PERSPECTIVES ON THE THEORY OF LINGUISTIC PERSONALITY

Annotation

The article explores the concept of linguistic personality in modern linguistics, examining the views of scholars such as Y.N.Karaulov, V.I.Karasik, A.V.Puzirev, and O.A.Leontovich and the others on the structure and levels of linguistic personality. The study analyzes the cognitive, value-based, and behavioral aspects of linguistic personality and its connection to intercultural communication. Special attention is given to the idea that linguistic personality is a multi-level and multi-component category, reflecting the interaction between language, personality, and culture.

Key words: Linguistic personality, anthropocentrism, modern discourse, linguistics, concept.

Kirish. Lisoniy shaxs konsepsiyasining shakllanishi 20-asrning oxirida, ya'ni bu atama faol qo'llanilishni boshlaganda va bu hodisaning o'zi chuqur gumanitar tadqiqotlar mavzusiga aylanganda sodir bo'ldi. Aynan shu davrda tilshunoslikda til va insonning o'zaro ta'sirini o'rganishga qaratilgan ko'plab ilmiy maktablar va nazariyalar paydo bo'ldi. Shu bilan birga, lisoniy shaxs lingvistik tahlilning muhim ob'jektiga aylandi.

Zamonaviy tilshunoslik diskursida lisoniy shaxs (LSH) mavzusi dolzarb mavzulardan hisoblanib, globallashuv, madaniyatlararo kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarning zamonaviy rivojlanishi LSH tushunchasini ta'lim, psixologiya va ijtimoiy sohlar uchun yanada ahamiyatli qiladi. Bundan tashqari, antroposentrik lingvistik paradigmadagi LSH tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi, zero, insonni uning tilidan (lisonidan) tashqarida o'rganib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan, lingvistik shaxs tahlili ham nazariy, ham amaliy jihatlarida ayniqsa dolzarb bo'lib qoladi [8].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Lisoniy shaxs nazariyasining paydo bo'lishi tarixiga nazar soladigan bo'lsak, 19-asrda V. fon Gumboldtning lingvistik bilimlarida LSH nazariyasi alohida o'rin tutadi (Gumboldt). Shuningdek, har bir shaxsning til dunyosi xarakterining o'ziga xosligini I.A.Boduyen de Kurtenega ham ta'kidlagan. Mashhur tilshunos psixologiya tilshunoslikning ajralmas qismi ekanligini aytdi: "Inson tilining mohiyati faqat aqliydir (psixik). Tilning mavjudligi va rivojlanishi aqliy (psixik) qonuniyatlar bilan belgilanadi. Inson nutqida bir vaqtning o'zida aqliy bo'lmaydigan biron bir hodisa yo'q va bo'lishi ham mumkin emas".

I.A.Boduyen de Kurtenening g'oyalarini 20-asr boshida yirik rus tilshunosi, akademik A.A.Shaxmatov rivojlantirgan. 20-asrning ikkinchi yarmida akademik V.V.Vinogradovning tadqiqotlarida LSH atamasi milliy tilni, nutqni va nutq sub'yektini qamrab oladi. 60-yillarda, V.V.Vinogradov bilan bir vaqtning o'zida LSH tushunchasini aniqlashga nemis tilshunosi J.L.Vaysgerber ham kirishadi. Shu o'rinda 20-21 asrlarda LSH nazariyasi bo'yicha yetakchi tilshunoslardan Yu.N.Karaulov o'zining «Russkiy yazik i yazikovaya lichnost» asarida lisoniy shaxs tushunchasini keng ilmiy qo'llashga kiritdi. U

falsafiy-psixologik jihatlarni hisobga olgan holda o'ziga xos LSH modelini taklif qildi.

Shuningdek, LSH konsepti bo'yicha professor V.A.Maslova, V.I.Karasik va ko'pgina boshqa olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada hozirgi davr tilshunosligida lisoniy shaxs nazariyasi muhokama qilinadi. Ushbu tushunchaning mohiyati va tuzilishi tavsiflanadi.

Turli tilshunos olimlarning qarashlari va fikrlari o'rganildi va solishtirildi. Ilmiy adabiyotlar va nazariy manbalar tahlil qilindi. Zamonaviy olimlar tomonidan taqdim etilgan asosiy tushunchalar, yondashuvlar va ta'riflarni aniqlandi.

Tahlil va natijalar. Lisoniy shaxs tushunchasini ilmiy muomalaga Yu.N.Karaulov kiritib, u falsafiy va psixologik jihatlarni hisobga olgan holda o'zining LSH modelini taklif qildi. Olimning fikricha, lisoniy shaxs – strukturaviy va lingvistik murakkabligi, voqelikni aks ettirishning chuqurligi va aniqligi bilan farq qiluvchi matnlarni yaratish va idrok etishga qodir, shuningdek, aniq maqsadli yo'nalishga ega bo'lgan shaxsdir [8].

Karaulov tilning semantik va pragmatik tahliliga asoslangan lisoniy shaxsning uch darajali tuzilishini aniqladi:

1. Og'zaki-semantik daraja (shaxsning so'z boyligini tavsiflaydi);
2. Lingvistik-kognitiv daraja (shaxs tezaurusi va dunyo haqidagi bilimlar tizimi);
3. Motivasion daraja (nutq faoliyati bilan bog'liq maqsadlar, motivlar va pragmatik munosabatlarni aks ettiradi) [1].

Yu.N.Karaulovning fikricha, og'zaki-semantik belgilar tabiiy og'zaki muloqotda qo'llaniladigan butun so'z boyligi asosida shakllanadi. Lingvistik-kognitiv daraja intellektual faoliyat va fikrlash jarayonlari bilan bog'liq, motivasion daraja esa muloqotning maqsad va vazifalari bilan belgilanadi. Shunday qilib, motivasion, tezaurus va og'zaki-semantik darajalar semantik idrok etishning uchta darajasiga to'g'ri keladi: motivatsiya, shakllantiruvchi va amalga oshirish [7].

Motivasion daraja situasion-kontekst signallari va motivatsiyani birlashtiradi, shakllantiruvchi daraja o'zaro bog'liq bo'lgan to'rtta bosqichni o'z ichiga oladi:

- 1) semantik prognozlash;
- 2) og'zaki taqqoslash;
- 3) semantik aloqalarni o'rnatish;
- 4) ma'noni shakllantirish. Nihoyat, amalga oshirish darajasi umumiy ma'noga asoslangan javob nutqi harakatining niyatini shakllantiradi [1].

Til shaxsi konsepsiyasini ishlab chiqayotib, muallif bu milliy tilni tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi va til shaxsi tuzilishi prizmasi orqali til haqidagi bilimlarning yangi sinteziga erishishga imkon beradi. Yu.N.Karaulov lisoniy shaxsni matnlarni yaratish va idrok etishga ta'sir etuvchi inson qobiliyatlarini va xususiyatlarini majmui sifatida belgilaydi:

- a) tarkibiy va lingvistik murakkablik;
- b) voqelikni aks ettirishning chuqurligi va aniqligi;
- v) maqsadlilik [1].

Til haqidagi zamonaviy g'oyalar, Karaulovning fikriga ko'ra, uning to'rtta asosiy xususiyatiga asoslanadi: tarixiy rivojlanish, aqliy tabiat, tizimli-strukturaviy asoslar va uning paydo bo'lishi va qo'llanilishining ijtimoiy jihatdan aniqlangan tabiati [1].

Lisoniy shaxs tushunchasini anglashda prof. A.V. Puzirev Yu.N. Karaulovning ushbu konsepsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash bo'yicha fikrlariga qo'shiladi. Bu borada tilshunos olim I.A.Boduen de Kurtenening g'oyalariga tayanadi: "haqiqiy qadriyat insondan ajralgan lison emas, balki lingvistik tafakkurning tashuvchisi sifatidagi insondir"[3]. Tilda gapiradigan, real matnlarni yaratuvchi va idrok etuvchi, turli kommunikativ oqimlarga kiruvchi fikrovchi shaxs bilan bir qatorda A.V.Puzirev lisoniy shaxsning beshinchi rolini, ya'ni - "tildan foydalanish psixofiziologik jarayonlar (psixofiziologik shaxs) shaklida yuzaga keladigan shaxs" ni aniqlashni taklif qiladi [6].

Til va lisoniy shaxs o'rtasidagi munosabatni shuningdek prof. L.P.Klobukova ham tadqiq qiladi. Uning fikricha, lisoniy shaxs konsepti, umuman olganda, kategoriyaviy apparatning yetarli emasligi bilan ajralib turadi va olim lisoniy shaxs atamasini nutqiy shaxs bilan bog'liq holda ishlab chiqishni talab qiladi. Bunday holatda, har qanday lisoniy shaxs nutqiy shaxslarning ko'p bosqichli va ko'p komponentli paradigmasini ifodalaydi [5]. Boshqacha qilib aytganda, alohida lisoniy shaxs ko'plab nutqiy shaxslarda amalga oshirilishi mumkin.

Lingvokulturologiya nuqtai nazaridan lisoniy shaxs mazmunining boshqa variantlari taqdim etiladi. Masalan, prof.

V.A.Maslovaning fikricha, lisoniy shaxs – nutqiy shaxslarning ko'p qatlamli va ko'p komponentli paradigmasidir. Shu bilan birga, nutqiy shaxs – real muloqot paradigmasidagi va faoliyatdagi lisoniy shaxsdir [7].

Volgograd maktabi vakili prof. V.I. Karasik lisoniy shaxsni lingvistik konseptologiya va diskurs nazariyasi nuqtai nazaridan tavsiflaydi va lingvistik shaxsni o'rganishning uchta jihatini belgilaydi: kognitiv, qadriyat, xulq-atvor:

- Kognitiv jihat voqelikni talqin qilishning sub'yektiv-substantiv va kategorik-formal usullari, ona tilida so'zlashuvchining dunyo va tilning o'zi haqidagi bilimlari bilan tavsiflanadi.
- Qadriyat jihat muayyan etnik guruhga xos bo'lgan xulq-atvorning axloqiy va utilitar me'yorlari bilan belgilanadi.
- Xulq-atvor jihat nutqning va paralingvistik aloqa vositalarining qasddan/bexosdan xarakteristikalarini belgilaydi, ular motivlar, maqsadlar, strategiyalar va ularni muloqotda amalga oshirish usullarini o'z ichiga oladi [2].

Olimning hamkasbi prof. O.A.Leontovich lisoniy shaxsni ta'riflashda madaniyatlararo aloqa nazariyasi tamoyillaridan kelib chiqadi va uni "madaniy jihatdan aniqlangan mentalitetga, dunyoning rasmiga va qadriyatlar tizimiga ega bo'lgan, ma'lum bir kognitiv munosabatlarga rioya qiladigan milliy o'ziga xos kommunikativ turi" deb talqin qiladi [4]. Ushbu yondashuv tilni kodning bir turi, ya'ni, ma'noni bir kommunikatoridan ikkinchisiga o'tkazish vositasi sifatida ko'rib chiqadi.

Madaniyatlararo muloqot jarayonlarida ishtirok etgan lisoniy shaxs o'z mentalitetidan foydalanadi, o'zining kommunikativ faoliyatini milliy madaniy xususiyatlarga mos ravishda quradi, atrofda dunyoni o'zining dunyo tasviri prizmasi orqali idrok etadi. Kommunikantlar bir-biriga qarab harakat qilganlarida madaniyatlararo lisoniy shaxs tug'iladi [4].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, lisoniy shaxs tushunchasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, u ko'p bosqichli va ko'p komponentli kategoriya bo'lib, nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, madaniyatshunoslik va madaniyatlararo muloqot kabi fanlararo sohalar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Boduen da Kurtene, Yu.N.Karaulov, A.V.Puzirev, V.I.Karasik va O.A.Leontovich kabi turli olimlar lisoniy shaxsni tahlil qilishning modellari va jihatlarini taklif qiladi, uning kognitiv, qiymat va xulq-atvor elementlarini ta'kidlaydi. Binobarin, til nafaqat muloqot vositasi, balki insonni, uning dunyoqarashini, madaniy xususiyatlarini tushunishning kaliti sifatida ham ko'riladi.

ADABIYOTLAR

1. Караулов, Ю.Н. Русский язык и языковая личность / Ю.Н. Караулов. - М.: ЛКИ, 2010.
2. Карасик, В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс / В.И. Карасик. - Волгоград: Перемена, 2002.
3. Бодуэн де Куртенэ, И.А. Избранные труды по общему языкознанию: в 2 т. / И.А. Бодуэн де Куртенэ. - М.: Издательство АН СССР, 1963. - Т.1.
4. Леонтович, О.А. Русские и американцы: парадоксы межкультурного общения / О.А. Леонтович. - М.: Гнозис, 2005.
5. Клобукова, Л.П. Феномен языковой личности в свете лингводидактики. //Л.П. Клобукова//Язык, сознание, коммуникация. - М.: Издательство Диалог-МГУ, 1997.
6. Пузырев, А.В. О системном подходе в лингвистике: учебное пособие для студентов филологических специальностей/А.В. Пузырев. - М.: ВНИИГеоСИСТЕМ, 2014.
7. Yunusova A. Современные подходы к теории языковой личности и сущности дискурса. Центр Научных Публикаций (buxdu. Uz), 40 (40) //Центр Научных. – 2023.
8. Yunusova A. Lisoniy shaxs nazariyasi va diskurs mohiyatiga zamonaviy yondashuvlar //Центр Научных Публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 40. – №. 40.
9. Yunusova A. Speech acts in literary discourse //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2024. – Т. 46. – №. 46.



UDK:81373.7:811.1:811.512.133

Muhabbat YARASHOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail: yarashovamuhabbat@gmail.com
Muxtasar ABDULLAYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti

TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti katta o‘qituvchisi, PhD K.Alautdinova taqrizi asosida

PHRASEOLOGICAL UNITS WITH ANIMAL AND PROFESSION COMPONENTS IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY WORKS

Annotation

This article analyzes phraseological units, the study of phraseological units in English and Uzbek languages, and the use of phraseological units in both languages in artistic works. Phraseological units that are common in Uzbek and English language works are considered within the framework of different topics. Phraseological units serve to increase not only speech, but also artistic works. The scientific advantage of the article is that it shows a thematic table of phraseological units in various works. As a result of the analysis, the meanings of phraseological units and their meaning in which places are determined.

Key words: Phraseological unit, phraseology of artistic style, semantic integrity, portable meaning, phraseological units related to profession, phraseological units with an animal component.

ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ С КОМПОНЕНТАМИ ЖИВОТНОГО И ПРОФЕССИИ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация

В данной статье анализируются фразеологизмы, исследование фразеологизмов английского и узбекского языков, а также использование фразеологизмов обоих языков в художественных произведениях. В рамках различных тем рассматриваются фразеологизмы, распространенные в узбекских и англоязычных произведениях. Фразеологизмы служат для увеличения не только речи, но и художественных произведений. Научное достоинство статьи состоит в том, что в ней приведена тематическая таблица фразеологизмов в различных произведениях. В результате анализа определяются значения фразеологизмов и в каких местах какое значение определяется.

Ключевые слова: Фразеологизм, фразеология художественного стиля, смысловая целостность, мобильная метафора, фразеологизмы, связанные с профессией, фразеологизмы с животным компонентом.

INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIY ASARLARIDA HAYVON VA KASB KOMPLEMENTLI FRAZEOLGIK BIRLIKLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada frazeologik birliklar, frazeologik birliklarning ingliz va o‘zbek tillarida o‘rganilishi, ikki tilda ham frazeologik birliklarning badiiy asarlarda ishlatilish holatlari tahlil qilinadi. O‘zbek va ingliz tillaridagi badiiy asarlarda ko‘p uchraydigan frazeologik birliklar turli mavzular doirasida ko‘rib chiqiladi. Frazeologik birliklar nafaqat nutqni, balki badiiy asarlarning ham bo‘yoqdorlik xususiyatini oshirishga xizmat qiladi. Maqolaning ilmiy afzalligi shundaki, turli asarlardagi frazeologik birliklarning mavzulashtirilgan jadvalini ko‘rsatib beradi. Tahlil natijasida frazeologik birliklarning ma‘nolari va qaysi o‘rinlarda qanday ma‘no anglatilishi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Frazeologik birlik, badiiy uslub frazeologiyasi, semantik yaxlitlik, ko‘chma ma‘nolilik, kasbga oid frazeologizmlar, hayvon komponentli frazeologik birliklar.

Introduction. The study of phraseological units has become an essential part of phraseology and linguistics. A phraseological unit refers to a fixed expression made up of multiple words that cannot be spontaneously created in conversation but is instead used as a pre-existing, ready-made expression. Its meaning cannot be derived simply by analyzing the individual meanings of the words that make it up. Phraseological units, often referred to as idioms, collocations, or fixed expressions, offer several benefits in language use and communication. It helps to enhance expressiveness, naturalness in speech and it assists to improve comprehension, clarifies contextual meaning. This article serves to the development of the phraseological units in linguistics.

The theoretical background of the study consists of the works written by foreign scientists and Uzbek linguists on these topics such as “O‘zbek tili frazeologiyasining ba‘zi masalalari” by Sh.Rakhmatullayev [1], “Fraseologiya sovremennogo angliyskogo yazika” by A.Koonin [2], “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” by Sh.Rakhmatullayev [3].

Literature review. Like other fields of linguistics, phraseology also has its own stages of formation and development. Although phraseological units have very ancient origin, the field of phraseology itself encompasses almost two hundred years [4]. The founder of the field of phraseology is the Swiss scholar Charles Belly. In his work “French stylistics” (1909), he included special sections


that study word combinations, that is phraseological units. Ferdinand de Saussure expressed his views on the syntagma and its characteristics. Moreover, R.S.Ginzburg, N.N.Amosova, L.P.Smith, A.Mackay, A.V.Kunin and other russian, english linguists have contributed to phraseology. Uzbek linguists like Sh. Rakhmatullayev, G.A.Bayramov, G.X.Axunzyakov, A.E.Mamatov conducted research for their doctoral dissertation dedicated for the study of phraseologisms.

A.V.Kunin defines phraseological unit as a combination of words that completely or partially change their meanings. Hence, character, stability, and the changing meaning of words in a combination above the word level, along with other language units, are the criteria for phraseological units, which determine their particular position in the language structure [5].

According to V.V.Vinogradov phraseological units are expressions where the meaning of one element is dependent on the other, irrespective of the structure and properties of the unit [6].

Famous phraseologist N.N.Amosova emphasized that “the formation and development of this linguistic field is the result of the research conducted by many phraseological scholars in various languages” [7].

In the study of linguistics, the history of the development of phraseology can be divided into three periods:



Research methodology. This study involves solving three tasks with the help of particular research methods. The first task is to gather phraseological units with the component of animal and job. The other task of this study is to collect common Uzbek and English phraseological units that are used in literary works and making classifying table of them. The last task is to give detailed description for the common phraseological unit in the table.

Analysis and results. Writers mainly use phraseological units for several reasons, as these expressions can enhance their literary works in various ways:

Expressiveness: phraseological units, such as idioms, proverbs, and colloquialisms can convey complex ideas or emotions succinctly and effectively. They often encapsulate cultural meanings and shared experiences that resonate with readers.

Imagery and symbolism: Many phraseological units carry vivid imagery or symbolic meanings that can enrich the text. They allow writers to create strong visual impressions and evoke particular feelings or associations.

Cultural context: incorporating phraseological units can ground a work in a particular culture or time period, providing

authenticity to the dialogue and making it relatable for readers familiar with those expressions.

Humor: many idiomatic expressions lend themselves to humor or irony, allowing writers to infuse their work with levity or cleverness.

Engagement: familiar phrases draw readers in by tapping into their prior knowledge and experiences, creating an immediate connection between the text and its audience.

Phraseological units, regardless of the language or topic, arise from the lifestyle, customs, national culture, emotional experiences depicted in communication. In other words, phraseologisms are linguistic units created by people. Different componential phraseological units can be seen in literary works and in daily life communication. Moreover, linguist A.Mamatov identifies four classifications of Uzbek language phraseologisms based on their formation;

Related to personal activity and psychology;

Related to profession and occupation;

Based on images characteristics of animals;

Related to religion and religious people[8].

Figure 1. Scheme of the English and Uzbek phraseological units with the component of "profession"

	English	Uzbek
1	To drop the pilot	Bo'zchi belbog'ga yolchimas.
2	Too many cooks spoil the broth	Bo'zchining mokisidek qatnamoq
3	Baker's dozen	Echkiga jon qayg'usi, qassobga go'sht qayg'usi
4	Pull devil, pull baker	Karnaychidan bir puf
5	The shoemaker's wife is the worst shod	Kulolsoz mo'ndida suv ichar
6	Shoemaker's stock	Oshpaz ko'paysa, osh sho'r bo'ladi
7	Son of the sea cook	Cho'ponning cho'lig'i bo'lmoq
8	Every cook praises his own broth	Etikdo'z ham poshnaga ham nahalga uradi
9	To swear like a truck driver	Dehqon bo'lsang, shudgor qil Mulla bo'lsang, takror qil
10	To be in the driver's seat	Bilimsiz mulladan ustiga yuk ortilgan eshak yaxshi
11	Fortune hunter	Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin
12	Wet nurse	Kim tabib, boshidan o'tgan tabib
13	The great fisher of souls	Mulla bilganin o'qir
14	Sheep without a shepherd	Otolmagan ovchi yovidan ko'rar
15	The tailor makes the man	Tasbeh ag'darganning bari mulla emas
16	Busman's holiday	Ustoz otangdek ulug'
17	Mad as a hatter	Tikkan chevar emas, bichgan- chevar
18	Printer's devil	Uchqundan qo'rqan temirchi bo'lmas
19	White collar worker	Yamoqchining ishini suvoqchi bilmas
20	Shepherd's pie	Bog' jamoli - bog'bondan

The second group is the group of phraseological units with animal component.

Figure 2. Scheme of the phraseological units with the component of "animal"

	English	Meaning	Uzbek	Usage in literary works
1	A wolf in sheep's clothing	Someone who hides malicious intent under the guise of kindness	Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi	
2	The early bird catches the worm	The person who takes the earliest opportunity to do smth will gain the advantage over others	Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi	Bu mushuk tekinga oftobga chiqmaydi. (Said Ahmad)
3	Care killed the cat	Too much worry can cause burden or tension	Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin	
4	Curiosity killed the cat	Being inquisitive about other people's affairs may get you into trouble	Buzoqning yugurgani somonxonagacha	Buzoqning yugurgani somonxonagacha, zirillamaliklar iniga kirib ketdi. (Said Ahmad)
5	Let the cat out of the bag	Reveal a secret carelessly or by mistake	G'unajin ko'zini suzmasa, buqa ipini uzmaydi	
6	When pigs fly	Never happen	Sog'in sigir	Egamberdi, menda bir sog'in sigir bor, shuni ola keting. (Sh.Xolmirzayev)
7	If you sell the cow, you sell her milk	When you sell smth, you sell also the advantages that you had of it	Sigirning suti - og'zida	
8	Bull in a China shop	A person who breaks things that require careful thinking or behaviour	Ko'p maragan sigirning suti oz bo'ladi	
9	You can not teach an old dog new tricks	A person who is old or is used to ding things in a certain way can not learn a new way	Moling bo'lsa zotli, ro'zg'oring ham totli	
10	Raining cats and dogs	Raining heavily	Otning o'limi - itning bayrami	Otning o'limi - itning bayrami. (Abdulla Qahhor)
11	Kill two birds with one stone	Achieve two aims at once	Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko'r	Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko'r. (Abdulla Qahhor)
12	Elephant in the room	A major problem which is obviously present but is avoided as a subject for discussion	Molga bersang soz yemish, boqar seni yozu qish	

Several linguists were analyzed phraseological units with different components, the research findings indicate that phraseological units containing animals name and professions occur more frequently in literary works and daily usage.

Conclusion. The results of research demonstrate that phraseological units are learned and developed in 3 main period that are mentioned above . They are classified into groups, subgroups

according to function, usage by different linguists. The following are the primary groups: functional, structural.

Furthermore, in literature phraseological units are used in order to give clear meaning to the works, in this article the main reasons why writers use phraseological units are given. In addition to this, phraseological units are analyzed with the components "animals", "profession". The meaning and the usage in literary works are also investigated.

REFERENCES

1. Rakhmatullayev Sh. O'zbek tili frazeologiyasining ba'zi masalalari, Toshkent, 1970.
2. Koonin A. Frazeologiya sovremennogo angliyskogo yazika, Moskva, 1978.
3. Rakhmatullayev Sh. O'zbek tili frazeologik lug'ati, Toshkent, 2022.
4. Mamatov A. Frazeologizmlarning shakllanish asoslari, Toshkent, 2000.
5. Bally Ch. French stylistics, 1909.
6. Kunin A. A. Course on modern English phraseology, Moscow: Higher School, 1990.
7. Vinogradov V. Leksikologiya i leksikografiya. M.1977.
8. Amosova N. Osnovi angliyskoy frazeologii - Leningrad: Nauka, 1963.
9. Longman Dictionary of English Idioms. L., 1981
10. Abdulla Qahhor. "O'g'ri" – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. 2002.
11. Oxford Learner's Dictionaries. URL: <https://oxfordlearnersdictionaries.com>
12. Cambridge English Dictionary. URL: <https://dictionary.cambridge.org>
13. Merriam- Webster Dictionary. URL:// www.merriam-webster.com